

D.A. Raximdjanov  
O.K. Ernazarov

# DINSHUNOSLIKKA KIRISH

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

D.A.Raximjanov,  
O.K.Ernazarov

# **DINSHUNOSLIKKA KIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan oliy o'quv yurtlarining 5120600 – Dinshunoslik ta'lim  
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatি» nashriyoti  
TOSHKENT – 2018

**UO'K: 291(075.8)**

**KBK: 86.2**

**R 33**

**Raximdjanov, D.**

**P33 Dinshunoslikka kirish [Matn]: o'quv qo'llanma / D.Raxim-djanov, O.Ernazarov. — Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 304 b.**

**UO'K: 291(075.8)**

**KBK: 86.2**

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lif vazirligining «2016—2017-o'quv yilidan oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish va fanlarning zamonaviy o'quv adabiyoti ta'minotini yaratish maqsadida xorijiy o'quv adabiyotlarini tarjima qiliш» bo'yicha buyrug'i doirasida yaratildi.

Mazkur kitob oliy ta'lif tizimi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, Respublika oliy o'quv yurtlarida «Dinshunoslikka kirish», «Ma'naviyat asoslari», «Dinshunoslik» va «Dunyo dinlari tarixi» fanlarini o'qitishda o'quv qo'llanma, shuningdek, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi hududiy bo'limlari, xotin-qizlar qo'mitalari mas'ullari, mahalla faollari uchun yordamchi qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaninig 6405-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

**Taqrizchilar:**

**N.A. Muxamedov** — O'zXIA «Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rghanish YUNESKO» kafedrasi dotsenti, t.f.n.

**Sh.O. Madayeva** — O'zMU «Falsafa va mantiq» kafedrasi dotsenti, f.f.d.

ISBN 978-9943-5489-5-4

23789/1

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

## KIRISH

Ijtimoiy-ma'naviy hayot, milliy va demokratik taraqqiyotning uyg'unligi, millat va mamlakatning yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi ko'nikma va bilimlariga chambarchas bog'liq. Zero, dinni xolis, ilmiy tadqiq etish, uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida o'rganish uning bugungi holati va din bilan bog'liq masalalarni tizimli tahlil qilish va istiqbolini belgilash imkonini beradi. Dinshunoslik fanini o'rganishga kirishishda sohaga oid asosiy tushunchalar bilan yaqindan tanishish, uning dolzarb muammolaridan boxabar bo'lish dinni o'rganishda to'g'ri yondashuvning shakllanishiga asos bo'ladi.

«Dinshunoslikka kirish» fani bo'lajak dinshunos mutaxassislar uchun mo'ljallangan maxsus kurs bo'lib, unda din bilan bog'liq ma'lumotlarni xolis, ilmiy tahliliy tadqiq etish ko'nikma va malakalari shakllantiriladi. Zero, din dinshunoslik fanining o'rganish obyekti bo'lish bilan birga, har bir kishining e'tiqodi hamdir. E'tiqod masalasiga esa turli din vakillari orasida e'tiroz va norozilik paydo bo'lmasligi uchun hurmat va e'tiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarda din haqida xolis, to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish, turli dinlarning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati, ta'limoti va tarixi haqida umumiyligi ilmiy tushunchalar berishdan iborat. Shuningdek, talabalarda din va uning turli shakllari, ta'limoti, yo'nalishi va oqimlari haqida xolis ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish, vijdon erkinligi talablariga amal qilish mezonlarini to'g'ri belgilash, milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligining o'ziga xos jihatlarini talabalar ongiga singdirishdan iborat.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun talabalarga dinshunoslik fanining dinni o'rganishdagi yondashuvlari, dinshunoslikning sohalari, fanning asoschilarini, dinshunoslikning boshqa sohalar bilan o'zaro aloqalari haqida aniq va atroficha ma'lumot berish

talab etiladi. Bo'lajak dinshunoslar mutaxassislik fanini o'rganishga kirishishdan oldin dinning jamiyat va insonlar ichki dunyosida tutgan o'rni, uni o'rganishda nimalarga e'tiborni qaratish kerakligini bilishlari lozim bo'ladi. Dunyoda mavjud dinlarga xos bo'lgan umumiylar va xususiy jihatlarni tahliliy o'rganish qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo hududida VIII asrdan boshlab islom dini mahalliy xalqlarning asosiy e'tiqodi bo'lib qoldi. Shu sababli ham uning shaxs, oila, jamiyat hayotida tutgan o'rni, o'lka madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shgan hissasi haqida yoshlarni xolis, ilmiy asosdagi ma'lumotlar bilan qurollantirish ularda g'oyaviy immunitetning mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Ushbu fanni o'qitish mobaynida milliy va diniy qadriyatlarining tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlariga uyg'unlashishi, hozirgi mustaqil O'zbekiston sharoitidagi ahamiyati yoritib beriladi. Fanni o'qitishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

«Dinshunoslikka kirish» fanini o'qitish va o'rganishda quyidagilarga alohida e'tiborni qaratish talab etiladi:

- chuqur ilmiylik, tarixiylik, xolislik tamoyillariga amal qilish;
- talabalarning diniy ong darajasini hisobga olish, diniy his-tuyg'ulariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;
- dinni qo'pol ateistik ruhda tanqid qilish yoki diniy va'zonlik qilish, bir dinni ikkinchi dindan ustun qo'yish qonungazid ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik;
- dinshunoslikdan ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida faqat o'quv qo'l lanmadagi ma'lumotlar bilan chegaralanmasdan, balki birlamchi

muqaddas manbalar matnlari yordamida nazariy g'oyalarni asoslab berish;

– talabalarning mazkur fan mazmunini chuqur o'zlashtirishlariga erishish uchun ularda din haqida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, olgan bilimlari asosida muayyan voqeа va hodisalarga ongli ravishda mustaqil fikr bildira olish salohiyatini shakllantirish;

– talabalarda muayyan shaxslarning diniy doiradagi xattiharakatlari davlat qonunlari va vijdon erkinligi tamoyillariga mos yoki mos emasligini aniqlash imkoniyatini shakllantirish;

– mustaqil O'zbekistonda din, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik har bir kishining shaxsiy ishi ekanligini talabalarga tushuntirish;

– din ma'naviyat va madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri ekanligi, uni siyosiyashtirishga yo'l qo'ymaslik lozimligini uqtirish.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning o'zbek xalqining ma'naviy merosi, dini, milliy qadriyatlar haqida bildirgan fikr, g'oya, xulosalari, ta'rif va tavsiflari mustaqil Vatanimizda dinshunoslik fanini o'rganishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Dinshunoslik fan sifatida tiklanishi va uzlksiz ta'lim tizimiga kiritilishi yurtimiz fuqarolariga dinning ilmiylik, tarixiylik, obyektivlik, shaxsiy va ijtimoiy hayot bilan bog'liqlik tomonlarini chuqur idrok etishlari uchun yordam beradi.

Dinshunoslikning asosiy fanlar qatorida o'qitilishi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining sharofatidir. Zero, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosatning o'rnatilishi vijdon erkinligi konstitutsion kafolatlanishining belgisidir. Xalqimizning boy madaniy va ma'naviy merosini tiklash va yangi sharoitda yanada rivojlantirish, bu hududdagi ilk zamondan hozirgacha mavjud bo'lgan dinlar tarixi, diniy tajribalar tadrijiy taraqqiyotini o'rganish talabalarda Vatan tarixini chuqur anglash, uni sevish va u bilan faxlanish his-tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti sharoitida dinshunoslik asoslarini faqat so‘z yordamida o‘qitish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun dasturning mazmunidan kelib chiqib texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, muayyan dinlarning kelib chiqishi tarixi, diniy yo‘nalishlar, mazhablar haqidagi hikoya qiluvchi o‘quv filmlari, slaydlarni namoyish etish, xarita, sxema, fotosurat va boshqa vositalardan foydalanish samarali usullardandir.

O‘z navbatida, mazkur o‘quv qo‘llanma ma’ruzalar matnini tayyorlashda ushbu fan doirasidagi xorijiy adabiyotlardan keng istifoda etildi. Zotan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining «2016–2017-o‘quv yilidan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish va fanlarning zamonaviy o‘quv adabiyoti ta’minotini yaratish maqsadida xorijiy o‘quv adabiyotlarini tarjima qilish» bo‘yicha buyrug‘idan (№ 87-01/1-39, 05.03.2016-y.) kelib chiqib, «Dinshunoslik» ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan «Dinshunoslikka kirish» fani uchun ushbu qo‘llanmani yaratishda samarali foydalanish maqsadida «Introduction to the study of religion» (Edited by Hillary Rodrigues and John S.Harding, – USA, Routledge, 2009. – 177 p., ISBN 13 978-0-415–40888-2) nomli ingliz tilidagi adabiyot tandardi va o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilindi.

O‘quv qo‘llanmada asosiy matn orasiga kiritilgan mazkur xorijiy adabiyot ma’lumotlari kursivda berildi va satr ostida qaysi betdan olinganligi ko‘rsatib o‘tildi.

# 1-mavzu. DINSHUNOSLIK – DINNI O'RGANUVCHI KOM- PLEKS FAN

## Reja:

1. Fanning maqsad va vazifalari.
2. «Dinshunoslikka kirish» fanining obyekti va predmeti.
3. Dinshunoslikning alohida fan sifatida yuzaga kelishi.
4. Dinshunoslik va diniy ta'limga.

**Tayanch tushunchalar:** dinshunos, dinshunoslik maktablari, dinshunoslik sohalari, diniy tasavvur va e'tiqod, din funksiyalari, diniy marosimlar, diniy ta'limga.

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarga fanning predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari, dinshunoslikning alohida fan sifatida yuzaga kelish tarixi hamda dinshunoslik va diniy ta'limga o'rtaida farq va o'xhash jihatlar haqida ma'lumot berish.

**1. Fanning maqsad va vazifalari.** «Dinshunoslikka kirish» fanining maqsadi dinshunos talabalarga dinni har tomonlama ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish uchun asos bo'ladigan zaruriy bilimlarni berishdan iborat. Bo'lajak dinshunos mutaxassis o'z oldida turgan vazifalarni yuqori darajada amalga oshirishi uchun dinning mohiyati va uni taddiq etish usulalarini mukammal bilishi talab etiladi.

Dinni ilmiy taddiq etish, fanni to'la va puxta o'zlashtirish uchun dinshunos quyidagilarga amal qilishi lozim bo'ladi:



Dinshunoslik turli fanlar kesishgan nuqtada paydo bo'ldi

## DINSHUNOS BILISHI LOZIM:

dinni o'rganishdagi yondashuvlar

Sharq va G'arbdagi dinshunoslik maktablari

dinshunoslikning sohalari

fanning asoschilari va asarlari

dinshunoslikning boshqa fan sohalari bilan bog'liqligi

dinning jamiyat va inson ichki dunyosida tutgan o'rni

Dinshunoslikda dinga «Dinning o'zi nima?», «Uning mohiyati nimadan iborat?» degan savol nuqtayi nazaridan yondashishdan tashqari «Din qay tarzda faoliyat olib boradi?» degan savol nuqtayi nazaridan ham yondashuv mavjud. Bu masala bilan ko'proq din sotsiologiyasi shug'ullanadi.

Sotsiologik jihatdan qaralganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Din sotsiologiyasida uning jamiyatda bajarlan vazifalariga ko'ra o'rganiladi. Dinning vazifalari deganda

uning alohida shaxsga va jamiyatga ta'sir qilish yo'li va tabiatini nazarda tutiladi. Shuningdek, din sotsiologiyasida «Har bir din o'z e'tiqod qiluvchisiga yoki jamoaga va umuman jamiyatga nima beradi?», «Insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?» degan masalalar o'rganiladi.

Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta'lilotni dinshunoslikda funksionalizm rivojlantiradi.



Dinshunoslikda dinni o'rganishga nisbatan egallangan yondashuv muhim o'rni tutadi

Funktionalizm jamiyatdagi barcha narsaga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi: unga ko'ra, jamiyatdagi har bir element muayyan funksiyanı bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

#### DINSHUNOS AMAL QILISHI LOZIM:

dinning ezgulik mohiyatini tushunish

dunyo dinlari manbalari haqida atroficha tasavvurga ega bo'lish

dinlar tarixini tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rghanish

muayyan dindagi yetakchi shaxs haqida bilimga ega bo'lish

dinshunoslikka oid tadqiqotlar va ulardagi yondashuvlarni bilish

Birinchidan, har qanday din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun to'ldiruvchilik, ovutuvchilik, ya'ni «kompensatorlik» vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy tasalliga ehtiyoj hosil bo'lishi hodisasini olaylik. Inson o'z hayoti davomida tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlarda maqsadlariga erishishi ilojsiz bo'lib ko'ringanida, unda qandaydir ma'naviy-ruhiy tasalliga zarurat sezadi. Din bu o'rinda ma'naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchilik, «tasalli beruvchilik» vazifasini bajaradi.

Masalan, buddaviylik dini rohiblikni targ'ib qilar ekan, bu dunyoda orzu-havslardan, rohat-farog'atdan voz kechgan inson «nirvana» holatiga erishgach, abadiy rohatda bo'lishini targ'ib qiladi. Shuningdek, xristianlikda ham har bir e'tiqod



Dinning tasalli beruvchilik vazifasi

qiluvchi Iso Masihning qaytishiga umid qilgan holda hayotning turli muammolarini yengib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradi. Chunki, xristianlik ta'limotiga ko'ra, «Iso Masih qaytib kelgach, barcha izdoshlarini saodatli hayotga yetkazadi».

Islom dinida ham har bir musulmon bu dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istiklariga oxiratda erishishiga ishongan holda dunyo orzu-havaslariga ortiqcha berilmay, turmush mashaqqatlariga sabr qiladi. «Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir», deyiladi islom dining muqaddas manbasi Qur'onda («Baqara» surasi, 153-oyat).



Dinning birlashtiruvchilik vazifasi

Ikkinchidan, muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilarni, ya'ni diniy jamoani shu ta'limot doirasi-da tutib turadi. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik, ya'ni «integratorlik» vazifasi deb ataladi. Din e'tiqod qiluvchilarning ijtimoiy va ma'naviy hayotiga ta'sir o'tkazadi. Bu esa dinning dunyo xalqlari madaniyati, adabiyoti, san'ati kabi sohalariga kirib borishi bilan amalga oshadi. Diniy urf-odat va marosimlarning jamoa bo'lib bajarilishi ham unga e'tiqod qiluvchilarni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi.

Masalan, yahudiylikda mazkur din vakillari bir millat va yagona maslak egalari hamda yagona xudo Yahvening eng sevimli bandalari ekanliklari haqidagi ta'limot ularni birlashtirib turadi.

Xristianlikda esa bu dingga e'tiqod qiluvchilar bir-birlari bilan aka-uka – «birodarlar» ekanligi to'g'risidagi g'oya ilgari suriladi.


Uchinchidan, har bir din o'z qavmlari turmush tarzini bosh-qarish, tartibga solish, nazorat qilish, ya'ni «regulyatorlik» vazifasini bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlari, marosim va bayramlarning qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi.

Masalan, hadislardan birida «Otaga itoat qilish – Allohga itoat qilishdir. Unga gunohkor bo‘lish Allohga gunohkor bo‘lish bilan barobardir», deyiladi. Rahbar-ga, ota-onaga itoat etish, kattalarni hurmat qilish va kichiklarni e’zoz-lashga chaqirish dunyo dinlarining asosiy shartlaridandir. Bu tamoyil-lar jamiyatni tartibga solishda asosiy vositalar hisoblanadi.


To‘rtinchidan, dinning qonunlashtiruvchilik, ya’ni «legitim-lovchilik» vazifasi ham borki, unga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tizim muayyan cheklovslarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din jamiyatda mavjud qoidalarni qonunlashtiradi va ushbu qonunlarning mukammal tizimini ishlab chiqadi.

Bundan tashqari, din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlari ham mavjudki, u insonning yashashdan maqsadi, hayot mazmu-ni kabi masalalarga o‘z munosabatini bildiradi.

**2. «Dinshunoslikka kirish» fanining obyekti va predmeti.** «Dinshunoslikka kirish» fani dinni har tomonlama, xolislik va ilmiylik asosida o‘rganuvchi fandir. Uning obyekti din bilan bog‘liq barcha tushunchalarni qamrab oladi.



Dinning tartibga soluvchilik vazifasi



Ular diniy manbalar, diniy ta'lilotlar, diniy oqimlar, mazhablar, din bilan bog'liq tushuncha, atama, hodisa, hissiyot kabi sohalar ushbu fanning obyekti hisoblanadi. Bu fanning predmeti esa aynan dinni o'rganishdagi turli yondashuvlar, o'rganishdagi tadqiqot usullari, xolis ilmiylik va obyektivlik tamoyillaridan iborat. Masalan, «ibodatgoh» tushunchasi islom dinida «masjid», xristianlikda «cherkov», yahudiylikda «sinagoga» so'zлari bilan berilsa-da, ulardagи jamlovchi jihat – obyekt yagona, ya'ni «bino» bo'lib, undan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ibodatdir. Shuning uchun ham dinshunoslikda asosan bu kabi ibodatgohlarning diniy ibodat, e'tiqod, qarashlar kabi umumlashtiruvchi jihatlari o'rganiladi.



Dinshunoslik obyekt sifatida diniy e'tiqod, muqaddas manba, marosim, ibodatxona va dindor hissiyoti asosiy o'rин tutadi

Dinning ikki yirik tarkibiy qismi mavjud bo'lib, ular: diniy e'tiqod va diniy marosimlardir. Bu ikki qism o'z navbatida bir necha bo'laklarni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, dinshunoslik fani ularni alohida obyekt sifatida o'rganadi.

### DINIY E'TIQOD SOHALARI

Dunyoning yaralishi

Insonning kelib chiqishi

G'ayb olami

Ilohiy mukofot va jazo

Azaliylik va abadiylik

Inson taqdiri

Inson tug‘ilishi
Poklanish
Ibodat
Nikoh
O‘lim
Iltijo
Shukronalik

Dinshunoslik fani diniy e’tiqod va marosimlarni o‘rganishda muayyan usullardan foydalanadi. Mazkur usullsarsiz dinni tadqiq etish yo bir yoqlamalikka yoki noxolislik va noilmiylikka sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, muayyan dinning muqaddas sanalgan manbasini o‘rganmay turib, undagi diniy qarashlar va marosimlar haqida to‘g‘ri xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Faqatgina diniy manba ni o‘rganishning o‘zi ham doim yetarli emas. Chunki undagi qoidalar ushbu dinning dunyo bo‘ylab qay darajada keng tarqalgani ga qarab turlicha talqin etilishi mumkin. Buning uchun ushbu dinga turli darajada e’tiqod qiluvchilar orasida so‘rov o‘tkazish usulidan foydalanish lozim bo‘ladi.

Dinshunos mutaxassis muayyan dinni o‘rganishda uning ichki qonuniyatlaridan boxabar bo‘lishi va unga ehtiyyotkorlik bilan yondashishi talab etiladi. Aks holda mazkur dinda eng muqaddas sanalgan narsalarga hurmatsizlik ko‘rsatib qo‘yishi va natijada ayrim muammolarning kelib chiqishiga sababchi bo‘lib qolishi mumkin.

Dinshunoslik fani diniy e’tiqod va marosimlarni o‘rganish jarayonida ular bilan bog‘liq umumiy va xususiy jihatlar – qonuniyatlarni kashf etadi. Ularni tahlil (analiz) qiladi. Sintez metodi

yordamida ularni birlashtirib turgan konsepsiya, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ushbu qonuniyatlar asosida din bilan bog'liq yuzaga kelgan masalalarga yechim topadi.

**3. Dinshunoslikning alohida fan sifatida yuzaga kelishi.** Sharqda dunyo dinlarini o'rganish qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Dinlar haqida avvalo diniy manbalarning o'zi xabar beradi. Bundan tashqari Sharq allomalari o'z asarlarida dinning mohiyati, rivojlanish tendensiyalari, tasniflanish tamoyillari haqida batafsil yozib qoldirganlar.



Qadimdan dinding kelib chiqish mavzusi insoniyatni qiziqitirib kelgan

doirasida shakllangan asosiy yo'nalishlar, ularning diniy-falsafiy ta'lilotlari haqida so'z yuritadi. Qaysi ta'limot qanday g'oyalar asosida kelib chiqqanini tahlil etadi.



Dinding kelib chiqishi mavzusiga turli madaniyatlarda turfa yechimlar topilgan

Masalan, IX–X asrlarda ya-shab moturidiya ta'limotiga asos solgan olim Abu Mansur Moturidiy o'zining «Kitob at-tavhid» asarida islomdagи mazhablar, firqalar va yo'nalishlar haqida ma'lumot berish bilan birga dunyo dinlari aqidalari haqida ham batafsil to'xtalib o'tadi. Jumladan, jahon dinlaridan buddaviylik, xristianlik va ular

Shuningdek, X–XI asrlarda ya-shab ijod etgan olim Abu Rayhon Beruniy (973–1048) o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston» asarlarida dunyoda mayjud dinlar haqida o'z davri manbalari asosida so'z yuritadi. O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan bo'lgan Beruniyning buyukligi ham o'z davrining deyarli barcha fanlari-ga qo'shgan betakror ilmiy mero-

sida namoyon bo‘ladi. Uning yuksak ilmiy salohiyatiga mashhur sharqshunos olim akademik I.Yu.Krachkovskiy (1883–1951) «...uning qiziqqan ilm sohalaridan ko‘ra qiziqmagan sohalarini sanab o‘tish osondir», deb baho bergan edi. G‘arb tadqiqtchilaridan M.Meyerhoff esa «Beruniy musulmon fanini namoyish etuvchi qomusiy olimlarning eng mashhuri bo‘lishi kerak» degan fikrni bildiradi.


Beruniy zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq (960–1036), Abu Ali Ibn Sino (980–1036), Abu Sahl Masihiy (X–XI asrlar) kabi turli fan sohalari hamda din vakillari bilan ilmiy hamkorlik qildi, tahsil oldi. Beruniy dunyo dinlarini ularning birlamchi manbalari asosida o‘rgandi va tahlil etdi.

Dunyo dinlarini muqaddas manbalar va diniy ta‘limotlar asosida o‘rgangan yana bir olim Tojiddin Abulfath Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy (1075–1153) bo‘lib, u o‘zining «Kitob al-milal va-n-nihal» («Dinlar va mazhablar kitobi») asarida dinlar tarixi, ta‘limoti, asosiy namoyondalari haqida asl manbalar asosida xulosalarini beradi. Uning dinlar va mazhablar tarixi va ta‘limotlarini o‘rganishga bag‘ishlangan mazkur doksografik asari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan.

Sharqda o‘rta asrlarda dunyo dinlarini o‘rganish, ular uchun umumiy va xususiy bo‘lgan jihatlarni aniqlash bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan.

Yevropada dinni kompleks tarzda o‘rganuvchi «Dinshunoslik» alohida fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Bunda dinshunoslardan nemis filosofi Maks Myuller (1823–1900), fransuz pozitivist-filosofi va sotsiologi Emil Dyurkheym (1858–1917), ingliz etnologи va dinshunosi Eduard Bennett Taylor (1832–1917), ingliz filosofi, pozitivist va evolutsiya tarafidori Herbert Spenser (1820–1903), fransuz filosofi va sotsiologi, pozitivism asoschisi Ogyust Kont (1898–1957), M.Veber (1864–1920), Sh. de Sosey (1848–1920) kabi Yevropa olimlarining din bo‘yicha yozgan asarlari bu fanga asos bo‘lib xizmat qildi.

## DINSHUNOSLIK SOHALARI



Din o'sha davrda tarix, arxeologiya, etnografiya va lingvistika to'plagan konkret materiallarga asoslandi. Dinni tadqiq etish bilan shug'ullangan Yevropa olimlari dinni ilohiyotdan farqli ravishda tabiiy qonuniyatlar asosida tushuntirishga harakat qildilar.

XIX asr o'rtalarida dinshunoslik fani din falsafasidan ajralib chiqdi. Dinni empirik o'rganilishi diniy yodgorliklarning tadqiq etilishiga turki bo'ldi. Mifologik maktab asoschisi M.Myuller bu borada sistematik nashrlar e'lon qildi. U dinni filologik tadqiq etish, yo'q bo'lib ketgan dinlarni ularning yodgorliklari ga qarab aniqlash va buning uchun dinni qiyosiy o'rganish uslubini ilgari surdi. Myuller dinning asosida ibtidoiy insonning ta-


biat haqidagi qarashlari yotadi, deb hisoblab, dinning naturalistik nazariyasini ilgari surdi. Uning fikricha, din ibtidoiy naturfilosofiya edi. Dinning boshlang'ich elementi mif, dinning vazifasi esa mif qahramonlarining haqiqatini aniqlash deb hisobladi. Dinshunoslik sohasida mifologik maktab XIX asrning oxirgi choragiga qadar hukmronlik qildi. Naturalistik qarashlarning ta'siri keyinroq ham, masalan, Frezer asarida («The Worship of Nature», L., 1926) o'z aksini topdi. Naturalistik qarash turlaridan biri dinning astral nazariyasi bo'lib, unga ko'ra diniy obraz va misflarda samoviy jismrlarning harakati o'z aksini topgan. Bu nazariyaga XVIII asrda asos solingan bo'lib, XX asr boshlarida ham uning yetarlicha tarafдорлари bor edi (G. Vinkler, E.Shtuken, A.Nemoyevskiy).

Dinshunoslik taraqqiyotining yangi bosqichi dinning ilk shakllarini o'r ganuvchi ingliz antropologik maktabining ishlari bilan bog'liq. Bu tadqiqotlar E.Taylorni 1867-yilda animizm konsepsiyasiga olib keldi («Первобытная культура». В. 1–2, Л. 1871; рус. пер. М., 1939). Taylor, shuningdek Spenser va Lebbok dingga «insonning elementar tajribalarini (uyqu, o'lim va hokazo) noto'g'ri talqin qilish oqibatida vujudga kelgan ibtidoiy odam aqliy faoliyatining mevasi bo'lgan ibtidoiy gnoseologiya» sifatida qaradilar. Tayloring fikriga ko'ra, kult diniy qarashlardan hosil bo'lgan narsa bo'lib, keyinroq paydo bo'lgan. Din tarixi evolutsiyasi tushunchasini qo'llab Taylor va Spenser «dindan avvalgi davr» bor deb hisoblaydilar. Animistik qarashlarda esa keyinroq



Dinshunoslik sohasida mifologik maktab XIX asrning oxirgi choragiga qadar hukmronlik qildi


undan barcha mavjud dinlar kelib chiqqan dinning minimumini ko'rdilar. Keng, etnografik materialga asoslangan animizm teoriyası XIX asrning oxirgi choragida dinni o'rganishda hukmronlik qildi. Rossiyada uning eng yirik namoyondasi L.Ya.Shternberg edi. Ammo XIX asr oxiri XX asr boshlarida bir qator mualliflar animizmni tanqid qilib chiqdilar.



Etnografik materialga asoslangan animizm teoriyası XIX asrning oxirgi choragida dinni o'rganishda hukmronlik qildi

Robertson-Smitt o'zining «Somiyalar dini haqida»gi ma'rularida (W.H.Smith, Lectures on the Religion of the Semites, Edin., 1889) ta'kidlashicha, eng qadimiy dinlar faoliyat sistemasi yoki kultni ifodalagan, diniy ritualni belgilaydigan e'tiqod va mif esa keyinchalik shakllangan. 1900-yilda Marett (1866–1945) shunday g'oyani ilgari surdiki, unga ko'ra, animizmdan oldin animatizmning yanada qadimiyroq bosqichi bo'lgan va u davrda hali ruhlar va shaxsiy ruh haqida tasavvurlar bo'lmagan. Avval diniy-magik harakatlar impulsiv reaksiya xarakteriga ega bo'lgan, dinning g'oyaviy va aqidaviy shakllari keyinchalik uning hissiy substratidan kelib chiqqan. Maretning qarashlariga nemis din

tadqiqotchilari Pryoys va Firkandt hamda rus tadqiqotchisi V. Bogoraz-Tanlar ancha yaqin edilar. A.Lang (1844–1912) ibtidoiy xalqlarning dinini mifologiyaga ham animizmga ham kiritish mumkin emas, deb dinda evolutsionizm g'oyasiga qarshi chiqdi (A.Lang, *Myth, ritual and religion*, v. 1–2, L., 1887). Avstraliyaliklar dinida antropomorf xudolar haqida rivojlangan qarashlarni topgan Lang pramonoteizm g'oyasiga juda yaqinlashdi («The making of Religion», L., 1898). Bu g'oyadan keyinchalik V. Shmidtning klerikal, madaniy-tarixiy maktabi keng foydalandi. XX asr boshida Vundt animistik nazariyani qayta ko'rib chiqishga urindi va o'zining assotsiativ psixologiyasi yordamida din ibtidoiy insonning fikriy faoliyati emas, balki fantaziyaviy faoliyatining natijasi, degan xulosaga keldi. Vundt diniy-mifologik tasavvurlar bilan bir qatorda ruhoniylar ruh, yanada qadimiyroq bo'lgan, insonning tashqi qiyofasidan ajralmaydigan, hayvonga ko'chib o'ta oladigan jismoniy ruh haqidagi tasavvurlarga qarab totemizm animizmdan kelib chiqqan degan fikrga keldi.




Antropomorf xudolar haqida  
rivojlangan qarashlar

Ingliz antropoligik maktabining yirik namoyondasi Frezer ham Taylor kabi dinning paydo bo'lishiga ratsionalistik yon-

dashib, din uch ruhoniy taraqqiyot bosqichidan biri deb hisoblab, din va magiya orasida tub farq bor deb qat'iy fikr bildirdi. Dinning manbayini, Frezer, magik faoliyatning kuchsizligi ko'rinish qolganda va yordamsizlik hissiyoti tug'ilib, nazorat qilib bo'lmaydigan tabiat kuchlarini personifikatsiya qilishda deb bildi.

Keyinchalik etnologik matablar diniy faoliyat, ritualning diniy nazariyasidan ko'ra birlamchi ekanligini ta'kidlab, evolusionizm prinsipini tanqid qilib, dinning «gnoseologik» nazariyasini inkor etib chiqdilar. Ular orasida Amerika kultur-antropologiya maktabi (Boas, Kryober, R.Benedikt, Kardiner va b.), B.Malinovskiy va Radkliff-Braunning funksional maktabi alohida nufuzga ega edi. Ular evolutsionizm nazariyasiga hamda bir-birlariga qarshi fikr bildirdilar. Malinovskiy dinning vazifasi kritik hayotiy vaziyatlarda noilojlik va qo'rquvni yengish deb bilsa, Radkliff-Braun unga qarshi o'laroq diniy marosim va unga bog'liq e'tiqodlarni qo'rquv manbayi deb hisobladi. Radkliff-Braun Dyurkheyymga yaqinlashib dinning filosofiysi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash deb hisobladi. Ikka-la nazariya bir-biridan farq qilsada, shu narsada fikrlar bir xilki, dinning kelib chiqishi muammozi yechilmas va yechishning keragi yo'q deb hisoblandi.

Dinning ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlari mavjud.



Mutaxassislar dinshunoslik va diniy ta'lim o'rtasida uyg'unlik va farqlar mavjudligini ta'kidlab keladilar

Dinning ildizi dinning vujudga kelishi, uning qayta tiklanish zaruriyati va imkoniyatini, umuman, uning salohiyatini yaratuvchi omillar yig'indisidir.

**4. Dinshunoslik va diniy ta'lim.** Insonlar turli sabablarga ko'ra dinni o'rganishga rag'bat bildiradilar. Bu haqda gap ketganda, dinshunoslik va diniy ta'lim o'rtasida muhim farqlar mavjudligini nazardan chetda

qoldirmaslik lozim. Odatda, ushbu farq dinni o'rganish uchun tanlangan yondashuvga tegishli subyekt va obyektga bog'liq hisoblanadi.



Diniy ta'lif islomda imom, yahudiylikda ravvin, hinduiylikda guru, buddaviylikda bhikhu tomonidan beriladi

Diniy ta'lif turli shaklga ega bo'lib, bu tushuncha, ko'pincha, bir din vakilining o'z dinining muayyan e'tiqodini o'rganish uchun amalga oshiradigan harakatiga nisbatan ishlatalidi. Masalan, yosh musulmon bola mакtabga borib, Qur'on tilovat qilish qoidalari va islomiy qadriyatlar haqida ta'lif oladi. Shuningdek, yosh yahudiy farzandi sinogoga qoshida tashkil qilingan o'g'il bolalarga balog'at yoshi (Bar-Mitsva)ga qadar Tavrotdan muayyan ma'lumotlarni ta'lif beriladigan maxsus sinfga qatnaydi. Shu kabi hinduiylik e'tiqodiga mansub dindor farzandi veda qo'shiqlarini o'rganish uchun qadimiy uslublarni saqlab qolgan an'anaviy diniy mакtabda shug'ullanadi. Shu singari buddaviylik e'tiqodidagi o'spirin yigit o'z dini haqiqatlarini anglab yetishi uchun ibodatxonada shogird-monax sifatida bir necha oyni o'tkazadi. Mazkur barcha misollarda, diniy ta'lif olish istagida-

gi talabgorga ko'rsatmalar (instruksiya) diniy mutaxassis – islomda imom, yahudiylikda ravvin, hinduiylikda guru, buddaviylikda bhikhu tomonidan ta'minlanadi. Ushbu jarayonlarda mutaxassisning vazifasi o'quvchilardagi dingga bo'lgan shubha-gumonlarni bartaraf etib, ularda mustahkam e'tiqod va diniy ta'limotga nisbatan kuchli muhabbatni shakllantirish hisoblanadi.

Diniy ta'limning yana bir jihatni shundaki, biror diniy an'ana ga e'tiqod qilishga kirishishdan boshlab, dindor kishida inklyuziv (umumiy) va eksklyuziv (farqli) belgilar shakllanadi. Diniy ta'lim ta'sirida dindor kishida o'z diniy jamoasiga nisbatan sadoqat, vafodorlik va muhabbat kabi tuyg'ular, bir vaqtda, boshqa din vakillariga nisbatan «begonalashuv» kayfiyati «barq» uradi. Chunonchi, bir jain muallimidan jaynizm haqida ta'lim olar ekan, albatta, dars orasida jaynizmning boshqa dinlardan farqlarini ham o'rganadi. Yoki bo'lmasa, bir din vakili turli dinlarni o'rganishga kirishar ekan, bu bo'yicha mantiqiy-ilmiylik va obyektivlikka kamdan kam holatda tayanadi, balki ko'pincha, maqbul yondashuv sifatida o'z diniy qarashlarini ilgari suradi. Tan olish kerakki, muayyan hollarda mazkur kurs va ta'limotlar talabani boshqa diniy an'analar to'g'risida mos va o'xshash ma'lumotlar olishi, boshqa din vakillariga nisbatan bag'rikenglik ruhiyatining shakllanishi, dinlararo muloqotning qaror topishi ga xizmat qiladi. Lekin, ko'p hollarda, diniy ta'lim yoki u bilan shug'ullanuvchi institutlar dindor kishida boshqa dinlarga nisbatan tanqidiy qarashning shakllanishi, boshqa din vakillari bilan o'tadigan munozaralarda o'z diniy e'tiqodini qat'iy himoya qilishi, diniy targ'ibot ishlarida faol bo'lishi uchun turtki vazifasini o'taydi.

Dinshunoslik sohasi tadqiqotchisi din (yoki dinlar)ning barcha jabhalarini tadqiq etishda ilmiy va obyektiv shaklda yondashishga harakat qiladi. Bu sohada faoliyat olib borayotgan dinshunosdan o'z ishini diniy e'tiqod va an'analardan tashqarida turib olib borishi va sog'lom ma'nodagi xolis mavqeda yurishi talab qilinadi. Biroq, oxirgi bir necha o'n yilliklar ichida, bu sohada xolislik

va obyekтивликни та'minlash ideal yoki murakkab bo'lib qolmoqda. Zотан, biz madaniy, diniy va falsafiy asliyatимizга ko'ra ish ko'rib, dunyoga ham mazkur nuqtadan nazar tashlamoqdamiz. Shunday bo'lса-da, dinshunos olimlar sohaga oid ma'lumotlarni yuqori bilim darajasi va o'z-o'zini tanqid qilish asosida tushuntirishga urinmoqdalar.

O'z navbatida, dinlarni o'rganish borasida to'liq darajada xolis va obyekтивликни tatbiq qilish inson diniy tajribasini mukammal o'zlashtirish uchun yetarli miqdorda foyda keltirmagan yo'naliшларни aniqlab olishga imkon tug'diradi. Diniy tajriba cheksiz hissiy tuyg'ular majmuasi bo'lib, u orqali afsuslanish, xursandchilik, muhabbat yoki tobelik kabi ruhiy jaryonlar boshdan kechiriladi. Ba'zi dinlardagi dunyoqarashlar farish-talar, jin-shaytonlar, yovuz ruhlar, xudolar, ma'budlar, hayvon homiyilar, ajdodlar ruhi va shu kabilarga ishonishni qamrab oladi. Shuningdek, ba'zi dinlarda yuqoridagi tushunchalarga ishonishdan tash-qari abadiylikka oid qarashlar, jannat, jahannam, parallel dunyo tizimi, yerosti dunyosi kabilarga nisbatan e'tiqod qilish ham mavjud. Albatta, bu singari tushunchalarni biror tajriba yoki sinov orqali o'rganish dinshunos olim uchun mushkul. Ammo, mazkur tushunchalar «aql doirasidan tashqari» deb hisoblansa-da, ularni «teshib o'tish» (o'rganish) dinshunos tadqiqotchi oldidagi muhim vazifa sanaladi. Buni uddalash mumkinmi? Albatta, mumkin. Masalan, bir inson hikoya tinglasa, roman o'qisa, spektakl tomosha qilsa, kinofilm ko'rsa, shubha-gumonlarning muayyan dar-



Dinlarni o'rganish dinshunos mutaxassisdan xolis va obyekтивликни talab qiladi


jasini vaqtincha unutib, o'sha hikoya yoki kinofilmdagi voqeaga beixtiyor kirib qoladi. Haqiqatan, bu jihat badiiy asarlarga xos xususiyat hisoblanadi. Bu kabi holatni sinab ko'rish dinshunos uchun ham muhim sanalib, dindor boshdan kechirayotgan tajribani his qilish maqsadida vaqtincha shubha-gumon va ikkilanishni to'xtatib, o'zida tadqiq etayotgan dunyoga kirishi tadqiqot obyekti sifatida tanlangan mavzuni teran va chuqur o'rganishga yordam beradi.



Dinlarni o'rganishda dindor diniy tajribasini his qilish muhim sanaladi

Ba'zilarning ta'kidlashicha, dinga bunday subyektiv kirish maqsadga muvofiq emas, chunki, agar tadqiqotchi dindor bo'lsa, uning e'tiqodiga zarar yetadi, agar dinsiz bo'lsa, bu kabi xatti-harakati bilan dinga nisbatan yuzaki yoki munofiqona muno-sabat bildirgan bo'ladi. Ammo, ushbu mulohazaga qarshi amaliy misollarni keltirish mumkinki, ular (misollar) yuqorida fikrni bo'rttirib yuborilganligini ko'rsatadi. Masalan, jodugar, sehrgar, ajdaho va boshqa shu kabi obrazlar bilan jonlantirilgan «Uzuklar hukmdori» filmi yoki «Garri Potter» romaniga ixlosmand kishini o'sha dunyoga kirib qolgan deyish noo'rini. Aslida, bu masalaga boshqacha yondashgan ma'qul. Turli dinlarni o'rganishga targ'ib qilgan nemis faylasufi Gyote aytganidek, «bir tilni bilgan kishi

hech nimani bilmabdi». Mazkur fikrni mavzuga oid tarzda o'gir-sak, haqiqatan, turli dinlarni o'rganish kishiga o'z dini yoki umuman din haqida tushunchalari boyishiga ko'mak beradi. Kishi boshqa tillarni o'rganish orqali o'z ona tili xususiyatlariga zarar yetkazadi, deyish haqiqatan yiroq bo'lgani singari, kishining boshqa dinlarni o'rganishi shaxsiy e'tiqodiga to'sqinlik qiladi, deyish ham noo'rin sanaladi. Aksincha, bu holat mavjud muam-molarni teranroq ko'rishga ko'mak beradi, deyish mumkin.



Kishi boshqa tillarni o'rganish orqali o'z ona tili xususiyatlariga zarar yetkazadi, deyish haqiqatan yiroq bo'lgani singari, kishining boshqa dinlarni o'rganishi shaxsiy e'tiqodiga to'sqinlik qiladi, deyish ham noo'rin sanaladi

Barcha badiiy asarlar faqat to'qima epizodlarga emas, balki mazmunan reallikka asoslanishini hisobga olgan holda, din-shunos-tadqiqotchi biror dinga mansub bo'limgan taqdirda ham, hamma diniy ta'limot va an'analarni fantaziya (xayolot) sifatida qabul qilmasligi lozim. Chunki, xristian, musulmon,

jain, hatto shaman ham o'zining diniy qarashini haqiqat ekanligiga qattiq ishonadi. Shuning uchun dinshunos tadqiqotchi turli diniy qarashlarga nisbatan nafratona munosabat bilan emas, balki, o'z tadqiqot mavzusining barcha jihatlariga munosib e'tibor va ilmiy tahlil asosida yondashishi lozim. Zotan, dinlar o'z e'tiqod qiluvchisi uchun eng oliv qadriyat va haqiqatlarni namoyon etuvchi deb hisoblanadi. Dinshunos tadqiqotchi esa biror diniy e'tiqodni tasdiqlamagan yoki kam-sitmagan holda, «ular nima uchun dindor uchun ahamiyatli» ekanligini o'rganishi va tushuntirib berishi kerak bo'ladi. Binobarin, «inson hayoti jannat yoki jahannamga kirishga sabab bo'ladigan amallarga bog'liqligi, inson atrofini g'ayriaqliy mavjudotlar o'rab olganligi, hayotda muayyan ozuqa va ichimliklarga nisbatan cheklov belgilanganligi» to'g'risidagi kabi qarashlar ba'zi tanqidiy-skeptik yondashuvli insonlar uchun fantaziya bo'lib ko'rinishi mumkin. Lekin, ayni paytda, mazkur diniy e'tiqodlar ko'p sonli insonlarni hayotda jon saqlab qolishi, hayotni davom ettirishi va nobud bo'lishi uchun vosita bo'lib xizmat qilayotganligini dinshunos tadqiqotchi nazardan qochirmasligi muhim. Shu narsa aniqki, video o'yinlar, sehrgarlik romanlarida yaratilgan dunyoga nisbatan yengil munosabat kabi diniy e'tiqodlar qiymatsiz tushunchalarni tasvirlamaydi. Shunga ko'ra, diniy deb qabul qilingan xatti-harakatlarga nisbatan yengil yoki e'tiborsiz qaramaslik lozim. Aksincha, bu dunyo dinding haqiqatlarini o'rganish uchun sezuvchanlik va tasavvurni boyitishni talab qiladi. Eng muhimi, dinshunos tadqiqotchi tanqidiy tahlil ko'nikmasini rivojlantirish ustida ishlab, diniy an'analar qarashlariga mos tushmaydigan faktlarga to'qnash kelishdan qo'rmasligi kerak.

Dinni tushunish uchun san'at, musiqa yoki adabiyot kabi hissiy qabul qilinadigan omillarni faraz qilish talab etiladi. Chunki bu orqali bir inson qalbida chuqur o'rashgan e'tiqod tuyg'usi, boshqa bir insonda pastroq darajada aks etishini tushunish mumkin bo'ladi. Qolaversa, sevgi, rashk, rahm-shafqat, orzu-istik yoki

qo'rquv kabi hissiy kechinmalarni tushunish uchun ular borasida subyektiv tajribaga ega bo'lish kerak. Shu bilan birga, dinshunoslikning maqsadi tadqiqotchi yoki olim uchun tadqiqotlari nati-jasida o'ziga munosib din topishdan iborat emas. Dunyo dillarini o'rganishda ulardagi ijobjiy jihatlarga yaxshi xulosa berish va voqelikni obyektiv tahlil qilish o'rtasidagi nozik muvozanat saqlanishi lozim. Chunki, bir dinga ijobjiy yondashib, uning yaxshi jihatlari ko'klarga ko'tarilsa, u haqidagi tanqidiy qarash salohiyatiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, asosiy vaqt va intellektual kuch faqat birgina dinni o'rganishga sarflanadi. Vaholanki, dinshunos olim betaraflikning eng yuqori darajasida o'z kuchi va salohiyatini bir necha diniy an'analarni o'rganishga sarflashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Dinshunoslikning o'rganilmagan jabhasi yuqori darajadagi subyektiv qiziqish bilan tadqiq qilinsa, ana o'shanda, «falonchi yuksak obyektivlik miqyosida sohaning ochilmagan qirrasini ochdi» deyish mumkin.

*Dinshunoslikda dinni, masalan, buddaviylikni o'rganish uchun buddist bo'lish talab qilinmaydi. Muayyan dinning ichiga kirib, uning ta'limoti va bosh g'oyasini tushunish, nima uchun millionlab insonlar uning yo'liga ergashayotganligini anglab yetish dinshunoslikning asosiy maqsadlaridandir. To'liq obyektivlik insonga emas, kompyuter mexanizmlarigagina xosdir.*

Albatta, chuqur subyektiv qiziqish va og'ir obyektiv tahlil bilan bog'liq bu vazifani mutlaq mukammal bajarish noreal hodisadir. Agar G'arb klassik an'anasi bo'yicha tahsil olgan musiqachi blyuz, rok, xip-xop, jazz kabilarning yangicha xilini yaratishga kirishsa, u muayyan uslubiy o'zgarishlarni amalga oshirib, ular dan o'zining keyingi ijodiy faoliyatida foydalanishi mumkin. Ayni paytda, dinshunos tadqiqotchi musiqachidan ko'ra ko'proq musiqa tanqidchisiga mos tushsa-da, amalga oshirilgan o'zgarishlarning ta'siri bo'yicha o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Turli diniy qarashlarni tadqiq qilish tadqiqotchining dunyoqarashini ham

muqarrar kengaytiradi va o'zgartiradi. Kimdir inson ruhiyati va borliq haqiqati bo'yicha yangi terminlarni va turli yondashuvlarni egallaydi. Shu jihatlar bilan, dinshunoslik diniy ta'lidan farq qilib, ikkinchisida muayyan dunyoqarash va unga bog'liq qadriyatlar tizimini tarbiyalash va mustahkamlashga alohida e'tibor berilsa, dinshunoslikda esa asosiy e'tibor tadqiqotchining din va inson tushunchalari borasidagi o'z qarashlarini kengaytirishga qaratiladi<sup>1</sup>.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Tadqiqotchi dinni tadqiq etishda nimalarga e'tibor qaratsi lozim?
2. «Dinshunoslikka kirish» fanining obyekti va predmeti nimalardan iborat?
3. Dinshunoslik sohalarini sanab bering.
4. Dinshunoslik va diniy ta'lim o'rtaсиda qanday o'xhash va farqli jihatlar mavjud?

### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Rahimjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / mas'ul muharrir N.Ibrohimov. – T.: Mehnat, 2004.

---

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 6–9.

## 2-mavzu. «DIN» TUSHUNCHASI VA UNGA BERILGAN TA'RIFLAR

### Reja:

1. Dinni o'rganish tarixi.
2. Dinga berilgan ta'riflar.

**Tayanch tushunchalar:** din ta'rifi, ilk diniy tasavvurlar, totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, sehrgarlik, «Ok-kam ustarasi», falsafa, teologiya.

**Mavzu o'quv maqsadi:** dinni o'rganish tarixi, unga berilgan ta'riflar va dinni tadqiq etish borasida shakllangan yondashuvlar haqida tushuncha berish.

**1. Dinni o'rganish tarixi.** Kishilik jamiyatida din doimo u bilan birga bo'lganmi yoki qandaydir davrda jamiyat dinsiz yashaganmi, degan savolga turli fikrlar bildirilgan. Bu – dinning tarixiyligi masalasi bo'lib, unga ikki xil javob bergenlar. Birinchisi, qandaydir muddat insoniyat dinsiz yashagan va jamiyatning muayyan bosqichida – yuqori paleolit davrida, bundan 20–40 ming yil avval din paydo bo'lgan. Ikkinchisi, dinning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq, degan fikrdir.



Dinning ilk shakllari sifatida totemizm, animizm, fetishizm, shomonlik, sehrgarlik olinadi.

Totemizm – diniy tasavvurlarning eng qadimgi shakllaridan biri bo‘lib, hindular tilida «urug‘, kelib chiqish» ma’nolarini beradi. Uning mohiyati ishonuvchilarning o‘zлari bilan ayrim hayvonlar, o‘simliklar orasida g‘ayritabiyy aloqa, yaqinlik qon-qarindoshlik bor, deb faraz qilishlaridan iboratdir. Totemizmda urug‘-qabila, xususan, shu urug‘ har bir a’zosining hayoti va farovonligi ayni shu urug‘ning haqiqiy ajdodi hisoblangan totem – o‘simlik yoki hayvonga bog‘liq deb ishoniladi. Muqaddas joylarda saqlanadigan biror urug‘ ruhini ifodalovchi hayvon yoki o‘simlik sur’ati solingan tosh taxtachalar totem ruhlarining makoni sanaladi. Hayvon yoki o‘simlik shu urug‘ yoki qabila uchun totem, binobarin, muqaddas va homiy hisoblangan. Shuning uchun ham kishilar totemlardan yordam so‘raganlar, ularga sehr yordamida ta’sir qilishga uringanlar.



Dunyodagi turli dinlarga e’tiqod qiluvchilar  
orasida totemistik unsur mavjud

Totemizm bilan bog‘liq tasavvurlarning an’anaviy kompleksi – urug‘ning yangi tug‘ilgan a’zolariga, ya’ni tirik avlodlarga «pok yo‘l» bilan totemning o‘tib qolishiga ishonish, sehr jodu yo‘li bilan totemga ta’sir qilib, muayyan urug‘ yoki qabila hududida o‘sha xildagi hayvon yoki o‘simliklarni ko‘paytirish va ularning moddiy farovonligini ta’minlash, totem timsoli bo‘lgan narsa ning halokati uning avlodini halokatga olib borishiga ishonishdan iborat bo‘lgan.

Totemizm hozirgi dinlarda muayyan unsurlar sifatida mavjuddir. Masalan, hindlarda sigir, ilon, maymun, fil va boshqalar hamon muqaddas hayvon sifatida e'zozlanadi.

Animizm (lotincha «anima» so'zidan olingan bo'lib, «jon», «ruh» degan ma'nolarni anglatadi) – inson, tabiat jismlari va hodisalarining ruhi, joni bor deb e'tiqod qilish, ular bilan muloqot qilish, ularga ta'sir o'tkazish mumkin, degan qarashlar bilan bog'liq e'tiqod shakllaridan biri. Animizmda real moddiy obyektlar dunyosi ruhiy mavjudotlar dunyosi bilan to'ldirilgan bo'ladi.

Ajdodlarning ruhlari, tirik kishilarning jonlari, tabiiyki kuchlarning jonzantirilishi – animistik timsollardir. Animizmda ruhlar tabiiy hodisalarni boshqaruvchilar hisoblanadi. Bu ruhlar ezgu yoki yovuz bo'lishi mumkin.

Markaziy Osiyoda marhumning joni «arvoh» deb atalgan. Arvochning bir xususiyati shundaki, u o'likni tashlab uzoqqa ketmaydi, lekin u qabrdan tashqariga chiqadi, deb hisoblangan. Shuning uchun ham qadimgi zamonalarda arvoh uchun go'rni teshib qo'yganlar yoki mozor oldida arvoh uyi qurbanlar. Arvoh hamma joyda – daraxtlarda, ariq va daryolarda, hovuz va xarobalarda yuradi. Shunga ko'ra, kishilar o'z boshlariga biror-bir mushkul ish tushsa, o'sha yerlarga borib sig'inganlar, pul tashlaganlar, arvochlardan madad so'raganlar.

Fetishizm (portugalcha «fetisho», fransuzcha «fetish» so'zidan olingan bo'lib, «sehrli narsa» degan ma'noni anglatadi) – jonsiz narsalarni g'ayritabiyy xususiyatga ega deb ishonish va ularga sig'inish. Sig'inish obyektlari, ya'ni fetishlar – tosh, tayoq, daraxt, umuman har qanday buyum bo'lishi mumkin. Xullas, ishonuvchilar g'ayritabiyy xususiyati bor deb faraz qilingan mod-



Dinshunoslikdagi yondashuvlarga ko'ra, animizm dinning yuzaga kelish shakllaridan biri



Dinshunoslikdagi yondashuvlarga ko'ra, fetishizm zamonaviy dinlar bilan assimilatsiyalashgan hodisa hisoblanadi

lashtirilgan predmetlarni hatto savalash, urish odati ham tarqalgan. Ular o'zları xohlagan narsalarını yuzaga keltirishlarini talab qilib fetishlarga mix qoqqanlar. Fetishizmning yana bir xususiyati shundaki, uning ko'rinishlari boshqa dinlarning mushtarak unsuriga aylanib ketgan. Shuning uchun ham uning qoldiqlari o'sha dinlarda yashab keladi.



Shomonlar ibridoiy tasavvur bo'yicha inson va ilohiy olam o'rtasida vositachi sanalgan

diy buyumlar fetish deb ataladi. Fetishizm tirk bo'limgan, jonsiz predmetlarga sig'inishdir.

Fetishizm sehrgarlikdan ko'ra diniy tasavvurning ancha murakkabroq shaklidir. Bu murakkablik diniy tasavvur shakllangan makonlardagi odamlarning dastlab har xil buyumlardan, tog'-toshlardan, daraxtlardan, keyinchalik esa tumor, but-sanan va hokazolardan ko'mak olishga umid bog'laganliklari bilan belgilanadi. G'arbiy Afrikadagi xalqlarda daraxtlar, toshlar va boshqa predmetlarga sig'inish keng tarqalgan edi. Bu xalqlarda fetishlarni, ya'ni ilohiy-

Shomonlik «shomon» so'zidan olingen bo'lib, u tunguschada «o'ta hayajonlangan», «jazavali kishi» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik bu so'z rus tili orqali butun Sibirga, XVIII asrda esa, g'arbiy yevropaliklar tiliga kirib kelgan va shu bilan u xalqaro ilmiy istilohga aylangan. Biroq bu degani

barcha Sibir xalqlarida shomon bir xil nom bilan atalgan degani emas. Shomon masalan, Sibirning turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarida «kam» deb atalgan.

Shomon – qabilaning ruhonysi. Diniy tasavvurning bir shakli sifatida shomonlikka xos bo'lgan umumiylilik – shomonlarning alohida ilohiy qudratlariga ishoniш.

Shomonlik o'z taraqqiyotida qator bosqichlardan o'tgan. Uning eng dastlabki shakli Kamchatkada yashovchi itelman qabilasida shakllangan. Itelmanlarda haqiqiy professional shomon bo'limgan. Bu qabilaning har bir a'zosi shomonlik qilishi mumkin edi. Shuning uchun ham ularda dastlab xotinlar tomonidan, unda ham qariya xotinlar tomonidan amalga oshirilgan. Shomonlikdagi ikkinchi bosqich – urug' shomonligi edi. Bu davrda ham shomon hali professional bo'lmasa-da, u urug' marosimlarini bajarishni amalga oshiruvchi hisoblanardi. Endi har bir urug'ning o'z shomoni bo'lgan.

Shomonlikdagi yuqori bosqich – professional shomonlarning paydo bo'lishi hisoblanadi. Endilikda shomonlik kasbga aylangan. Shomon shu kasbi orqali daromad topgan, hayot kechirgan. Endi u o'ziga murojaat etgan har qanday odamning iltimosini bajarardi.

*Falsafa (filosofiya: «philia» – sevgi, «sophia» – donishmandlik) – donolikni sevish yoki unga ergashish ma'nosini bildiradi. G'arbdan, «donolikka ergashish» deganda, mantiqiy fikrdan metod sifatida foydalanish nazarda tutilib, hozirga qadar ko'pgina G'arb ilmiy institutlarida falsafa sohasi donishmandlikka erishishning eng maqbul yo'li sifatida qabul qilinadi. Sharq falsafiy an'analarida esa, G'arbnинг o'tmishi kabi, donishmandlik inson qobiliyatlarining barcha qirralarini kashf etish deb hisoblanadi. Shuning uchun u mantiqiy fikrlash shakli bilan bir qatorda, o'z-o'zini nazorat qilish, ma'naviy fazilatlarni sayqallash, hissiyotdan foydalanish (empirik ma'lumot sifatida), intuitiv tafakkurni rivojlantirishni qamrab oladi. Ulardan ba'zilari, chunonchi, chuqur intuitiv fikr-mulohazalarga erishish yolg'iz mantiqiy fikrlashdan ko'ra ko'proq oliy darajadagi donishmandlikka eltuvchi yo'l sanaladi.*

Bugungi kunda, G'arbda, mantiqqa asoslanmagan qarashlarining ba'zilari diniy hayot tarziga oid deb hisoblanadi. Dinni falfasadan ajratish «ma'rifatparvarlik davri»da (XVIII asr) G'arbda vujudga kelgan o'ziga xos fenomen sifatida baholanadi. «Ma'rifatparvarlik davri» deganda, G'arb dunyosi hukmron mavqega ega diniy e'tiqod va amaliyotlarni (ayniqsa, xristian ta'limoti va dunyoqarashiga tegishli) mantiq va ilmiy metodlarni ro'kach qilgan holda tanqid ostiga olgan «Uyg'onish davri» (Post-Enlightenment)dan keyingi harakat nazarda tutiladi. Asosan, o'sha davrda, ma'rifatparvarlik harakati namoyondalari tomonidan xristian ta'limoti va manbalarida aks etgan va insonlarni ishonishga kuch bilan undalgan «Yer borliqning markazi ekanligi» yoki «Xudo olamni olti kunda yaratganligi» haqidagi qarashlar tanqid qilindi. Renessans (uyg'onish, qayta tug'ilish) Yevropa va G'arb madaniyati uchun ilmiy va madaniy yuksalishni keltirdi. U odamlarni majburiy diniy e'tiqod va amaliyotlar qulligidan xalos etdi. Yangi qit'alar ochilib, sayyoralar va yulduzlar, Yer yuzidagi hayvonot va o'simlik turlarini kuzatib o'rganish imkoniyatini beruvchi texnologiyalar rivojlandi. Dunyoga nisbatan yangicha qarashlarning barchasi xristianlik ilgari surgan fikrlardan keskin farq qiluvchi mantiqiy fikrlash va ilmiy metodlar vositasida vujudga keldi. Shu asosda, ilgari G'arb kishisini yagona fikrlash tarzida tutib turgan «din» tusiga kiritilgan falsafa ham ilm-fandan mutlaqo ayri tasavvur qilina boshlandi. Ba'zi o'lchovlarda, din va uning borliq haqidagi qarashlari isbot qilingan voqelik sifatida baholab, fan va ratsionallik ortiga «uloqtirib» tashlangan edi. Boshqa toifalar esa, ilm-fan va falsafa yutuqlariga tayangan holda, dinni bema'ni e'tiqod va bid'atlar turkumi deya baholadilar. Hozirga qadar, G'arbdagi professional faylasuf va olimlar orasida din to'g'risida xato fikr bildiruvchi yoki G'arbdagi diniy dunyoqarashning ko'pligi va turfa xilligini hisobga olmagan holda, diniy qarash deganda xristianlikni nazarda tutuvchi yoki keng ko'lamdagi Sharq diniy ta'limotlarini e'tiborsiz qoldiruvchi kishilar ham uchrab turadi.

*Sharq madaniyati, ko‘p hollarda, bunday dramatik bo‘linishni chetlab o‘tgan. Masalan, qadimiy klassik til sifatida Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta’limotlarida markaziy o‘rin tutuvchi sanskrit tilida din yoki falsafa uchun alohida so‘z ajratilmagan. Balki ikkisi ni bir holda ifodalovchi «darshana» so‘zi qo‘llanilgan. «Darshana» so‘zining tarjimasi ko‘proq «nuqtayi nazar», «qarash», «dunyoqarash» so‘zlariga yaqin keladi. Shuning uchun kishining «darshana»-si uning voqelik haqidagi keng qamrovli tushunchasi hisoblanadi. Shuningdek, u shunday bir yo‘lki, u orqali inson o‘zi va dunyo haqida qanday fikr yuritishni o‘rganadi. G‘arbda bu tushuncha diniy va falsafiy yondashish masalasiga mos tushadi. Shunga ko‘ra, bud-daviylik va jaynizm kabi asosiy diniy an‘analar «darshana», ya’ni mantiqiy va ilmiy mulohazalarga asoslanganligi uchun falsafiy ta’limot deb hisoblanadi. G‘arb ilmiy-falsafiy an‘anasida yuqoridagi kabi qarashlarga ko‘ra, Sharq «falsafa» bilan rasmiy shug‘ullanib kelmagan bo‘lsa-da, aslida, Sharq kishisi ham donishmandlikka erishish uchun harakat qilgan. Misol uchun, aytish mumkinki, bud-daviylik ta’limotining o‘zak haqiqati donishmandlikka erishish hisoblanadi.*

Din yoki falsafa tushunchalari olimlar tomonidan o‘z tadqiqot obyektlarining qamrovini belgilash uchun yaratilgan ilmiy konstruksiya sanaladi. Sharq va G‘arbdagi xalqlar bu konstruksiya orqali borliqning mohiyati, inson tabiatini va hayot mazmun-mohiyatini ifodalaganlar. Shu jihatdan, dinni o‘rganishdagi falsafiy yondashuv (yoki donishmandlikni sevish va ergashish) butun insoniyat tarixidagi barcha madaniyatlarni aks ettiradi. Bu bobda ko‘proq G‘arb yondashuvlari tarixi haqida so‘z boradi, chunki inson diniy impulsi bo‘yicha Sharq fikr-mulohazalari tarixi bilan solishtirganda yetarli ish topilmaydi (ya’ni, bu mavzu bo‘yicha G‘arb qarashlarini boyitish maqsadida qo‘l urildi). Zamonaviy G‘arbda din fenomenini o‘rganish uchun falsafa sohasi maqbul ko‘rinadi. Umuman olganda, dinni falsafiy shaklda o‘rga-

nish Sharq va G‘arb madaniyatiga xos xususiyat bo‘lib, bu bobda ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz<sup>1</sup>.

**Ilk yunon faylasuflari.** Gomer (mil.av. 700-yillar) qalamiga mansub G‘arbning ulug‘ dostonlari «Odesseya» va «Eliada»da uzoq davom etadigan, tabiatи va xarakteri haqida bilvosita fikrlar bilan tushuniladigan xudolar va qahramonlar haqida miflarni uchratish mumkin.

*Shuningdek, shoir Hesiod (mil.av. 700-yillar) asarlarida insonning «besh irqi yoki davri» haqida keng mushohadalarni topish mumkinki, ularda insoniyat hayotining boshlang‘ich oltin davri – xudolar erkak jinsidagi insonlar uchun yaratilgan Olimp tog‘ida yashagan, u yerda inson xudolar bilan tinch va uyg‘unlikda, tirikchilik uchun rizq topishda biror urinishga hojat bo‘lmagan bosqich haqida so‘z boradi. Hesiod fikricha, joriy (o‘zi yashagan davrni nazarda tutib) temir davriga kelib yaratilgan keyingi avlodda progressiv pasayish kuzatilayotgan bo‘lib, bu holat ma’naviy qadriyatlar va kattalarga hurmatning yemirilishi, urush-janjallarning ko‘payishi, urug‘-qabilalar orasida adovatni ortishi bilan belgilanadi. Qiziqlarisi, Sharq faylasuflari, xuddi shunday, hayot va axloq sifati asta-sekin yomonlashadigan davr siklini «yuga» tushunchasi bilan ifodalaganlar. Tashqi ko‘rinishdan, eng so‘nggi va ko‘p degenerat (degenerat – chala, zoti, nasli buzilgan, jismoniy yoki ruhiy jihatdan aynigan) tug‘ilgan odam)ni qamragan o’sha davr, «Kали Yuga»da bugungi kunda biz yashayotgandek tuyuladi.*

Hesiod qalamiga mansub «Teogoniya» («theos» – xudo, «gonia» – tug‘ilish, ya’ni xudolar panteonini vujudga kelishi)da o’sha davrda mavjud xudolar, ularning kelib chiqishi, aloqalari, avlodlari va borliq ustidan qanday hukmronlikni qo‘lga kiritganliklari to‘g‘risidagi e’tiqodlarni sistemalashtirishga harakat qilinganligini ko‘rish mumkin. Masalan, «Xaos davri, undan Gaya (yoki Yer) rivojlandi,

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 60–66.

undan keyin Uranus (Jannat) paydo bo'ldi» kabi (Yunon mifologiyasida Gaya (Er) Xaosning qizi, ma'buda sifatida gavdalantirilgan. O'z navbatida, u Uranus (Jannat)ning onasi va ayoli sanalgan. Ulardan Titan va Siklop (bir ko'zli devqomat odam) dunyoga kelgan). Qadimgi vedalarda ham olov va shamol kabi tabiiy olamning kuchlari sifatida gavdalantirilgan xudolarga bag'ishlangan madhiyalar uchraydi. Xudolarning ba'zilari kelib chiqishi, nomi, vazifalari jihatidan yunon miflaridagi ma'budalarga o'xshab ketadi. Masalan, vedalarda osmon xudosi sifatida talqin qilingan Varuna yunon miflaridagi Uranusga mos tushadi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, qiyosiy dinshunoslikning zamonaviy olimlari yunon va hind miflari hamda miloddan avvalgi ikkinchi mingyillik o'rtalariga taalluqli Bobil va Xett xalqlari tomonidan qoya toshlarga yozib qoldirilgan miflar orasida o'xhashlik (parallelilik) mavjud deb topishdi.

*Yunon faylasufi Aniksamander (mil.av. 610–546) ilk marotaba yagona, shaklsiz, bo'linmas va chegarasiz mohiyatga ega «aperon» (apeiron) tushunchasini muomalaga kiritdi. Ta'rif va tavsifdan xoli ushbu manbadan barcha o'xhash va qarama-qarshi, ya'ni bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan narsalar paydo bo'lgan (ya'ni, issiq va sovuq, quruq va nam kabi). O'z navbatida, mutlaq qudrat egasi va sabablarning sababchisi deya baholangan «aperon» yagona iloh bilan tenglashtirilgan. Hind faylasuflari xuddi shu shakl va vaqtida Upanishadlarda yuqorida- gi kabi g'oyalar keltirilganligini ta'kidlaydilar. Ular Brahmanni mutlaq qudratli, barcha narsani yaratgan, tavsifdan xoli deb hisoblab, uni iloh darajasiga ko'targanlar. Ayni shu paytda, Xitoyda ilk daochilik faylasuflari barcha jufiliklarni (In va Yan) yaratgan va o'ziga qaytaruvchi ta'rifdan xoli sinoat «dao» g'oyasini ilgari surdilar.*

Yunon faylasufi Xenofanes (mil.av. 580–490) o'z davrida urchib ketgan ko'pxudolik g'oyalarini tanqid ostiga olib, har narsaga qodir yagona qudrat g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. U odamlar o'z qiyofalarida xudolarini tasvirlashlari natijasida qanday qilib treishienlar (thracian – Bolqon yarimorolida yashagan qadimgi hind-yevropa

xalqlari) xudolari ko'k ko'zli va qizil sochli bo'lgani, efiopiyaliklar xudolari qora va puchuq burunli bo'lganligiga ishora qildi. Yunon tarixchisi Gerodot boshqa madaniyatlar diniy e'tiqodlarini tasvirlab o'tgan. Asarlaridagi bir qator xato va to'qimalarga qaramay, u ba'zi yunon e'tiqodlari, xudolari va marosimlari yunon madaniyatidan olinganligini yozib qoldirgan. Xenofanes va Gerodot ishlari miflar va dinning kelib chiqishi, diniy e'tiqod va amaliyotlarning davrma-davr transformatsiyaga uchrab boshqa hududlarga yoyilishi va mahalliy diniy qarashlar bilan boyitilishi bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki tadqiqotlar sifatida xizmat qiladi. Platon (mil.av. 427–347)ning mashhur shogirdi Aristotel (384–322) qanday qilib zolim solihga aylanishi haqida gapirib, bu holatni inson o'z ojizligini anglashi bilan bog'laydi.

Aristotel ilk marotaba «metafizika» tushunchasini qo'llagan. Unga «birinchi muallim» nomi berilishiga sabab bo'lgan «Fizika» asarida «metafizika», Aristotel ta'biri bilan aytganda «birinchi falsafa» haqida so'z borgan. Aristotel qarashidagi «birinchi falsafa» yoki «metafizika» quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olgan: ontologiya (mavjudlikni o'rGANISH), teologiya (xudo, xudolar yoki ilohiyatni o'rGANISH), aniq bilimlar (ya'ni, dunyo haqidagi aniq yoki ziddiyatsiz g'oyalarni o'rGANISH).

*«Ziddiyatsizlik» (non-contradiction) prinsipini shunday tushuntirish mumkinki, bir narsa qizil rangda bo'lmas ekan, demak, ayni paytda, qizillik unga xos xususiyat emasligi kelib chiqadi. Albat-ta, bu kabi fikrlash shaklini biz ko'p holatda amalga tatbiq qilmasmiz, lekin, bizning fikrlashimiz asosida aynan shu tushuncha yotadi. Shuning uchun ham u birinchi prinsipdir. Shubhasiz, ontologiya va ilohiyotni o'rGANISH, boshqacha aytganda, inson haqiqatni qanday tushunishi va unga erishishini bilish Aristotelni eng ko'p qiziqtirgan mavzu hisoblangan.*

Bugungi kunda, «metafizika» tushunchasi mavjudlik, borliqning tabiat (kosmologiya), nafs yoki xudo tabiat haqida-

gi savollar bo'yicha fikr-mulohaza yuritishga nisbatan ishlatiladi. Vaholanki, u haqiqatga qanday erishish mumkinligi borasida chuqur mulohaza qilish ma'nosini ham qamrab oladi. Metafizika-ga qiziqish G'arb universitetlarida so'nib bormoqda.

**O'rta asrlarda G'arb falsafasi.** G'arbda Platon, Aristotel va boshqa yunon faylasuflari tomonidan qoldirilgan «intellektual meros» G'arb dunyosidagi diniy an'analar bilan o'zaro uyg'unlashgan holda «yashash»ni davom ettirdi. G'arb falsafiy an'anası Ibrohimiy dinlar (yahudiylıq, xristianlıq va islam) tomonidan shakllantirilgan dunyoqarashlar ta'siri ostida bo'lib keldi. Bu dinlar Yahve, Alloh yoki oddiygina, xudo nomlari bilan ataluvchi mutlaq qudrat sohibi tomonidan yuborilgan, Ibrohim va undan keyingi payg'ambarlar ilgari surgan ilohiy ta'limotlarga asoslanadi.

*Payg'ambarlar yagona va yashirin iloh tomonidan nozil qilindigan vahiyini qabul qilib, insonlarga yetkazish uchun ularning orasidan tanlab olingen shaxslardir. Shunga ko'ra, vahiy orqali nozil bo'lgan xabarlar (muqaddas manbalar) asosida payg'ambarlar tomonidan insonlarga yetkazilgan qat'iy e'tiqodlar majmuyi ushbu dinlarning ustunini tashkil qiladi. Ushbu dinlarning muqaddas manbalarida birinchi navbatda xudoning yagonaligi ta'kidlanadi.*

Bu masalaga qattiq urg'u berilishini, hatto, uch dinda ham xudo nomi uning yagonaligini ifodalash uchun katta harf bilan yozilishida ko'rish mumkin. Bu dinlar asosida ilohga e'tiqod qilish turganligidan ilohiy, ana shu e'tiqod yagona ilohga qaratilganligi jihatidan yakkaxudolik dinlari deb hisoblanadi. Faqat, xristianlikning yahudiylıq va islam dinlaridan farqli jihatı – bu din ta'limotida din asoschisi Iso Masih xudoning o'g'li va xudoning inson qiyofasidagi sirli gavdalanishi deb e'tiqod qilinishi ko'zga tashlanadi. Xristianlik va islam dinlari o'rtasidagi asosiy o'xshashliklardan biri, ikki dinda dindorlar o'z e'tiqodlarini boshqa insonlarga yetkazishga undaladi. Ta'limotni yoyishga bo'lgan xatti-harakat imonlilar jamoasiga qo'shilish orqali oxir-

zamonda jahannamdagи abadiy alamlı azobdan xalos bo'lib najot (jannah)ga erishish to'g'risidagi e'tiqodga asoslanadi. Shu o'rinda eslab o'tish lozimki, turli dinlardagi yuqoridagi kabi najot topishga oid e'tiqodlar «soteriologiya», oxirzamon, dunyoning poyoniga taalluqli e'tiqodlar «esxatologiya» tushunchasi bilan yuritiladi.

*Bir yarim ming yildan ortiq davr mobaynida, G'arbda Aristotel tomonidan gavdalantirilgan yunon falsafiy an'anasining ratsional ruhi bilan o'z diniy an'analari talablarini muvofiqlashtirishga harakat qilgan faylasuflar tomonidan ko'plab nufuzli asarlar yozildi. Filo Yudaus (Philo Judeaus, milodiy 15–50-yy., Iskandariyadagi yahudiy faylasufi. U ayniqsa, Aflatun va Aristotel falsafasi asosida «Musoning besh kitobi» (Tavrot)ni misollar orqali sharhlaganligi bilan tanilgan) yunon falsafiy yo'nalishi bilan yahudiylik an'analarni moslashtirishga harakat qilgan faylasuflardan biri. Filo muqaddas matnlarni o'qishdagi yondashuvni «istiora uslubi» bilan birlashtirdi. Bu uslubda, u ko'rinishdan o'zaro bog'lanmagandek tuyulgan matnlarni so'zma-so'z qabul qilmaslik kerakligiga e'tibor qaradi. Ba'zi hollarda, til ramziy, unda qilinayotgan hikoyalarni majoziy bo'lib, uni real vogelik bilan bog'lovchi ochiq tushuntirishlarga ehtiyoj tug'iladi. Shuningdek, xristian ruhoniysi Avgustin (354–430) Bibliya matnlaridagi ma'lumotlar va tabiat qonunlari o'rtasida ku-zatiladigan mayjud tafovut sababini tushuntirishga harakat qilgan shaxslardan biri hisoblanadi.*

Aksariyat dinlarning zamonaviy dindorlari o'z diniy manbalari bilan shug'ullanish chog'ida ba'zi istoriy (allegorik) talqin turlaridan foydalanishlariga qaramay, bugungi kunga qadar, diniy matnlarni so'zma-so'z o'qishni afzal ko'rvuchi dindorlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu kabi dindorlar ko'pincha «zohiriylar» deb ataladi. Shu jihatdan, diniy fundamentalizm diniy manbalardagi ma'lumotlarning zohiriylar ma'nosigina tushunish va unga ergashishga qat'iy turib olish oqibatida kelib chiqadi. Zohiriylar o'z dinlarining muqaddas kitobida keltirilgan dunyo paydo bo'lishi-

ning kosmologik talqini, farishta va jinlar kabi ilohiy va yarim-ilohiy mavjudotlar bilan to‘la jannat va jahannam hayoti, xudo va payg‘ambarlarning ko‘rsatgan mo‘jizalari, jannatga kirish, o‘lim-dan keyin qayta tirlish haqidagi e’tiqodlarga imon keltiradilar. O‘z navbatida, ular diniy manbalar ramziy, allegorik xususiyat-ga ega hamda dunyo haqidagi inson tushunchasi ibtidoiy shaklda bo‘lgan davrga xos degan da’volarni qoralaydilar. Qolaversa, ular muqaddas diniy matnlar inson qo‘li bilan buzilgani yoki unga o‘zgartirishlar kiritilgani haqidagi qarashlarni rad etib, ular xudo tomonidan yuborilgan mutlaq va benuqson haqiqat ekanligini ta‘kidlaydilar. Shunday bo‘lsa-da, ko‘rinib turibdiki, rational tafakkur asosida yuzaga chiqqan empirik dalillar va diniy manba keltirgan da’volar o‘rtasida keskin tafovut mavjud hamda «ma’rifatparvarlik asri»gacha o‘tgan bir yarim ming yillik davr mobaynida mazkur tafovutni o‘rganish G‘arbdagi din falsafasining asosiy tadqiqot obyektiga aylandi. Biroq, Filo va Avgustin misolida ko‘rib o‘tganimizdek, ularning aksariyati diniy dunyo-qarash asosida amalga oshgan bo‘lib, shu jihatdan, ularni falsafiy teologiya yoki apologetika (teologiyaning xristian dini aqidalarini himoya qiluvchi bo‘limi) deb atash mumkin.

*Falsafiy teologiya rivojiga ulkan hissa qo‘shtgan ko‘plab ziyolilari orasiga yahudiylik e’tiqodi (kred – creed) yoritilgan «O‘n uch tamoyil» asari muallifi, keng qamrovli bilim sohibi bo‘lgan Mu-so Maymonidiy (Moses Maimonides, 1135–1204, Sulaymon ismi bilan tanilgan)ni ham kiritish mumkin. Kred muayyan diniy jamaoa e’tiqodining asosiy tamoyillarining qisqacha xulosasi bo‘lib, u ko‘pincha jamaoa yig‘inlari va marosimlarda ommaviy o‘qilgan. Shuningdek, «Mavhumlikdan chiqish» («The Guide to the Perplexed») asarida Maymonidiy o‘zining qarashlari shakllanishiga Aristotel va bir qator musulmon faylasuflari katta ta’sir o‘tkazganligini qayd etgan. Uni musulmon olimlaridan 450 ortiq monografiyalar muallifi, ham mutafakkir, ham tabib Ibn Sinoni alohida hurmat bilan zikr qilgan. O‘z navbatida, Maymonidiyning ishlari xristian teologlari –*

*Foma Akvinskiy (Thomas Aquinas, 1225–1274) va Jon Dans Skotus (John Duns Scotus, 1266–1308) faoliyatiga katta ta'sir o'tkazdi. Foma Akvinskiy eng nufuzli teolog sifatida baholanib, uning qalami-ga mansub – katolik e'tiqodidagi har bir masala bo'yicha ratsional mulohazalar to'plami «Summa Teologika» ancha mashhur sanaladi. Akvinskiy o'z ishlari orqali to'qqizinchi asrda boshlangan sxolastik an'anani qayta gavdalantirdi va u Aristotelning falsafiy qarashlarini teologiya bilan uyg'unlashtirishga harakat qildi. «Sxolastika» (sxolastika – diniy aqidalarning nazariy asoslashga qaratilgan o'rta asrlar falsafasi) tushunchasi asosan xristian kontekstida vujudga kelganiga qaramay, Maymonidiy va Ibn Sino ham mos ravishda yahudiy va musulmon sxolastiki deb hisoblanadi. Sxolastika zamonaviy G'arb falsafasining ko'tarilishi bilan poyon topdi.*



Rene Dekart

**Zamonaviy G'arb falsafasi.** Zamonaviy G'arb falsafasi kartezianchilik yoki analitik geometriya rivojiga katta hissa qo'shgan fransuz faylasufi Rene Dekart (1596–1650) faoliyati bilan bog'liq. Dekart voqelik tahlili va shaxsiy mavjudlikning asosi sifatida o'ylash va fikrlashni keltirib, «Shuning uchun menmanki, chunki men o'ylamoqdaman» (Cogito ergo sum) degan fikri bilan mashhur bo'lib ketgan. Dekart o'layotganligini o'zining mavjudligi dalili o'laroq

tah'kidlaydi va dunyo haqidagi tushunchalari rivojlanishi uchun sistematik tafakkur uslubidan foydalanishni afzal ko'radi. Uning ko'rsatgan xizmatlari orasida yana biri, u xudoning mavjudligini asoslash uchun o'z uslubidan (eng ishonchli deya ta'kidlaydi) foydalanishni taklif qiladi. Haqiqatni topish uchun asosiy vosita sifatida ratsional tafakkurdan foydalanish uslubi zamonaviy G'arb falsafiy an'anasingin poydevoriga aylandi. Dekartga qadar e'tiqod va aql o'rtasidagi tafovutni hal qiladigan alohida ilmiy-mantiqiy

yondashuv mavjud bo'lмаган edi. G'arb falsafasida mantiq va tafakkur rolining oshishiga turtki bo'lgan yana bir ma'rifatpar-varlardan biri Immanuel Kant (1724–1804) edi. Kant tushuncha va fahm-idrokimiz ongimiz orqali shakllanishini isbotlab berdi. Inson aqli bizning dunyo haqidagi barcha hissiy tajribalari-mizni filtrlaydi va haqiqatni tanishga bo'lgan imkoniyatlarimizni cheklaydi. Bu vaqtدا, isbotlash imkoni bo'lmasa-da, xristian teolog-mutafakkirlari (sxolastiklari) doimo «farishtalar qanday qilib igna teshigidan o'tib o'ynashlari, osmonni egallovchi ma'naviy jonzot (farishta, ruh, jin)lar haqidagi» savollar bo'yicha chuqur mulohaza yuritish bilan band bo'lganlar. Bu kabi tafakkur tarziga nisbatan Kant «ruh, xudo va shu kabi metafizik tushunchalar inson tajribasidan, inson aqli bilan idrok qilib bo'lmaydigan masala» deb qaraydi. Shuning uchun «xudo» yoki «farishta» tushunchalari, agar bu kabi mavjudotlar bo'lsa, mazmuniga yetish, ular haqida to'liq bilimga ega bo'lish imkonsiz hisoblanadi. Kantning yuqoridagi kabi qarashlariga ergashgan ba'zi G'arb faylasuflari «dilalar tomonidan ilgari surilgan metafizik qarashlar tafakkur yurgizish uchun qiymatga ega emas, chunki ular asosli va qoniqarli bilimga olib bormaydi» degan xulosaga borishdi. Albatta, bir narsha ma'lumki, qandaydir toifa tomonidan oqilona emas yoki mantiqqa to'g'ri kelmaydigan degan qarash qayta-qayta yangrayvergach, boshqa toifa ham unga beixtiyor ergashadi.

*«Okkam ustari» (Occam's Razor, iqtisodiy fikrlash prinsipi) kabi ilmiy metodlarni uning asosiy prinsiplari bilan bir vaqtda rivojlanТИrish diniy va metafizik qarashlarni bir chetga surib qo'ydi. Balki, borliqni tushunishga kelganda, xudo yoki g'ayritabiiy mavjudotlarning mavjudligini isbotlash muayyan vositalar bilan amalgao shomaydi, degan xulosaga kelindi. Bu esa falsafa va din o'rtasidagi janjallarni kuchaytirib yubordi.*

Lyudvig Vitgenshen (Ludwig Wittgenstein, 1889–1951) ushbu bo'linish uzra ko'prik bo'lishga uringan kam sonli faylasuflardan

biri. U inson hissiy tajribasini ifodalash qobiliyati cheklanganligini e'tirof etgan bo'lsa-da, ayni paytda, diniy tajriba imkoniyatlarini rad etmadi. Vitgenshen «til o'yinlari» yoki tildan turli maqsadlarda foydalanishga e'tibor qaratdi. Uning fikricha, masallar va afsonalar liturgiya, teologiya yoki tarixiy manbalar tillaridan tubdan farq qiladi. Qariyb ikki ming yil avval Filo tomonidan ilgari surilgan allegorikal (majoziy) uslubga javob tarzida Vitgenshenning pozitsiyasi shunday bo'ldiki, diniy matnlarda gi «Xudoning mavjudligi» kabi g'oyalalar falsafiy argument asosida bildirilgan qarashlarga mos tushmaydi. Vitgenshen ta'kidlaydiki, kishi o'zining sevgan yori suratini o'pib qo'ysa, u kishidan yuzma-yuz bo'sa oldi, deyilmaydi, hatto, bo'sa olish yoki «men seni sevaman» deb aytish muhabbatning bir belgisi bo'lishiga qaramay. Shunday har bir harakat o'zga sharoit va maqsadni qamrab olgan holda o'xhash munosabatlarni ifodalashi mumkin. Qolaversa, diniy harakatlar va diniy til falsafiy iboraga nisbatan inson xulq-atvorining turli toifalariga mansub bo'lishi va turfa maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Shunga ko'ra, rasmiy cheklowlarni faqat bir tilga nisbatan tutib turish nodonlik sanaladi.

*G'arbdagi din va falsafa o'rtasidagi aloqalarning qisqacha tarixiy tadqiqoti metafizik tushunchalarga erkin munosabat bildirgan ilk yunon mutafakkirlar (Suqrot, Platon, Aristotel) qarashlaridan farq qilmasligini ko'rsatdi. Yaqin Sharq va G'arbdagi yahudiylilik, xristianlik va islam dinlariga oid tamoyillar hukmron dunyoqarash darajasiaga chiqqach, falsafa ratsional fikrlarga tayanib diniy ta'lilotlarni apologetik (diniy aqidalarni himoya qilib) o'rganish shakliga aylandi. Uning buyuk namoyondalaridan biri katolik teologi Foma Akvinskii bo'lib, bu kabi falsafiy yondashuv hanuz teologiya sifatida mazmun-mohiyatga ega bo'lib kelmoqda. Ayni paytda, «ma'rifatparvarlik davri»dan boshlab yuzaga kelgan teologiya (metafizika) va falsafa o'rtasidagi yoriq (boshliq) «baxtsiz hodisa»lardan biri deya e'tirof etiladi. Oqibatda, falsafa aniq va tabiiy fanlar bilan tenglashtirildi, metafizika esa ilmiy gepoteza va nazariyashunoslik ichiga singib ketdi.*

*Shu tarzda, teologiya ilm-fan yutuqlari orqali shakllangan progres-siv dunyoqarash hamda muqaddas matnlardagi muayyan e’tiqodlar orasini muvofiqlashtirishga uringan holda «o’z oqimida suzish»da da-vom etdi. Xo’sh, bu kabi tafriqalanishdan kim nima yo’qotdi? Bizning mayjudligimizdan maqsad nima? Mazmunli hayot kechirish degan-da nima tushuniladi? «Sevgi», «go’zallik», «yovuzlik», «haqiqat» o’zi nima? Inson ongidan ko’ra qudratli kuchlar yoki «xudo» mayjudmi?*

**Sharqda falsafa.** Miloddan avvalgi beshinchi asrdan boshlab, Sharq mutafakkirlari ong va materiya, zarralar tabiat, ratsional tafakkur chegarasi kabi masalalar bo'yicha chuqr mushohada qilishga kirishdilar. Hindistondagi Vaishesika maktabi mutafakkirlari materianing asosini tashkil qilgan atom zarralarini tuzilishi borasida izlanishlar olib bordilar. Shuningdek, ularni, yunon geometrigi Evklid aytganidek, atomlar muayyan o'lchamga ega bo'lsa, u o'lcham qanday uzunlik, balandlik yoki og'irlikka egali-gi qiziqtirdi. Biz aytishimiz mumkinki, bunday savollar hozirda ham fiziklarni o'ylantirib keladi.

*Siddhartha Guatama (Budda) tafakkurning g‘ayritabiyy maz-munga bog‘liqligi imkonsiz ekanligiga e’tibor qaratib, balki borliq o’zgaruvchan tabiatga egaligini ta’kidlaydi. Boshqacha aytganda, hozir o’tmishdan farq qilsa-da, aslida, bugunni o’tmish tashkil qil-gan bo'ladi. Majoziy tarzda ifodalaganda, bizning tasavvurimiz-da idrok qilinadigan «narsalar» shamning oloviga o’xshaydi, sham piligini yondirayotgan olov tashqi ko‘rinishda sham jismiga ta’sir ko‘rsatmayotgandek, ammo, mazmunan u shamni kuydirib tamom qilayotgan bo'ladi. Shu jihatdan, o’zgaruvchan jarayonni inkor qiliш xato bo‘lib, u bizni azob-uqubatga yetaklaydi.*

Gautamaning g‘oyalari, keyinchalik, hech narsa o‘z-o‘zidan paydo yoki mavjud bo‘lmasligini mantiqiy dalillash orqali ko‘rsa-tib berishga harakat qilgan buddist faylasufi Nagarjuna (milo-diy ikkinchi asr) tomonidan kengroq rivojlantirildi. Qolaversa,



Indra – vedizm, hinduizm va buddizm ta'lomitiga ko'ra bosh xudodir

hinduiylik mutafakkiri Shhankara (mildiy sakkizinchi asr) miloddan avvalgi beshinchi asrda Upanishadlarda zikri kelgan Brahma timsolida «yagona kuchqudrat egasi» yoki «asl reallik» konsepsiysi haqida mulohaza yuritgan. Shanka Brahma (buyuk yoki asl reallik) aql doirasidan tashqarida deb tushuntiradi. Bu masala muhokama ostidagi mavzu hisoblangan (ya'ni, hech narsa uni namoyon qilishga qodir emas, ayni paytda, uning bunday xususiyati uni inkor qilmaslikka olib bormaydi). Qolaversa, insoniyat va uning tafakkuri Brahmadan kelib chiqadi, Brahmaga tegishli bo'ladi. Shuning uchun ratsional tafakkur «mutlaq haqiqat»ni tushunish imkoniyatini qattiq cheklaydi. Aql, ong yoki tafakkur obyekti kabi barcha voqeliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tushunchasi Xitoy buddizmi tarkibidagi «Hua Chen» (Zanjabil guli) matabining asosiy g'oyasiga aylandi. Hua Chen maktabi tomonidan foydalilanilgan ramziy tasvir Indraning qimmatbaho toshlar ziynatlangan to'ri, deb hisoblanadi. Mifga ko'ra, vedalar da zikr qilingan xudolardan Indraning har bir tuguni qimmatbaho toshlardan iborat bo'lgan. Undagi har bir marvaridda aks etgan yog'du o'zaro toblanib yanada yorqinlikni aks etgan. Har bir tugundagi marvarid haqiqatning bir parcha yoki bo'lagini ifodalagan. Bir parcha esa o'z navbatida, butunni qamrab olgan. Har bir idrok, fikr va harakat zamon va makon oralig'idagi borliqning barcha obyekti bilan tubdan bog'liq deb ishoniladi. Aql, tafakkur va haqiqat haqidagi Sharq dunyosining bir qator konsepsiyalari bilan tanishish davomida Sharq dunyoqarashi bilan zamonaviy G'arb falsafasining muayyan qarashlari (jumladan, haqiqat haqidagi zamonaviy metafizik qarashlar) muvofiq kelishi

lik tushunchasi Xitoy buddizmi tarkibidagi «Hua Chen» (Zanjabil guli) matabining asosiy g'oyasiga aylandi. Hua Chen maktabi tomonidan foydalilanilgan ramziy tasvir Indraning qimmatbaho toshlar ziynatlangan to'ri, deb hisoblanadi. Mifga ko'ra, vedalar da zikr qilingan xudolardan Indraning har bir tuguni qimmatbaho toshlardan iborat bo'lgan. Undagi har bir marvaridda aks etgan yog'du o'zaro toblanib yanada yorqinlikni aks etgan. Har bir tugundagi marvarid haqiqatning bir parcha yoki bo'lagini ifodalagan. Bir parcha esa o'z navbatida, butunni qamrab olgan. Har bir idrok, fikr va harakat zamon va makon oralig'idagi borliqning barcha obyekti bilan tubdan bog'liq deb ishoniladi. Aql, tafakkur va haqiqat haqidagi Sharq dunyosining bir qator konsepsiyalari bilan tanishish davomida Sharq dunyoqarashi bilan zamonaviy G'arb falsafasining muayyan qarashlari (jumladan, haqiqat haqidagi zamonaviy metafizik qarashlar) muvofiq kelishi

ko'zga tashlanadi. Uaytxed ham o'zining g'oyalari va Sharq falsafasining muayyan jihatlari o'rtasida o'xshashliklar mavjudligini e'tirof etgan. Ko'zguning bir parchasi butun oyna kabi tasvirni aks ettirgani yoki gologrammaning bir bo'lagi lazer nuri o'tganda to'liq namoyon bo'lgani kabi vaqt va fazoning har bir zarrasi butunni ifodalaydi. Zamonaviy nazariya fizikaning bunday namunasi yuqorida bahs qilingan Indraning marvarid bilan qoplan-gan to'ri kabi qadimiy ramz bilan hayratli ravishda mos tushadi. Zamonaviy fizikaning topilmalari va Sharq falsafasi o'rtasida-gi yuqoridagi o'xshashliklarni ko'rsatish ba'zi mualliflar (xusan, Fritjof Karpaning «*Dao fizikasi*») tomonidan kitoblar ham yozilgan. Shundan xulosa qilish mumkinki, Dekartdan keyin-gi bir necha asrlar davomida zamonaviy G'arb falsafasi o'z e'tibori va tanqidini teistik («*xudo*» tushunchasi markaziy o'rinda turgan) dinlarga qaratdi. Zamonaviy G'arb falsafasi namoyonda-lari ko'p holatda Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlarini inkor qilib, faqatgina G'arb falsafiy va ilmiy an'analariga muayyan da-rajada muvofiq keluvchi ba'zi qarashlarni qo'llab-quvvatlashdi.

**Teologik yondashuv.** Din falsafasi falsafaning bir qismi sifatida xudo to'g'risidagi, ilohiy mohiyat haqidagi fikr-mulohazalar bilan bog'liq holda falsafa bilan shug'ullanish demakdir. U falsafa ilmi-ning nisbatan mustaqil qismi bo'lib, eng avvalo falsafiy teologiya sifatida maydonga chiqadi. Falsafiy ilohiyot har qanday dinning konseptual, nazariy qismini ifodalovchi ilohiy aqidalar bilan bevo-sita aloqadorlikda va ayni paytda ulardan farqli ravishda mavjuddir.

*«Teologiya» atamasi («deus» – xudo, «logos» – ta'limot) qadim-gi Yunonistonda paydo bo'lgan va dastlab hech qanday falsafiy yuka-ka ega bo'lman. «Teologiya» so'zi ilohlar to'g'risidagi dostonlar-da qo'llanilgan, bunday asarlarning mualliflarini esa teologlar deb atashgan. Arastu «teologiya» atamasidan falsafaning muayyan qis-mini belgilash uchun foydalanib, mazkur atamani sharhlashda buri-lish yasadi. U nazariy falsafani matematika, fizika va teologiyaga ajratdi. Arastu ilohiyot ilmini «birinchi falsafa», oliv mushohada fani*

yoki «oliy falsafa» deb nomladi. U ilohiyot ilmini borliq, uning ibtidosi va mavjudligi sabablari to‘g‘risidagi fan sifatida belgilab berdi.

Musulmon Sharqida Arastu g‘oyasi ba‘zan Aflatun qoidalari ga qo‘shilgan holda (yoki bahslashgan holda) qat’iy yakkaxudolik ruhida qayta talqin etildi (masalan, al-Kindiy, al-Forobiy). Falsafaning (al-falasifaning) vujudga kelishi antik andozalar ta’sirida ro‘y berdi. Musulmon faylasuflari borliqning ilohiy mohiyatini rad etmagan holda, fanlarni yozma rivoyatlarga (ulum naqliya) asoslangan teologiya faniga hamda borliqni ratsional talqin etishga asoslangan ratsional (ulum aqliya) fanga ajratganlar. Al-falasifa shu ma’noda kalom ilmiga yaqin turadi. Kalom ilmida Arastu dialektikasining ustunligi sezilib turadi.

Markaziy Osiyo ham turli maktablarga mansub bo‘lgan (al-Beruniy, Ibn Sino, al-Forobiy maktablariga) mashhur faylasuflar silsilasini dunyoga tuhfa etgan. Bu faylasuflarning jahon falsafa fani oldidagi xizmatlari shundaki, ularning asarlarida falsafa va teologiyaning ajratilishi asoslab berilgan. Bunda falsafa «butun borliqni bilishning asosi» – g‘oyalar sifatida tasavvur etilgan bo‘lib, G‘arbiy Yevropa faylasuflari yuz yillardan keyingina shunday xulosaga kelganlar.

*XI–XIII asrlar Yevropa falsafasida teologiya tushunchasiga konseptual ilohiyot deya ta’rif berilgan. Teologiya o‘rta asrlar Yevropasining konseptuallashirilgan hukmron tafakkuriga aylangan. Teologiya dinni tadqiq etuvchi fan sifatida, falsafa esa «ilohiyot ilmining xizmatkori» (служанка «богословия») sifatida qabul qilingan va u teologiyaning qoidalarini asoslab berishi kerak deb hisoblangan. U teologiyani, ratsional uslubdagi qotib qolgan nuqtayi nazarlarni birlashtiruvchi sxolastika shaklida va shakliy-mantiqiy masalalarga moyil holatda maydonga chiqdi.*

Yangi zamonda falsafa teologiyadan ajratiladi va dindan uzoqlashtiriladi. Fan va din bir-biridan mustaqil holda yashay boshlay-

di. Shu bilan birga ular bir-biriga qarama-qarshi turadi. Teologiya «ilohiy haqiqat» bilan, falsafa esa yaxlit fan sifatida – tabiiy olam bilan shug‘ullanadi. Falsafa o‘zini bilishning hamma narsani, shu jumladan dinni ham o‘z muhokamasiga, tafakkur ila bilish doirasi-ga tortishi lozim bo‘lgan oliv ko‘rinishi sifatida his eta boshladi. Shu bois falsafa ilmnning tili va tushunchalaridan xudoning g‘oyalari hamda «ilohiy haqiqatni» asoslash uchun foydalanuvchi falsafiy teologiya g‘oyalari tez sur’atlarda rivojlana boshladi.

Hozirgi vaqtida teologiya (konfessiyaviy, cherkov teologiyasi) tushunchasi nazariy ilohiyot, ilohiy haqiqat sifatida qabul qilinadigan matnlar asosida tuzilgan, xudoning mohiyati va xatti-harakatlari to‘g‘risidagi xilma-xil xulosalar va ta’limotlar majmuyi sifatida tushuniladi. Falsafiy teologiya esa sof falsafiy vositalar orqali, ya’ni ilohiy haqiqat dalili va mazmunidan qat’i nazar, falsafiy asoslash, isbotlash va sistemalashtirish mezonlari hamda standartlariga muvofiq xudo to‘g‘risidagi ta’limotni yaratishga bo‘lgan intilish sifatida anglanadi.

Bu xudoni falsafiy anglash demakdir. Falsafiy teologiyaning vazifasi xudo to‘g‘risida falsafiy ta’limot yaratishdan iborat. Uning maqsadi birinchidan, xudoning mavjudligini, ikkinchidan, imkoniyat darajasida, xudoning tabiatini tushuntirib berishga, uchinchidan xudo va olam o‘rtasidagi, xudo va inson o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflashga qaratilgan.

Aytib o‘tish joizki, falsafiy teologiya, diniy teologiya kabi xudoni to‘liq va mukammal anglab yetish uchun da‘vogarlik qilmaydi. Falsafiy teologiya Xudoning asosiy sifatlarini ko‘rsatib berishga va anglashga intiladi. Qodirlik, har narsadan voqiflik, har yerda hozirlilik, doimiylik, g‘oyibiylik va boshqa shu kabilar xudoga xos fazilatlar sifatida e’tirof etiladi. Eng muhim muammo xudo va olam, xudo va yaratuvchilik, xudo va inson o‘rtasidagi munosabatlardan iboratdir<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 18–30.

Din – e’tiqod va u har bir kishining shaxsiy ishi hisoblanadi.

chilarning g‘ayrioddiy salohiyatga ega ekaniga (payg‘ambarlik), insonlar atrofida unga ko‘rinmaydigan, ammo undan ancha yuqori darajada turuvchi mavjudotlar (farishtalar, jinlar) borligiga, inson ideal hayot kechirishi uchun azaldan belgilangan qonuniyatlar mavjudligiga (muqaddas kitoblar), inson hayoti muntazam nazorat ostida ekaniga, qilingan barcha yaxshilik va yomonlik uchun mukofot yoki jazo muqarrarligiga (oxirat, hisob-kitob qilinish), inson qismati avvaldan belgilanishiga (taqdir) va shu kabi qarashlarga ishonish, ularni aqida sifatida qabul qilishdan iborat.

Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri, insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, uni yaratgan ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta’limotidir.

zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta’limotidir. U muayyan ta’limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatları orqali namoyon bo‘ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyatning ilk tarixidan to bizgacha o‘tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo‘lgan ma’naviy-axloqiy kuchdir.

Din ishonmoq tuyg‘usidir. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatning eng teran va go‘zal ruhiy-ma’naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda

dini, ishonchi bo'lмаган xalq yo'q. Xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Sotsiologik nuqtayi nazardan qaraganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hat-yotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga kel-tiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa dinni jamiyatda bajargan vazifalariga ko'ra o'rganish mumkin demakdir.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Dinni o'rganish tarixi qaysi davrlardan boshlangan, deb hisoblanadi?
2. Ilk diniy tasavvurlar qanday shakllardan iborat?
3. Animizm qanday mazmunga ega?
4. Dinni o'rganish borasida izlanish olib borgan antik davr mualliflaridan kimlarni bilasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar ja-moasi. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Naj-middinov J. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Rahimjonov D. va bosh-qalar. Dinshunoslik: darslik / Mas'ul muharrir N.Ibrohimov. – T.: Mehnat, 2004.
5. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va maro-simlari. – T.: Alisher Navoiy nomli milliy kutubxona nashriyoti, 2007.
6. Karomatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti nashriyoti, 2008.

### 3-mavzu. DINLARNI TASNIFFLASHDAGI YONDASHUVLAR

**Reja:**

1. Dinshunoslikda din tipologiyasi-ning o'rni.


2. Noilmiy tasniflar va ularning xususiyatlari.

3. Ilmiy tasniflar va ularning xususiyatlari.


**Tayanch tushunchalar:** din tipologiyasi, noilmiy va ilmiy tasnif, o'lik va tirik dinlar, tarixiy-geografik va mavzuviy tasnif.


**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda dinshunoslikdagi tasniflash turlari va ularning mazmun-mohiyati haqida tushuncha va tasavvurni hosil qilish.

**1. Dinshunoslikda din tipologiyasining o'rni.** Dirlarni o'rganishda muayyan mezon asosida tasnif etib, tadqiq etish lozim bo'ladi. Bu dirlarning tarixi, e'tiqodiy asoslari, aqidalari, shuningdek, bir-biriga qilgan ta'siri kabi jihatlarining chuqur va har tomonlama mukammal o'rganilishiga zamin yaratadi. Dirlar unga e'tiqod qiluvchilarining soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik yetuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi.



#### DUNYO DINLARI TASNIFI





Barcha dinlar o'z qarashi va odatiga ega

### I. Tarixiy-geografik tasnif.

1) O'rta yer dengizi havzasi dinlari:

- a) grek;
- b) rim;
- d) ellistik.

2) Qadimiy Yaqin va O'rta Sharq dinlari:

- a) Misr;
- b) Shumer;
- d) Akkad;
- e) g'arbiy-somiy;
- f) islomgacha arablar dinlari.

3) Yaqin va O'rta Sharqning payg'ambarli dinlari:

- a) zardushtiylik;
- b) yahudiylik;
- d) xristianlik;
- e) manixeizm;
- f) islom.

4) Hindiston dinlari:

- a) vedalar dinlari;
- b) hinduizm;
- d) hind buddizmi (teravada, maxayana);



Dunyodagi turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'ziga xos diniy liboslari bilan ham ajralib turadilar

e) jaynizm.

5) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari:

a) Shri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;

b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);

d) Koreya va Yaponiya dinlari.

6) Amerika hindulari dinlari:

a) toltek va atsteklar dinlari;

b) inkler dinlari;

d) mayyalar dinlari.

## II. Etnik tasnif.


1) urug'-qabila dinlari – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrgar, shomon yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylilik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin


bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kirtadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'llimotiga ko'ra monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko'pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi.



Dinlardagi muqaddas manbalar dindorlar uchun yo'llanma bo'lib xizmat qiladi

## DINLARNI TASNIFFLASHDAGI YONDASHUVLAR



**2. Noilmiy tasniflar va ularning xususiyatlari.** Dinshunoslар турли илм-фан соҳалари вакиллари бо‘лаб, динларни о‘злари мансуб бо‘лган илм ўналиши нуқтayı нazaridan о‘рганиб, турлича tasnifланганлар. Shuning uchun bu tasniflar о‘rtasida ба’зи tafovutlar bo‘lishi tabiiy. Masalan, din tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar dinlarning yuzaga kelish tarixiga ko‘ra davriy jihatdan tasnifланганлар. Boshqa bir гурух олимлар динларни paydo bo‘лган va tarqalgan mintaqalariga ko‘ra tasnifланганлар. Ayrim dinshunoslар diniy mavzusiga ko‘ra dinlarni tasnifланганлар. «Tarix al-adyon» asarida tasniflar ikkita katta гурухга ajratilgan:

- tarix, jo‘g‘rofiya yoki dinshunoslik kabi muayyan fan sohasiga tayangan xolis ilmiy tasniflar;

- muayyan fan sohasi bilan bog‘lanmagan noilmiy tasniflar.

Noilmiy tasniflar: A) tirik va o‘lik dinlar.

Bunda hozirgi zamon kishisining diniy hayotida mavjud yoki mavjud emasligi nuqtayı nazaridan tasnifланади. Unga ko‘ra tirik dinlar — hozirda mavjud bo‘лаб, унга e‘тиқод qiluvchi o‘z tarafдорларига ega bo‘лган dinlardir. O‘lik dinlar esa, tarixda o‘z nihoya-

siga yetib, bugungi kunda mavjud bo'lmay, hech kim unga e'tiqod qilmaydigan dinlardir.

Bu tasnifning noilmiyligi shundaki, aslida dinlar haqiqiy ma'nda o'lmaydi, balki bir dindagi aqidalar boshqa bir dinga o'tadi. Asl tarixiy kelib chiqishi bir o'zakka borib taqaladigan diniy guruhda-

gi biror din bilan o'zaro ta'sir jarayonida diniy g'oyalalar tarixiy kelib chiqishi jihatidan bir aslga taalluqli boshqa bir dinda saqlanib qoladi. Uman, bir diniy o'zakka taalluqli bo'lgan dinlar guruhi tarkibidagi diniy g'oyalalar o'zaro meros bo'lib o'tadi. Tarixda biror dinning o'z nihoyasiga yetganini ko'rsak, bu

Xristianlik, islam, hinduizm, buddizm va yahudiylilik dunyoda eng ko'p e'tiqod qiluv-chilariga ega dinlar hisoblanadi


uning diniy g'oyasi butkul o'lganligini bildirmaydi. Dinlar tarixida bunga ko'plab yorqin misollar bor. Masalan, qadimgi brahmanlik diniy g'oyalari butkul o'lgan emas, balki hinduviylik, buddaviylik, jayniylik dinlarida davom etib, yashab kelmoqda. Shuningdek, ibtidoiy diniy g'oyalalar hozir ham yo mustaqil shaklda, yo ba'zi zamonaviy dinlar bilan uyg'unlashgan holda mavjud.

Masalan, Afrika qit'asida xristianlik va islam dinlari tarqalganidan so'ng u yerdagi ibtidoiy diniy qarshlar bilan uyg'unlashgan. O'zining ibtidoiy qadriyatlaridan xalos bo'la olmagan afrikalik dindor ularni yangi din bilan omuxta qilgan. Shuningdek, ibtidoiy qarashlarga asoslangan dinlar Uzoq Sharq dinlari bilan uyg'unlashib, ularning asosiy tarkibiy qismlaridan biriga aylan-gan. Ayni bir muhitda keyinchalik paydo bo'lib, ma'lum davr yonma-yon davom etib kelgan va tarixiy jarayonda o'z nihoyasiga yetgan ko'plab qadimgi dinlarda o'zaro nomutanosiblik yuz bergen.

B) tabiiy va metafizik dinlar.

Bunda dinlar diniy g'oyasini tabiatdan oladigan tabiiy dinlar va tabiat orti metafizik tafakkurga asoslangan g'ayritabiyy dinlar

tarzida ajratiladi. Bunday tasnif dinlarni zo'rma-zo'raki ajratish bo'lib, xolis emas. Chunki, dinlar odatda tabiatga, vujudga yoki koinotga, borliqqa umumiy nazar bilan qaraydi. Tabiiy va tabiat orti-metafizik olam haqida keng tushuncha hosil qiladi, garchi bu ikki olamning ikkinchisisiz markazlashgan bo'lsa ham. Ibtidoiy dinkardan, masalan, tabiiy dinlarda inson tabiat bilan bog'liq bo'lib, o'zini moddiy-hissiy tabiat unsurlaridan biri deb hisoblaydi. Shuningdek, bu inson tabiat orti olam haqida ibtidoiy tushunchasidan qat'i nazar ajratilmaydi. Bu olam qarshisida unga nisbatan ibtidoiy odam hayoti haqida afsona-asotirlar to'qilgan.



Dunyo dinlariga e'tiqod qiluvchilarning jahon aholisining umumiy soniga nisbatan ulushi (2015-y.)

Uning fikriy yoki ilmiy saviyasi tabiatdan fikriy mustaqil bo'lishga yo'l qo'ymaydi. Tarixda uning ilmiy yuksalishi bilan diniy mafkurasi ham tabiatdan mustaqil bo'la boshlagan. Yer bilan bog'liq diniy-tabiiy mafkurasi o'zgarib, diniy-metafizik tafakkurga o'ta boshlagan. Bunday o'zgarish bilan diniy bilimlarning tashqi manbasi asosida tabiat fikrlash va tafakkur obyekti bo'lib qolgan. Yakkaxudolik ma'lum bo'lganidan so'ng tabiat yagona iloh yaratgan bir mavjudotga aylandi. Tabiatning diniy tafakkur-

dagi mavqeyi o'zgardi. Har qanday shakllari va bir qancha unsurlarida muqaddaslik va ibodat obyektiga aylanganidan so'ng Alloh yaratgan maxluqotlari sirasiga qo'shiladi. Tabiatning inson bilan aloqasi ham yangicha asosda muayyanlashdi. Inson tabiatga qul bo'lib sig'inganidan so'ng uning imkoniyatlaridan foydalanuvchi egasiga aylandi. Tabiat insonga xizmat qiluvchi, inson esa uni tasarruf etuvchi rahbarga aylandi.

#### D) haq va botil dinlar.

Bu muayyan diniy yoki mazhabiy qarash bilan bog'liq subjektiv tasnifdir. Bu odatda bir dinni haqiqiy deb, boshqasini botil e'tiqod guruhi deb tasniflash mumkin emas. Bunday tasnif asoschilar o'z dinini haq deb, boshqa dinlarni botil, soxta, noto'g'ri deb hisoblaydi. Bu tasnif dinlarni tanqid qilish yoki baholashga assoslanib, dinlarni to'g'ri va xato, haq va zalolat, yanglish, adashish, deb tavsiflaydi. Shuning uchun bu baracha dinlarni ayni paytda haqiqiy yoki botil deb hukm qilish bilan yakunlanadigan tasnifdir. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi dindor o'z dinini haq deb, boshqa dinlarni botil deb hisoblaydi. Bunday tasnif mutaassiblik boshqa dinlarga qarshi kayfiyatdagagi bir din qobig'iga o'ralib qolgan assoslanadi. Lekin taassubni bir qator ichki firqalarga bo'linadigan bir din ichida ham ko'rish mumkin. Bunday firqalarga mansub kishilar o'z firqalarini boshqa botil firqalar ichida sof dinga asoslangan deb hisoblaydi. Bu tasnif nisbiy bo'lgani va o'z qobig'iga o'ralib qolganligi sababli dinlarni tasniflashda mezon bo'la olmaydi. Chunki, barcha dinlar ham haqiqatga erishish yo'llari bo'lib, o'sha haqiqat darajasi va usullari turlicha. Shuningdek, dinlarda bir-biri bilan bog'liq va bu bog'liqlik ularning har birini haqiqatan nasibador qiladi.

#### E) dinlarning statistik tasnifi.

Bunday tasnifda dinlar ularga e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra yuqorida pastga tomon tadrijiy sur'atda tartiblanadi. Biroq bu nisbiy va doimo o'zgarib boradigan tasnif bo'lib, bir qator manbalarga assoslanadi.

Birinchidan, dinlarning ahamiyati va qadr-qimmati ularning tarafдорлари miqdori bilan o'lchanmaydi. Diniy jihatdan yuqori darajada rivojlangan shunday dinlar ham borki, ularga ergashuvchilar soni ozchilikni tashkil qildi. Masalan, yahudiylar o'z dinlarini o'zlariga xoslab olib, uning o'zgarishi va keng yoyilishiga qarshilik qilganlar.

Ammo, asosan Afrika, Osiyo va Janubiy Amerikada ko'proq tarqalgan, diniy g'oyasi va ahamiyati u darajada yuqori bo'limgan, lekin tarafдорлари ko'pchilikni tashkil etuvchi ibtidoiy dinlar ham bor. Yana tarafдорлари kam bo'lib, boshqa dinlarga katta ta'sir ko'rsatgan dinlar ham bor. Masalan, zardushtiylik xristianlikka va ko'proq yahudiylikka katta ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchidan, dinlarning asl statistik hisobi aniqlanishiga qadar ularga e'tiqod qiluvchilar soni o'zgarib boradi.

Uchinchidan, eng muhim muammo va statistikaga ta'sir etuvchi monelik shundaki, G'arb mamlakatlaridagi ba'zi statistik ma'lumotlarda diniy taassub yuzasidan o'zi mansub bo'lgan din tarafдорлари sonini o'zga dinlarga e'tiqod qiluvchilar sonidan yuqori qilib ko'rsatish hollari uchrab turadi. Ushbu muassasalar-da olib boriladigan hisobotlarda xristianlikka katta e'tibor qaratilib, boshqa dinlardan uning tarafдорлари soni jihatidan doimo yuqori deb ko'rsatiladi.

To'rtinchidan, statistik hisobotlar ko'p va ular turli dinlarga mansub bir qancha idoralar tomonidan olib boriladi. Ularda asosan bir-biriga qarama-qarshi nomutanosib diniy bayonotlar va statistik xulosalar beriladi.



Afrika qit'asining diniy manzarasi

Beshinchidan, ba'zi davlatlardagi statistik amaliyotlar turli-cha va hisobotlarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yetarli emas.

Oltinchidan, dunyoning ba'zi mintaqalarida dinlar va oqimlar aralashib ketmoqda. Ayniqsa, mavjud diniy yo'nalishlar o'rtasida yaqinlik yuzaga kelayotgan bir paytda har bir dinning o'sishini alohida qamrab olish qiyin. Hindiston atrofidagi diniy g'oyalari bir-biriga yaqin bo'lgan firqa va jamoalarga o'xshash dinlarda so-dir bo'layotgan jarayonlar bunga misol bo'la oladi. Soxta tarafdlarga ega bo'lgan bahoiylik, qodiyoniylik, sikxiylik, daolik, sin-toiylik kabi dinlar ham bir qancha dinlarning aqidaviy g'oyalalarini o'zlashtirgan. Shuningdek, yahudiylilik, xristianlik, islom, hinduviylik, buddaviylik ta'limotlarini qorishtirib yuborgan dinlar masalani chigallashtiradi. Bunda o'zaro nizoda bo'lgan dinlarning mohiyati haqida biror tayinli xulosaga kelish mushkul.

Yettinchidan, diniy firqalarning bir din ichidan mustaqil aqidalar sifatida ajralib chiqqan mazhablar statistik hisobotlarda alohida hisob qilinadi. Masalan, pravoslav, katolik, protestantlik kabi xristianlik yo'nalishlari, somiriylar va qarosiylar kabi yahudiylilik oqimlari bunga misol bo'la oladi. Ortodoksal yahudiylilik ularni e'tirof etmaydi va yahudiylilik dini hisobiga kiritmaydi.

Sakkizinchidan, statistikada-gi yana bir muammo, dinlarning shakllanishi masalasidir. Bu muammo G'arb mamlakatlari-da va sobiq Sovet Ittifoqida yor-



G'arbiy Yevropaning xristianlik yo'nalishlari tarqalganligi bo'yicha diniy manzarasi

qin ko'zga tashlanadi. Yevropa va Shimoliy Amerikada dunyoviylik va ateizm tarqalgan. Yahudiylik va xristianlikning mutlaq ustunligi yakunlanib, uning o'rnini dinni inkor etuvchi yoki u har qaysi insonning shaxsiy ishi deb qaraydigan dunyoviy jamoalar egalladi. Sovet Ittifoqi respublikalarida kommunizm va uning turli shakllari tarqalgan edi va din butunlay inkor etilardi.



Diniy mazhablarni mustaqil din sifatida hisobga olinishi dinlarning statistik tasnifini ishlab chiqishda murakkablik tug'diradi

Mazkur yorqin haqiqatlarga qaramay, G'arb statistikasi buni e'tiborga olmaydi. Dinni inkor etish, qatag'on qilish va qarshiliklarga qaramay, G'arb statistikasi to'laligicha xristianlik doirasi-da olib boriladi. Shuningdek, haqiqiy dinning kelib chiqishi, dindorlarning asl voqelikda qaysi dingga taalluqli ekanligini aniqlash masalasi ham shu bilan bog'liq. Moddiy va iqtisodiy avrashlar kabi turli vositalarni qo'llash, ta'limiy va tibbiy xizmat ko'rsatish yo'llari bilan xristianlikning statistik ko'rsatkichlarini yuqori deb belgilashda missionerlik harakatlari katta muvaffaqiyatlar-ga erishdi. Shunday yo'llar vositasida xristianlikni qabul qilgan kishilar ongli ravishda undan taskin topib, qoniqib, uning asl mohiyatini anglagan holda qabul qilmagan.

To'qqizinchidan, dinlarning tarqalish harakati va uning nati-jasida kelib chiqqan diniy o'zgarishlar ham statistikaning aniq

va to'g'ri bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Diniy o'zgarish, ya'ni bir dindan chiqib, ikkinchi dinga o'tish natijasida muayyan din tarafdarlarining soni oshadi, boshqalariniki esa kamayadi. Bu islam, xristianlik va buddaviylik kabi jahon dinlari tarafdarlarining ko'payishi va boshqa dinlar tarafdarlari o'z dinlaridan boshqa dinga o'tib ketishi sababli kamayib ketishiga olib keladi. Bu bir dindan boshqa dinga o'tish harakatini aniq belgilash mumkin. Chunki, bu harakat muttasil davom etadi.

## WORLD RELIGIONS

### INFOGRAPHIC


#### MUSLIM POPULATION IS GROWING FASTER THAN OTHERS



### RATIO OF RELIGIONS ON THE WORLD MAP



### THE NUMBER OF PARISHES IN THE WORLD'S MAJOR RELIGIONS



Dinlarning tarqalish harakati va uning natijasida kelib chiqqan diniy o'zgarishlar ham statistikaning aniq va to'g'ri bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi


O'ninchidan, diniy statistikaning to'g'ri bo'lishida dindorlarning boshqa mintaqalarga ko'chishi ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ko'pchilik musulmonlarning Yevropa va Amerikaga, yahudiylarning Isroiilga, Hindiston yarim orolidagi ko'pchilik aholining o'zlarining turli xil dinlari bilan G'arb mamlakatlariga ko'chib ketayotganligi bunga misol bo'la oladi. Ko'chish harakati

dunyoning turli mintaqalariga ko'chib borgan dindorlarning haqiqiy hisobini o'rganishda qiyinchilik tug'diradi. Ko'chish harakatlari joylashish imkoniyatlariga ko'ra ba'zan doimiy va vaqtinchalik bo'lib turadi va statistikaning takrorlanib qolishi yoki ko'plab shaxslarning ikkilantirilish xatosi yuz beradi.

Umuman dinlarning muttasil harakati va ba'zi mintaqalarda tarqalib, boshqa joylarda esa, tarqalishning to'xtashi, ba'zi dindorlarning sobiq dinlariga qaytish harakatlari – bularning bar-chasi statistikaning aniq bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Dinlarning tarqalish harakatlari dindorlar sonining aniq hisobotlariga erishishga monelik qiladi.

**3. Ilmiy tasniflar va ularning xususiyatlari.** Dinlarni tasniflash bilan turli fan sohalari shug'ullangan va bu tasniflarda ularning izlanish ko'lami va ixtisosliklari aks etgan. Bu tasniflarning eng muhimlari dinlarning jo'g'rofiy tarqalishi, tarixiy kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan hamda diniy mavzusiga ko'ra tasniflashdir. Bu tasniflar yuqoridaq noilmiy tasniflardan farqli ravishda garchi ilmiy asoslarga ega bo'lsa-da ularni ham mutlaq to'g'ri tasniflar deb bo'lmaydi.

A) dinlarning jo'g'rofiy tasnifi.



Dunyo dinlari yuzaga kelgan geografik hududlar

Bu tasnif jo‘g‘rofiya fani bilan hamohang bo‘lib, dirlarni jo‘g‘rofiy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan e’tiborning rivoji asosida «Dinlar jo‘g‘rofiyasi» atalmish fan sohasi yuzaga kelgan. Unda dinlarning jo‘g‘rofiy yoyilishi va tarqalgan mintaqalarini belgilash asosida jo‘g‘rofiy atlas tuzish, dinlarning tarqalish harakatini kuzatish kabi jo‘g‘rofiya bilan bog‘liq mavzular o‘rganiladi.

Bunda hozir mavjud bo‘lgan dinlar bir necha xil tasniflanadi:

1. Dirlarning qit’alarda tarqalishiga ko‘ra Afrika, Osiyo, Yevropa, Amerika va Avstraliya dinlari tarzida tasniflash. Biroq bu unchalik munosib tasnif emas. Chunki, shunday dinlar ham borki, ular bir necha qit’alarda hamon tarqalmoqda. Xususan, islom va xristianlik deyarli barcha qit’alarda tarqalgan. Shuningdek, ba’zi qit’alarda ozchilikni tashkil etuvchi ba’zi boshqa dinlar vakillari ham bo‘lishi bilan birga deyarli aksar aholi bir dinga e’tiqod qiladi. Masalan, Yevropada asosan xristianlik ko‘p tarqalgan, islom Amerikaga nisbatan Afrikada ko‘proq tarqalgan. Osiyo qit’asida islom, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik dinlari aralash tarqalgan. Ba’zan bir qit’ada paydo bo‘lgan din boshqa qit’ada keng yoyilgan. Masalan, xristianlik Falastinda vujudga kelgan bo‘lsada, asosan Osiyo qit’asidan tashqarida tarqaldi.

2. Dirlarning jo‘g‘rofiy mintaqasiga ko‘ra Sharq dinlari va G‘arb dinlari tarzida tasniflash. Bu dunyoning qutblarga bo‘linishiga monand siyosiy va madaniy tafovutni aks ettiruvchi keng jo‘g‘rofiy tasnifdir. Sharq dinlariga hinduiy, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik, daolik va boshqa Uzoq Sharq dinlari kiritiladi. G‘arb dinlariga yahudiylilik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi. Aslida islom dinini G‘arb yoki Sharq dini deb bo‘lmaydi. U jo‘g‘rofiy jihatdan Sharqda yuzaga kelib, G‘arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Yahudiylilik va xristianlik ham aslida Sharq dinlari bo‘lib, Yaqin Sharqda vujudga kelgan va G‘arb mamlakatlarida keng yoyilgan.

3. G‘arb tasniflaridan yana biri dunyoning bo‘linishiga monand dinlarni jo‘g‘rofiy mintaqasiga ko‘ra tasniflashdir. Bunda dinlar Yaqin Sharq dinlari, Uzoq Sharq dinlari tarzida yoki

G'arbiy Afrika dinlari va Shimoliy Afrika dinlari tarzida yoki jo'g'rofiy-siyosiy omillarga ko'ra Hind dinlari, Sovet Ittifoqi dinlari, Arab dunyosi dinlari tarzida tasniflanadi.

4. Qadimgi dinlar siyosiy mintaqalarga ko'ra Mesopotamiya dinlari, Suriya mintaqasi dinlari, Kichik Osiyo yoki Anado'li dinlari, Fors dinlari tarzida tasniflanadi.

5. Dinlar mamlakatlar hududlariga ko'ra Falastin dinlari, Arabiniston yarim oroli dinlari, Meksika dinlari, Hind dinlari, Xitoy dinlari, Yapon dinlari tarzida tasniflanadi.



Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi bir necha diniy-falsafiy ta'lilotlarning vatani sanaladi

Uzoq Sharq dinlari kabi ba'zi mintaqalarda diniy mavzusiga ko'ra aniq belgilash imkonini bo'lmagan ko'p hollarda jo'g'rofiy tasnif qulay ilmiy tasnifdir. Masalan, yahudiylilik, xristianlik va islam dinlarini taymid (yakkaxudolik, monoteizm) asosida umumlashtirilsa, Uzoq Sharq dinlarini yagona diniy tushuncha asosida umumlashtirib bo'lmaydi. Bunday holatda muammoning yechimi sifatida jo'g'rofiy tasnifga murojaat qilish mumkin. Lekin, bu tasnif ham dinlarning paydo bo'lgan va tarqalgan mintaqalari ga ko'ra o'rganishda samarali uslubdir. Bu tasnif orqali dinlar-

ning jo‘g‘rofiy joylashuvi ularning qaysi mintaqalarga qay tarzda va ko‘lamda tarqalgani hamda kirib borayotganligi o‘rganiladi. Bunday tasnif doimo o‘zgarib, yangilanib boradi. Chunki, dunyoning diniy xaritasi o‘zgarib, dinlarning tarqalish harakati davom etmoqda. Masalan, xristianlik, islom va buddaviylikning davomiy harakati jarayonida dunyo aholisining diniy holati o‘zgarib bormoqda. Demak, dinlarning bunday harakatini aniqlashda xalqlarning diniy joylashuviga ko‘ra jo‘g‘rofiy tasnifga murojaat qilish lozim.

### B) dinlarning tarixiy tasnifi.

Bu tasnifda dinlarni tarix sahnasida paydo bo‘lish davriga ko‘ra tartiblanadi hamda tarixiy davrlar qadimgi, o‘rtaligida va yangi davrlarga ajratilgan taqsimotga asoslanadi. Bunda dinlar quydagicha tasniflanadi:

- ibridoiy va qadimgi dinlar hamda o‘rtaligida asrlar va yangi davr dinlari, ba’zan ibridoiy va madaniy dinlar;
- ibridoiy va qadimgi davr dinlari, tarixiy sivilizatsiya dinlari va yangi davr dinlari.

Bu odatda dinlarning paydo bo‘lishi davriga ko‘ra tarixiy tartiblashdir. Gohida dinlar tarixi xalqlar tarixi bilan bog‘lanadi. Chunki xalqlarning siyosiy tarixi yuzaga kelgandan so‘ng ularning diniy tarixi ko‘rinadi. Ko‘pgina qadimgi manbalarda xalqlarning siyosiy tarixi diniy tarixi bilan bog‘langan.

Dinlarning tarixiy tasnifida bir qancha muammolar mavjud. Ulardan biri ko‘plab dinlarning xususan, ibridoiy dinlar ba’zi tarixiy dinlarning paydo bo‘lish davrlari aniqligiga belgilanmaganligi. Yana bir muammo shundaki, ba’zi dinlar bir paytda paydo bo‘lganligi sababli ularning yuzaga kelish davrini aniqlash mushkul. Ayniqsa, biror din asoschisining shaxsiyati asotir (afsona) va xurofotlar bilan aralashib ketgan bo‘lsa, u tarixga yashirinadi. Hinduviylik, daolik, buddaviylik, jaynizm, zurdushtiylik, konfutsiylik kabi bir davr atrofida paydo bo‘lgan dinlar m.a. VI asrga borib taqaladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 66–69.

Bu dinlarning ko‘pchilik asoschilari shaxsiyati afsonalar bilan bog‘langan, ularning o‘z dinlarini tuzishdagi sharoit va davrlarga tarixan nazar tashlashga to‘sqinlik qiladi. Mazkur dinlarning paydo bo‘lish tarixini belgilashdagi qiyinchilik ularning tarixda tugagan davrlarini ham belgilashda qiyinchilik tug‘diradi.

*Tarixiy tasnifda tavhidiy dinlarning faqat tarix sahnasida paydo bo‘lish davri belgilanadi. Biroq, ularni harakatga keltiruvchi va tavhidning insoniyat tarixi ibtidosiga borib taqaluvchi azaliy din ekanligini uqtiruvchi bosh g‘oyalarini belgilaydi. Islomiy nuqtayi nazar u insonning azaliy dini ekanligini uqtiradi (Islom o‘zini insoniyatning azaliy dini deb hisoblaydi).*

Dinlarning tarixiy tasnifida bunday tarixiy-nazariy mulo-hazalarga asoslanilmaydi, balki dinlarning tarixiy voqealigi ku-zatiladi va diniy g‘oyalalar tarixini aniqlaydi. Tarixiy tasnifning nuqsoni shundaki, unda dinlarning tarixiy voqealigiga e’tibor qaratilib, ularning tarixiy asoslari haqidagi diniy nazariyalar, shuningdek, garchi muayyan dinning faoliyati tarixan tugagan bo‘lsa ham uning diniy g‘oyalari davom etishi e’tirof etilmaydi. Ba’zan dinlar asl asosiy shaklida tugaydi va diniy firqa va mazhablar shaklida yoki boshqa mazhablardagi ba’zi ta’sirlarda namoyon bo‘ladi.

Boshqa jihatdan, tarixiy davrlar tasnifini dinlar tarixiga joriy etish qiyin. Chunki, dinlar tarixi xalq va davlatlar tarixi bilan zaruriy bog‘langan emas. Dinlarni o‘rta asrlar dinlari va ya-qin davrlar dinlari tarzida tasniflash qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Bunda dinlarning o‘rta asrlarda va yangi davrlarda paydo bo‘lganligi emas, o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan dinlar yoki yangi davrda mavjud bo‘lgan dinlar nazarda tutiladi. O‘rta asrlar va yangi davrdagi diniy vaziyat jihatidan yangi deyish mumkin. Biroq dinlarni muayyan tarixiy davrlarga muvofiq harfiy shaklda tarixiy tasnifga bo‘ysundirib bo‘lmaydi.

**D)** dinlarning mavzusiga ko‘ra tasnif.

Bu tasnif diniy omil yoki diniy mavzuga asoslanadi. Dinsonslarga ma'lum bo'ldiki, tarix, jo'g'rofiya kabi fan sohalari bilan bog'liq tasniflar o'z qiymati va foydasiga qaramay, dinlarning mavzuviy mundarijasini bosib o'ta olmaydi, asl diniy tafakkurga asoslanmaydi. Shuning uchun dinlarni diniy tabiatiga ko'ra tasniflash mumkinligiga ishonch bo'lgan. Bu biror diniy tushuncha yoki e'tiqodni tanlash tasnif omili sifatida qabul qilish bilan bo'lgan. Bunday tasnif dinlarning eng munosib tasnifi hisoblanadi. U dinlarning diniy tushuncha va aqidalaridagi farq va o'xshashliklarga asoslanadi.

O'xshash dinlarni muayyan diniy mavzu yoki eng ko'p ishlataladigan e'tiqod nomi asosida bir diniy guruhga birlashtirish mumkin. Dinlarga qiyosiy yondashuvda ular asosida dinlarni tasniflash mumkin bo'lgan diniy tushuncha va omillarning soni aniqlanishiga erishiladi.

Dinlarni bir-biridan farqlovchi diniy tushunchalardan eng birinchisi iloh tushunchasidir. Bu tushuncha yo'q bo'lgan va boshqa ba'zi dinlar o'rtasidagi asosdir. Shuning uchun dinlar xudoga e'tiqod qilish yoki qilmaslikka asoslanishiga ko'ra ilohiy dinlar va ilohiy bo'limgan dinlar tarzida ham tasniflangan. Ilohiy dinlar guruhi ichida sig'iniladigan xudolar miqdoriga ko'ra tafovut bor hamda ichki taqsim xudolar miqdori asosida bo'ladi. Shunga ko'ra dinlar yakkaxudolik (monoteistik) va ko'pxudolik (politeistik) dinlar tarzida tasniflanadi. Bu ikki guruh o'rtasida ikkixudolik (sanaviya yoki dualistik) dinlar bor.

Ilohiy bo'limgan dinlar guruhiga turli tabiat kuchlari va unsurlari bilan aloqador qadimgi dinlar, shuningdek, qadimgi sivilizatsiya markazlarida mavjud bo'lgan quyidagi dinlar kiradi:

- Misr dinlari;
- Ossuriya va Bobil dinlari;
- Yunon va Rim dinlari;
- Anadolidagi xalqlar dinlari va shu kabi boshqa qadimgi Yaqin Sharq mintaqasidagi dinlar.

Tavhid guruhidagi yahudiylik, xristianlik va islom dirlari o'rtasida tavhid tushunchasi va iloh mohiyati xususida ixtilof mavjud.

Uchinchi guruhga zardushtiylik va undan kelib chiqqan moniylik, mazdakiylik kabi oqimlari kiradi.

Demak, bu tasnif iloh tushunchasi va sig'iniladigan xudolar miqdoriga asoslanadi. Iloh tushunchasi asosida dinlar yana asl manbayi ilohiy bo'lgan dinlar va insonlar tomonidan ta'sis etilgan soxta dinlar tarzidagi tasnif ham bor. Ilohiy dinlar ba'zan insonlar tomonidan tuzilgan Yer dinlaridan farqli ravishda Samoviylar deb ham yuritiladi. Shuningdek, dinlar diniy bilimning tashqi manbayi bo'lgan ilohiy vahiyga yoki hech bir tashqi manbasiz, faqat inson tafakkuriga asoslanganligiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

*Vahiy dinlari (vahiy kitobiga asoslangan kitobiy dinlar). Bu dinlar ba'zan payg'ambarli dinlar deb ham yuritiladi. Ular ilohiy vahiyni qabul qilgan va qavmlariga vahiyning mazmun-mohiyatini yetkazgan payg'ambarlar guruhi bilan ko'p jihatlarda bog'liq. Chunki, vahiy dinlarida payg'ambarlar alohida shaxsiyatga ega bo'lib, boshqa dinlarda ularga o'xshashi yo'q. Bunday dinlar ba'zan nubuvvat dinlari deb ham yuritiladi. O'z asoschilari tomonidan yozilgan kitoblar va ularning so'zlari yoki shu kabi boshqa insonlar tomonidan yozilgan matnlarga asoslangan, vahiy kitobi bo'limgan dinlar.*

Shuningdek, ilohiylik va tavhid omili hamda ulardan kelib chiqqan tushunchalar bilan birga dinlarni tasniflashda murojaat qilinadigan boshqa tushunchalar ham bor. Masalan:

– Juhon dinlari (islom, xristianlik va buddaviylik). Bunday dinlar tarafdorlari o'z dinlarini muayyan qavmgagina xos bo'lmay, jahonshumul ahamiyatga ega deb hisoblaydilar.

– Milliy dinlar yoki mahalliy xalq dinlari (hinduviylik, yahudiylik va boshqalar). Bunday dinlar tarafdorlari qavmining o'z dinlarini va sig'inadigan xudolarini ulardan boshqa hech kim-

ga xos bo'limgan o'zgacha mohiyatga ega deb hisoblaydilar. Shuningdek, bu guruhgaga xudo muayyan qabila yoki jamoa bilan qondosh-irqiy munosabatlarda bog'liq bo'lgan hamda ota-bobolari ruhiga sig'inish e'tiqodiga asoslangan ibtidoiy qabilaviy dinlar ham mansubdir.

Bundan tashqari, dindagi jahonshumullik va xususiylik asosida dinlarni tashviqot qiladigan va tashviqot qilmaydigan dinlar tarzida ham tasniflanadi. Jahon dinlari yoyilishiga, aqida va g'oyalarini tarqatishga katta e'tibor bilan intiladi. Ammo, muayyan qavmga xos dinlarda tashviqot rag'bat yo'q. Chunki, ularda xudo umumbashariy bo'lmay, milliy ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Yahudiylik ham o'z diniy g'oyalarining umumjahon salohiyatga egaligi, o'z xudosi butun dunyo xudosi ekanligi jihatidan o'zini olamshumul deb da'vo qiladi. Shuningdek, u yagona xudoni faqat o'ziga xoslashi, yakkaxudolikni o'ziniki qilib olishi va uni boshqalardan qizg'anishi jihatidan xos milliylikni ham ifoda etadi.

Dinlarning har bir guruhidagi bosh yo'naliш yoki o'lchovni oraliqqa ko'ra, mavzuga ko'ra tasniflash ham mumkin. Masalan, Uzoq Sharq dinlarida falsafaga tobelik ustun bo'lib, borliq, tabiat va koinot borasida falsafalarni birinchi o'ringa qo'yadi. Shuning uchun ba'zi din tarixchilari bunday dinlarni ilohiy vahiyiga asoslangan yakkaxudolik dinlaridan farqli ravishda «falsafiy dinlar» deb ham ataydilar. Bunday tasnif ikki guruhdagi bilish manbayiga asoslanadi. Birinchi guruh manbayi aqliy-falsafiy manba, ikkinchi guruh manbayi vahiy. Vahiyni aql tushuntirib beradi. Ba'zi din tarixchilari Uzoq Sharq dinlari guruhini «tasavvufiy dinlar» deb atashni afzal deb hisoblaydilar. Chunki, zohidlik yoki ixtiyoriy faqirlik bu dinlar o'z e'tiqod qiluvchilarining najot topishlari uchun belgilab qo'ygan uslub yoki tariqati bo'lib, ruhiy riyozatlar, qadriyatlari haqidagi tafakkur va undagi ibodat yo'llariga asoslanadi.

Ammo, yakkaxudolik dinlarida ruhiy poklanishdan uzoqlashish ijobiy holat sanalmaydi. Uzoq Sharq dinlarida esa, zohidlik yakkaxudolikka olib boradi.

*Tasavvuf birinchi va ikkinchi guruhi o'rta sidagi farqli omil si-fatida ishlatiladi. Ba'zi din tarixchilarini boshqa dinlardan farqlash maqsadida Uzoq Sharq dinlarini «axloqiy dinlar» deb ataydilar. Bu boshqa dinlar axloqiy masalalarga e'tibor bermaydi, degani emas, balki ba'zi Uzoq Sharq dinlarida axloq asosiy o'rinni tutadi. Masalan, ulardan farqli ravishda yakkaxudolik dinlarida axloq din bilan bog'liq bo'lib, dinnining natijalaridan biri ekanligini yoki aqidalarning hayotdagi amaliy tatbiqi ekanligini ko'ramiz. Din bosh asos, axloq esa, diniy tafakkurning amaliy tatbiq'idir. Ko'pchilik Sharq dinlarning axloqiy nizomlar ekanligi va ulardan asosiy maqsad jamiyatda insonlar o'rta sidagi o'zaro munosabatlarni axloqiy qadriyatlar va manbalar guruhi orqali tartibga solinishini ta'riflashda «din» so'zini ishlatish shart emas.*

Buddaviylik va hinduviylikda ko'ringani kabi Xitoy va Yapon dinlarida bu manzara yorqin oydinlashadi. Dirlarning bu guruhi axloqiy tartiblarni keltirib chiqargan falsafani mavjudlik va tiriklikni birinchi o'ringa qo'yishi bilan alohida ajralib turadi. Bu axloqiy tartiblarga so'fiylik tariqati orqali erishiladi va amalga oshadi. Shuning uchun ular falsafiy-axloqiy-tasavvufiy dinlardir.

Bunga muqobil ravishda ba'zi dinshunoslar yakkaxudolik dinlarini «tashri'iylar» (qonunchilik asoslariga ega) dinlar deb ham ataydilar. Bu dinlar insonlar hayotini tartibga solish uchun ilohiy vahiy orqali ta'sis etilgan shar'iy ko'rsatma va qonunlarga asoslanadi. Shariax xususiyatlaridan biri — mas'uliyatli vazifa yuklash. Inson ilohiy qonunlar va hukmlarga bo'ysunishi va majburiyatlarni to'liq bajarishi lozim. Yakkaxudolik dinlaridagi diniy-shar'iy majburiyatlar so'fiylik dinlaridagi tariqatga muqobil keladi. Lekin axloq Uzoq Sharq dinlaridagi so'fiylik tariqatlariga bog'liq bo'lishi bilan vahiy dinlaridagi shariat bilan ham bog'liqdir.

Ba'zan dinlar pirovard maqsadlari jihatidan ham tasniflanadi. Chunki, ko'pgina Uzoq Sharq dinlari, shuningdek, yahudiylilik va xristianlikdagi pirovard maqsad insonni qutqarish bilan yakun-

lanadi. Qutqarish – najot va uni amalga oshirish mavzusidagi ixtiloflarga ko‘ra bu barcha dinlar «najot dinlari» deb ataladi. Islom bunday nom bilan atalmaydi. Chunki, u muayyan diniy uslub asosida insonning najot topishi uchun xalos bo‘lishi zarur bo‘lgan muayyan muammoni cheklab, belgilab qo‘ymagan. Islomdagi pirovard maqsad insonning Allohga itoat etishi hamda insoniy irodani ilohiy irodaga taslim bo‘lishi va bo‘ysunganligini e‘lon qilishdir. Unda boshqa dinlardagi kabi insonni qutqarishga urinadigan muayyan bir muammo yo‘q. Shuning uchun uni «qutqarish (najot) dinlari» guruhiba qo‘sish mumkin emas.

Ba’zi dinshunoslar Uzoq Sharq dinlarini «nirvana dinlari» deb ham ataydilar. Chunki, bu dinlar insonning najot topishi hamda uni dunyo qiyinchiliklari, baxtsizlik va azob-uqubatlaridan chiqarib, nirvanaga erishishga harakat qiladi. Nirvana – insonning o‘tkinchilikdan xalos bo‘lib, osoyishtalik qaror topadigan yoki inson ruhi olam ruhi bilan qo‘silib ketadigan zehniy holatdir. Bu hinduviylikda «hol» deb ataladi yoki nirvanada fano tolish – yo‘q bo‘lib ketish. Bu insonning baxtsizlik, qiyinchiliklar va azob-uqubatlarga sabab bo‘ladigan moddiy talab-ehtiyojlar va dunyoviy olamga ehtiyojmandlikni his etmaydigan ruhiy osoyishtalik va yo‘qlik holatidir.

Dinlarning maxsus tasniflari borasidagi mazkur tafsilotlardan ma’lum bo‘ladiki, dinlarning mavzusiga ko‘ra tasnif dinlardan tashqarida bo‘lgan qandaydir tashqi omillarga emas, diniy tu-shuncha va omillarga asoslanganligi uchun eng maqbul va afzal tasnif hisoblanadi. Shu sababli tasnifning bunday turi din tarixi fani bilan bog‘liq diniy fanlar va dinlarni qiyosiy o‘rganishda keng tarqalgan.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Dinshunoslikda dinlarni tasniflash qanday asosda amalga oshiriladi?
2. Dinshunoslikda dinlarni tasniflash bo‘yicha qanday yon-dashuvlar shakllangan?

3. Dirlarni «tirik va o'lik dinlar» shaklida tasniflash nima uchun «noilmiy» deb hisoblanadi?
4. Dirlarni «statistik tasnif» «noilmiy» deb sanalishi sabablarini sanab bering.
5. Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari qanday dirlar tasnifiga taalluqli ekanligi haqida fikr bildiring.

### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar ja-moasi. – T.: «Toshkent islam universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dirlari tarixi (o'quv qo'llanma). – T.: «Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Rahimjonov D. va bosh-qalar. Dinshunoslik: darslik / Mas'ul muharrir N.Ibrohimov. – T.: Mehnat, 2004.

## 4-mavzu. DIN IJTIMOIY HODISA SIFATIDA



### Reja:

1. Diniy e'tiqodning shakllanishida shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlari.
2. Dinning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni.
3. Hozirgi davrda dinning ijtimoiy ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** Ogyust Kont, Gerbert Spenser, Maks Veber, Emil Dyurkheym, diniy tafakkur, «faylasuflik qilgan yovvoyi odam», din va ijtimoiy taraqqiyot, din va davlat.

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda diniy e'tiqodning shakllanishida shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlari, dinning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni, hozirgi davrda dinning ijtimoiy ahamiyati haqida tushuncha berish va tasavvurni shakllantirish.



Gerbert Spenser

**1. Diniy e'tiqodning shakllanishida shaxs va jamiyat o'zaro munosabatlari.** Dinni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadigan dinshunoslik sohasi – din sotsiologiyasi deb ataladi. U dinshunoslikning alohida sohasi sifatida Yevropada XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga keldi. Bu fanning alohida qonunlarini sotsiologlardan Ogyust Kont (1798–1857) va Gerbert Spenser (1820–1903) o'z asarlarida ishlab chiqdilar. Din sotsiologiyasining yirik asoschilari Maks Veber va Emil Dyurkheym (1858–1917) hisoblanadilar.

Dinni faqat ruhiy hodisa, diniy tuyg'ular, tushunchalar, tasavvurlar barchasi insonning ichidangina kelib chiqadigan narsa deb qarash xatodir. Inson o'zini o'rab turgan muhit, jamiyat bilan bevosita bog'liqdir. Inson tug'ilishidan boshlab jamiyat bilan

bog'liq holda ulg'ayadi. Jamiyatdagi mavjud qarashlar, odatlar, moddiy va ruhiy boyliklarni o'zlashtira boshlaydi.

Diniy tafakkurning shaxsiy yoki ijtimoiy ildizlari muammosini hal qilish bilan dinning kelib chiqishi muammosini hal qilish mumkin bo'ladi. E. Taylor kabi evolutsion yo'nalishdagi pozitivistlarning chiqargan xulosasiga ko'ra, dinning kelib chiqishini «faylasuflik qilgan yovvoyi odam»ga taqaydilar. U o'z-o'ziga borliq, o'zini o'rav turgan olamning paydo bo'lishi va o'zi kuzatgan hodisalarning haqiqati haqida savol bergan. Unda fikrlash yuqori darajada bo'lma-gan. Shundan so'ng bu insonda ruhlar, xudolar, farishtalar haqida tasavvurlar paydo bo'lgan.

Dinning kelib chiqishi haqida yana bir nazariya mavjud: «Birinchi yolg'onchi birinchi nodonni uchratganda» din paydo bo'ldi. Bunda din yomon niyatli kishilar-ning o'ylab topgan narsasi bo'lib chiqadi. Bu ikkala nazariya ham hech qanday ilmiy asosga ega emas.

Faylasuflik qilgan yovvoyi odam konsepsiysi bo'yicha ibtidoiy odam yolg'iz holdagi chuqur fikr yurituvchi bo'lgan. U o'z oldi- ga ulkan savollarni qo'ygan. Bu savollar uning kundalik hayotida kerak emas edi. Shuni ham unutmaslik kerakki, ibtidoiy odamning fikr yuritishi uning kundalik ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Bu faoliyatning tabiatи, shart-sharoitlari birgina odamga tegishli bo'lib qolmay, barchaga barobar, ijtimoiy guruh, qabila, urug', xalqqa tegishli edi.

Din – bir odam boshqalarni aldashi natijasida kelib chiqqan, degan fikr ham tanqidga uchragan. Boshqa fikrga ko'ra, din – jamiyatdagi kishilarning baravariga o'z-o'zini aldashi natijasida



Ogyust Kont



Emil Dyurkheyem



Maks Veber



Eduard Taylor

kelib chiqqan. Shuning uchun ham bu fikr egalari «Din – ijtimoiy hodisadir», degan xulosaga keladilar.

Din insoniyat jamiyatida salmoqli o'rin tutib keladi. Xususan, uning ma'naviyat sohasidagi o'rni kattadir. Tarixda din niqobi ostidagi bid'at va xurofotlar jamiyat taraqqiyotini ortga tortib kelgan. Din taraqqiyotning har bir bosqichida o'ziga xos o'rinni egallagan.

Din ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun ham u jamiyat hayotida jiddiy rol o'ynamasligi mumkin emas edi. Diniy mafkura har doim ham inson axloqi va jamiyat taraqqiyotiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi. Sinflar, ijtimoiy guruhlar, shu jumladan alohida shaxslar o'zlarini mavjud real vaziyat, muayyan shart-sharoit talab qilganidek tutadilar. Agarda real sinfiy, gruppaviy va

shaxsiy manfaatlar mavjud mafkuraga zid bo'lsa, bu mafkura amalda qo'llanma bo'lishdan to'xtaydi va faqatgina aqidalarda hamda amaliyotga tatbiq etilmaydigan hikmatli so'zlar va nasihatlarda qoladi. Juda ko'p hollarda alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlar bir diniy-mafkuraviy ko'rsatmani zo'r berib targ'ib qilgan holda, o'zları unga butunlay zid bo'lgan tamoyillar asosida yashaydilar.


Ko'pincha diniy aqidalarni noto'g'ri talqin etish hollarini ko'rishimiz mumkin. Bu esa omma nazarida dinni taraqqiyotga qarshi qilib ko'rsatishga olib keladi. Masalan, taqdirga ishonish aqidasini noto'g'ri talqin etilishi natijasida dinga e'tiqod qiluvchilar orasida voqelikka nisbatan e'tiborsizlik,sovujqonlik, dangan-salik illatlarini keltirib chiqarish mumkin.

Mafkura faqat diniy tarzda bo'lgan qadimgi davrda har qanday qarashlar, qarama-qarshi kuchlar turli diniy shakllarni olar

edi. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi xudosizlik ta'lilmotlari ortodoksal-katolik ta'limotiga asoslangan hukmron feodal tuzumiga qarshi muayyan ijtimoiy harakatlarning ideologiyasi edi. Tarixda o'tgan diniy tuzumlarda hukumat dinning tinchlantiruvchi, mavjud holatga ko'niktiruvchilik xususiyatidan foydالangan. Ammo progressiv ijtimoiy-inqilobiy harakatlar ham diniy shaklda va diniy shiorlar ostida o'tgan. Dinning faqtgina siyosiy ta'siri bo'lmay, uning ta'siri ijtimoiy, shaxsiy turmushda ham mavjud.

Kapitalistik dunyoda diniy mafkuraning mavqeyi siyosiy darajada ko'rildi. Bunga misol qilib sudda Bibliya bilan qasam ichishni, ba'zi bir mansablarni, masalan, AQSH prezidenti mansabini egallashda Bibliya bilan qasam ichishni ko'rsatishimiz mumkin. Kapitalistik mamlakatlarda din doimo siyosiy faoliyatda ishtirok etadi. Ba'zida u yoki bu partiyaning din bilan aloqasi uning nomida yaqqol namoyon bo'lmaydi. Gohida partiyaning diniy mafkuraga bog'liqligi uning nomida yaqqol ko'rinishi turadi: Italiyadagi xristian-demokratik partiya, Germaniyadagi xristian-demokratik ittifoq. Bir necha Sharq davlatlarining nomidan ularning islomga munosabatini bilish mumkin. Isroil esa davlat tuzumida anchagina o'rinni ravvinatga ajratgan bo'lsada, u yahudiy davlati deb nomlanmaydi.

Diniy nom bilan atalgan ko'pgina partiyalarning asosiy maqsadlari diniy emasligi ularning faoliyati davomida ko'rinishi qoladi. Bunda cherkov bunday partiyalar faoliyatini qo'llaydi



Turli e'tiqod va marosimlar orqali din insonlarni bir maqsad atrofida birlashtirib jamoa bo'lib yashashini ta'minlaydi

emas, balki ularga qarshilik ko'rsatib, iloji bo'lsa, ularni amaldan to'xtatadi.

Hozirgi davrdagi diniy yig'ilish va konferensiyalarda dunyodagi asosiy masalalarni hal qilishga qaratilgan yo'naliishlarni aytib o'tish lozim. Tinchlik g'oyalari ilgari surilib, zulm, istibdod qoralanmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, din ijtimoiy hayotda hal qiluvchi, asosiy ahamiyatga ega bo'lgan vazifani bajaradi. E.Dyurkheyminning fikricha, din ijtimoiy hayotning ramziy aks etishidir. U insoniyat tarixining ilk davridan boshlab inson bilan birga bo'lib keldi va insoniyat yer yuzida mavjud ekan, din ham doimiy mavjuddir.

Din jamiyat hayotida muhim rol o'ynagani uchun ham jamiyat taraqqiyoti dingga qarshi kurashish bilan emas, balki dinni o'rghanish, u bilan «kelishish» yo'li bilangina amalga oshishi mumkin. Din bizning o'tmishimizdir. O'tmishtsiz kelajak yo'q. Shuning uchun ham dinni o'rghanmay turib kelajakda namunaviy jamiyat qurish mumkin bo'lmaydi. Ijtimoiy fanlar qatorida dinni alohida soha sifatida o'rghanish lozim.



Arab dengizi sohilida Chat Puja marosimi

**2. Dinning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni.** Fransuz olimi Emil Dyurkheyym (1858–1917) jamiyatshunoslik bilan shug'ullaniishi orqali, zamonaviy sotsiologiyaning «otasi» nomini olgan. Hayotining oxirida Dyurkheyym o'zining «Diniy hayotning sodda shakllari» nomli asarini yozdi, bu asarda u dinning tabiatiga haqida bir necha fikrlarni taklif qildi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari insoniyat ongi va ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan. G'arb dinshunos-sotsiolog Emil Dyurkheyym mazkur soha bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqotlar


olib borgan. U ijtimoiy-falsafiy qarashlardan tashqari din sotsiologiyasi asoslari ni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratgan. Olimning fikricha, nafaqat din, balki barcha soha va institutlar ham ijtimoiy xarakterga egadir. Dyurkheym qarashlari ning e'tiborli jihat shundaki, garchi dinlar turli xil ko'rnishlarda namoyon bo'lsa ham, barcha dinlarda o'zlikni anglash uchun mohiyat bor.

Dyurkheym o'zining nazariy metodologik qarashlarini totemizmni o'rganishga qaratgan. Buning asosiy sababi ilk diniy tasavvurlarni ayrim elementlarini hozirgi kunda ham uchrab turishidir. Dyurkheym fikricha, din – ma'lum bir jamiyat sharoitida va ijtimoiy zaruriyat tarzida paydo bo'lgan. Olim ilk diniy e'tiqodlarni aynan dinning sodda shaklini (ya'ni, dinning barcha davrlardagi holati uchun xos bo'lgan xususiyat) va jamiyat hayotining asosiy funksiyasini aniqlash tirish uchun tadqiq qilishga undaydi.

Olimning «Diniy hayotning elementar shakllari» kitobi – din sotsiologiyasi rivojiga undaydi.



Cho'qintirish marosimi



Bugungi kunda davlat va din munosabatlarini to'g'ri yo'nalishda tashkil qilish ijtimoiy barqarorlikning asosiga aylanadi

ancha jiddiy ta'sir etgan asardir. Dyurkheym dinni ijtimoiy tengsizlik yoki hokimiyat bilan bevosita bog'liq emas, balki bir butun ijtimoiy institutlarning tabiatini bilan bog'liq deb hisoblaydi. U o'z ishida asosan Avstraliya aborigenlarining totemistik e'tiqodlarini tahlil qilib, totemizm nisbatan dinning eng sodda ko'rinishi bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda ham dinda muqaddaslashtirilgan obyektlarni mavjudligini ta'kidlaydi. Dyurkheym dinni ta'riflashda, uni muqaddaslikka va dunyoviylikka qarama-qarshi qo'yadi. «Muqaddas narsalar va ramzlar, — deb ta'kidlaydi u, — odatdan tashqi dunyoviy sohani tashkil qilgan psixologik obyektlardir. Totemlarni (hayvonlar yoki o'simliklarni) taom sifatida iste'mol qilish diniy marosimlardan tashqari vaqtarda ham man qilinadi». U totemni muqaddaslashtirilishini quyidagicha izohlaydi: «Totem guruhning o'z ramzi yoki jamoaning muhim qadriyatlari sifatida namoyon bo'ladi».


Kishilarning totemga bo'lgan izzat-hurmati ularning ma'lum ijtimoiy qadriyatlarga bo'lgan ehtiromi tufaylidir. Dyurkheym dinni faqat e'tiqodlar to'plami, deb tushunmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Har qanday din uchun shu narsa xarakterlik, ularga ishonuvchi kishilar guruhi ishtirok etadigan doimiy takrorlanuvchi diniy marosimlar va urf-odatlar mavjud bo'lib, o'tkaziladigan bu rasm-rusumlar tufayli ularda jamoaviy hamkorlik yuza-ga keladi va mustahkamlanib boradi. Rasm-rusumlar kishilarni dunyoviy hayot tashvishlaridan biroz bo'lsa ham xoli qilib, ular o'zlarida yuksak oliv hissiyotlar dunyosini hosil qilib, oliv kuchlar bilan qo'shilib ketish hissini tuyadilar. Bu oliv kuchlar, ya'ni totemlar, ilohiy mavjudotlar, xudo haqiqatda esa, jamoaning shaxsga ta'sir etishidir. Dyurkheym nuqtayi nazaricha, marosim va rasm-rusumlar jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir. Dyurkheym an'anaviy turga doir kichik madaniylarda din hayotning deyarli barcha tomonlariga singib ketganini ta'kidlaydi.

Diniy urf-odat va marosimlar bir jihatdan jamiyatda yangicha g'oya hamda tafakkurni vujudga keltirsa, boshqa bir jihatdan esa, to'plangan qadriyatlarni mustahkamlaydi. Din jamiyatda nafaqat

his-tuyg'u va ish-harakatlarning davomiyligini, balki u an'anaviy kichik madaniyatlarning rivojlanishiga ham turtki bo'ladi. Shuningdek, ba'zi bir umumiy falsafiy kategoriyalari, jumladan, vaqt, fazo, mohiyat ham dastlab diniy tushunchalarda ifodalanadi. Vaqt tushunchasi, masalan, diniy marosimlarning davomiyligini hisoblash zarurati tufayli paydo bo'lgan.

Diniy marosimlar va rasm-rusumlar insoniyat hayotining oz qismini ifodalasa ham jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Dyurkheym Marksning an'anaviy dinlar (ya'ni g'ayritabiyy kuchlar va ilohlarga asoslangan dinlar) yo'qolish arafasida degan fikriga qo'shiladi. Lekin shu bilan birga din ma'lum ma'noda o'zgargan shaklda saqlanib qoladi. Hatto jamiyatning hozirgi zamon turi ham ularning qadriyatlarini tasdiqlovchi va mustahkamlovchi diniy marosimlarga ehtiyoj sezadi. Ehtimol, eski marosimlar o'rniga jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi yangi marosimlar paydo bo'lishi mumkin. Demak, dinlar jamiyat hayotida, inson ruhiyatida, sababiyati va mohiyatini anglashda muhim rol o'yaydi. Bundan tashqari, diniy hayot tarzi va uning mohiyati hamda unda uchraydigan muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, din sotsiologiyasi ijtimoiy fikrda din atamasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy xulqni o'rganadi.

**3. Hozirgi davrda dinding ijtimoiy ahamiyati.** Din sotsiologiyasining shakllanishi Maks Veber (1864–1920) nomi va ilmiy faoliyati bilan bog'liq. Sotsiologiya fanining asoschilaridan biri hisoblangan nemis olimi M. Veber ijdida dinni sotsiologik tahlil qilish markaziy o'rinni egallaydi. Maks Veber din



Siddxarta Gautamaning tug'ilgan kuniga  
bag'ishlangan Lotus Lantern festivali  
(Korea Respublikasi)

va jamiyat munosabatini tahlil qilar ekan umuman din to‘g‘risida emas, muayyan davrdagi muayyan din yoki diniy oqim to‘g‘risida fikr yuritadi.

Maks Veberning fandagi eng katta xizmatlaridan biri uning xristian dinidagi protestantlik yo‘nalishining iqtisodiy taraqqiyotga o‘tkazgan ta’sirini kashf etishida bo‘ldi. Uning nazariyasi ga ko‘ra, boylikni, boylik orttirishga intilishni uncha xushlamaydigan xristian dini yo‘nalishlari iqtisodiy taraqqiyotga muayyan darajada to‘sinqinlik qilganlar. Boylikni xudoning ne’mati, unga intilishni esa bandalarning burchi, deb talqin qiladigan protestantlik esa iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Veber talqinida, protestantlik kapitalizm vujudga kelishidagi asosiy sabablardan biri bo‘lgan.

Veber izdoshlari uning fandagi xizmatlarini ko‘klarga ko‘tarib maqtashdi. Uning xizmatlarini e’tirof etish bilan birga, shuni ham ta’kidlash lozimki, u iqtisodiy taraqqiyotga faqat bir diniy mazhab – protestantlikning o‘tkazgan ta’sirini keng tadqiq qildi.

*M. Veber dinlarni tahlil qilar ekan, ular sanoat kapitalizmi rivojlanishiga g‘ov bo‘lmoqda, degan xulosaga keldi. Veber fikricha, dinlar moliyaviy munosabatlarga cheklovlar qo‘yish, ijtimoiy hayotga passiv munosabatni targ‘ib qilish orgali ijtimoiy taraqqiyotga to‘sinqinlik qiladi. Uning talqinida xristian dini, ayniqsa, protestantlik hayotdagi adolatsizlikni passiv kuzatib o‘tirmay, uni bartaraf qilish uchun faol kurashga chaqirish orgali ijtimoiy taraqqiyotga katta turtki beradi.*

Buyuk nemis mutafakkiri M. Veber tomonidan ilgari surilgan bilimlar, g‘oyalar, metodologik yondashuv, bilish nazariyasi, ideal tiplar g‘oyasi, madaniyat, etika, din sotsiologiyasi haqidagi qarashlari ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan. Uning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy-tarixiy faoliyatlarning subyektiv sohalarini hisobga olish, voqelikni ilmiy metodologiya talablari ga mos ravishda obyektiv va empirik jihatdan tadqiq etish imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi mumkin. Sotsiologiya, M. Veber

ta'kidlashicha, ijtimoiy fanlar orasida shunday o'rin tutishi lozimki, uning asosiy vazifasi – insonning ijtimoiy xulqi mohiyati va ahamiyatini tushunish, jamiyat rivojiga sabab bo'lgan qonunlar yechimini ko'rsatib berishdan iborat bo'ladi. Inson xulqini talqin qilish metodiga Veber tomonidan qanchalik katta ahamiyat berilganligiga qarab, uning sotsiologiyasini ko'pincha tushunuvchi yoki «interpretativ» sotsiologiya ham deb atashadi<sup>1</sup>.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Qachon din sotsiologiyasi shakllandi?
2. Din sotsiologiyasi asoschilarini sifatida kimlarni bilasiz?
3. Din sotsiologiyasida dinning yuzaga kelishi haqida qanday qarashlar mavjud?
4. Dinning ijtimoiy hayotda tutgan roli borasida fikr bildiring.
5. Din sotsiologiyasida Maks Veberning eng katta xizmati sifatida nima baholanadi?

### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo'minov A., Yo'doshxo'jayev H., Rahimjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: dar'slik / Mas'ul muharrir N.Ibrohimov. – T.: Mehnat, 2004.
5. Farfiyev B. Din sotsiologiyasi (o'quv qo'llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2016.

---

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 66–69.

## 5-mavzu. DIN PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA



### Reja:

1. Din psixologiyasining vujudga kelishi.
2. Din psixologiyasiga diniy yondashuv.
3. «Diniy tajriba» va «diniy jamoa» psixologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** U.Djems, Z.Freyd, K.Yung, «diniy tajriba», «diniy jamoa», «ibtidoiy xohishlar», g‘ayriqoliy, aqliydan oldingi va aqliy, «psixologik tiplar».

**Mavzu o‘quv maqsadi:** talabalarda din psixologiyasining vujudga kelishi, undagi yondashuvar hamda «diniy tajriba» va «diniy jamoa» psixologiyasi haqida tasavvur hosil qilish.

**1. Din psixologiyasining vujudga kelishi.** Din psixologiyasi dinshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u falsafa bilan psixologiyaning tutashgan joyida shakllandi. Ijtimoiy falsafa va sotsiologiya dinning tabiatini unda ijtimoiy qonunlarning aks etishi nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Ammo din faqatgina ijtimoiy hodisagina bo‘lib qolmay, psixik hodisa hamdir. Din unga e’tiqod qiluvchilarning ichki hissiy-ma’naviy hayotlarining bir qismidir. Din psixologiyasining namoyondalari uning aynan mana shu jihatiga urg‘u beradilar.

Din psixologiyasi dinshunoslik va psixologiya bilimlari zaminda vujulga kelgan bo‘lsa ham, o‘ziga xos mavzu, maqsad va vazifalarga ega bo‘lgan mustaqil fan tarmog‘i sifatida shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Bu fanning obyektini inson ruhiyati, diniy guruhlar va tashkilotlar xulqi, inson qalbida joylashgan va turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘luvchi diniy e’tiqod va amallar tashkil etadi. Uning predmeti esa dinnig ruhiy fenomen sifatida kishilar qalbi, xulq-atvori, hayot tarzi, hissiyot va tafakkuriga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Din psixologiyasi diniy ibodatlar va amallar jarayonida ibodat qiluvchi qalbidagi katarsis (forig‘lanish) jarayonini, uning bosqich

va darajalarini psixologik jihatdan tahlil etadi. Diniy tuyg'u insonning boshqa hissiy kechinmalaridan farq qilib, u intim (yashirin, sirli) va ilmiy tushuncha, so'zlar bilan ifodalab berish qiyin bo'lgan ruhiy holat hamda xususiyatdir.

Din psixologiyasi fanining yuzaga kelishini aniq yoki taxminiy sana orqali ko'rsatish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bunga asosiy sabab din psixologiyasini o'rganish predmeti bo'lmish eng dastlabki e'tiqodni individda qachon yuzaga kelganini ilmiy jihatdan aniqlashning imkoniyati yo'qligidir. Ba'zi mutaxassislar din psixologiyasining fan sifatida shakllanishi XIX asrning boshlari deb ko'rsatsalar, boshqa bir guruh mutaxassislar uni kishilik jamiyatining ibtidosidan izlash kerakligini uqtiradilar. Amerikalik psixolog dinshunos U.Klark fikricha, barcha ilohiy, diniy manbalarda inson ruhiyatiga oid bilimlar mujassamki, ular asosida diniy e'tiqodning shakllanish mohiyatini har tomonlama tahlil etsa bo'ladi.

XIX asr oxirlariga kelib din psixologiyasiga oid ilmiy izlanishlar ko'p mamlakatlarda ommaviy ravishda amalga osha boshladi. Ammo din psixologiyasining mustaqil fan sifatida maydonga chiqishiga birinchi bo'lib amerikalik psixolog Stenli Xoll va uning shogirlari tomonidan diniy ongning tabiiy asoslarini o'rganilishi sabab bo'ldi.

Stenli Xollni AQSHda din psixologiyasining otasi, deb tan olinishiga asosiy sabab, u tomonidan 1882-yili «Ma'naviyat va bolalarning diniy tarbiyas» nomli maqolasining chop etilishidir. U mazkur maqolada individni to'liq shaxs bo'lib shakllanishida diniy ta'limning ahamiyatini ko'rsatib o'tish bilan, diniy e'tiqod bilangina shaxs jamiyat a'zosi bo'la oladi, degan fikrni ilgari suradi.

Din psixologiyasining rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatib, yangi yo'naliishni belgilab bergan taniqli olimlardan biri amerikalik psixolog Vilyam Djems (1842–1910) hisoblanadi. U o'zining «Serqirra diniy taj-



Uilyam Djems

riba» asarida diniy e'tiqodlarni tahlil etishga psixologiya fani qonuniyatlarasi asosida yondashdi. Bunda individning dindan «mداد» olishi va subyektiv qoniqish hosil qilishi nuqtayi nazaridan baho berib, uni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, dinning manbayi insonni o'rabi turgan dunyoda emas, balki uning o'zining ichidadir. Lekin intellektual qobig'ida emas, balki ruhiy-emotional qobig'idadir. Shu bois ham individ, o'zidagi diniy maylning mavjudligini doimo ongli ravishda aks ettiravermaydi.

XX asrning mashhur psixologlaridan hisoblangan Z.Freyd



«Diniy tajriba»ning shakllanishi

o'zining psixoanaliz nazariyasi bilan din psixologiyasida yangi konsepsiya yaratdi. Z.Freyd diniy amallar va tasavvurlarning vujudga kelishi ni inson ehtiyojlari bilan bog'laydi. Xususan, din insonning o'zini tabiat kuchlaridan himoyalash, qondirilmagan mayllar va istaklar bilan, ijtimoiy yetishmovchilik, turli yo'qotishlarni kompensatsiya (to'ldirish) qilish,

o'zining aybdorligini his qilish kabi ehtiyoj va zaruriyatlar asosida kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Shunga ko'ra, Freyd dinni alohidada olingen insonning tug'ma mayllari bilan bog'lab tushuntiradi.


Yevropa mamlakatlari ichida faqat Fransiyadagina din psixologiyasi dinshunoslikdan alohida ajratilgan holda o'rganilgan. Dingga psixologik munosabatni ta'kidlab o'tgan fransuz olimi E.Butru fikricha, bu masala quyidagicha namoyon bo'ladi: birinchidan, diniy fenomen (g'ayritabiiy holatlar va ko'rinishlar)ni kuzatish va ularni ilmiy tahlil etish; ikkinchidan, psixologik tahlil asosida diniy fenomenlarni psixologik jarayon bilan bog'liqlik qonuniyatini o'rganish, masalan, diniy amallarni bajarish jarayonidagi har xil ruhiy va jismoniy holatlarni kuzatish va tahlil qilish orqali.

Bu xil izohlash diniy e'tiqodning psixologik tahlilida yana bir yondashuv bo'lib, u asosan ijtimoiy omillar bilan bog'lab tushuntiriladi. Dinning ijtimoiy-psixologik nazariyasi asoschisi

deb, fransuz olimi Emil Dyurkheym (1858–1917) tan olinadi. U «Diniy hayotning sodda tuzilishi» asarida diniy e'tiqod shaxsgagini xos xususiyat bo'lmasdan, ijtimoiy hodisa hamdir, degan fikrni ilgari suradi. Dyurkheym dinga shaxsning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida qarab, dinni jamiyat a'zolari xulqini bir mezonga solib turuvchi andoza sifatida ta'riflaydi. Diniy e'tiqodni ijtimoiy-psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil etish Fransiyada hozirgi kungacha ham davom etib kelmoqda.

Germaniyalik olim Maks Sheller fikricha, din psixologiyasi inson ruhiyatiga ikki xil – moddiy va ma'naviy yo'nalişhda ta'sir etadi. Moddiy tomoni shundaki, inson ijtimoiy mayjudot bo'lib, u bir o'zi yakka holda yashay olmaydi. Balki jamiyatdagi sotsium va uni o'rabi turgan muhit yordami bilangina hayotini saqlab, davom ettira oladi. Shu jihatdan olib qaraganda, u keng miqqosda jamiyat a'zolari bilan aloqaga kirishishga majbur. U aloqaga kirishayotgan jarayondagi munosabatlarning asosiy mezoni – diniy omillar hisoblanadi. Bu esa dinning inson ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'sirini belgilovchi omildir.

Din tabiatini ta'riflashda yana boshqacha yondashuvni psixanaliz asoschisi Z.Freyd taklif etadi. Z.Freyd dunyoviy falsafa an'analari ruhida tarbiya ko'radi. U dinning g'ayritabiiy manbayini inkor etadi. Uning fikricha, din – tabiiy fenomen, inson mahsuloti, odamzodning uni o'rabi turgan dunyoga bog'liqligining natijalaridan biri. «Men, – deb yozadi u o'zining «Bir illyuziyaning kelajagi» asarida, – diniy kechinmalar madaniyatning boshqa erishgan yutuqlarida bo'lgani kabi tabiatning kuchli bosimidan o'zini himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqqan ekanligini ko'rsatishga urindim. Bunga yana bir ehtiyoj kelib qo'shildi, bu – madaniyatning juda nomukammalligini tuzatishga bo'lgan intilish». Freyd dinning tashqi ta'sirlardan kuchli darajada ta'sirlanganligini tan olgan holda, dinning



Zigmund Freyd

shakllanishidagi irratsional mexanizmlarga katta urg‘u beradi. U o‘z asarlarida din bilan g‘ayriaqliy subyektiv taassurotlar, shaxsnинг istaklari orasida bog‘liqlik bor, deb ko‘rsatadi.

Z.Freyd ta’limotiga ko‘ra, inson ruhoniyat uch bosqichning birgalikda o‘zaro harakatidan iborat. Bu bosqichlar: g‘ayriaqliy, aqliydan oldingi va aqliy. Ruhoniyatning asosiy tarkibi, eng chuqur qatlamini g‘ayriaqliy deb hisobladi. Aqliydan oldingi va aqliy qismalariga g‘ayriaqliy ustiga qurilgan ikkinchi darajali narsa sifatida qaradi. Inson ruhoniyatining bu eng chuqur qatlami, Freyd fikriga ko‘ra, tabiiy instinct, «ibridoiy xohishlar» asosida ishlaydi. Ibtidoiy xohishning asosi sifatida Z.Freyd jinsiy qiziqishni ko‘rib chiqdi.

Shaxsning g‘ayriaqliy qiziqishlarida jamiyatni vayron etuvchi kuch bor, deb hisoblaydi Z.Freyd. Jamiyat bunday kuchlarni jilovlash maqsadida ijtimoiy normalar va boshqa institutlar ko‘rinishidagi turli qurilma mexanizmlarni barpo etadi. Freyd fikricha, kuchli tabiiy intilishlarni ijtimoiy normalar bilan cheklash dinni keltirib chiqaradi. Dinning vazifasi insondagi



Turli din vakillari orasida diniy tajriba va hissiyor ko‘rinishi

mavjud ibridoiy xohishlarni jilovlashdir. Inson xohishlarini haddan ziyod cheklab qo‘yilishi kishida nevroz kasalligini keltirib chiqaradi. Din, Freydning fikriga ko‘ra, nevrozning turli xillari orasida kollektiv nevroz turidir.

Ma’lumki, nevroz insondagi ruhiy xastalik turiga kiradi. Inson bunday kasallikka chalinganda tashqi voqelikni to‘g‘ri qabul qila olmaydi. Uning ko‘ziga har xil narsalar ko‘rina boshlaydi. Freydning fikricha, din ana shunday illyuziyaviy dunyoqarash turiga kiradi. Bu ham insonning salomatligi uchun ijobiy rol o‘ynaydi, uni g‘am-tashvishlardan ozod qiladi. «Haqiqiy e’tiqodli kishi tur-

li nevroz kasalliklaridan xolidir. Universal nevrozni qabul qilgan odam individual nevrozga chalinish xavfidan yiroq bo'ladi».

Z.Freydning o'quvchisi, keyincha-lik uni tanqid qilgan shvetsariyalik olim, vrach-psixoanalitik K.G.Yung (1875–1976) dinning asosi sifatida g'ayriaqliylikni, individual g'ayriaqliylik emas, kollektiv g'ayriaqliylikni ko'rib chiqdi. K.G.Yung individual va kollektiv g'ayriaqliylik orasidagi farqni aniq ajratib berdi. Individual g'ayriaqliylik alohida kishining shaxsiy tajribasini ifoda etadi va qachonlardir aqliy bo'lgan, ammo vaqt o'tishi hamda tashqi ta'sirlar natijasida unutilgan ichki ke-chinmalardan iborat bo'ladi. Kollektiv g'ayriaqliylik bu barcha irq va xalqlarga xos bo'lgan umuminsoniy tajribadir. Bu insoniyat o'tmishining, shuningdek, inson bo'lishdan oldingi hayvon holatining xotiradagi yashirin izlaridir. Shunday qilib, kollektiv g'ayriaqliylik g'ayritabiyy va individual g'ayriaqliylikdan yuqori turadi. «Aytish mumkinki, din – ruhoniylar tajribasi bilan o'zgartirilgan, ongni mustahkamlashni anglatadigan tushuncha», – deb yozadi K.Yung o'zining «Psixologiya va din» asarida. Shunday qilib Z.Freyd inson ruhoniyatini o'rganish natijasida dinning kelib chiqish manbayi yerdagi hodisalarda degan ateistik xulosaga kelsa, K.Yung psixologiyadan dinning g'ayritabiyy manbayi bor ekanligini isbotlash uchun foydalandi. Shvetsariyalik mutafakkir inson ruhi tabiatan diniydir, degan fikrni isbotlashni o'z vazifasi qilib oldi. Insonning ruhi, – ta'kidlaydi K.Yung, – bu ilohiyot olamiga bir darchadir.

**2. Din psixologiyasiga diniy yondashuv.** Neofreydizmning yana bir vakili Karl Yung (1875–1961) bo'lib, u Freyd ta'limotini boshqacha yo'nalishda rivojlantirdi. K.Yung o'zining «Psixologik tiplar» nomli asarida inson ongi va ongsizlikka mansub bo'lgan masalalarни falsafa tarixi, she'riyat, diniy, madaniy yodgorliklar yordamida ko'rib chiqdi, ularni yangicha talqin qilishga harakat



Karl Yung

qildi. Bu asar K.Yungning nihoyatda chuqur qomusiy bilimga egaligini namoyon qildi. Uning psixologik tahlili falsafiy mulo-hazalar va falsafiy dunyoqarash darajasiga ko'tarilganligini yaqqol ko'rsatdi.

K.Yung falsafa tarixida ilk bor sxolastik oqimlarni tahlil qilib, ularga mansub ikki xristian ilohiyotchisining psixologik holatini ochib berdi. Birinchi tip o'rta asr xristian dinining mashhur apologetlaridan biri Tertulliandir. Ikkinci tip o'sha davrning yana bir mashhur vakili Eriugendir.

K.Yungning ta'kidicha, Tertullian o'zining nihoyatda yuqori darajada rivojlangan intellektual bilimidan voz kechib, uni ichki ilohiy hissiyotga almashtirdi.

Yung «bunday eski psixologik holat yagona libidoning har xil shaklidir, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish noto'g'ri», deb hisoblaydi. Yungning bu fikri libidoni tushunishda Z.Freydga nisbatan kengroq va chuqurroq qarashga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Z.Freydning ta'limotida «Oliy Men» ota-onaga bo'lgan munosabat bilan aynanlashtirilgan. Yung esa libidoni faqat hirs bilan cheklamasdan, psixik energiya sifatida oladi. Psixik energiyani koinot miqyosidagi energiya, deb hisoblaydi. Butun koinotni qamrab oluvchi bu energiya hayotiy jo'shqinlik, tiriklik jarayonidir. Bu fikrlarni asoslash uchun Yung qadimgi hind falsafasiga, Veda va Bxagavat Gitalarga murojaat qildi. Yung butun olamni bir-lashtiruvchi ramz, simvol, belgi sifatida Brahmani oldi.

Hayotiy kuch, jo'shqinlikni Brahmadagi ruhiy energiya tashkil etadi. Bu energiyadan butun borliq – yulduzlar, sayyoralar, o'simliklar, hayvonot va insonlar yaratilgandir. Agar tabiatda bu energiya ongsiz bo'lsa, inson ongida energiya o'z-o'zini anglash darajasigacha ko'tariladi. Lekin bu darajaga hamma insonlar ham yetisha olmaydi. Buning uchun, uning fikricha, inson o'zining ichki olamiga kira olishi kerakdir. Bunday kirish uchun inson o'zining yashirinib yotgan hissiyotlarini boshqara olishi lozim. Inson o'zining «Meni»dan voz kechishi darkor. Faqat shundagina o'zining chegaralangan tafakkuri zanjirlarini parchalab, ongini

ilohiy ong bilan, Brahma ongi bilan birlashtira oladi. Buning natijasida inson ongi cheksiz kengayadi. Butun borliqqa ongi bilan qo'shiladi. Bizga ongsiz bo'lib tuyulgan borliqda qalb ko'zi uchun Brahmaning oltinsimon nur — quyoshi ko'rindi. «Brahma — Prana ham, — deb yozadi K.Yung, — ya'ni hayot nafasi va koinotning hayot tamoyili; xuddi shunday Brahma — «Uaap» — ya'ni shamoldir. Insonda ham, quyoshda ham bu Brahma yagonadir». «Haqiqiy Brahmaning qiyofasi oltinsimon nur — quyosh bilan qoplangan».

K.Yungning fikricha, inson kuchi ham Brahmadan kelib chiqadi. Harakatchan ijodiy libido kuchini Brahmaning cheksiz va son-sanoqsiz shakllari tashkil etadi. Koinot va insondagi hayotiy kuch, uning fikricha, energiyadir. Bu kuchda quyi va yuqori, issiq va sovuq kabi ziddiyatlar bo'lganidek, libidoda ham ziddiyatlar mavjud. Libidodagi ziddiyatlarni tahlil qilib, Yung bu hol Brahmada ham mavjudligini ko'rsatadi. Borliqning asoschisi bo'lgan Dunyoviy Ong o'zini ikki qarama-qarshi boshlang'ichga ajratadi, bular «manas» — aql va «uas» — so'zdir.

Z.Freyd o'zining «Men va u» asarida ham aql va so'z o'rtasidagi ziddiyatni ochib berdi. Aql ongning eng yuzadagi o'z-o'zini anglovchi qatlami bo'lsa, so'z esa aqlni ongsizlik bilan bog'lovchi vositadir. So'z orqali ongsiz shakl ongli shaklga aylanadi. Bu jarayonni Z.Freyd inson psixologiyasi misolida ko'rsatgan bo'lsa, K.Yung aynan shu jarayonni butun borliq, koinot miqyosida tatabiq etadi.

Shunday qilib, K.Yung Z.Freyd fikrlarini umumlashtirib, koinot miqyosida talqin qiladi. Insonning ichki olami butun jahonni o'ziga qamrab olishini hamda jahondagi barcha jarayonlar insonning ichki olamida ham davom etishini ko'rsata oldi, Yung libido tushunchasini A.Bergsonning hayotiy jo'shqinlik, davomiylik tushunchasi bilan hamohang, hamnafas ekanligini isbotlab berdi.

Libidojismoniy kuch sifatida xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bu shakllar afsonalarda obrazlar orqali ifoda etiladi. Bu

obrazlar bir-biriga bog'lanib ketib, yagona hayotiy oqimni tashkil etadi. Anri Bergson ham o'z falsafasida o'xshash fikrlarni keltirib, bu oqimni «hayotiy jo'shqinlik», deb atagan edi.

K.Yungning fikricha, ana shu hayotiy jo'shqinlikka ijodkorlik kuchi xosdir. Libido inson taqdirini ham aniqlaydi. Yungning ta'kidicha, dunyoviy tartib libido tushunchasi bilan aniqlanadi. Bu dunyoviy tartib koinotdagi yulduzlar va sayyoralarini boshqaradi. Bu yuqori energiyadan quyi darajadagi energiya holatiga o'tish jarayonidir. Shunday qilib, Yung fikricha, libido psixik energiya orqali ifoda etiladi va olamdagagi umumiy tartib yo'nalishi ni bildiradi. Bu tartib yunonlarda «nous, logos», xitoylarda «dao» tushunchasi orqali berilgan.

K.Yung libidoni axloqiy qonun, deb ham ataydi. Inson o'z tabiatiga monand yashar ekan, u o'zining ichki axloqiga binoan yashaydi. Insonning tabiatи hech qachon axloqni inkor etmagan, aksincha, u bilan mutanosiblikda kun kechirgan. Libido tushunchasi insonning ichki axloq qonuniyatlariga zid kelmaydi. K.Yung fikricha, «Yuksak hayotiy yutuqlarga insonning xudbinligi orqali erishilmagan, zotan xudbinlik hech qachon hayotning yuqori pog'onasiga olib chiqmaydi». Xuddi shunday yakka insonning o'z-o'zini rivojlantirishi ham uni hayotning yuqori pog'onasiga ko'tara olmaydi. Bunga sabab insondagi ijtimoiy xususiyat kuchliligidadir. Demak, hayotiy yuksaklikka erishish libido qonuniyatları orqali yuz beradi. Jumladan, K.Yung o'z xulosalarini qadimgi Xitoy falsafasidagi «dao» haqidagi manbalar va qadimgi Hindistondagi ilohiy kitoblardan keltirilgan ilovalar bilan asoslaydi. Umuman olganda, uning psixologik holatlarga bag'ishlangan tadqiqoti butun jahon falsafasini ruhiy jihatdan bog'lash mumkinligini isbotlab berishga qaratilgan. Nafaqat falsafaning, balki insonning ruhiy olami hamda butun borliqning ruhiy ola mi yagonaligini ham yaqqol namoyon etdi.

**3. «Diniy tajriba» va «diniy jamoa» psixologiyasi.** Din psixologiyasi dinshunoslik fani rivojiga amerikalik olim Uillem Djems (1842–1910) va avstriyalik olim Z.Freydlar (1856–1939) kat-

ta hissa qo'shdilar. Din psixologiyasining asosiy o'ziga xos jihat shundaki, unda din manbayi insonni o'rabi turgan dunyoda emas, balki insonning o'zida, uning ichki dunyosida deb tushuntiriladi. Shu bilan birga din asosi insonning aqliy emas, balki hissiy-ruhiy dunyosidadir deya ta'kidlanadi.

Uilyam Djems konsepsiysi dinning vujudga kelishini o'rganish uchun «diniy tajriba»ni tadqiq qilish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, diniy tajriba muayyan shaxsning ichki ruhiy olamida joylashgan. Insonlarning millati, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, ularning barchasida o'z diniy tajribalari bor. Amмо bu tajriba insonlarda turli darajalarda mavjud. Ulardan ba'zilari o'z ruhiyatlarida ilohiyotga juda moyil bo'ladilar. Ular ruhan ilohiyot bilan uyg'unlashib ketishga ko'proq qobiliyatlidirlar. Masalan, xristianlik, islom dinlaridagi avliyolar, buddaviylikdagи bothisatvalar bunga yaqqol misol bo'la oladilar. Boshqalari oddiy dindorlar hisoblanib, yuqoridagi qobiliyatdan kamroq bahramand bo'lgan barcha insonlar. Yana bir toifadagilar esa o'zlarida umuman ilohiy chaqiriqni his qilmaydiganlar, ya'ni e'tiqodsiz kishilardir.

U.Djemsning aytishicha, diniy tajriba barcha dinlardagi e'tiqod qiluvchilarda – buddaviy, xristian, musulmon bo'lishidan qat'i nazar bir xilda kechadi. U holda diniy aqidalar, oqim va mazhablar qanday kelib chiqdi, degan savol paydo bo'ladi. U.Djems mana shu joyda ijtimoiy voqe-likning ta'siriga murojaat etadi. Uning fikricha, kishilar muayyan ijtimoiy yashash sharoitlari – tug'ilgan joyi, tarbiya beruvchilari va boshqalarga bog'liq ravishda buddaviy yoki katolik va yo musulmon bo'ladilar. Amмо ijtimoiy ta'sirlar, Djemsning fikricha, shaxsning diniy ha-



Psixologlar fikricha, inson «diniy tajribasi»da hal qiluvchi o'rinni hissiyot va ichki kechinmalar o'ynaydi

yoti uchun ikkinchi darajali va kam e'tiborga loyiqdir. Hal qiluvchi o'rinni bevosita va bilvosita hissiyot va ichki kechinmalar o'ynaydi. Xuddi mana shu fikrdan U.Djems ilgari surgan dinning davolash funksiyasi haqidagi konsepsiya kelib chiqadi. Din o'zida inson uchun foydali ta'sirlari bo'lgan muayyan psixologik mexanizmlarni mujassam etgan. Dinda insonni chidab bo'lmas darajada azob berish yoki hech kim hadya etolmaydigan mustahkam, haqiqiy baxt ato etish kabi mo'jizakor kuch bor.

U.Djems diniy e'tiqodlarning ichki hissiy tabiatiga e'tibor berib, ochiq bo'lmasa-da, bunday tuyg'ularning g'ayritabiyy manbayi – ilohiy kuch mavjudligini shart qilib qo'yadi. Masalan, U.Djems nazariyasiga asosan subyektiv pragmativ qarashlar uning asarlarida o'z o'rnini topgan. Masalan, «Diniy malakaning ko'p xilligi» asarida batafsil bayon qilib o'tganligi unga yaqqol dalil bo'la oladi. Uning fikricha, individning dingga ishonuvchanligi uning psixik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu fikrlarimizga uning quyidagi so'zlari dalil bo'la oladi: «.... din deganda alohida shaxsning hissiyoti ta'siri va malakalarini umumlashmasi sifatida tushuntirishni kelishib olamiz, qaysiki ularning mohiyatida xudoga bo'lgan munosabatning asosi yotadi». Boshqacha qilib aytganda, insondagi emotsional kechinmala larga din paydo bo'lishining asosi sifatida qaraydi. Shuningdek, Djems «diniy malaka» tushunchasini ham ishlab chiqdi. Buning asosida u diniy fenomenlarning turli shakllarini, ya'ni mistik ko'rinish, ekstaz holati, xayolot holati, gallyutsinatsiya va boshqa holatlarni asoslab berdi. O'z nazariyasida diniy hissiyotni ilmiy tahlil qilib berdi. «Ilohiy sevgi, ilohiy qo'rquv, diniy ulug'vorlik hissi, diniy xursandchilik va boshqa shularga o'xshash hissiyotlar mavjudligini isbotlab berdi. Ilohiy sevgi bu ilohiy obyektlarga qaratilgan sevgidir, ilohiy qo'rquv esa insonning oliy ilohdan ojizligi tufayli vujudga keladigan qo'rqish hissiyotida namoyon bo'ladi. Ilohiy ulug'vorlik hissi bu qaltirashga o'xshash bo'lib, xuddi qorong'i o'rmonda yoki tog'li daradagi holatlar bilan solishtirishimiz mumkin». Umuman olganda, U.Djems turli in-

sonlar bir dinga e’tiqod qilsalarda, ularning diniy amaliyoti, tajriba va dunyoqarashlari turlicha shakllanishi bilan ajralib turadi, deb ta’kidlaydi<sup>1</sup>.

### O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:

1. Din psixologiyasi dinshunoslik fanining alohida sohasi sifatida qachon yuzaga kelgan?
2. Din psixologiyasi asoschilari sifatida kimlarni bilasiz?
3. «Diniy tajriba» va «diniy jamoa» tushunchalarini izohlang.


### Adabiyotlar:

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islam universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jayev H., Rahimjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / Mas’ul muharrir N.Ibrohimov. – Toshkent: Mehnat, 2004.
5. Valiyev B., Rasulov A. Din psixologiyasini o‘qitishning innovatsion metodlari. – T.: «Yangi asr avlodи», 2013.
6. Din psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma / B.Valiyev va boshqalar. – T.: «Movarounnahr», 2014.
7. Rasulov A., Tursunov L. Din psixologiyasidan praktikum. – T.: «Movarounnahr», 2016.

---

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 87–93.

## 6-mavazu. DIN ANTROPOLOGIYASI



### Reja:

1. Din antropologiyasining vujudga kelishi.
2. Din antropologiyasining boshqa dinshunoslik sohalaridan farqi.
3. Din antropologiyasidagi qarashlar.

**Tayanch tushunchalar:** astral mifologiya, Lyudvig Feyerbax, E.Taylor, G.Spenser, Dj. Lebbok, antropologik maktab, «dinning boshlang‘ich shakli», ruh, shomonlik, «ibtidoiy madaniyat».

**Mavzu o‘quv maqsadi:** talabalarga din antropologiyasining vujudga kelishi, uning boshqa dinshunoslik sohalaridan farqi va din antropologiyasidagi qarashlar haqida tushuncha berish.

**1. Din antropologiyasining vujudga kelishi.** XIX asrning 70-yillarida dinshunoslikdagi mifologik yo‘nalishning inqirozi kuzatildi. U o‘zining barcha diniy e’tiqodlar, folklor, xalq urf-odatlari ni qadimiy astral (mistik) mifologiya asosida tushuntirib berishga harakat qilgan edi. U bunday befoyda urinishlari bilan boshi berk ko‘chaga kirib qoldi. Uning o‘rnini antropologik maktab egalladi.

O‘sha asrning 40-yillaridayoq Lyudvig Feyerbax (1804–1872) dinning insoniy (antropologik) asosini topishga uringan edi («Сущность религии», 1845). Feyerbaxning fikriga ko‘ra, dinning asosi inson qiziqishlari va ehtiyojlarining bir ko‘rinishidir. U: «Xudolar – inson orzularining amalga oshgan, umumiylashgan shakli», deb yozgan edi.



Lyudvig Feyerbax

Antropologik maktab namoyondalari dinning kelib chiqish manbayi insondir, degan fikrni ilgari surdilar. Bu maktabning uslubiy asosi pozitivizm va evolutsionizm bo‘lib, uni ko‘pincha «evolutsionistik maktabi» nomi bi-

lan yuritiladi. Antropologik maktab tarafdoरlarining faktologik bazasi bo'lib o'sha davrgacha to'plangan ulkan etnografik material xizmat qildi.

Mazkur asosda E.Taylor, G.Spenser, Dj.Lebbok (1834–1913) va boshqa antropolog-evolutsionistlar dinning qanday paydo bo'lgani va taraqqiy topganini ilgari amalga oshirilganidan mukammalroq tarzda tasvirlab berishga harakat qildilar. Antropologik yo'nalişdagi tadqiqotchilarning konsepsiyalari turlicha bo'lib, bir-biriga o'xshash edi. Animistik nazariya deb ataladigan Eduard Taylorning (1832–1917) nazariyasi ancha mashhur bo'lib ketdi.

Taylorning fikricha («Первобытная культура», 1871), «dinning boshlang'ich shakli» bu ruh, arvoх va shu kabilarga e'tiqod qilish bo'lgan. Bunday e'tiqod ibtidoiy odamni uyqu, hushdan ketish, ko'zga har xil narsalarning ko'rinishi, kasalliklar va nihoyat o'lim kabi u va uning atrofidagi kishilarda yuz berayotgan muayyan holatlar qiziqtirganligi sababli kelib chiqqan. Bunday hodisalarni to'g'ri talqin qilishga qodir bo'lмаган «yovvoyi faylasuf» inson tanasida o'tiradigan, uni vaqtinchalik yoki butunlay tashlab keta oladigan kichkinagina jufti – ruh haqidagi tasavvurlarga borgan. Xuddi mana shu e'tiqoddan asta-sekin boshqa, yanada murakkabroq tasavvurlar: hayvonlar, o'simliklar, jonsiz narsalar, o'lganlar ruhi va ularning taqdiri, ruhning boshqa tanalarga ko'chib o'tishi yoki aynan ruhlarning o'limdan keyingi hayoti haqidagi qarashlar kelib chiqqan. Ruhlar asta-sekin arvohlarga, keyin esa xudolarga va nihoyat yagona qudratli xudoga aylanadi, deb tasavvur qilganchalar. Shunday qilib, ibtidoiy animizmdan (lotincha «anima», «animus» – ruh, arvoх) tadrijiy evolutsiya natijasida barcha dinning turli shakllari taraqqiy topgan.



Antropologik maktab namoyandaliga ko'ra dinning kelib chiqish manbayi insondir



Ibtidoiy animistlar vafot etgan qarindosh-urug'larining ruhlari abadiy, o'lmas deb ularni e'zozlaganlar.

Ibtidoiy animistlar vafot etgan qarindosh-urug'larining ruhlari abadiy, o'lmas deb ularni e'zozlaganlar. «Inson vafotidan so'ng qayerda yashaydi», degan savolga turli xalqlar turlicha javob berishgan. Ba'zilari ajdodlarning ruhlari tiriklar yashaydigan joyda yashshadi, biroq ularni faqat tushda ko'rish va gaplashish mumkin deb o'ylaganlar. Boshqalari o'lganlarning ruhlari chaqaloqning tanasiga

o'tadi, deb hisoblaganlar. Uchinchilari esa, o'lganlarning ruhlari maxsus joylar — «O'liklar mamlakati»da yashaydi, bu mamlakat yer ostida joylashgan deb hisoblaganlar.


Jon — aniq narsa, uni ushlab sezsa bo'ladi, u ko'rish va hatto sezish mumkin bo'lgan muayyan narsa deb hisoblangan. Chunonchi, qutbni tekshirgan yirik olim F.Nansenning aytishiga qara-ganda, eskimoslar jonni nafas olish bilan bog'liq, deb ishonganlar. Shuning uchun ham odam kasal bo'lganda shomonlar kasalga dam solib, uning jonini davolashga yoki unga yangi jon solishga uringanlar. Animistik e'tiqodga ko'ra, jon bir qadar mustaqil, bir qancha hollarda esa tanaga bog'liq emas. Uni yo'qotib qo'yish mumkin, ba'zan uni shomonlar o'g'irlab ketishadi. Odam uzoq joyga sayohatga ketganida uning joni uyda qoladi. Odamzod o'z vatanini qo'msashining sababi ham ana shunda.

Animizmga ko'ra, tabiatdagi har bir muhimroq hodisaning o'z ruhi bor. Masalan, ayrim daraxtlarning ruhi o'rniga avval ayrim o'rmonlar va butazorlarning ruhlari mavjud, keyinchalik esa umuman o'rmon ruhi bor, deb hisoblaganlar. Bunday aqidalar shunday xulosaga olib kelgan: agar ruhlar kishilarga o'xshab ov qilsa, o'ynasa kulta, ularning ovqatlanishi ham tayin. Demak, vafot etgan kishining tirik arvohi xususida g'amxo'rlik qilish kerak. Ularga oziq-ovqat va boshqa hadyalar atab turish lozim.

*Markaziy Osiyoda marhumning jonini arvoх deb atashgan. Arvoхning bir xususiyati shundaki, u o'likni tashlab uzoqqa ket-maydi, lekin u qabrdan tashqariga chiqadi, deb o'ylashgan. Shuning uchun ham qadimgi zamonlarda arvoх uchun go'rni teshib qo'yganlar yoki mozor oldida arvoх uyi qurbanlar. Arvoх turli joyda, xususan, daraxtlarda, ariq va daryolarda, hovuz va xarobalarda yuradi. Shunga ko'ra, kishilar o'z boshlariga biror-bir mushkul ish tushsa, o'sha yerlarga borib sig'inganlar, pul tashlaganlar, arvohlardan madad so'raganlar.*

Shomonizmda shomon o'z diniy amallarini ruhlar orqali amalga oshiradi. Ularning e'tiqodiga ko'ra, shomonga ilohiy qudratni arvoхlar baxsh etadi. Shomonlar arvoхlar yordamida kasallarni davolaydi. Ular bemorning ruhoniyatiga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan turli usullar yordamida gipnoz qiladilar.

Shomonlikni qabul qilishni xohlovchilar g'orga borib o'tirganlar. Tunda ruh kelib unga o'z nayzasini sanchadi va uni sehrigar qilib qo'yadi, deb ishonganlar. Shomonlar orasida ruhlar bilan gaplashadigan alohida kishilar ham bo'lган. Dinning bunday turi avstraliyaliklarda hozirgi davrda ham mavjud. Shomonlar yomg'irlar yog'dirganlar, ammo hamma joyda ham emas.



Volga bo‘yi xalqlarida ham shomonizmning asoratlari qisman saqlanib qolgan. «Mujan» yoki «mujadish» nomi bilan ma’lum kishilar g‘ayritabiyy qobiliyatga ega bo‘lib, fol ochish bilan shug‘ulanganlar. Mujanlar, go‘yoki, yomon ruhlar bilan aloqa o‘rnaganlar, kasallik yuborishga yoki uni davolashga qodir bo‘lganlar. Odamlar ulardan juda qo‘rqqanlar. Udmurtlarda bu vazifani tuno – tush ko‘rib, fol ochuvchi kishilar bajarganlar. Odamlar ulardan ko‘pincha, jumladan jretslarni tayinlashda maslahat olganlar. Tuno xudolar va ruhlar bilan aloqa o‘rnatib, ko‘pincha ekstaz holatida, ya’ni shomonlik yo‘li bilan kelajak haqidagi xabarlarni yetkazgan.

70–80-yillarda Taylorning animistik nazariyasi turli mammalatlarning dinshunoslari orasida tez orada shuhrat qozondi. U dinshunoslikda ilgariga qarab tashlangan yirik qadamlardan, deb qaraldi. Animistik nazariya naturistik nazariyadan ustun bo‘lib chiqdi. Keng etnografik material asosiga qurilib, uni sistemalashtirgan, evolutsiya g‘oyalari ruhidagi bu animistik teoriya betartib diniy aqida va urf-odatlar, shuningdek, xristianlik kabi murakkab dirlarni tushunishga, ularni eng oddiy elementdan chiqarishga imkon bergandek bo‘ldi. Shuningdek, animistik nazariya o‘sma davrdagi fanni ilohiyot tizimlarini tanqid qilishi uchun qurol bilan ta’minladi.

**2. Din antropologiyasining boshqa dinshunoslik sohalaridan farqi.** Avvalgi bo‘limda zikr qilinganidek, ilk yunon faylasuflaridan boshlab G‘arb xalqlari dinning kelib chiqishini o‘rganishga va turli madaniyatlarni o‘zaro solishtirishga intilib kelganlar. Chunonchi, Xenofanes xudolar insonlarni tasavvuri mahsuli deya qaragan bo‘lsa, Gerodot bir madaniyatga oid ma’budlar panteoni boshqa madaniyatga transformatsiya bo‘lishi va u yerda qanday shaklda adaptatsiyaga erishishi xususida bahs qilgan. Keyinchalik bu kabi faylasuf va tarixchilarning muayyan avlodini din antropologiyasining dastlabki nazariyotchilariga aylandi.

*Bugungi ko‘rinishdagi antropologiya fani XVIII asrda «ma’rifatparvarlik davri» ruhida ildiz otgan yaqin zamонлар fenomeni hi-*

*soblanadi. Aslida, antropologiya («anthropos» – *inson*, «logos» – *fan*) insonni o’rganuvchi fan sohasi sanaladi. Fanning ushbu nomda atalishi tarixi XV asrda boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakachilik harakatlari bilan bog’liq.*

Yevropaliklar Yangi dunyo madaniyati, ayniqsa, Afrika va Sharq dunyosi jamiyatlari bilan tanishishlar natijasida ularning tashqi ko’rinishi, xulq-atvori va o’ziga xos jihatlari yevropaliklarning e’tiborini torta boshladidi. 1858-yilda Charls Darvining «Turlarning kelib chiqishi» asari chop etilishi bilan dastlabki antropologlar o’z izlanishlarini «inson kelib chiqishi ni tushunish» sifatida baholay boshladilar. Jumladan, Gerbert Spenser (1820–1903) turlarning kelib chiqishi (evolutsiyasi) nazariyasini jamiyatlarning vujudga kelishi (ba’zida «sotsial darvinizm» deb ham ataladi) mavzusiga ekstrapolyatsiya qildi (ekstrapolyatsiya – narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingen xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish). Natijada, «yevrotsentrizm» qarashlari bosh ko’tarib, yevropa jamiyatlari evolutsion jarayonining eng cho’qqisini, yevropalik bo’limgan jamiyat va xalqlar mazkur jarayonning quyi qismini ifodalashi haqidagi fikrlar keng yoyildi. Hatto, ko’plab ilk antropologlar o’z qarashlarini isbotlash uchun hozirgi kungacha saqlanib qolgan ibridoiy hayot tarzida yashovchi qabila a’zolaring bosh suyaklari yoki boshqa tana a’zolarini eng qadimgi odamning arxeologik qoldiqlari bilan solishtirishga kirishdilar. Bu orqali tabiatga bog’liq ravishda (ovchilik, dehqonchilik orqali) ibridoiy jamiyatlarda yashagan insonlar jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va diniy jihatdan neandertal kabi dastlab inson ko’rinishiga yaqin ekanligi ko’rsatilishga harakat qilindi. Biroq, keyinchalik bunday turdagи antropologiyadan insonning biologik evolutsiyasi bilan shug’ullanish jismoniy antropologlar (physical anthropologists), arxeologlar va biologlar «qo’li»ga o’tgach voz kechildi. XIX asrning oxirlariga kelib, antropologiya inson madaniyati bilan shug’ullanishga urg’u bera boshladi va bugun bu jihat uning

xususiyatiga aylandi. Ijtimoiy va madaniy evolutsiya tushunchasi hanuz turli shakllarda qo'llanib kelinayotganligiga qaramay, u evolutsiya chegarasining zaruriy belgisini ifodalovchi yuqori texnologiyalar va ulkan shaharlarning tasavvuriy yo'lida joylashmagan va o'ziga xos tarixiy va atrof-muhit sharoitiga ko'ra rivojlangan deb hisoblanuvchi muayyan jamiyat va madaniyatlarga oid keng tarqalgan nazariyalarga zid keladi.

*Frans Boas (1858–1952) Amerika madaniy antropologiyasi ota-si sifatida tilga olinadi. Olim va geograf sifatida (fizika fani doktori) faoliyat olib borgan Boas hech qachon madaniyatshunoslikning muhim asosi deb hisoblagan ma'lumotlar to'plash va ilmiy kuza-tuv uslubidan voz kechmagan. Shu jihatdan, u nozik va dinamik tushuncha sifatida madaniyatni tushunish hamda uni aniq fan kabi emas, insoniy belgilarni tadqiq etuvchi tarix kabi o'rganish muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi.*

Ayni paytda, Angliyada, Bronislav Malinovskiy (1884–1942) biror notanish xorijiy jamiyat ichida uzoq vaqt davomida yashab, u yerning xalqi tilini o'rganib, u yerdagi turmush tarzi-da hayot kechirishdan iborat «dala tadqiqotlari» «madaniyat» tushunchasini tushunishdagi munosib yo'l ekanligini ta'kidlab o'tadi. Uning yondashuvi ilmiy masofa, kuzatuv va ma'lumot-larni jamlash kabi zaruriy ilmiylik belgilari bilan boyitilgani sababli «amaliy kuzatish» nomi bilan mashhur bo'lib ketdi. Ushbu tadqiqot usulidan foydalanganda, antropologlar o'zi tadqiqot olib borayotgan xalqdan uzoqda bo'lishi kerak emas, balki ular bilan aralashib, ularning hayot tarzi va madaniy tabiatini o'z hayotida sinab ko'rishi lozimdir. Biroq, biror madaniyatning tub asoslari noma'lum bo'lgan taqdirda, antropolog o'sha xalqning madaniy hayotiga oid kichik detallarni to'plab, ular ustida tahlil va ilmiy farazlar olib borishi natijasida mazkur xalqqa oid madaniyatning umumiyligini modelini shakllantirishga harakat qiladi. Bo-as va Malinovskiyning ushbu merosi bir-biridan farqli ko'ringan

jamiyatlar va madaniyatlar ustida tadqiqotlar olib borish orqali inson haqiqatini tushunish uchun izlanayotgan antropologiyada saqlanib kelmoqda. Britaniyalik antropologlar sohaning ijtimoiy-ilmiy jihatiga urg‘u berib kelgan bo‘lsalar, ayni vaqtida, amerikaliklar, ayniqsa, oxirgi paytda, madaniyat interpretatsiyasi (talqin, sharh)ga e’tibor qaratmoqdalar. Britaniyaning sotsial antropologiyasi hamda Amerikaning madaniy antropologiyasi o‘rtasidagi farq ba’zi antropologlarni o‘z yo‘nalishlarini o‘zgartirishga olib borayotgan bo‘lishiga qaramay, antropologiya fani bir vaqtda jamiyat va madaniyatning dinamik konfiguratsiyasi (shakl)ni o‘rganish va boshqalarni tushunishda osoyishtalik (holism)ni saqlashga intilib kelmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar etnografiya deb atalmoqda.

*O‘z o‘rnida aytish mumkinki, «jamiyat» tushunchasini ta’riflash u qadar muammo tug‘dirmay, uni yagona element atrofida jamlangan kishilar jamoasi, deb ta’riflab qo‘yish mumkin, «madaniyat» tushunchasini ta’riflash esa «din» tushunchasi kabi qiyinchilik tug‘diradi. Antropologlar «madaniyat» tushunchasini «xulq-atvorning eng oliy namunasiga ega bo‘lish» ma’nosida qo‘llamaydilar, chunki bu holatda boshqa madaniyatni kansitish bo‘lib, ular barcha jamiyatlar o‘ziga xos madaniyatga ega ekanligini qayd etib o‘tadilar. Madaniyat bir ijtimoiy guruhning birligida baham ko‘radigan e’tiqod va faoliyatlari majmuasi hisoblanadi.*

Madaniyat ijtimoiy guruhlarning muayyan majburiyatlarini bajarishda muhim rol o‘ynaydi, madaniyatning muhim jabhalariga rioya qilmaganlar esa «begonalar» deb ataladi. Madaniyat avloddan-avlodga o‘tib borib, biror ijtimoiy guruh a’zolari orasida «bajarilishi lozim narsalar» sifatida o‘zlashtirilib, chuqur ildiz otib boradi. Shu sababli ham antropologiyada kishi faqat o‘zi mansub madaniyatni tadqiq etishi munosib yo‘l sanalmaydi, balki, boshqa madaniyatlarni o‘rganish insonning o‘zi mansub madaniy xulq-atvorida yashirinib yotgan jihatlarni aniqlashga ko‘makla-

shadi, deb ishoniladi. Masalan, kishi salomlashishi belgisi sifatida qarshisidagi insonning qo'lini silkitishi yoki mazali taomdan so'ng kekirishi muayyan madaniyatda normal etiket sifatida qabul qilinishi, aksincha, boshqasida bunday holat qoralanishi mumkin. Aslida, bunday etiket qoidalari jinsi bir rangi turli marker kabi bo'lib, kimdir tomonidan uning (etiket) oqibatlari arzimas tuyuladi, boshqalar esa unday nostandard usuldagagi madaniy ramzlarga qattiq bog'langan bo'ladi. Shuning uchun hurmatsizlikka yo'g'rilgan ommaviy harakatlar, jumladan, siyosiy ramzlarni oyoq osti qilish (Amerika bayrog'ini yoqib yuborish kabi) yoki diniy belgilarga hurmatsizlik ko'rsatish (Rim papasi suratini yirtib tashlash, Muhammad payg'ambarni satirik obrazlarda tasvirlash, Buddha haykali yoki hinduviylik ibodatxonasini vayron qilish singari) norozilik kayfiyatini uyg'otib, hatto, insonlarni zo'ravonlik aktlari, xususan, qotillikni sodir qilishgacha olib borishi mumkin. Diniy e'tiqod inson hayotidagi arzimas omil bo'lmaganligi uchun dinshunoslik uning shaxs va jamiyat rivojiga ta'sirini o'rganib keladi.

*Dinni antropologik o'rganish bir-biri bilan munosabatdagi madaniyat va din haqidagi ikki noaniq tushunchani keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra, madaniyatni kengroq tushuncha sifatida qabul qilib, din uning tarkibidagi madaniy tizim deb hisoblash mumkin. Shu asosda, diniy tarix, e'tiqod va amaliyotlar muayyan ijtimoiy guruhga tegishli yagona madaniy elementlarning o'ziga xos majmuasini tashkil etadi. Masalan, kimdir Hindiston aholisining (siyosiy madaniy tizim bilan bog'langan) hayoti va madaniyatini tadqiq qilishga kirishsa, u yerda ko'p miqdordagi kichik ijtimoiy guruhlar mayjudligi va ularni (madaniy omillari o'xshashligi jihatidan) bir-birini to'ldirishi va o'zaro mos tushishiga guvoh bo'ladi.*

Albatta, u yerda siyosiy ma'muriy (shtat, shahar, qishloq), geografik (tog'li, sohil bo'yli, tekislik), qarindosh asosida (kasta, qabilaviy), diniy (hindu, musulmon, jain, buddist,

sikh, xristian, zardushtiy) bo'linish mavjudligini nazarda tutish lozim. Shu bois ularning har birini tor doirada yoki chuqur-roq o'rganish mumkin. Bunday holatda, hinduizm yoki hinduizm madaniyati (din jabhasida) hind madaniyatining oddiy bo'lagi bo'lib ko'rindi. Hindu diniy madaniyatini tadqiq qilganda turli shakldagi farqlar mavjudligini e'tiborga olish lozim: muayyan iloh va ma'budlar (Shiva, Vishnu, Shakta)ga sig'inishinga asoslangan shivaizm, vishnuizm, shaktaviylik kabi sektalar; ba'zi xarazmatik (sirli qobiliyatli) diniy yetakchilar – Sai Baba, Bhagvan Rajnesh (Osho)ga ergashadiganlar; zohidlik yo'lini tutuvchi yoki butun hayotini o'zi xizmat qilgan xonadon sohibiga bag'ishlovchilar mavjudligi. Shu shaklda, hinduizm kabi muayyan bir dinda madaniy xilma-xillikning borligi dinning ulkan madaniyat tarkibidagi o'rnini oydinlashtirib ko'rsatadi. Shu bilan birga, bir hindu xonadon sohibini o'rganishga harakat qilinsa, uning siyemosida diniy turfa xillik manzarasi-ga guvoh bo'lish mumkin, ya'ni, u nafaqaga chiqqanda zohidlik yo'lini tanlashni umid qilayotgan, Sai Baba va Osho so'zlarini tinglayotgan, Shiva, Vishnu va boshqa ma'budlarga atab ibodat ado etayotgan, uning buddaviy e'tiqodiga ergashadigan turmush o'rtog'i mavjud bo'ladi. U tadbirkor, qolaversa, mamlakat ichkarisidagi katta shaharda istiqomat qilishiga qaramay, Pokiston bilan chegara hududda joylashgan Rajastxan shtatidagi ko'p sonli kishilar kabi biror kastaga mansub bo'ladi. Shuningdek, u sun'iy yo'ldosh televizion kanallari orqali G'arbda tayyorlangan xristianlik g'oyalari bilan sug'orilgan musiqlalarni eshitadi, filmlar tomosha qiladi va radio dasturlarni tinglaydi. Bundan tashqari, u Internet orqali ish topib, amerikalik xonadon uchun yillik daromad solig'i deklaratsiyasi hisoblanadigan noto'liq ish o'rnida faoliyat olib boradi. Shu jihatdan, u haqiqatan ham hinduparastmi, degan savol tug'iladi. Albatta, u bunday turdag'i parametr doirasida hinduizm tarafдори. Yoki uning diniy e'tiqodi biznes faoliyati va siyosiy qarashlariga ta'sir ko'rsatadi-mi? Albatta, ko'rsatadi.

Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, din, madaniyat, hind, hinduist, xonodon sohibi, marksistik, diniy ibodat, Shiva yoki shahar aholisi kabi nomlar ongimizda vujudga keluvchi intellektual tushunchalar bo'lib, ular dunyo va o'zligimizni tushunishga ko'maklashadi. Inson bunday kategoriyalar orasida qandaydir kichik son emas, balki matematik to'plamda tasvirlangan zaruriy birlik hisoblanadi. Aniqroq aytganda, yuqoridagi intellektual tushunchalar shaxs atrofida qaror topgandir, shu nuqtayi nazardan, inson aqli mazkur kategoriyalar, jumladan, dinning ham yaratuvchisi sanaladi. Aytish lozimki, insonlar bir necha toifalarga bo'linadilar, shaxsiyatlari (e'tiqod va xulq-atvorlari asosida shakllangan faoliyat) orqali qo'llab-quvvatlashga erishadilar. Boshqalar esa o'zlariga o'rinni izlab turli kategoriyalar uzra aylanib yuradilar.

*Shunga ko'ra, dinni qat'iy chiziqlar bilan ixotalangan va hayotning turli jabhalaridan ajralgan monoton (bir xil tusdagi, qotib qolgan) ikkinchi darajali madaniy tushuncha (monochromatic cultural subcategory) deb o'yash johillikdir. Inson hayotining deyarli barcha jabhasini qamrab olganlik jihatidan, din doimiy o'zgaruvchan narsha (dynamic, ever-changing thing) sanaladi. Kishining dini insonning o'zidan ko'ra harakatchan hisoblanadi. Shu bois, antropologiya fani doirasida «din» kategoriyasi, insoniyat madaniyatining barcha qirralarini tadqiq etish kutilgan natijaga erishishi uchun, uning (din) murakkab, nozik va o'zgaruvchan belgilariga katta e'tibor qaratib o'rganishni taqozo etadi.*

**3. Din antropologiyasidagi qarashlar.** Antropologiya, qolaversa, din antropologiyasi fanining ilk namoyondalaridan biri Eduard Burnet Taylor (1832–1917) bo'lib, u o'z qarashlarini ikki jildlik «Ibtidoiy madaniyat» asarida bayon qilgan. Uning nomi ko'pincha u tomonidan dinning kelib chiqishi, dinning tadrijiy taraqqiyoti va madaniyatshunoslik fanining rivojlanishini ochib beradi, deb hisoblangan animizm tushunchasini tadqiq qilish bilan bog'liq

ravishda yodga olinadi. Taylorning ta'kidlashicha, insoniyatning dastlabki vakillari atroflarida sodir bo'layotgan uyqu, tush, bedorlik, hayot va o'lim kabi hodisalar borasida hayratga tushib, ular to'g'risida o'z aql doiralarida mushohada olib borganlar, amma ularning tasarrufida aniq dailiga asoslangan ma'lumotlarning mavjud emasligi yuqoridagi masalalarning tagiga yetishga to'siqlik qilgan. Shu tariqa, ular atroflaridagi narsa va hodisalarga «jon» ato etganlar, ya'ni, ularning ruhi bor, deb tasavvur qila boshlaganlar. Taylorning fikricha, bunday shaklda inson, hayvon yoki tabiatga oid narsa va hodisalarni ilohiyashdirib, ularga e'tiqod qilinishi diniy tafakkurning eng qadimgi ko'rinishi hisoblanadi.

*Shu asosda, ruhlar va ularning boshqa jonzotlardan alohida o'ziga xos ravishda yashashi haqidagi tushunchalar shakllanishi ularga bo'lgan e'tiqodni vujudga keltirgan bo'lsa, keyinroq, muayyan ruhlarning iloh maqomiga ko'tarilishi ko'pxudolik e'tiqodini shakllanishiga olib keldi. Yakunda esa, turli xudolar to'plamidan «yagona qudratli kuch sohibi» tushunchasi ajralib chiqib, yakkaxudolik (monoteizm) g'oyasi yuzaga kelishiga olib bordi. Bu fikrga mos ravishda, Taylor ibridoiy (ovchilik) va sodda (dehqonchilik, choryachilikka asoslangan) hayotdan madaniylashgan turmush tarziga o'tishni ifodalovchi «jamiyatlarning madaniy evolutsiyasi» nazariyasini ilgari suradi. Unga muvofiq, monoteizm faqat sivilizatsiyalashgan jamiyatlarning animizmi sanaladi (ya'ni, monoteizm faqat madaniylashgan jamiyatlarga xos yoki madaniylashgan jamiyatlar avvaldan monoteizmga e'tiqod qilib kelganlar).*

Taylorning fikriga ko'ra, zamonaviy «ibridoiy» ko'rinishdagi (kichik ko'lamlı, urbanizatsiyalashmagan, texnologik oddiy) jamiyatlar qadimgi «sodda» jamiyatlarning muqobil variantidir va ular madaniy hamda diniy rivojlanishning muqarrar bosqichlarini bosib o'tadilar. Keyinchalik, zamonaviy «ibridoiy odam» formulasi orqali insoniyatning qadimgi vakillari jamiyatini model-

lashtirish va ularning fikrlash tarzi hamda faoliyatini tasavvur qilish uslubi antropologlar orasida oddiy tus oldi. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, inson hayotida dinning paydo bo‘lishi masalasi din antropologiyasining dastlabki davrida «qaynoq» mavzuga aylandi.

Taylorning ba’zi g‘oyalari folklorist Endryu Lang (1844–1912) tomonidan haqli ravishda tanqidga uchradi. Avvalida Taylor qarashlariga ergashgan Lang, keyinroq, ibtidoiy jamiyatlar boshidanoq monoteizm e‘tiqod shakliga amal qilganlari va ular ko‘pxudolik yoki animizmning ilk shakllarini boshdan kechir-maganlarini dalillar asosida keltirib o‘tdi. Katolik ruhoniysi va antropolog Vilgelm Shmidt (1868–1954) mazkur fikrni quvvatlab, barcha primitiv jamiyatlar ibtidodan monoteistik ruhiyatga ega bo‘lganligi va monoteizm barcha dinlarning asl ko‘rinishi ekanligini bildiradi. Aslida, Taylor fikrlari bo‘yicha shakllangan dinning evolutsion rivojlanish nazariyasini ibtidoiy jamiyatlarning dinlari monoteizmning buzilgan shakli bo‘lganligi to‘g‘risidagi xristiancha qarashga qarama-qarshi o‘laroq yuzaga chiqqan edi. O‘z navbatida, dinning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar boshqa soha vakillari, jumladan, sanskrit va hind-yevropa tillari bo‘yicha mutaxassis Maks Myuller tomonidan ham ilgari surilgan. Myullerning bildirishicha, insoniyatning ilk vakillari momaqal-diroq, quyosh tutilishi kabi tabiat hodisalaridan hadiksirab, ular uchun muayyan ibodatlarni bajarganlar. Biroq, keyinroq, tilning narsa va hodisalarning to‘liq ochib berish imkoniyati yo‘qligi va narsalarning xususiyatlarini ko‘pincha bo‘rttirib ko‘rsatishga moyillikning yuqoriligi natijasida mazkur tabiat hodisalari g‘ayritabiiy kuchlar yoki xudolar tomonidan boshqariladi, degan qarashni yuzaga keltirgan. Shu bois ham afsonalar «tilning kasalligi» deb ataladi. Haqiqatda, tez orada ma’lum bo‘ldiki, dinning kelib chiqishi xususidagi yuqoridagi kabi nazariyalar antropologiya bilan hamjihatlikda «yashab» kelayotgan ilmiy uslublar asosida tajribadan o‘tmaganligi sababli noto‘g‘ri, qisman haqiqatga yaqin yoki samarasiz deb topildi. Natijada, din antropologiyasida

yangi mavzuviy masalalar (new thematic concerns) bo'y cho'za boshladi.

*Djems Jorj Frezer (1854–1941) mohir yozuvchi va «antropologlar silsilasi»ning mumtoz namoyondasidir. Aytilishicha, u oltmis yil davomida har kuni o'n ikki soatni ilm bilan shug'ullanishga sarflagan va uning shaxsiy kutubxonasida 30.000 dan ziyod kitob saqlangan. Keng mutolaasi va o'ta bilimdonligi evaziga Frezer insonlarni dinning mohiyatini tushunishlari, ayniqsa, o'zining muhtasham asari «Oltin novda» (Golden Bough) orqali mif va rituallarni anglashlariga katta hissa qo'shdi. Bu asar Frezerning istagi bo'yicha turli madaniyatlarga xos e'tiqod, amaliyot va institutlar asosida qiyosiy etnografik ma'lumotlar bilan to'ldirilgan yuqori qiziqish bilan o'qiladigan ensiklopedik tadqiqot hisoblanadi. Masalan, Frezer ikki asosiy turiga e'tiborini qaratgan sehrgarlik marosimlari uchun foydali kategoriyanidan foydalanishni taklif qiladi.*

Gomeopatik (juda oz miqdor) yoki yasama magiya bir xil uslub, ya'ni yomg'ir chaqirish uchun do'mbira chalib momaqal-diroq hosil qilish amaliyotiga asoslanadi. Yuqumli kasallikni ketkazish sehri bog'lanish qoidasiga asoslanib, unga ko'ra sehrgar kasallikni aritish uchun kesilgan tirnoq va yondirilgan kiyim bo'laklaridan foydalanadi. Frezerning qayd etishicha, bu ikki kategoriya ko'pincha birlashtirilib yuboriladi, shuning uchun u ikki sehr turi ham narsalar o'zaro yashirin munosabatlar orqali bir-biri bilan aloqaga kirishadi, degan e'tiqodga asoslanganligidan kelib chiqib, ularga nisbatan «simpatik (o'xshash) sehr» tushunchasini ishlatishga odatlangan.

Shuningdek, Frezer sehrgarlik, ilm va din o'rtasida o'ziga xos farqlar mavjudligi to'g'risidagi Taylorning qarashini e'tirof etadi, ammo, ularni evolutsion ketma-ketlikda joylashtiradi. Uning fikricha, magiya eng sodda narsadir, chunki u muayyan g'oymalar (insonni ifodalash uchun vudu (mahalliy Afrika dirlari-ga xos) qo'g'irchog'idan foydalanganlik kabi) o'rtasidagi oddiy

o'xshashlikni namoyon qiladi. Uning qo'shimcha qilishicha, magiya olamning tabiiy qoidalarini noto'g'ri tushunishga asoslangan g'ayriilmiy tur sanaladi. Din esa jamiyatning intellektual evolutsiyasini ifodalovchi, fikrlashning yuqori nuqtasini aks ettiruvchidir, lekin, u o'ta madaniylashib taraqqiy etgan jamiyatlarda asta-sekin o'zib ketayotgan ilm-fan qarshisida od-diy fenomen bo'lib qoldi. Biroq, bunday g'oyalar antropolog va sotsiologlarning dala tadqiqotlarida noto'g'ri ekanligi ilgari surilgan bo'lishiga qaramay, hanuz bugun ham keng tarqalganicha qolmoqda. Frezerning qiyosiy ishi universal modellarni topish uchun amalga oshirgan izlanishlaridan xabardor antropologlar tomonidan «u muayyan madaniy xarakterning o'ziga xos jihatlariga yetarlicha e'tibor qaratmagan» qabilidagi fikr asosida tanqid ostiga olindi. Shuningdek, Frezer, Taylor va boshqalar tarafidan sehrgarlik va din o'rtasida keskin farq mavjudligi xususida bildirilgan fikrlar ham savollarni keltirib chiqardi. Tadqiqotlar esa magiya yoki yanada salbiyroq «xurofot» deb nomlangan amaliyot va xatti-harakatlar asosiy dinlarning ko'pchiligidagi ham keng tarqalganligini ko'rsatdi. Qolaversa, yanada mantiqsizlikka tayanib qilingan ishlardan biri magiya va dinni alohida turkumlarga ajratilib ko'rsatilishidir.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, zamonaviy ilmdan farqli o'laroq, dinshunoslik fani nuqtayi nazaridan, din aniq belgilangan va kelishilgan munosabat va amaliyotlarning yagona majmuasi hisoblanadi. Odamlar (jumladan, olimlar) din va ilmni o'zaro qiyoslagan yoki ikkisini bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan paytda, ular yanglish ravishda, imon haqida biror narssa qabul qilmagan ilmdagi qat'iy talablarga zid diniy an'analarga tayangan imon borasida qiyos olib borayotgan bo'ladilar. Chunki, din deganda ko'p holatda xristianlik yoki islom tushuniladi, lekin unday emas. Aslida, ilm va dinni solishtirish sigirdan sog'ib olingan sut mahsulotlari, aytaylik, pishloqnинг turli navlarini solishtirishga o'xshaydi. O'xshashlik va farqlarni solishtirish, bizga turli ta'rif, tushuncha va munosabatlardan ma'lumki,

masalaning mohiyatini oydinlashtirishga ko'maklashadi, ammo, boshqa tarafdan, bu yo'l o'zgalar ustidan ustunlik yoki o'zaro tenglikni qaror toptirishga mo'ljallangan ba'zi rejalarga asoslangan bo'lishi mumkin.

Dinshunoslik fani uchun yana bir muhim jihat, tadqiqot dallari ko'rsatishicha, ilmiy metodlar ilk bor joriy qilina boshlangan asrlarda ularning ta'sirchan tushuntirish qobiliyatiga qaramay, keng miqyosli texnologik o'zgarishlarni insonning diniy impulsi (turtki) ro'yobga chiqargan deb ishonilgan. Shunday qilib, madaniy taraqqiy topgan jamiyatlarda dinning o'rni o'zgarishi to'g'risidagi ilk nazariyotchilarning evolutsion sxemasi to'liq o'zini oqlamadi. Aksincha, ilm-fan yutuqlari asosida rivojlangan sun'iy yo'ldosh kanallari, Internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan dindorlar istiqomat qiladigan dunyoning turli nuqtalarida diniy fundamentalizm g'oyasi yuzaga keldi. Qolaversa, an'anaviy diniy amaliyotlar, xususan, xristianlar tomonidan cherkov marosimlarida ommaviy ishtirok etish holati kamayib borgan bo'lishiga qaramay, boshqa tomondan, din va axloq masalalariga nisbatan yangicha yondashuvlar shakllanib, ular orqali «nyu eydj» yoki «yangi diniy harakatlar» tug'ilishiga olib keldi<sup>1</sup>.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Din antropologiyasi dinshunoslik fan sohasi sifatida qachon yuzaga keldi?
2. Din antropologiyasi asoschilari sifatida kimlarni bilasiz?
3. E.Taylor qanday qarash orqali din antropologiyasida shuhrat qozondi?
4. Markaziy Osiyoda ibridoiy tasavvurlarning qaysi shakllari keng tarqalgan?

---

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding . Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 49–62.

## **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. — USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar ja-moasi. — T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). — T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo'minov A., Yo'doshxo'jayev H., Rahimjonov D. va bosh-qalar. Dinshunoslik: darslik / Mas'ul muharrir N.Ibrohimov. — T.: Mehnat, 2004.

## 7-mavzu. DIN FENOMENOLOGIYASI

### Reja:

1. Din fenomenologiyasining vujudga kelishi.
2. Dunyo dinlarini fenomenologik o'rganishning mohiyati.
3. Diniy fenomenning namoyon bo'lishi.



**Tayanch tushunchalar:** fenomenologiya, «fenomen», «noumen», I.Lambert, I.Kant, qiyosiy va tizimli yondashuv, «soddalashtirmaslik», «muqaddas g'oya», imon, ilm olish fenomeni, Vatanni sevish fenomeni, gunohkorlikni tan olish, ruhan taskin topish, rihla, niyat.


**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda din fenomenologiyasining vujudga kelishi, dunyo dinlarini fenomenologik o'rganishning mohiyati va diniy fenomenning namoyon bo'lishi haqida tushuncha hosil qilish.

**1. Din fenomenologiyasining vujudga kelishi.** Din fenomenologiyasi falsafiy fenomenologiyaga asoslangan holda dinning mohiyatini avvalda mavjud ilmiy qarashlar, umum qabul qilingan qadriyatlar va tushunchalar ta'siridan xoli tarzda aniqlashga intiladi. «Fenomenologiya» istilohi 1764-yilda matematik va faylasuf I.G.Lambert (1728–1777) tomonidan muomalaga kiritilgan.



Immanuel Kant

XVIII asr oxirida germaniyalik faylasuf Immanuil Kant (1724–1804) «fenomen» va «noumen» orasidagi farqni ajratib beruvchi konsepsiyanı ilgari surdi. U fenomen deganda har qanday inson to'liq tushunib yetishi mumkin bo'limgan holat, noumen deganda diniy tajribaga emas, balki ong tarafidan boshqariluvchi g'o-yalarni nazarda tutgan edi.



Immanuil Kant

Dinga fenomenologik yondashuv biror diniy an'anani o'rganish uchun tadqiqotchi o'sha jarayonda shaxsan o'zi ishtirok etishi ni talab etadi. Shu yo'l bilan dinni o'rganya-yotgan kishi o'sha jarayonda muayyan dinga xos bo'lgan diniy fenomenlarning namoyon bo'lishini shaxsiy tajribasida sinovdan o'tkazadi. Muayyan dinni fenomenologik yo'l bilan o'rganishda tadqiqotchi din haqida xolis mavqeni egallaydi va mavjud qadriyat bo'lib qolgan qarashlardan uzoqlashadi. Tadqiqotchilar dinni bunday o'rganishni dinshunoslikdagi muhim soha deb qaraydilar. Din fenomenologiyasida har bir dinda mavjud bo'lgan «diniy tajriba»ni tan olish asosiy yo'nalishni belgilaydi.

**2. Dunyo dirlarini fenomenologik o'rganishning mohiyati.** Din fenomenologiyasi dinni o'rganishning bir turi bo'lib, unda dindorlar dunyoqarashi va nuqtayi nazariga alohida ahamiyat beriladi.

#### Din fenomenologiyasi xususiyatlari

Qiyosiy va tizimli yondashuv
Empirik yondashuv
Tarixiy yondashuv
Deskriptiv (tavsiflovga oid) yondashuv
Antireduksionizm (ortga surmoq)
Avtonomiya (mustaqillik)
Intensionallik

Fenomenologiya mavhum tushuncha bo'lib, Edmund Husserl (1859–1938) tomonidan asoslangan zamonaviy falsafiy harakat sifatida inson ongining vogelik bilan ta'sirini subyektiv taj-

riba orqali o'rganishni maqsad qiladi. Voqelik esa inson tuyg'usi yoki ongi orqali idrok qilinadigan reallikning belgisi hisoblana-di. Fenomenologik yondashuvdan dinshunoslikda keng miqyos-da foydalanishdan avval mavzuning kirish qismida ushbu yon-dashuvning nima uchun psixologik yondashuv bilan bir o'rinda zikr qilinishi hamda oldingi bo'limda tadqiq qilingan sotsiologik va antropologik yondashuvar bilan bog'liq jihatlari haqida to'xta-lib o'tsak.

Avvalo, aytish lozimki, bu bo'limda o'rganiladigan fenomenologik va psixologik yondashuvar sotsiologik hamda antropologik yondashuvar bilan bir o'rinda ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan. Qolaversa, ushbu to'rt yondashuv bo'yicha faoliyat olib borgan asosiy namoyondalar va yaratilgan asarlarning davri bir vaqtga to'g'ri keladi. Binobarin, ularning har biri o'z uslubiga ko'ra teologik yondashuvga nisbatan ilmiy deya tasvirlanadi va ular bugungi kunga qadar ilmiy yo'nalish sifatida yashab kelmoqda. Bundan tashqari, ushbu yondashuvar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, har vaqt davomli ravishda o'z uslublarini oqlab kelgan. Masalan, din fenomenologiyasi vakillari antropologlar tomonidan to'plangan ma'lumotlardan o'z yo'nalishlarida foydalanadilar, shu asnoda, u ma'lumotlardagi antro-pologik, psixologik yoki sotsiologik talqinda sezilmagan kamchi-lik (reduksiya) bartaraf qilinishi ham mumkin. Reduksionizm murakkab hodisa yoki narsani o'rganish uchun uning sabab va tabiatga e'tibor berishni nazarda tutgan ilmiy yo'nalish sanaladi. Shunga ko'ra, dinni o'rganishda reduksion antropologik, psixologik va sotsiologik hisobga muvofiq ish ko'rilsa, dinning kelib chiqishi va muayyan vazifalarni bajarishi mos ravishda, madaniy, psixologik va sotsial sabablar bilan bog'liqligi to'g'risida xulosa kelib chiqadi. O'z navbatida, fenomenologlar o'zlarining sotsiolog hamkasblariga ularni butun narsaning bir qismiga e'tibor

*Din fenomenologiya-si vakillari antropolog-lar tomonidan to'plangan ma'lumotlardan o'z yo'nalishlarida foydala-nadilar.*


qaratganliklar yoki din, ritual va afsonalarning diniy sifatga ega ekanligini noto‘g‘ri talqin qilganlari yoki o‘tkazib yuborganlari uchun e’tiroz bildiradilar. Endi, masalaning mohiyatini ta’riflash va tushuntirishda fenomenologiya va psixologiya o‘rtasida farq mavjudligi ularni tenglashtirishga urinishni ajablanarli qilib ko‘rsatishi mumkin. Biroq, haqiqatan, ular bir qator masalalar, jumladan, diniy ong, diniy tajriba va qarash borasida umumiyligi o‘xshashliklarga ega. Shuningdek, har ikkisi, turli shaklda bo‘lsada, sotsiologik qarashlardan farq qiladi. Psixologlar shaxsning hissiy tajribasi, ehtiyoji va fikrlashiga oz e’tibor qaratganligi nazaridan sotsiologik nazariyalarni tanqid qilishsa, fenomenogiya sohasi vakillari esa dinni tushunishda uning ijtimoiy vazifasidan ko‘ra ham jamoa, ham individni qamrab oluvchi dinning tarkibiy tuzilishini tadqiq qilish lozimligini uqtiradilar. Odatda, bu sohalarda muhokama mavzusi – insonning ichki hayoti hamda rituallar, miflar, muqaddas qadamjolar, ilohiy tasavvur kabi diniy fenomenlar hisoblanadi. Mazkur tushunchalar borasida ushbu ikki soha o‘rtasidagi kesishish nuqtasi, psixologlar singari fenomenologlar yuqoridaq diniy fenomenlarni inson tomonidan qanday tajriba va idrok qilinishiga asosiy e’tibor qaratadilar.

*Din fenomenologiyasida muhokama mavzusi – insonning ichki hayoti hamda rituallar, miflar, muqaddas qadamjolar, ilohiy tasavvur kabi diniy fenomenlar hisoblanadi. Unda diniy fenomenlarni inson tomonidan qanday tajriba va idrok qilinishiga asosiy e’tibor qaratadilar.*

Din psixologiyasi bilan fenomenologiyasi o‘rtasidagi o‘xshashlik yana ular tomonidan qo’llaniladigan tushunchalar, qarashlar va mos tavsiflarda ko‘zga tashlanadi. Ayni paytda, «mos tavsif» («sympathetic descriptions») deganda, dindor tomonidan o‘z diniy an’anasi to‘g‘risida, hech bir tanqidiy tahlilsiz, ma’lumot berish tushuniladi, bunda, voqelik haqida ma’lumot berishdan bo‘lak bilimga biror yangilik qo‘shilgan hisoblanmaydi. Qolaversa, «mos tavsif» dindorning his-tuyg‘uga yo‘g‘rilgan

qarashlarini tushunishni anglatadi. «Breketing» («Bracketing») esa hakam qarorini vaqtincha (vaziyatga to‘g‘ri bahoni belgilash uchun) to‘xtatib turishni bildiradi. «Soddalashtirmaslik» («Irreducibility») zaruriy sifatni yo‘qotish maqsadida obyektning muayyan qismini istamaslik yoki ishonchsizlik bilan qisqartirishni nazarda tutadi. Shunday qilib, fenomenologlar reduksion sotsiologik qarashlarni rad etgan holda dinni tushuntirish yo‘li sifatida faqat psixologik yondashuvni qabul qilishni ma’qul ko‘rmaydilar. O‘z navbatida, fenomenologlar ilmiylik yoki obyektivlik ta’minlanganligi jihatidan diniy e’tiqod va amaliyotlarning nafaqat, psixologik balki, sotsiologik, siyosiy va boshqa ta’sirlari mavjudligini e’tirof etadilar. Fenomenologiya vakillari ushbu – Eliade asarlarida «sakrat» («sacred»), Otto nazdida «muqaddas» («numinous» or «holy») deb nomlangan (bu nazariyotchilar va ularning qarashlari haqida quyida to‘xtalinadi) – farqli diniy jihatni saqlab qolish va unga katta urg‘u berishga harakat qila-yotgan bo‘lsalar-da, bu yondashuv dindorlar tomonidan amalga oshirilgan teologik fikrni tasdiq yoki inkor qilgandanda ko‘ra haqiqat haqidagi «brekket» fikr uchun eng yaxshi bo‘lib qolmoqda. Fenomenoglarning ishi ko‘pincha, dindorning g‘oyasi, tili, afsona, rituallar, e’tiqod va amaliyotlarini tushunishga harakat qilishligi jihatidan din bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ular dindorning tushunchalarini tasdiqlash, rad etish yoki o‘zлari uchun unga nisbatan chegara belgilab olishga haqlari yo‘q hisoblanadi. Psixologik yondashuvlar esa bunday to‘xtalish (breket) yoki xayrixohlik (simpatiya)ga bog‘liq emas. Din psixologiyasining ba’zi namoyondalari ichki muqaddas kuchning haqiqat ekanligiga to‘xtalib o‘tishlariga qaramay, ulardan boshqa guruh din psixologik ehtiyoj, orzularni ro‘yobga chiqishini qattiq istash, jismoniy zaifdan kelib chiqqan inson tuzilishidagi proeksiya, deya fikr bildirib o‘tadilar.

Shuningdek, psixologik yondashuvlarda ichki diniy haqiqatning imkoniyatlarini inkor qilmagan va ularning dindor ma’naviy sog‘lomlidagi o‘rnini chetga surib tashlamagan holda diniy amaliyotlarni o‘rganish orqali insonning qarashi, tajribasi va hat-



Fenomenoglarning ishi dindorning g‘oyasi, tili, afsona, rituallar, e‘tiqod va amaliyotlarini tushunishga harakat qilish hisoblanadi

to, ong faoliyatiga e‘tibor qaratiladi. Aslida, dinning bu singari ijobjiy jihatlari dindorning tushunchasi va diniy tajribasi haqida psixologik tushuntirishlarni talab qiladi. Fenomenologiya va psixologiya sohasi vakillari, birdek, insonni yanada yaxshiroq tushunish maqsadida dinning turli jihatlar, diniy tajriba, e‘tiqodlar, an‘analalar, diniy hayot tarzi, kelib chiqishi va funksiyalari ustida tahvilij faoliyat olib boradilar. Bundan tashqari, ushbu yondashuvlar bir guruhga oid kelib chiqish va ambitsiyaga ega hisoblanadi. O‘n

to‘qqizinchi asrning boshlarida, Gegel bilim nuqtayi nazaridan, fenomenologiyani ong orqali o‘zlashtiriladigan ilm, deb ta’rifladi. U o‘zining «Ruh fenomenologiyasi» asarida aytadiki, farqli hodisa (fenomen)larni puxta o‘rganish turli ko‘rinishlarni birlashtiruvchi va yo‘naltiruvchisi asosiy ruhni kashf etishga olib boradi. Shuningdek, u dinshunoslikning rivojlanishidagi asosiy tadqiqotlar «din haqidagi ilm» nomi bilan olib borilganligi va bunda asosan fenomenologik yondashuvdan foydalanilganligini ta’kidlaydi. O‘n to‘qqizinchi asrning oxirlarida, Per Daniel Shantepi de la Suassaye din haqidagi fan yo‘lida psixologik va fenomenologik yondashuvlar bir-birini to‘ldirishini ta’kidlagan holda ularni bir o‘rinda zikr qiladi.

Din psixologiyasi psixologiya fani singari inson, madaniyat, jamiyat va dunyo mohiyatini yaxshiroq anglashni maqsad qilgan fanlar shakli kengaygan XIX asrda yuzaga keldi. Karl Yung dinshunoslik tadqiqotlariga bag‘ishlangan «Psixologiya va din: G‘arb va Sharq» asarida bildirishicha, tadqiqotchi «metafizik yoki falsafiy mulohazalarni» o‘zlashtirmay turib, «fenomenni kuzatish»

haqida so‘z ochmasligi lozim. Shuningdek, u o‘z tadqiqotlarida real voqeа-hodisalar, tajribaga suyanishi sababidan amaliy (empirik) ekanligi, qolaversa, muhokamadan ko‘ra faktlarga asoslanganligi jihatidan fenomenologik yondashuvlardan foydalanishni qat’iy ravishda afzal ko‘radi. Ba‘zi fan va texnologiya tushunchalari farazlarni tekshirish hamda Yung va undan avvalgi olimlar yashagan davr oralig‘ida o‘zgargan «fakt»larni qayta tiklash uchun ishlatilgan. Kognitiv (bilim) ilm va «nevroteologik» tahlil orqali dinning tadqiq qilishni zamonaviy ko‘rinishi yaqin davrlar ichida vujudga kelgan harakat bo‘lib, bilim jarayoni va aql faoliyati nuqtayi nazaridan diniy onglilikni o‘rganadi. Bu yondashuvlar ilg‘or ilmiy uslublar, til, hissiyat va texnologiyalardan foydalanadi, biroq, din va diniy onglilik haqidagi tushuntirish va interpretatsiyalar natijasi har doim ham eskirgan dastlabki barcha yondashuv va uslublarni namoyon qilavermaydi. Biz diniy ong, tushuncha va tajribaga katta e’tibor qaratilgan dinni ilmiy o‘rganish doirasidagi ushbu tadqiqotimizda fenomenologik va psixologik yondashuvlar orqali yuqoridagi yangi harakatlarni ko‘rib chiqamiz<sup>1</sup>.

**3. Diniy fenomenning namoyon bo‘lishi.** Diniy tushunchalardan eng muhim bu «imon» va «ishonch» fenomenidir. Ushbu tuyg‘u insonlarning hayotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dinga ishonuvchi kishi o‘z hayotini bir umr mashaqqatga qo‘yib bo‘lsa-da e’tiqodiga sodiq qolishga bag‘ishlashi mumkin. Masalan, diniy majburiyat sifatida belgilangan muqaddas joylarga ziyorat uchun dindorlar mashaqqat chekib qancha uzoq bo‘lsa ham borishga intiladilar. Vaholanki, o‘sha ziyoratga ketadigan vaqt, mablag‘ va kuchni boshqa biror dam olish hududiga borishga sarflash ham mumkin edi.

*Diniy tushunchalardan eng muhim bu «imon» va «ishonch» fenomenidir.*

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding . Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 74–77.




Ammo dindor kishi buning o‘rniga mashaqqatli, lekin o‘z e’tiqodi bo‘yicha zaruriy hisoblangan joyga borishni tanlaydi.

Din o‘z navbatida mazkur fenomenlarni boshqaradi. Chunki bu kabi fenomenlar orasida «diniy mutaassiblik» kabi salbiy fenomen ham borki, u ko‘pincha dinning asl ezgulik mohiyati dan bexabar qolgan, din haqida chuqur falsafiy mushohadaga ega bo‘lmagan yoki hayotiy va diniy tajribaga ega bo‘lmagan kishilar da namoyon bo‘ladi. Ba’zan esa dindan yetarlicha boxabar bo‘laturib, undan muayyan manfaatlari yo‘lida foydalanishga urinuvchi kishilarda ham ongli ravishda namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

- Imon.
- Ilm olish fenomeni.
- Vatanni sevish fenomeni.
- Gunohkorlikni tan olish.
- Ruhan taskin topish.
- Rihla.
- Niyat.

Kuzatilganidek, yuqoridaq mavzuga kirish qismida fenomenologik yondashuv va uning ayrim xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tildi. Bu yondashuvning o‘ziga xos xususiyati haqida gap ketganda, unda diniylik diniy hodisani yoritishda bir tomonlamalik yon bosishiga qaramay, undan muayyan darajada foydalanishni yoqlashi yodimizga keladi. Aytish mumkinki, din o‘z tabiatiga ega. Shu jihatdan, fenomenologiya namoyondalari odatta, ta’kidlaydilarki, din o‘ziga xos noyob tushuncha bo‘lib, unga antropologiya, sotsiologiya, psixologiya va tarix fanlarining faqat birininggina fokusidan boqish, kishiga hech narsa keltirmaydi. Albatta, ushbu soha va yondashuvlarning har biri din haqida muhim ma’lumotlarni fanga qo‘sadi, ammo fenomenologlar fikri cha, dinni faqat uning ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va madaniy jihatlarini bilish bilan to‘liq anglab yoki inkor etib bo‘lmaydi. Din fenomenoglari komil ishonch bilan ta’kidlaydilarki, dinni inkor qilishga urinish uning zaruriy jihatlarini anglab yetishga monelik qiladi. Bu yondashuvni lozim tutganlar dinshunoslik sohasining

chin fidoyilari bo'lib, o'z kasblariga sadoqatlaridan, ular dinni teologik qarashlar, uslublar orqali, hatto psixologiya, antropologiya, sotsiologiya va tarix fanlari kesimida o'rganishga kirishadilar. Masalan, bu sohalar dinga ikkinchi darajali tushuncha sifatida yoki cheklangan e'tibor qaratadilar: psixologiya faqat dinni ruhiy jihatini tushuntiradi; antropologiya muayyan ritual ustida «dala-tadqiqoti»ni olib boradi; sotsiologiya faqat din sotsiologiyasi doirasida din bilan shug'ullanadi; tarix esa tarixiy kontekst, dinamika va hodisalar orasida kichik bir faktor o'rnidagi murojaat qiladi. Dinshunoslik sohasi esa cheklangan yoki betartib yondashuvdan qoqgan holda dinni uning manbalari va institutlari bilan birgalikda to'liq va tadrijiy o'rganishni qamrab oladi.



Dinshunoslik sohasi esa cheklangan yoki betartib yondashuvdan qoqgan holda dinni uning manbalari va institutlari bilan birgalikda to'liq va tadrijiy o'rganishni qamrab oladi

O‘z navbatida, fenomenologlar to‘liq bo‘lmasa-da, qisman universitetda o‘tiladigan dinshunoslik tarkibida ham bir xil diniy jihatlar mavjudligini bildirib o‘tadilar. Fenomenologik yondashuv dinshunoslik tadqiqotlariga juda katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishiga qaramay, fenomenologiya tushunchasi ko‘plab dinshunos olimlar uchun mavhumligicha qolmoqda. Termin haqidagi ravshan tushunishni yo‘qligi u dinshunoslik sohasida qo‘llanilganda, ma’nosi o‘zgarishi bilan bog‘liq. «Fenomen» so‘zi inson hissiy a’zolari orqali o‘zlashtiriladigan yoki tushuniladigan narsani bildiradi. Albatta, bunda hissiy a’zolar orqali tushuniladigan narsa (obyekt) asl holi kabi bo‘lmasligi mumkin. Bu tushuncha inson hissi, tajribasi, ta’m a’zolari, adabiyotlar, tarix, madaniyat, ong, bilim orqali shakllanadi. Narsaning o‘zidagi ichki mohiyati ularning linzalari orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, fenomenologiya bizning ko‘zimizga ko‘ringan narsani emas, balki uning mohiyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Tan olish kerakki, ong va tajriba tavsifi bilimlarni o‘zlashtirish orqa-li gavdalanadi.

Ba’zi din fenomenologiyasi namoyondalari keng miqyosda-gi miflar, rituallar, mantlar, ibodatxonalar, raqslar, amaliyotlar, e’tiqodlar, xudo haqidagi g‘oyalar va muqaddas qadamjolardan iborat ma’lumotlar asosida dinning mohiyatini tushunish va tas-virlashga urinib ko‘radilar. Dinshunoslik tarixidagi bir qator nu-fuzli mutafakkirlar ushbu yo‘nalishda faoliyat olib borganlar. Yana ko‘pchilik din va dindorlarning qarashlari, tili, tushunchalari va tushuntirishlariga ko‘ra ish yuritganlar. Albatta, ular dindor-larning interpretatsiyasi bilan cheklanib qolmaganlar, lekin ular dinni ilmiy o‘rganishda boshqa yondashuvar bilan mos ravishda, dindorlarning qarash va tushuntirishlari alohida ahamiyatga ega deb hisoblaganlar. Shubhasiz, biror dinga mansub yoki mansub bo‘lmagan har qanday olim diniy e’tiqod va amaliyotlardan namunalar ustida fenomenologik kuzatuv, tahlil va izohlash (interpretatsiya)ni amalga oshirgan. Bunda, dindor bo‘lмаган tadqiqotchi dindorning hissiy holatiga chuqr e’tibor qaratishi

lozim bo'lsa, dindor tadqiqotchi o'z dini haqidagi normativ faoliyat sekulyar sharoitda ilmiy tahlil chegarisida chiqqan holatda, konfessional qarashga qarshi himoyalanishi kerak bo'ladi (ya'ni, ko'p ham dindorlik pozitsiyasidan voqelikka nazar tashlamaslik lozim). Irreduksion (murakkab) diniy mohiyat haqidagi dalillar misolida din va dindorga yo'nalgan mos munosabatlar o'rganilgan yuqorida fikrlar asosida sekulyar va teologik yondashuvlar o'rtaсидаги chegara nufuzli fenomenologlar tomonidan olib tashlangan.

Rudolf Otto (1869–1937) ushbu farqni bartaraf etgan olim-larning mumtoz vakili sanaladi. Ba'zi fenomenologlar falsafa yuzasidan dinshunoslikka yondashuvchi, yana boshqalari dinni ilmiy o'rganishdagi obyektiv namunalarga ehtiyojkorona munosabat bildirish tarafdoi bo'lgan bo'lsalar, Otto teolog sifatida faoliyat boshlagan dastlabki dinshunos olimlardan hisoblana-di. Bu teologik tavsif tajriba bilan uyg'unlashib, uning «Muqaddas g'oya» (1923) asari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu asarda Otto o'quvchining e'tiborini «kimdir his qiladigan, kimdir his qilmaydigan» diniy tajribani ongda qanday namoyon bo'lishiga qaratadi. Bir tomondan, Otto o'z misolida diniy mohiyatning dindor tushunchasida tajribadan o'tishini ifodalasa, boshqa tomondan, tashqaridan turib diniy tajribani obyektiv ravishda tushunish va tushuntirishga qaratilgan ilmiy o'rganish imkoniyati mavjud emasligini bildiradi. Uning fikrlari ko'proq mantiqqa yaqin va intuitiv (sezgiga asoslangan) bo'lib ko'rinishi mumkin. Uning diniy tajribaga ega bo'limganlarni «ro'yxatdan o'chirishi» Zigmund Freyd kabi dunyoviy (sekulyar) nazariyalar tarafdarlarining tanqidlariga uchragan. Freyd o'zining «ummon misol» tajribaga ega emasligini hamda uning nazariyalarida diniy tajriba inkor qilinmasligini e'tirof etib o'tadi. Shunday bo'lsa-da, Ottoning cheklovi ochiq, betaraf, takrorlanib turuvchi va ishonchli tahlilning sotsial ilmiy namunalari va dinning sekulyar o'rganish bilan konflikt mavjudligi jihatidan istisnoli va normal baholanadi.

Ma'lum ma'noda, uning teologik yondashuvi bir tomonlama ko'rinishi mumkin, lekin, dinning irreduksion (g'ayritabiyy) mohiyatini tavsiflashda u fenomenologik yondashuv rivojlanishi-ga katta ta'sir ko'rsatdi. Qolaversa, u insonlar qanday qilib dinni idrok etishi va tajribadan o'tkazishini ko'rsatib berdi. Masalan, u ushbu «muqaddas» voqelikni insonlar qanday tajribadan o'tkazishlarini ratsional tavsiflar orqali emas, balki minnatdorlik, qo'rquv, terror, hayajon kabi hissiy holatlar bilan xarakterlanuvchi «misteriya» (diniy mavzu) yuzasidan tahlil qilib o'tgan. Diniy tushunchalar bilan bog'liq yuz beradigan minnatdorlik, qo'rquv, sabr kabi holatlarga Ottoning tavsifi xristianlik nuqtayi nazari-dan bildirilgan bo'lsa-da, ammo, ayni paytda, u tavsif boshqa dinlardagi dindorlar boshdan kechiradigan tajriba va qarashlarga mos keladi. Aniqroq qilib aytganda, xristianlik bo'yicha qudratli xudoning yaratganlaridan qattiq ta'sirlanish ruhida uning (Otto) tili va g'oyalari aylansa-da, o'zining e'tiqodidan tashqari umumiyy diniy jihat haqida so'z yuritishga harakat qiladi. U fenomenologiyaning xarakterli jihatni bo'lgan ochiq ta'riflarni ishlatish orqali dinlarni qiyosiy o'rganish uslubidan keng foydalanadi. U dinlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib o'tish bilan bir qatorda ular-dagi ko'plab o'xhash jihatlardan namunalar keltiradi. Ba'zida esa yagona haq din sifatida oshkora xristianlikni keltirish orqali xolis taqqoslash hissini savol ostida qo'yadi. Uning diniy tajriba va dini alohida mohiyatga ega sifatida tushunishga qaratilgan tavsiflari dinshunoslikda bugungi kunda keng qo'llanilmasa-da, ammo ma'lum darajada o'ziga xos iz qoldirdi.

Gollandiyalik olimlar P.D.Shanteli de la Saussaye (1818–1874) va Kornelius Petrus Tiele (1830–1902) fenomenologiyaning ilk namoyondalari bo'lib, ular dastlab xristianlik doirasida teologiyani o'rganishgan va keyinchalik fenomenologik yondashuvlarning ken-gayishiga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular o'z tadqiqotlarini dinni turli tushunchalar kesimida emas, balki butun holida anglash maqsadida tashkil qildilar. Ular dinni to'liq anglab yetish mukammal samara keltirmasligini bilib turib, dinni ilmiy tadqiq etish uslubidan

foydalandilar. Gerard van der Leu (1890–1950) ham ushbu yo‘nalishda faoliyat olib borgan tadqiqotchilardan sanaladi. «Mohiyat va tushunchalardagi din: fenomenologiya bo‘yicha tadqiqotlar» (Religion in Essence and Manifestation: A Study in phenomenology) deb nomlangan uning dissertatsiya, keyinchalik kitobi dinni ilmiy o‘rganish bo‘yicha fenomenologik yondashuvlar rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdi. U muqaddaslik kuchini e’tiborga olgan holda tadqiqot obyekti sifatida dinni, subyekti sifatida diniy tajribani puxta va ehtiyyotkorona o‘rganadi. U dindorlarning qo‘rquv va dingga intiluvchanlik hissini tadqiq qiladi. O‘z navbatida, Van der Leu ishlari orqali turli dinlar bo‘yicha to‘plangan keng hajmli ma’lumotlarni tartiblash va izohlashga ko‘maklashgan xristian teologik qarashini kashf etilishiga turtki bo‘ldi<sup>1</sup>.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Din fenomenologiyasi dinshunoslik sohasi sifatida qachon vujudga keldi?
2. Din fenomenologiyasi asoschilari sifatida kimlarni bilasiz?
3. Dunyo dinlarini fenomenologik o‘rganish nimalardan iborat?
4. Din fenomenologiyasi namoyondalari qaysi soha vakillari yutuqlaridan foydalanadilar?
5. Din fenomenologiyasi va din psixologiyasi o‘rtasida qanday o‘xhash va farqli jihatlar mavjud?

### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.

---

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding . Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 78–80.

3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). — T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo'minov A., Yo'doshxo'jayev H., Rahimjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / Mas'ul muharrir N.Ibrohimov. — Toshkent: Mehnat, 2004.
5. Valiyev B., Rasulov A. Din psixologiyasini o'qitishning innovatsion metodlari. — T.: «Yangi asr avlodni», 2013.
6. Din psixologiyasi: o'quv qo'llanma / B.Valiyev va boshqalar. — T.: «Movarounnahr», 2014.
7. Rasulov A., Tursunov L. Din psixologiyasidan praktikum. — T.: «Movarounnahr», 2016.

## 8-mavzu. DINSHUNOSLIK TADQIQOT USULLARI

### Reja:

1. Dinshunoslikka falsafiy usullarning tatbiq etilishi.
2. Dunyo dinlarini tarixiy-xronologik o'rganish usullari.
3. Dirlarni o'rganishda teologik yondashuv.

**Tayanch tushunchalar:** umumfalsafiy, ijtimoiy-falsafiy, maxsus, umumilmiy, nazariy va empirik usullar, dialektika, tizimli yondashuv, tahlil, uyg'unlashtirish, abstraktlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish, analogiya, gipoteza, induksiya, deduksiya, kuzatish, eksperiment.

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda dinshunoslik tadqiqot sohasida falsafiy usullarning tatbiq etilishi, dunyo dinlarini tarixiy-xronologik o'rganish usullari va dirlarni o'rganishda teologik yondashuv bo'yicha bilim va tasavvurni shakllantirish.

**1. Dinshunoslikka falsafiy usullarning tatbiq etilishi.** Bir qator fanlar majmuyini o'z ichiga olgan dinshunoslik uni bilishning turli usullarini qo'llaydi. Boshqa fanlar kabi unga ham umumfalsafiy, ijtimoiy-falsafiy, maxsus, umumilmiy, nazariy va empirik usullar qo'llaniladi. Ular dialektika, tizimli yondashuv, tahlil (analiz), uyg'unlashtirish (sintez), abstraktlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish, analogiya (o'xshatish), gipoteza, induksiya (juz'iy hodisalardan umumiyl natija chiqarish), deduksiya (umumiyl holatdan xususiy xulosalarga kelish), kuzatish, eksperiment (tajriba o'tkazish) va h.k.lardan iborat. Bularidan tashqari dinshunoslikda o'ziga xos bo'lgan uslublardan ham foydalaniladi. Jumladan, din sotsiologiyasida ijtimoiy faktlarni aniqlash uslubi



samarali natija beradi: hujjatlarni o'rganish, turli xildagi so'rovlar o'tkazish — intervyu olish, anketa to'ldirish va h.k. Olingan ma'lumotlarni birlamchi qayta ishlash: guruhlarga ajratish, taba-qalashtirish, statistik jadvallarni tuzish va h.k. Din psixologiyasi-da tarjimayi hollarni tahlil qilish, loyihaviy test o'tkazish, kishilar shaxsiy hayotiga oid so'rovlar o'tkazish, shaxsning kelib chiqishi va egallagan mavqe-maqomini tadqiq etish, ijtimoiy o'lchov ka-bi uslublar ishlatiladi.

Dinni tadqiq etishda shunday yondashuvlar ishlab chiqilganki, unda qator xususiy uslublar uyg'unlashtirilgan. Ular bir necha o'n yillar mobaynida qo'llanib kelinayotgan bo'lib, hozirda ham samarali natijalar bermoqda. Sababiy tahlil deganda, sabab-oqibat munosabatlarini o'rganish, turli diniy ko'rinishlarning yuzaga kelish sabablari va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash ko'zda tutila-di. Bunday tahlil tamoyillariga ko'ra, «nima uchun?» degan savol birinchi o'rinda turadi, chunki din o'z-o'zidan tushunilishi mumkin emas, zero din o'zining sababchisi o'zi emas. Aynan sababiy tushuntirish avvalambor, insonlar hayotiy faoliyatidagi amaldagi munosabatlardan turli diniy va nodiniy shakllarni ajratib olishga yordam beradi. Tarixiylik va mantiqiylilikning yagonaligidan kelib chiqib tarixiy jarayonlarni mantiqan anglash mumkin bo'ladi. Bu esa obyektning hozirgi kundagi holatini tushunish imkoniyati-ni beradi. Shuningdek, tarixiylik va mantiqiylilik o'tmishda bo'lib o'tgan voqe-a-hodisalarni anglash uchun yo'riqnomalar bo'lib xizmat qiladi.

**2. Dunyo dinlarini tarixiy-xronologik o'rganish usullari.** Tarixiylik bir necha xil ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Shajarraviy yondashuv boshlang'ich davridan taraqqiyotning keyingi bosqichlarini chiqarib olish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda taraqqiyot zanjirining oraliq bo'g'inlarini to'g'ri aniqlash muhim o'rin tutadi. Boshqa tarafdan, tadqiqotchi o'tmishga qanchalik chuqurroq kirib borgani sari uning ixtiyoridagi aniq ma'lumotlar miqdori kamayib boradi. Bunday holatda tarixiylik dolzarblik shaklida namoyon bo'ladi: har qanday ko'rinishning zamонавиy

holati taraqqiyotning natijasidir, mavjud holatni o'rganish nazarriy tuzilishni keltirib chiqarish imkonini beradi. Bu esa mazkur ko'rinishning avvalgi, jumladan, boshlang'ich bosqichda qanday bo'lganligini tavsiflab berishga yordam berishi mumkin.

*Qiyosiy-tarixiy tadqiqot usuli bir dinning turli bosqichlarini turli davrlardagi holatini, shuningdek, bir vaqtda mavjud bo'lgan boshqa-boshqa dinlarning turli bosqichlarini qiyoslaydi. Turli dinlardagi shaxslarni (masalan, Buddha va Iso Masihni) qiyoslash usuli alohi-da ahamiyatga ega. Qiyosiy tahlil asosida tadqiqotning maxsus sohasi – qiyosiy dinshunoslik yuzaga kelgan.*

*Tipologik uslub (turkumlarga ajratish uslubi) o'rganilayotgan obyektlarni qismlarga ajratish va qandaydir jihatlariga ko'ra alohi-da guruhlarga jamlash bilan bog'liq bir qator jarayonlarni o'z ichiga oladi. Turkumlashtirish natijasida alomatlarning statistik muqim bo'lgan guruhlari kelib chiqadi va ular muayyan obyekt, ko'rinishning yagona guruhga mansub umumiylit andozasini beradi.*

Qandaydir obyekt alomatlarining o'zgarmasligi uni o'ziga mos guruhga qo'shish imkonini beradi. Biror turga jamlangan obyektlar alomatlari orasidagi farq tasodifiy ahamiyatga ega bo'lib, bu farqlar turli obyektlarga xos xususiyatlar orasidagi farqlarga nisbatan sezilmas darajadadir. Alovida turlarga jamlash orqali dinlarning tarixiy turlariga xos xususiyatlar, hurfikrlilik turlari aniqlangan.

Fenomenologik uslub kishilarning diniy amallarni birgalikda, mushtarak holda bajarishning ahamiyati va mohiyatini aniqlashga qaratilgan amallar majmuasini o'z ichiga olib, amalda faol bo'lgan shaxslarning qiziqishlari, tasavvurlari, g'oyalari, maqsadlarini qiyoslaydi. Shu yo'l bilan ularning axloqi orasidagi ma'naviy aloqani, o'zaro muloqotlarning shakliy tuzilishini, ijtimoiy munosabatlarning subyektiv omillarini tushunib yetishga erishadi. Fenomenologik tahlil uslubini qo'llash dinshunoslikning alohi-

da sohasi bo'lgan din fenomenologiyasining ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Strukturaviy-funksional tahlil tizimdan iborat obyektlar bilan aloqador bo'lib, ularning tuzilish va faoliyat ko'rsatish amaliyotini ochib berishga qaratilgan.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Dinni bilish jarayonida qanday tadqiqot usullari qo'llanildi?
2. Dinni tadqiq etishda «sababiyat tahlili» qanday mazmuniga ega?
3. Dunyo dirlarini tarixiy-xronologik o'rganish usullari nimalardan iborat?

### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. — USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar jamoasi. — T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dirlari tarixi (o'quv qo'llanma). — T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo'minov A., Yo'doshxo'jayev H., Rahimjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / Mas'ul muharrir N.Ibrohimov. — Toshkent: Mehnat, 2004.
5. Valiyev B., Rasulov A. Din psixologiyasini o'qitishning innovatsion metodlari. — T.: «Yangi asr avlodи», 2013.

## **9-mayzu. DIN VA HURFIKLILIK**

**Reja:**

1. Hurfikrlilikning mohiyati.
  2. Dinni tanqidiy o'rganish masalasi.
  3. O'zgarmas qonunlar va o'zgaruvchan nazariyalar orasini airatishning ahamiyati.

**Tayanch tushunchalar:** hurfikrlilik, skeptizm, ateizm, antiklerikalizm, deizm, panteizm, indifferentizm fe-menizm, Rassel Makkatchen, Dj Z. Smit, «gegemon kuch».

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda hurfikrlilik dinshunoslik sohasida dinni o'rganish borasida yuzaga kelgan yondashuvlardan biri ekanligi, uning mazmuni va shakllari to'g'risida bilim va tasavvurni shakllantirish.

**1. Hurfikrlilikning mohiyati.** Hurfikrlilik deganda jamiyat taraqqiyoti yo‘lida bildirilgan ilmiy asosli, adolatli so‘zga aytiladi. Tarixda «hurfikrlilik» so‘ziga turlichayta riflar berilgan. Sobiq ittifoq davrida hurfikrlilik deganda, asosan, ateizm va diniy aqidalarga qarshi aytilgan fikrlar, qarashlar va harakatlar tushunildi. Ammo bundan hurfikrlilik faqat ateizmdan iborat ekan degan fikr kelib chiqmasligi kerak.

*Antik davr faylasuflari, o'rtas asr olimlari insoniyat manfaati, jamiyat taraqqiyoti yo'lida o'zlarining jamlagan ilmlari, hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, hayot falsafasiga oid qonuniyatlarni kashf qildilar, keljak avlodlarga qoldirdilar. Mazkur kashf etilgan qonuniyatlardan aksar hollarda jamiyatda shakllanib qolgan g'ayriilmiy qarashlardan farqli yoki to'g'ridan to'g'ri ularga zid bo'lar edi. Ba'zan bu kashfiyotlarni xursandlik bilan kutib olsalar, ba'zan esa, unga*



*qarshi kurash e'lon qilar edilar. Bu kurash ko'pincha ba'zi insonlar tomonidan «diniy qarash va aqidalar uchun kurash» deb e'lon qilinari edi. Ammo «dinning asl mohiyati ezgulikdan iborat» degan qonuniyatdan kelib chiqilsa, ushbu ko'r-ko'rona kurash dinning asl mohiyatiga zid ekani ma'lum bo'ladi.*

Abu Rayhon Beruniy (973–1054) Yerning dumaloqligi haqida gi nazariyani ilgari surganida o'z davrining mutaassib dindorlari tomonidan ta'qib ostiga olindi. Ammo vaqt o'tishi bilan Yerning chindan ham dumaloq ekanligi barchaga ma'lum bo'lgan oddiy holatga aylandi. Yerning shakli haqida turli qarashlar ustunlik qilgan o'sha davrda zaminning shar shaklida ekanligi nazariyasining ilgari surilishi o'ziga xos jasorat va hurfikrlilikning namunasini bo'ldi.

**2. Dinni tanqidiy o'rganish masalasi.** Dinshunoslik dirlarni o'rganishda turli yo'nalishlariga ega bo'lib, bunda ilmiy-tanqidiy o'rganish, dinning belgilari, diniy institutlar faoliyati, muqaddas diniy manbalar interpretatsiyasi va dinning jamiyatdagi vazifalarini tadqiq qilishni o'z ichiga oladi. Feministik yondashuv diniy belgilar yoki uning o'zini o'rganishga nisbatan madaniy tadqiqot va zamonaviy tanqid sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, feministlarning diniy institutlar, muqaddas matnlari va ularning sharhlari hamda ta'limotlarga nisbatan bildirgan tanqidlari hokimiyat, huquq va shaxs tushunchalari munosabatlaridan tashkil topgan keng ko'lamli jamiyat bo'g'iniga qaratilgan tanqidni ifodalaydi.

Ular ushbu tanqidlar orqali «jins» tushunchasiga uzoq ta'rif berishga harakat qilish bilan bir qatorda, jamoatchilik e'tiborini ijtimoiy-iqtisodiy notenglik, atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarga qaratib, buning sababini irqiy kamsitilishlar, jinsiyy oriентатсиya va zo'ravonlikka bog'lamoqchi bo'ladilar. Aytilish mumkinki, tarixiy yozuvlar va «gegemon kuch»larni qoralash orqali o'z faoliyatlarini oqlashga bo'lgan urinishlar hanuz davom etmoqda.


*Dinshunshunoslik va diniy an'analarni isloh qilish holatida bu (tanqidiy) ovozlar diniy ohangga ko'chib, o'z qobiqlarida «dinning o'rni qanday bo'lishi kerak» degan savolga javob berish asnosida muayyan yangi standartlar belgilanishiga olib kelmoqda. Tanqidiy yondashuvning boshqa bir turi antidiniy yo'nalishda o'z qoidalari ni o'rnatmoqda. Bu kabi tanqidiy yo'nalishda butun borliq, zamonaviy dunyo qoralanib, «hudoning o'limi» yoki «dinning o'limi» kabi da'volar ilgari suriladi. Din esa bu taxminlarni ilgari ham dunyo «dinning o'limi»ni da'vo qilgan taxminlar kabi qabul qilmoqda.*

Qolaversa, «din o'limni chetlab o'tdi», buni din siyosat va madaniyatda markaziy rol o'ynayotganligi, dunyodagi ko'p sonli insonlar bir dindan boshqasiga o'tayotganligi hamda turli diniy amaliyotlarda muntazam ishtirok etayotganligi ko'rsatib turibdi. Biroq, «dinning yo'q bo'lishi» xususidagi farazlar isbotlanmagan bo'lsa-da, «din, diniy e'tiqod va diniy marosimlar ong osti va fundamentalistik dunyoqarashga asoslangan holda bugun dunyo tinchligi hamda ilm-fan taraqqiyotiga to'siq bo'layotganligi»ni urg'ulovchi fikrlar ham uchrab turadi.

Bu turdag'i tanqid dinni tadqiq qilish bo'yicha keng tarqal-gan biror klassik yondashuvga mos kelmaydi. Feministik qarash tarafdlari o'ylaganlaridek, bu turdag'i tanqid akademik din-shunoslikda mavjud qarashlar qatorida qabul qilinmagan. Faqat, bunday tanqid hanuz shakllanayotgan «din qanday o'rganiladi, tushuntiriladi va tushuniladi» mazmunidagi qarashlarni yanada urchishiga sabab bo'ldi.

Din haqida bunday tanqidiy tahlilni dinlarni o'rganish borasida-gi bir yondashuv sifatida baholash mumkin. Tan olish kerakki, bunday tanqidiy yondashuv biror diniy an'ana yoki matnning ix-tiyoriy (selektiv) qismiga yo'llanganligi sababli yuzaki va oddiy hisoblanadi. Shu bilan birga, malakali mutaxassislardan iborat ilmiy jamiyatlarning dinni o'rganish borasidagi yondashuvlarida ham faqat muayyan tomonga boqish ko'zga tashlanadi. Natijada, ulardan ko'pchilik dinning mohiyatini tushuntirishda birtomon-

lamalikka yo'1 qo'yganliklari bois tanqidga uchraydilar. Ahamiyatlisi, ommaviy, nodiniy va teologik qarashga qarama-qarshi yondashuvlar universitetda talaba dinni o'rganishda biror akademik yo'nalishga og'ib ketishidan oldin uning din haqidagi tushunchalarini shakllantirishda muhim o'rincini tutadi.



Ko'pchilik dinning mohiyatini tushuntirishda birtomonlamalikka (dekuksionistik) yo'1 qo'yganliklari bois tanqidga uchraydilar

Qarama-qarshi qarashdagi adabiyot, oila a'zolari va do'stlar odatda, kishining din to'g'risidagi munosabati va tasavvurini shakllantiradi. Aslida, bunday qarama-qarshilik har xil mazmun-mohiyat va tuzilishga ega bo'lib, u diniy jamoaning vijdon erkinligi huquqini hurmat qilish, bir diniy an'anani boshqasidan ustun qo'ymaslik hamda dinni emas, balki dindor shaxsning xulqini tanqid qilishga asoslangan taqdirga dinshunoslik sohasi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

*Bir tarafdan qaraganda, teologik yondashuvlar orqali dinshunoslikka kirish mumkin. Biroq, «din asl nima» va «uning taqdiri va ifodasi qanday bo'lishi kerak»ligi bayon qilingan anti-diniy adabiyotlarda normativ taxminlar ko'pincha siyosiy tartib yoki dunyoviy, ilmiy muhitdagi dinshunoslikning nisbatan obyektiv g'oyalari bilan qarama-qarshi yo'lagini mafkuraviy majburiyat tusiga kirib qoladi. Shuningdek, dinga nisbatan xayrixohlik bilan qaralgan, hayotimiz va jamiyatda dinning rolini chuqurroq tushunishga asoslanib muayyan diniy qadriyat va qarashlar qo'llab-quvvatlangan tadqiqotlar ishlari ham mavjud. Ulardan ba'zilari kengroq auditoriyaga mo'ljallangan hamda dinni ilmiy o'rghanish va teologik tadqiq qilish o'rtasida muvozanat ta'minlangan.*

Dinlarni o'rghanish bo'yicha keng tarqalgan bunday tanqidiy yondashuv haqida so'nggi qismda akademik dinshunoslik doirasida tadqiq qilingan nazariy va uslubiy masalalar misolida ko'rib chiqamiz. Rassel Makkatchen va Dj. Z.Smit kabi dinshunoslar dinshunoslikni no'noq ta'rif, mavhum tushunchalarga egalikda va o'zining ilmiy xususiyatini soxtalashtirishda ayblashadi. Bu kabi olimlar «u bunday, bu unday emas» qabilidagi tanqidiy qarashlari bilan fanni shakllantirishga urinadilar<sup>1</sup>.

**3. Hurfikrlilik ko'rinishlari.** 1) Ateizm (yunon: a – inkor yuklamasi, theos – xudo) – xudo va g'ayritabiyy kuchlarning mavjudligini inkor etuvchi falsafiy va ilmiy qarashlar tizimidir. Bu tushunchaning mohiyati tarix jarayonida o'zgacha tus olib, diniy ta'limotning xususiyati bilan ham, ateizmning o'z rivoji bilan ham chambarchas bog'landi. Ateizm dinding tarixiy, falsafiy va tabiiy-ilmiy tanqididan farq qiladi. Unga xos xususiyatlar quyidagicha: vogelikning diniy aksini va borlig'ini ifoda etadi; diniy ta'limotning yuzaga kelish sabablari va manbalarini moddiyuncha tushuntiradi; dinding ijtimoiy tabiatini, uni jami-

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding . Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 104–106.

yat hayotidan chiqarib tashlash yo‘lidagi shart-sharoit va usul-larni o‘rganadi; materialistik dunyoqarashning muhim bir jihatini o‘zida aks ettiradi; materializm tayanadigan ayni tabiiy-ilmiy asosga tayanadi.

Ateizm skeptizm, antiklerikalizm, deizm, panteizm, indifferentizm kabi diniy hurfikrlik (diniy aqida, ibodat va marosimlarni tanqid qiluvchi plyuralistik falsafiy qarashlar majmuyi) tizimlari dan qisman farqlanadi. Ma’naviy madaniyatni nazariy va amaliy anglash nuqtayi nazaridan dinga qarshi yoki uning tasavvurlaridan xoli bo‘lgan quyidagi ikki xil sohaga ajratish mumkin:

- materializm va uning turli shakllari (ochiq materializm, yopiq panteizm va deizm);
- diniy skeptitsizm va falsafiy ratsionalizm.

Bu kabi xudoga qarshi g‘oyalalar dinga bo‘lgan ilk qarshilik kayfiyatining shakllari bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti tarixida folklor (xalq og‘zaki ijodi)da, xalqlarning badiiy va diniy ruhdagi adabiyotida ham o‘z ifodasini topgan. xudoga qarshi chiqish g‘oyalari yuzaga kelishining sabablari quyidagicha:

- ijtimoiyadolatsizlik;
- turmush tarzidan norozilik kayfiyati;
- kutilmagan baxtsiz hodisa va qayg‘udan kelib chiqqan afsus-nadomat;
- xudoga shunchaki e’tiroz.

2) Skeptitsizm (yunon: skepticos – muhokama, izlanish, «diniy aqidalarga shubha bilan qarash») din yoki uning aqidalariga nisbatan shubha bildirgan, jamiyat madaniy taraqqiyotida va turli tarixiy davrlardagi hurfikrlik rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Ayniqsa, ateizmdan ko‘ra ancha rivojlangan dinni tanqid qilish shakli hali paydo bo‘lmagan yoki tugal rivojlanmagan va tarqalmagan paytda uning ahamiyati muhim bo‘lgan.

Xususan, o‘rta asrlarda dinshunoslik sifatida skeptizm hurfikrlikning nisbatan kengroq tarqalgan shakli bo‘lib, o‘zida she’riyat, folklor, falsafa va xalq mafkurasini aks ettirgan. Skeptizm nafaqat Bibliyadagi nomutanosibliklarga, umuman har qanday diniy

ta'limotga shubha bildiradi va cherkov nufuziga qarshi kayfiyatni ifoda etadi.

Shunga qaramay, hozirda turli diniy holatlarning chinligiga shubha bilan qarash Sharq va G'arbning zamonaviy ma'naviy madaniyatiga xos jihat bo'lib qolmoqda.

3) Antiklerikalizm (yunon: anti – qarshi, zid; clericalis – cherkovga oid) cherkovga va uning jamiatni o'z tarkibiga kiritib boshqarishga bo'lgan da'vosiga qarshi kayfiyatdagi g'oyaviy va ijtimoiy jamoat tashkiloti sifatidagi harakatni ifoda etadi. Uni ijtimoiy belgilariga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

- mavjud adolatsiz ijtimoiy turg'unliklarning himoyachisi sifatida cherkovga qarshi qaratilgan demokratik antiklerikalizm;

- cherkovni siyosiy dushman deb qarab, unga qarshi kurashuvchi, jamiatning hukmron qatlamlariga xos reaksiyon antiklerikalizm.

4) Deizm (lotin: deus – xudo) – xudoni olamning avvalgi sababchisi va undan tashqarida, jamiat va tabiat jarayonlariga aralashmaydi, deb hisoblaydigan diniy-falsafiy ta'limot. Uning ildizlari o'rta asrlar G'arb falsafasiga borib taqaladi. Cherkovning g'oyaviy tazyiqi davrida deizm ta'limoti tabiatning xudo irodasidan mustaqilligi, inson faolligi va uning dunyoni anglashi-dagi imkoniyatlari cheksizligi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Uning asoschisi ingliz mutafakkiri Eduard Gerbert Cherberi (1583–1648) hisoblanadi. U deizmning quyidagi asosiy tamo-yillarini ishlab chiqqan: «Inson hayoti dunyoni boshqaruvchi xudo bilan kelishuv (ahd) asosida belgilanadi. Xudo har doim ham bu kelishuvga binoan ne'mat ato etavermaydi. Chunki inson bu ne'matlarga loyiq emas va ulardan qat'i nazar kelishilgan ahdga rioya qilishga intilishi lozim».

5) Panteizm (yunon: pan – barcha, theos – xudo) – xudo bilan tabiatni yagona birlik, deb talqin qiluvchi diniy-falsafiy ta'limot. Uning konsepsiyalarda xudoni tabiatga singib ketgan, degan naturalistik yondashuvlar ham yopiq shaklda uchrab turadi. Bu hukmron teologik diniy dunyoqarashga qarshi bo'lgan ta'limotni

ifoda etuvchi materializmga olib boradi. Ba'zan panteizmga xudo va tabiatning mujassamligi haqidagi diniy asotir g'oyalari ham aralashib ketgan. Panteizm g'oyalari ayrim islom yo'nalishlarida (Ibn Arabiy «Vahdat al-vujud», Mansur Halloj «An al-Haq», mo'taziliya, antropomorfik qarashlarda), qadimgi Hindistonda asosan brahmanlik, hinduiylik va boshqa veda dinlarida, qadimgi Xitoya da dao ta'limotida va qadimgi yunon falsafalari tarkibida uchraydi.

Yangi platonchilik falsafasidan kelib chiqqan bu panteizm tabiatning o'zida yashirin mavjud bo'lib, biror ko'rinishga ega bo'limgan umumjahon ruh haqidagi ta'limotni o'rta asrlarda ilgari surgan. Bu esa xudoni tabiat va inson ustidan mutlaq hukmron, deb teologik talqin etuvchi yahudiylilik, xristianlik va islom dinlariga zid edi.

Panteizm Ioann Skot Eriugen tizimida yorqin namoyon bo'lgan. Panteizmning ilk materialistik shakllaridan birini David Dinonskiy taqdim etgan bo'lib, u materiya, ong va xudo – yagona birlik, deb ta'kidlagan.

6) Indifferentizm (lotin: indifferens – befarq) dinga nisbatan betaraf munosabatni ifoda etuvchi hurfikrlilik shakllaridan biri bo'lib, bu haqida Gegel quyidagicha yozgan edi: «Dinga loqayd shunday insonlar ham borki, ular na dinni azaldan ato etilgan deb, uni tanqid qilmaydiganlardan, va na dinni unga qarshi kurashish lozim bo'lgan narsa deb hisoblaydiganlardan».

Manbalarda indifferentizm turli ma'nolarda talqin etilgan:

- Tarixiy ateistik adabiyotlarda din borasidagi hurfikrlilikning faol tarixiy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Diniy arboblar esa e'tiqodiy masalalardagi beparvolikni jiddiy qoralaydi. Masalan: Qadimgi Rimda xudolarga bag'ishlangan marosimlarda ishtirok etmaslik jinoyat hisoblangan.

- Protestantlik o'zining mohiyatiga ko'ra diniy masalalarga bo'lgan beparvolikka murosasizligi sababli katoliklardan bo'lgan hurfikrlilik tarafdozlarini aybladilar. Pravoslav ilohiyotchilari va dunyoviy dindorlar indifferentizmni itoatsizlik va betartiblik, u «jamiyat dushmani» deb atadilar.

- Hozirda diniy ulamolar indifferentizmni materiyalizm va ateizmga aylanib ketish ehtimoli bor, deb hisoblab, uni keng om-malashuvini to‘xtatishga intilmoqdalar.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Ilmiy doirada «hurfikrlilik» deganda nima tushuniladi?
2. Dinni tanqidiy o‘rganish bo‘yicha qanday yo‘nalishlar shakllandi?
3. Hurfikrlilikning qanday ko‘rinishlari mavjud?
4. «Deizm» va «panteizm» tushunchalari qanday mazmunga ega?
5. «Antiklerikalizm» vakillari qanday g‘oyani ilgari surganlar?


### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islam universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jayev H., Rahimjonov D. va bosh-qalar. Dinshunoslik: darslik / Mas’ul muharrir N.Ibrohimov. – T.: Mehnat, 2004.
5. Valiyev B., Rasulov A. Din psixologiyasini o‘qitishning innovatsion metodlari. – T.: «Yangi asr avlodи», 2013.

## 10-mavzu. DIN FALSAFASI

### Reja:

1. Din falsafasining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Din falsafasi rivojlanishining asosiy bosqichlari.
3. Falsafiy teologiya – din falsafasining asosiy yo‘nalishi.



**Tayanch tushunchalar:** obyektivlik tamoyili, diniy e’tiqod, diniy turfalik, mo’tazila ta’limoti, spekulyativ falsafa, teizm, deizm, panenteizm, apologetika, «hayot falsafasi», falsafiy teologiya.

**Mavzu o‘quv maqsadi:** talabalarga din falsafasining predmeti, maqsad va vazifalari, din falsafasi rivojlanishining asosiy bosqichlari, falsafiy teologiya – din falsafasining asosiy yo‘nalishi borasida ma’lumot berish.

**1. Din falsafasining predmeti, maqsad va vazifalari.** Din falsafasining bilish predmeti «din o‘zi nima?» degan savolga javob izlashi ekani ma’lum bo‘lsa-da, ammo ushbu hodisaning talqini hamma vaqt ham bir xil emas. Zero, din, bir tomonidan, umumiyl, o‘zining mohiyati nuqtayi nazaridan, ya’ni mavhum, metafizik ma’noda, ikkinchi tomonidan, o‘zining aniq namoyon bo‘lish shakli, xususiy holatida tadqiq etilishi mumkin. Ushbu ikki yondashuv ma’lum ma’noda bir-birini to‘ldiradi. Zero, birinchi holatda dinning mohiyati haqida yaxlit tasavvur hosil qilinsa, dinga xos bo‘lgan xususiyatlarni hamisha aniq shakl, ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishini inobatga olsak, ikkinchi holatda umuman dinga xos xususiyatlarni chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi.

*Din falsafasi o‘z predmetini o‘rganishda tayanadigan metodologiya aniq falsafiy tizim, ta’limotning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Shun-*

*day ekan, dinning falsafiy talqinini mantiqiy asoslash bilan birga biliшning haqiqiyligini ta'minlash ham alohida ahamiyat kasb etadi.*


Bilishning haqiqiy (adekvat)ligini ta'minlashda olingen natijalarning mantiqiy va nazariy jihatdan ziddiyatli bo'lmasligi gnosseologiyaning muhim qoidalaridan biri hisoblanadi. Ammo umuman to'g'ri bo'lgan mazkur qoida konkret falsafiy tizim, ta'limot doirasida yaratilgan va unga zid bo'lman, uning asosiy talablaridan tashqariga chiqmaydigan din haqidagi qarashlarni adekvat deb hisoblashga zamin yaratadi. Zero, bunday holatda biz din haqidagi bilimlardan ko'ra ushbu konkret falsafiy tizim, ta'limot va uning dingga bo'lgan munosabati haqida ko'proq bilimga ega bo'lamiz. Chunki tadqiqotchining shakllanib bo'lgan qarashlari va yondashuvlari ta'sirida dinning o'zi emas, balki unga bo'lgan munosabat yoritiladi. Demak, din falsafasida mantiqiy ziddiyat yo'q bo'lgan xulosa, qarashlarni haqiqat, deb qabul qilish yetarli emas. Haqiqat deb qabul qilingan bilimlarda dinning mohiyati aks etishi lozim. Shundagina din falsafasidan din haqidagi ahamiyatli natijalarni kutish mumkin. Bunda obyektivlik tamoyiliga rioya qilish nihoyatda muhim.

*Obyektivlik tamoyili din falsafasini o'z predmetiga real mavjud hodisa sifatida qarashni, tan olishni talab etadi. Biroq obyektivlikni xolislik bilan chalkashtirish kerak emas. Xolislik tadqiqotchining o'rganayotgan predmetidan muayyan darajada begonalashuviga va shu tufayli uning yetarlicha anglanmay qolishiga zamin yaratishini inobatga olsak, din falsafasi nuqtayi nazaridan obyektivlik va xolislik bir xil mazmunga ega emasligi oydinlashadi.*

Bilish predmetini tushunishda subyektivlik tamoyili ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tamoyil bilish predmetiga u yoki bu shaklda daxldorlikni talab etadi va unga nisbatan yuzaga keliishi mumkin bo'lgan noxolis munosabatning oldini olishga xizmat qiladi.

*Din falsafasining maqsadi dinni obyektiv ham, subyektiv ham taliqin etish emas, balki uni adekvat nazariy tadqiq etish, tahlil qilish va tasvirlashdan iborat. Bu oxir-oqibatda falsafiy-diniy tadqiqotlar natijalarining umuman va barcha uchun tushunarli hamda ahamiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi. Yagona falsafiy tilning bo‘lishi ehtimoldan nihoyatda uzoq bo‘lsa-da, bilish natijalarining boshqalar uchun ham tushunarli bo‘lishini ta’minlash nihoyatda muhimligini ta’kidlash zarur.*

Har qanday fan o‘z tadqiqot predmeti va vazifalariga ega. Din falsafasining vazifalaridan biri – dinning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatiga eski andozalardan xoli holda yondashish, uni domiy rivojlanib boruvchi tizim sifatida o‘rganishdan iborat.



Din falsafasining tadqiqot obyektlari

Din falsafasi to‘g‘risida to‘liqroq ma’lumot beradigan bo‘lsak, bu fan falsafa va din o‘rtasidagi o‘ziga xoslikdan va diniy tushunchalarning falsafiy tanqidini birinchi o‘ringa qo‘ygan G‘arb qarashlari asosida kelib chiqdi. Bu soha G‘arbda rivojlanish boshlagandan beri diniy mavzular bilan shug‘ullanish uning asosiy vazifasi bo‘lib qoldi. Bu soha xudoning mavjudligi; uning sifatlari borasida ilgari surilgan ratsional dalillarni tahlil qilish bilan shug‘ullandi. Masalan, xristian teologi Anselm Kenterberiyskiy (Anselm of Canterbury, 1033–1109).

«Xudo uning buyukligidan tashqari biror narsa noma'lum bo'lgan zot» degan fikrni ilgari surgan. Lekin, Kant bunday qarashni rad etadi. Uning fikricha, masalan, «stul mavjud» deyilganda, unga qo'shimcha qilinmaydi, endi yuqoridagi kabi fikr bildirilsa, «stul» tushunchasini izohlash uchun qo'shimcha ma'lumot talab qilinadi. «Xudo» tushunchasi kabi narsalarni tanishtirishda xudoni mavjud qilib yoki uning imkoniyatini ifodalab ko'rsatib berish mushkul. Kant bunday fikrlash oxir-oqibat hech qayerga olib bormaydi, deb hisoblaydi. Unga ko'ra, bu kabi tushunchalar inson tajriba-si yoki biror jihozlar orqali o'tkaziladigan sinovlardan o'zgacha kategoriyalar bilan baholanadi.

Xudoning mavjudligi bahs qilingan yana bir fikrlardan biri «san'atkor» («argument from design») deb nomlangan. Bunga ko'ra, borliqdagi nozik tartibli faoliyat, sayyoralarning harakati, mavsumiy o'zgarishlar va boshqa inson aqlini lol qoldiruvchi jarayonlar insoniy ong xususiyatlariiga o'xshash, ammo undan ancha ustun qudratli kuch mavjudligini namoyon qiladi. Bu tartibli faoliyat tasodifan paydo bo'lishi mumkin emas, shuning uchun, biz borliqning kundalik faoliyatida «buyuk san'atkorning qo'li» bor deb ochiq aytsak bo'laveradi. Ushbu tartibli xilqat xudoning mavjudligiga amaliy dalil sanaladi. Devid Yum (David Hume, 1711–1776) borliq tartibini «ilohiy zot» bilan bog'lamay, balki tabiat qonunlari deb izohlashni taklif qiladi. Shu o'rinda aytish mumkinki, Yumning qarashlari Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'llimotlari tushunchalari – xudo Brahmaning tabiiy dunyoning ortida deb biluvchi hinduizmdagi panenteistik (xudoni borliqdan ko'ra buyukroq deb bilish) e'tiqod yoki mutlaq qudratli kuch e'tiborga olinmagan buddizm ta'llimotiga mos



Anselm Kenterberiyskiy

tushadi. Bunday sharqiy qarashlar «ong omili» (xudo yoki uy-g‘oq ong) yaratilishdan ajratilmaganligi, bu holat esa ong ostida (olim va faylasuflar orqali) o‘rganilishi bilan G‘arbdan farq qilib turadi.


Bundan tashqari, Yum odatiy teistik qarashlardagi bir qator nomuvofiqliklarni ko‘rsatib o‘tdi. Masalan, dindorlar ko‘pincha «xudo cheksiz qudrat va barcha ezunguliklarning sohibi» ekanligini bildiradilar. Ayni paytda, ular yaratishda yovuzlik bo‘lganligini ham inkor qilmaydilar. Yumning fikricha, agar xudo yomonlikni oldini olishga qodir bo‘lsa-yu, buni qilmasa, u haqida «yaxshilik sohibi» emas, «badniyat» yoki xudoni yomonlikni oldini olishni xohlasa-yu, buni uddasidan chiqa olmasa, u qudrat egasi emas, yoki xudo ikkisiga ham qodir ekan, unda yovuzlik bo‘lmasligi kerak, degan xulosa shakllanadi. Bu singari fikrlarga javob o‘la-roq, teologlar xudoning qudrati va ezungulik sohibi ekanligi qarshida yovuzlikni mayjud bo‘lishi «anti-isbot» ekanligini qayd qiladilar. Ularning xudoning mavjudligini isbotlashga urinishlari natijasida teologiya tarkibida «teoditsiya» sohasi vujudga keldi. Endi, yuqoridagi xudoning qudratiga shubha bildirilgan fikrga kelsak, uni shunday talqin qilish mumkinki, insonning cheklangan ongida yomon bo‘lib ko‘ringan holat xudoning nazdida yaxshi bo‘lib chiqadi. Shu bilan bir qatorda, yuqoridagi kabi «anti-teistik» qarashlar «erkin istak» tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, xudo insonga muayyan qarirlarni qabul qilishi uchun ma‘lum darajada erkinlikni tortiq qilgandir. Lekin, bunday «siylash» xudoning qudratini so‘roq ostiga solib qo‘ymaydi.

Din falsafasi qachonki Sharq dinlari qarashlari bilan yanada chuqurroq tanishishni boshlasa, uning mazmuni ham boyib boradi. Kashmir shivaizmining no-dualistik oqim qarashlari, xususan, o‘rta asr hind diniy falsafasiga ko‘ra, xudo har ishga qodir qudrat sohibi, biroq, ayni paytda, u qudratining namunasi sifatida o‘ziga muayyan cheklovlarini belgilashi mumkin. Yaratilish ham ushbu cheklovlardan biri bo‘lib, xudo qudratli bo‘lishiga qaramay o‘zi ham shu yaratilish ichida mavjuddir. Shunga ko‘ra,

xudoning bevosita tajribasi har bir inson uchun xos hisoblana-di. Yaxshilik va yomonlik nisbiy va bir-biriga bog'liq tushunchalar sanalib, qachonki biri o'zining asl tabiatini to'liq namoyon qilganda ular o'rtasidagi farq ochiq ko'zga tashlanadi. Bu holat «moksha» yoki «erkinlik» nomi bilan yuritiladi. Bu yerda biz qudrat va ojizlik, nafs va xudo, yaxshilik va yomonlik hamda boshqa G'arb diniy tafakkurining asosini tashkil qilgan bir qator g'oyalar orasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin. Kant fikricha, faylasufning vazifasi biror diniy e'tiqodning haqligini is-botlash yoki unga ma'lum o'zgartirish kiritish emas, balki ularning (diniy e'tiqod) qarashlari, xulosalarini, undagi nomuvofiqliklarni o'rganishdan iborat. Din falsafasi tomonidan umumi ravishda qabul qilingan bunday yondashuv, o'z davrida, ko'plab G'arb universitetlarining Falsafa kafedralarida o'qitib kelindi. Shu bilan birga, faylasuflarning barchasi ham diniy an'analarga nisbatan neytral tahliliy yondashmay, balki Fridrix Nitsshe (1844–1900) kabi shaxslar dinga, jumladan, xristianlikka nisbatan reaktion pozitsiyani egallab, hatto bildirgan «xudo o'ldi» iborasi bilan mashhur bo'lib ketdi. Nitsshening qarashlari zamonaviy dunyoda axloq masalalari yoki xudo haqidagi an'anaviy qarashlarning zaiflashuviga ta'sir ko'rsatmay qolmadı. Shuningdek, xristianlikning ba'zi e'tiqodlariga nisbatan yanada shiddatiroq munosabat Bertran Rassel (1872–1970)ning «Nega men xristian emasman?» nomli ma'ruzasida ko'zga tashlanadi.

O'z navbatida, yo'naliш jihatidan teologiya sohasiga mos keluvchi din falsafasining ko'rinishlari ham mavjud. Bu ko'proq to'g'ridan to'g'ri «falsafiy ilohiyotshunoslik» deb ataladi. Bu soha aslida dinning himoya qilishni bir shakli (apologetika) si-fatida saqlanib qolayotganligi yoki qat'iy diniy e'tiqodlarga chuqur bog'lanmagan bo'lishiga qaramay, mazkur faoliyat bilan shug'ullanadi. Ushbu yondashuv namoyondalaridan biri Djon Xiks (John Hick, 1922-yil tug'ilgan) bo'lib, u teodisiya va xudoning sevgisi masalalari bo'yicha «intellectual kurash» olib borib, hatto bu mavzularni diniy plyuralizm doirasida o'rganila-

digan mavzular tarkibiga kiritishga erishdi. Shunday bo'lsa-da, din falsafasining bu tarmog'i hanuz ilohiyotshunoslik sifatida qolmoqda, chunki, u tegishli mavzularni yoritishda ilmiy-tahliliy yo'ldan bormay, balki o'z «formula»larini ilgari surishga harakat qilmoqda.



Dunyo dirlari ramzları

Din falsafasi bo'yicha faoliyat olib boruvchi zamonamizning nufuzli faylasufi va xristian apoleti sifatida tilga olinuvchi shaxslardan biri Alvin Platinga (1932-yil tug'ilgan) hisoblanadi. Platinganing ko'rsatgan xizmatlaridan biri bilim manbayi masalasida mantiqiy fikrlar bildirganligidir. Masalan, u «teizm (yoki xudoga ishonish) irrationallikka asoslangan» deb qarorchi ko'plab ateistik qarashlarni tanqid ostiga oladi. U dindorlik

qobiliyatsizlik yoki nuqson deya irratsional xulosa berilishiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, u bir narsa, o'zining yaralish sababini to'liq bajarsa, to'g'ri faoliyat sifatida qaralishi mumkin, deb bahs yuritadi. U shuni ta'kidlaydiki, inson xudoning bizni yaratishdan maqsadiga muvofiq ish bajarsa, bizning ilm olish qobiliyatimiz to'g'ri faoliyat ko'rsatayotgan bo'ladi, shu singari, xudoga nisbatan ishonch ongni to'g'ri faoliyat olib borayotganligini biluvchi o'ziga xos indikator (o'lchov) hisoblanadi. Ammo, ateist xudoga ishonch bilim olishga monelik qiladi, deya qattiq o'z fikriga yopishib oladi<sup>1</sup>.

**2. Din falsafasi rivojlanishining asosiy bosqichlari.** Antik Yunonistonda (mil. av. VIII-II asrlar) ko'lami jihatidan turli shahar-davlatlar, polislarning o'ziga xos xususi-

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding . Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – P. 31–34.

yati eng avvalo, shunda ediki, ular aniq ajratilgan ikki toifa, ya’ni huquqlarga ega bo’lgan fuqarolar hamda huquqlardan mahrum qullar va kelgindilardan iborat edi. Shuningdek, barcha fuqarolarning davlat boshqaruvi ishtirok etishi ham polislarning xarakterli jihatlaridan biri bo’lgan.

Umuman olganda, antik dunyodagi vijdon erkinligi unsurlari polislardagi demokratik boshqaruv shakli tufayli mavjud edi. Eng jur’atli mutafakkirlar avtoritetlarga qaramasdan, o’z fikr va qarashlarini ifoda etish erkinligi haqidagi g’oyalarni ilgari surganlar.

*Milet matabining asoschisi er. av. VI asrda yashab ijod etgan Fales va uning shogirdlari Anaksimandr va Anaksimen borliqni dastlabki ibtido-asos – suv, havo va apeyrondan kelib chiqqanini ta’kidlaganlar. Shu tariqa, ular olam va odamning xudolar irodasining natijasi ekanı haqidagi ta’limotlarga qarshi chiqib, olamning tabiiy kelib chiqishi to‘g’risidagi nazariyani asoslashga uringanlar.*

Ksenofan o’zining teran ratsional yondashuvi bilan din to‘g’risidagi noxolis qarashlarga barham berishga uringan ilk faylasuf sifatida tarixdan o’rin olgan.

Antik davr din mohiyati haqidagi fikrlarga boy davr bo’lgan. Antik faylasuflar qarashlariga asos bo’lgan ilmiy metod va yondashuvlardan turli-tuman va ko’p hollarda bir-biriga qarama-qarshiliği bilan ajralib turgan. Shunday bo’lsa-da, din falsafasi fanining ilk umumnazariy zaminlari, aynan antik davr mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan g’oya, qarash va tamoyillarda aks etgan. Keyinchalik, antik davr faylasuflarining din haqidagi qarashlari O’rta asrlar mufakkirlari tomonidan yangi mazmun va shakllarda rivojlantirildi.

O’rta asrlar falsafa fani evolutsiyasida o’ziga xos o’rin egal laydi. Ilmiy-ma’rifiy faoliyat rivojlanishi nuqtayi nazaridan qaraqanda, ziddiyatlar va murakkabliklarga boy bo’lgan bu davrda diniy-falsafiy qarashlarning shakllanishi ham o’ziga xos yo’nalishlarda kechdi.

Apologetika (yunon. *apologeomai* – himoyasi uchun gapiraman) atamasi haqida to'xtalar ekanmiz, uning, eng avvalo, xristianlik ta'limotini himoya qilishga qaratilgan ilohiyot sohasi sifatida mazkur din paydo bo'lgan vaqtidan boshlab shakllanganini ta'kidlash joiz. Ilmiy adabiyotlarda Avgustinning birinchi apologet bo'lgani haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, apologetik g'oyalalar xristian dinidagi boshqa targ'ibotchilar, apostollar asarlarida ham uchraydi. Xristianlikning ilk yillarda ilohiyotda apoliya janrining paydo bo'lgani ham apologetikaning jadal sur'atlarda rivojlanib borganini ko'rsatadi. Ilk xristianlik apoligyalari asosan yahudiylilik va mahalliy ko'pxudolikka asoslangan dinlarga qaratilgan edi.

O'rta asrlarda Yevropada xristianlikning jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'siri juda kuchli bo'lgan sharoitda ham falsafa va dinding birgalikda mavjud bo'lishi va hatto, samarador o'zaro ta'sirlashuvi davom etgan.

O'rta asrlar musulmon Sharqida faylasuflar dinlarni o'rganishda qiyosiy tahlil metodiga alohida e'tibor berishgan. Bu, albatta, allomalar tomonidan dinlarning tarixiy xarakterga ega ekanli hamda turli dinlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri ochib berishga bo'lgan kuchli e'tibordan darak beradi.

*Abu Nasr Forobiy (870–950) ana shunday mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Mutafakkir o'zining «Harflar kitobi» asarida falsafa va din odamlar hodisalar xilma-xilligining sabablarini bilishga intilganlarida paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Bu jarayonda, avvalo falsafa, keyin esa, din yuzaga keladi. Falsafiy tafakkur darejasи yuqorilab borgani sari, insonlar mavjud bilimlarini timsollar va ramzlar orqali aks ettiradi boshlaydilar. Aynan ana shu jihat dinlar shakllanishining asosiy omildir. Forobiy fikricha, din falsafada taqlid qilish bo'lib, u ramziy shakllarda sodir bo'ladi. Shuningdek, alloma dinlar ba'zi falsafiy g'oyalarni xalqlar ongiga yetkazish uchun siyosiy zaruriyat tug'ilganda ham paydo bo'lishini ta'kidlagan.*

*Dinning mohiyati va kelib chiqishi bilan bog‘liq falsafiy masalalar Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ijodida ham o‘z ifodasini topgan. Qomusiy alloma Qadimgi Misr, Yunon, Rim, Xorazm, So‘g‘d, forsiy hamda hind xalqlari dinini tadqiq qilgan. Tadqiqotlari natijasida Beruniy har bir din unga e’tiqod qiladigan xalqlar uchun birdek ahamiyatli ekani to‘g‘risidagi xulosaga kelgan. Boshqacha aytganda, mutafakkir dirlarning shaklan turlicha, ammo xalqlar ma’naviyati-ga ta’siri nuqtayi nazaridan olib qaraganda, mazmunan tengligi haqidagi falsafiy umumlashmani bayon etgan. Allomaning obyekтивлик, tarixiylik, qiyosiy tahlil, dalillash metodlariga tayangan holda olib borgan izlanishlari natijalari hozirgi davrda ham muhim ilmiy qimmatini saqlab kelayotganini ta’kidlash joiz.*

*O‘rta asr musulmon dunyosining yana bir yirik mutafakkiri Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida ham fan va din bilan bog‘liq masalalar atroflicha tadqiq etilgan. Ibn Sino (980–1037) yoshlik davridayoq diniy bilimlar, antik dunyo ilmiy merosi, mantiq va matematika, fizika, tibbiyot kabi fanlar bilan tizimli shug‘ullana boshlagan. O‘n yetti yoshida Buxoro amirini davolagandan so‘ng, u tabib sifatida mashhur bo‘lgan.*

O‘rta asrlarda Sharq mutafakkirlari falsafiy fikrlari, gar-chand, ularning diniy qarashlari doirasida ilgari surilgan bo‘lsada, o‘zining teran ratsional mazmuni bilan ajralib turgan. Yuqorida diniy-falsafiy qarashlari sharhlangan allomalarining ijodiy faoliyati tufayli antik davr falsafiy merosi Sharq xalqlari hayotiga ham kirib kelgan. Shuningdek, bu davrda olimlar tomonidan tabiiy-ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishning o‘ziga xos yan-gicha ilmiy usul va vositalarning ishlab chiqilgani muqaddas is-lom dinining insonparvarlik, ma’rifatparvarlik mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G‘arbda din falsafasiga doir bilimlarning rivojlanishiga «Hayot falsafasi» deb nom olgan falsafiy yo‘nalish vakillarining qarashlari katta hissa bo‘lib qo‘shil-

di. Germaniyada Fridrix Nitsshe (1844–1900), Vilgelm Diltey (1833–1911), Georg Zimmel (1858–1918), Osvald Shpengler (1880–1936), Fransiyada Anri Bergson (1859–1941) kabi olimlar ushbu yo‘nalishning yorqin vakillari edi. O‘tgan asrning yarmiga qadar ularning nazariyalari Yevropa ziyolilarining dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib turdi.

*«Hayot falsafasi» mактабига xос bo‘lgan bosh xусусиyyat – «hayot» tushunchasini intuitiv tarzda anglash mumkin bo‘lgan, ruhga ham, materiyaga ham qarama-qarshi bo‘lgan o‘ziga xос yaxlitlik sifatida talqin etishdan iborat edi. Yo‘nalish vakillari mazkur tushunchani turlicha talqin etganlar. Xususan, hayot F.Nitsshe uchun insonning biologik mavjudligi, V.Diltey, G.Zimmellar uchun esa, subyektiv kechinmalar majmuyi bo‘lsa, A.Bergson hayotni intuitiv ravishda bilinadigan ong oqimi, kosmik «hayotiy shiddat», O.Shpengler esa, o‘ziga xос yaxlit madaniyatga birlashgan kishilar hamjamiyatining kechinmalar, deb tushungan. Talqinlardagi ayrim tafovutlarga qaramay, ushbu faylasuflar insonning ichki ruhiy mezoni masalasida yakdil bo‘lganlar. Ularning fikricha, bunday mezonlar sifatida tashqi hayot – insoniyatning ijtimoiy, tarixiy tajribasi, rivojlanishining istiqbollari, madaniyat etalonlari, sivilizatsiyalar kabi omillar namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, «hayot falsafasi» vakillari tomonidan din fenomenining mohiyati bilan bog‘liq masalalar ham atroflicha tahlil qilinganini ta’kidlash joiz.*

Kerkegor qarashlari va umuman, ekzistensializm falsafasi diniy-falsafiy masalalarni hal etishda qadimgi faylasuflarga xos bo‘lgan yondashuvdan farqli ravishda, umumiylar muammolardan xususiy masalalar tomon emas, balki, yakkalik (individ) dan xususiylikka (ijtimoiy guruh, qatlam, jamiyat) va undan so‘ng umumiylikka, ya’ni, yaxlit borliqning mohiyatini bilishiga qaratilgan metodologiyani ilgari surganlar. Ushbu yondashuv ko‘p jihatdan zamonaviy jamiyat sharoitlariga javob bergani bois, ko‘plab olimlarning ilmiy ijod dasturidan o‘rin olgan. Shu nuqtayi na-

zardan qaraganda, ekzistensializm zamonaviy din falsafasining ham asosiy masalalaridan birini tashkil etadi.

### **3. Falsafiy teologiya – din falsafasining asosiy yo‘nalishi.**

Din falsafasining asosiy yo‘nalishlaridan biri, bu – falsafiy teologiya hisoblanadi. Ma'lumki, teologiya (lot. theo – xudo, logos – ta'limot) yoxud ilohiyot – xudo to‘g‘risidagi fan, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Xudo, uning sifatlari, belgilari va xususiyatlari to‘g‘risidagi diniy ta’limotlarni asoslash va himoya qilish tizimi sifatida mazkur fan muayyan din tomonidan belgilangan aqidalarning chinligini isbotlash bilan birga, dindorlar hayot tarzi va me’yorlari kompleksini ham o‘rganadi. O‘rta asrlarda teologiya jamiyatni, davlatni boshqarishning mafkuraviy asosi bo‘lgan. Shu sababli boshqaruvning teokratik shakli ham vujudga kelgan. U o‘rta asr madaniyatining barcha turlarini ilm-fan, falsafa hamda axloqni o‘zida mujassamlashtirgan yagona tizim shaklida namoyon bo‘ladi.

Teologiyaning alohida fan sifatida asosiy funksiyasi, dinlarning o‘z aqidasini, ya’ni xudo to‘g‘risidagi o‘z ta’limotlarining boshqa aqidalarga nisbatan maqbul va to‘g‘ri ekanini isbotlashdan iborat. Jumladan, islam dini doirasida ilohiyot masalalarining alohida ko‘rib chiqila boshlashi, ya’ni kalom ilmining vujudga kelishi, VIII–IX asrlarda jabariylar, qadariylar, mo‘taziliylar, murji‘iyalar kabi Allohning zoti-sifatlari, taqdir kabi masalalarda ixtiloflarni yuzaga keltirgan oqimlarning paydo bo‘lishi natijasi edi. Bu holda sof aqidani yangi paydo bo‘lgan ta’limotlardan asrash, uni to‘g‘riligini isbotlash zarurati paydo bo‘lgandi. Holbuki, avvalgi asr olimlarining barchasi kalom ilmi bilan shug‘ullanishni «hamrom» va hattoki «kufr» deb hisoblashgan.

Xristianlik doirasida ham teologiya avval boshida «apologetika», ya’ni xristianlikni atrofdagi dinlar tazyiqidan himoya qilish, Iso ta’limotining ilohiy ekanini isbotlash shaklida yuzaga kelgan.

Teologiya doimo falsafa bilan bog‘liq holda mavjud bo‘lib kelgan. O‘rta asrlar oxirlariga qadar falsafa ilohiyotga moslashtirilgan. Jumladan, antik davr faylasufi Fales, ilk o‘rta asrlarda Foma

Akvinskiy, R.Bultmanlar ham yirik teologlar bo'lishgan. Akvinskiyning zamonaviy katoliklik aqidasining asoschisi sanalishi ham yuqoridagi fikrimizning isboti bo'la oladi.

*Islom olamida falsafaga nisbatan ikki xil munosabat mayjud bo'lgan, mo'taziliylar, jabariylar, jahmiylar, ismoiliylar kabi ilohiyot mакtablarining faoliyati natijasida bir guruh olimlar falsafa bilan shug'ullanishni umuman inkor etishsa, Imom G'azzoliy kabi boshqa bir turdagи olimlar falsafa va kalomni yarashtirishga urinishgan.*

Keyinchalik Yevropa va Sharq olamida hurfikrlilik harakatlarning rivojlanishi teologiyaning falsafa fani tarkibidagi bir bo'limga aylanishiga olib keldi. Yevropa muhitida Nitsshe, Freyd, Spinoza, Yum kabi faylasuflar teologiyaga tanqidiy yondashuvlari asosida falsafiy teologiya, ya'ni diniy falsafa yuzaga keldi.

Falsafiy teologiyaning asosiy vazifasi borliqning diniy-falsafiy asoslari va undan kelib chiqadigan ixtiyor erkinligi, tasodifiylik va zaruriylik, xudoning sifatlari bahsi kabi masalalar hisoblanadi. Umuman olganda, falsafiy teologiya xudoning barcha sifatlari bilan birga mayjudligini falsafiy jihatdan asoslashga urinadi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun birinchidan, xudoning mayjudligini isbotlab berish, ikkinchidan, imkon qadar xudoning tabiatini aniqlash va uchinchidan, xudo — olam va xudo — inson munosabatlarini ochib berish masalalarini hal qilish lozim bo'ladi.



Mutafakkirlar din va hayot falsafasi mushohadasi ustida

Falsafiy teologiya ayni damda «tabiiy teologiya», «diniy falsafa», «diniy metafizika», «ratsional teologiya» kabi nomlar bilan ham ataladi.

Insoniyat yaralibdi-ki, doimo borliqning ilohiy yaratuvchisi — xudo haqida ko'proq bilishga, unga yaqinlashishga urinadi. Mavjud barcha dinlarda, oz yoki ko'p miqdorda, xudo haqidagi ta'limotning mavjudligi, mazkur mavzudagi bahslar antik davrdan to bugungi kunga qadar faylasuflarning asosiy mavzularidan biri ekani yuqoridagi fikrlarimizga isbot bo'lib xizmat qiladi. Mazkur masalalar ni hal qilishga urinishlar natijasida falsafiy teologiya tez sur'atlarda rivojlandi, uning bahs mavzulari ko'paydi. Oqibatda, bu bir necha falsafiy teologik maktablarning shakllanishiga olib keldi. Mazkur oqimlardan eng yiriklari sifatida teizm, deizm, panteizm, panenteizm kabi oqimlarni sanash mumkin.

**Teizm va deizmning asosiy xususiyatlari.** Ma'lumki, teizm (yunoncha Θεός — xudo) — keng ma'noda xudo yoki xudolarga ishonish, tor ma'noda esa monoteistik xarakterga ega bo'lgan xudoning mavjudligi va uning butun dunyoda o'z hukmini o'tkazishi haqidagi diniy falsafiy ta'limot. Mazkur atama ilk bor Ralf Kedvort tomonidan «Borliqning asl intellektual tizimi» nomli asarida amalga kiritilgan. Bugungi kunda monoteistik mohiyatga ega bo'lgan barcha diniy ta'limotlar (yahudiylilik, xristianlik, islam kabi) teizmga kiritiladi.

Teizmga ko'ra xudo dunyoning yaratuvchisigina bo'lib qolmay, uni boshqarishda ham bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Mutaxassislar, mazkur ta'limot shakllanishi va rivojlanishining asosiy sababi sifatida Gegel va Shellinglarning panteistik nazariyalarining qoniqarli bo'lmaganini keltirishadi.

Teizmning eng yirik namoyondalari sifatida kichik Fixte, Ulritsi, Virt, Veyse, Xalibeus, Shvars, Karrgper va Seyzing kabi faylasuflarni qayd etish mumkin. Falsafada teizmga nisbatan «bexabarlik» mavqeyida turish — agnostitsizm, bunday e'tiqodning yo'q bo'lishi — ateizm, teizmni inkor etish esa — antiteizm

deb ataladi. Hind falsafasida esa, teistik ta'limot – astika, uning ziddi esa (ya'ni ateizm) – nastika deb atalgan.

*Deizm (lot. deus – xudo) – mazkur diniy-falsafiy ta'limoti esa, ilk bor lord Gerbert Cherberi (1583–1648) tomonidan olg'a surilgan bo'lib, xudoning mavjudligi va u tomondan dunyoning yaratilganini tan olgan holda, ayni damda uning mistik va g'ayritabiyy hodisotlari va diniy aqidalarini inkor etishga asoslangan. Bir toifa deizm tarafdorlari fikriga ko'ra xudo olamni yaratib qo'ygan, biroq keyingi voqealar rivojiga aralashmaydi, boshqa toifa deistlar fikri-cha esa xudo dunyo ishlariga aralashsa-da, ammo, ularni to'liq nazorat qilmaydi. Deizmning aniq bir ishlab chiqilgan asoslari mavjud bo'lmay, aql, tafakkur va tabiatni kuzatish xudoni anglash uchun yetarli hisoblanadi.*

Deizm Tavrot, Injil va Qur'on kabi muqaddas manbalarning ilohiyligini inkor etgan holda ularni asossiz ravishda aqidalarni ishlab chiqqanlikda ayblaydi. Deistlar, diniy manbalarda ko'plab ziddiyatlar mavjudligini ro'kach qilgan holda ularning ilohiy emas, bor-yo'g'i inson tafakkuri mahsuli ekanini da'vo qilishadi. Oqim tarafdorlari, o'z fikrlarini asoslash maqsadida an'anaviy dinlarning jannat va'dasi va jahannam dahshati vositasida insonlarning his-tuyg'ularini suiiste'mol qilishiga alohida urg'u berishga harakat qilishadi.

*Panenteizm (yun. πάν (pan) – hamma; év (en) – ichida; θεός (theys) – xudo; «Hamma narsa xudoning ichida») ta'limoti ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, panenteizm xudoning ham tabiat ichida (panteistik) ham undan tashqarida (teistik) mavjudligi haqidagi falsafiy qarashlar tizimidir. «Panenteizm» atamasi ilk bor XIX asrda Germaniyada muomalaga kiritilgan.*

*Panenteizm panteizmdan xudoning nafaqat tabiat bilan yagonaligi, balki undan tashqarida ham mavjudligi, deizmdan esa uning*

*olamdagи jarayonlarda bevosita ishtirok etishi haqidagi tamoyil bilan ajralib turadi.*

Falsafiy teologiya xudoni anglashda sof ontologik usullardan foydalanadi. Shu sababdan ham, Yevropa muhitida «onto-teologiya» atamasi ko'p uchrashini kuzatishimiz mumkin.

Bevosita ontologiya haqida gap ketar ekan, mazkur atama ilk bor XVII asrda Goklenius (1613), I.Klauberg (1656) va Xristian Volflar tomonidan fanga kiritilganini qayd etish lozim. Umuman olganda esa, ontologiya deganda borliq haqidagi falsafiy tadqiqot va ta'limotlar nazarda tutiladi. Demak, falsafiy teologiyadagi xudo haqidagi har qanday ta'limot, bu – onto-teologik konseptuallikdan boshqa narsa emas. Onto-teologiya xudo haqida fikr yuritar ekan, «Xudo – borliqning aynan o'zidir (I'sum esse)» degan xulosani beradi.

Falsafiy teologiyaning xudoni anglashga bo'lgan urinislari an'anaviy teologiya vakillari – diniy ulamolarining keskin e'tirozlariga sabab bo'lib kelgan. Dindorlar falsafiy teologiyani xudoning mayjudligini isbotlashga urinish yo'lida uni falsafa obyektiga aylantirib qo'yanlikda ayblaydilar. Ayni damda, teologlar falsafiy teologiya tomonidan xudoni anglash uchun zarur bo'lgan – ong, tajriba va ilohiy xushxabar uchligidagi so'nggi kriteriyini tan olmaslikni qoralaydilar. Shunga qaramay, xudoni anglashga doir falsafiy bahslar davom etib, bugungi kunda ikki yo'naliш «no-an'anaviylik» va «novatorlik» ajratiladi. «Noan'anaviylik» deganda xudoni anglashda klassik teizmga alternativ yo'naliшlarni topish tushunilsa, «novatorlik» ostida Yaratganni anglashning no-teistik yo'llaridan foydalanish nazarda tutiladi.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Musulmon Sharqida falsafaga qanday munosabat bildirilgan?
2. «Hayot falsafasi» qanday falsafiy yo'naliш hisoblanadi?
3. Falsafiy teologiya mazmuni nimadan iborat?

4. «Teizm» va «deizm» tushunchalarini izohlang.
5. «Panteizm» va «panenteizm» tushunchalarini izohlab bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.
4. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jayev H., Rahimjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / Mas‘ul muharrir N.Ibrohimov. – T.: Mehnat, 2004.
5. Valiyev B., Rasulov A. Din psixologiyasini o‘qitishning innovatsion metodlari. – T.: «Yangi asr avlodи», 2013.
6. Achildiyev A., Valiyev B., Kushayev U., Karimov J. Din falfasasi (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2014.

## 11-mavzu. FAN VA DIN

### Reja:


1. Fan va dinning o'zaro aloqadorligiga doir qarashlar.
2. Diniy qarashlarda ma'rifatparvarlik g'oyalari.
3. Fan va din uyg'unligini ta'minlashning ma'naviy-ma'rifiy jihatlari.

**Tayanch tushunchalar:** hurfikrlilik, sekulyar tendensiyalar, Frencis Bekon, islam va ilm, ma'rifatparvarlik g'oyalari, kreatsionizm nazariyasi.

**Mavzu o'quv maqsadi:** Talabalarda fan va dinning o'zaro aloqadorligiga doir qarashlar, diniy mazmundagi ma'rifatparvarlik g'oyalari bo'yicha bilim va tasavvurni shakllantirish.


1. Fan va dinning o'zaro aloqadorligiga doir qarashlar. Ma'lumki, fan – dunyo haqidagi obyektiv bilimlar tizimi bo'lib, uni ma'lum maqsadlar yo'lida o'zgartirishga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli hisoblanadi. Tarixdan to bugungi kunga qadar fan va din munosabatlari, ularning o'zaro aloqadorligi bilan bog'liq masalalar yuzasidan bahs-munozaralar davom etib kelmoqda.

Ayrim olimlar tomonidan din va fanning bir-biriga zid ekanli, din bor joyda fan, fan bor joyda esa din bo'lmasligi haqidagi fikrni ilgari suradilar. Manbalarda qayd etilishicha, bunday qarashlarning paydo bo'lishi o'rta asrlar katolik cherkovining faoliyati bilan bog'liqdir. O'sha davrlarda keng quloch yozgan, o'z cho'qqisiga chiqqan inkvizitsiya minglab kishilarning begunoh qurbon bo'lishiga sabab bo'lgan. Ilmiy izlanishlar cherkov tomonidan qat'iy ravishda ta'qib ostiga olinib, olimlariga «xudoga osiylik qiluvchilar» tamg'asi bosilgani, hammaga ma'lum.



Islohotchilik harakatlarining boshlanishi, hurfikrlilik namoyondalarining paydo bo'lishi va Yevropa jamiyatidagi sekulyar tendensiyalar natijasida fan dinning ta'siri ostidan chiqdi.

Shunday bo'lsa-da, fan sohasi vakillariga nisbatan amalga oshirilganadolatsizliklar olimlarning ijodiy faoliyatida o'z izini qoldirdi. Zero, o'sha davr ilmiy muhitida fan va din o'zaro bog'lana olmasligi, bu ikki tushunchani uyg'unlashtirish mumkin emasligi to'g'risidagi ayrim xulosalar ham ilgari surildi.



Fan va din munosabatlari hamisha munozara ostida bo'lib kelgan

Ayni paytda, tabiiy-ilmiy qarashlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan yana bir guruh olimlar din va fanni o'zaro uyg'un fenomenlar sifatida talqin etganlarini ham ta'kidlash joiz. Ularning fikricha, din fanni, fan esa dinni inkor etmaydi, aksincha, diniy e'tiqod sohiblari ilm-fanni o'rGANISHGA targ'ib qiladi, fanni chuqur o'rGANISH esa «xudoning borligini tasdiqlaydi» deydilar. Jumladan, Pastor «Diniy e'tiqod taraqqiyotga hech qanday to'sqinlik qilmaydi. Chunki, har qanday taraqqiyot xudoning yaratgan narsalaridagi ajoyibotlar sirini ochib beradi. Agar men 'bugun kechagidan ko'ra ilmliroq bo'lsam, xudoga bo'lgan ishonchim ham kechagidan mustahkamroq bo'ladi» deydi. Sarbonna universiteti professori Edmon Gerbert ham bu borada: «Ilm dinsizlikka yoki

ikkilanishga olib borishi mumkin emas», deb yozgan. Lord Kallifan esa: «Agar chuqurroq o'ylab ko'rsak, ilm, albatta seni xudoning borligiga ishonishga majbur qiladi» degan fikrni ilgari suradi. Eynshteyn ham din haqida fikr bildirar ekan: «Xudoga bo'lган етиқод илмиy izlanishlarning eng ulkan samarasidir», deb yozgan edi.

Ayrimlar tomonidan asossiz ravishda, falsafa fani xudoning borligiga skeptik qarashga olib kelishi ta'kidlanadi. Mashhur ing-liz faylasufi Frencis Bekon esa, bu fikrga qarshi shunday yozgan edi: «Inson falsafadan ozgina xabardor bo'lsa, dinsizlikka yaqinlashadi. Ammo falsafani chuqur o'rgangan kishi. albatta, dinga qaytib keladi».

Ba'zi adabiyotlarda din va fanning bir-biriga qarama-qarshi ekanligini asoslash uchun «ilm dalil va hujjatlarga, aniqlikka va aqlga tayanadi, din esa, ko'r-ko'rona ishonch va taqlidga tayana-di» degan fikrni uchratish mumkin. Aslida esa, bu haqiqatga mos emas.

Zero, din, jumladan, islom dini ham aniq dalil va faktlar, rational asoslarga tayanadi. Buni dinimizning muqaddas manbalari – Qur'on va hadisni tizimli o'rganish orqali bilib olishimiz mumkin. Jumladan, Qur'onning Isro surasida: «O'zing bilmagan narsaga ergashma! Albatta, qulqoq, ko'z va dil – ana o'shalar, mas'ul-dirlar» degan oyat mavjud. Shuningdek, Naml surasida hujjat va dalillarning o'ta muhimligi borasida: «Yoki avval boshdan yaratadigan, so'ngra yana qaytdan yaratadigan va sizlarni osmonlaru yerdan rizqlantiradigan zot yaxshimi? Alloh bilan birga boshqa iloh bormi!? Agar rostgo'y bo'lsangiz, hujjatlaringizni keltiring», degin» shaklidagi oyatni o'qish mumkin.

*Qur'onda aqlga taalluqli so'zlarning 50 marta va «aql egalari» so'zlarining 10 martadan ko'proq ishlatalgani ham islom dinida aqlga katta e'tibor berilishiga misol bo'la oladi. Hadislarda ham ilm o'rganish uchun yo'nga chiqqan kishining yo'li oxiri jannatga olib borishi ta'kidlanadi.*

Din va fan qarama-qarshiligi konsepsiysi tarafidorlari dillardagi, jumladan, islomdagi ilmga targ'ib faqat diniy bilimlarni nazarda tutadi, degan noto'g'ri xulosani ham bayon etadilar.

Xristianlik doirasida olib qaralganda, taniqli astoronom Nikolay Kopernik, faylasuf V.F.Gegellar asli ruhoni y bo'lganlar, Rene Dekart va Leybnits kabi allomalarining ham diniy e'tiqodi kuchli bo'lgan. Ammo bu, ularning dunyoviy olim bo'lishlariga monelik qilmagan.

*Islom dini doirasida ham shunga o'xshash vaziyatni kuzatish mumkin. Jumladan, Payg'ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilingan hadisda «Ilmni Chinda bo'lsa ham o'rGANINGLAR» deyiladi. Din olimlari mazkur hadis haqida to'xtalar ekanlar, bu yerda dunyoviy ilmlar nazarda tutilganini qayd etishadi. Chunki, agar hadisda faqat diniy ilm nazarda tutilganda mazkur ilmni Chin (Xitoy)ga borib o'rGANISHGA targ'ib qilish mantiqsizlik bo'lgan bo'lardi.*

Buning hayotiy-amaliy misolini dunyo ilm-fani taraqqiyoti-ga hissa qo'shgan olimlarning ko'pchiliklari musulmon olamidan chiqqani va aksariyat kashfiyotlar islom olamida amalga oshirilganini qayd etishning o'zi kifoyadir. Yana shuni ham alohida ta'kidlash lozim-ki, Yevropa xristian muhitidan farqli ravishda, musulmon Sharqida na faylasuflar va na boshqa soha olimlari ateizm yoki agnostisizm yo'liga o'tmadilar. Deyarli barcha olimlar Qur'on hofizlari bo'lganlar, matematika, astronomiya, fizika, tilshunoslik, dinshunoslik, tarix, mantiq, falsafa sohalarida ijod qilish barobarida diniy asarlar ham yozganlar.

Yevropaga qaytar ekanmiz, katolik cherkovi hukmronligi paytida ham ilm-fan, aksar sohalari dinga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, baribir taraqqiyotdan butkul to'xtamaganini qayd etish lozim. Jumladan, G'arbiy Yevropadagi dastlabki universitetlar XII asrda paydo bo'lgan. Universitet — lotincha «majmua» ma'nosini ham anglatadi. Ilmiy darajalar tizimi shakllanib, bakalavr, magistr, doktor kabi darajalar tabaqalanishi universitet ta'limining

ko‘p bosqichlariga mos kelar edi. Ta’limning birinchi bosqichi 7 ta fanni o‘z ichiga olgan ikki davradan iborat edi:

1-davrada – trivium (grammatika, notiqlik, mantiq);

2-davrada – kvadrium (arifmetika, astronomiya, musiqa, geometriya).

Oliy maktablar XIII asrda Boloniya, Monpele, Palermo, Parij, Oksford, Salerno va boshqa shaharlarda tashkil topdi. Umuman, ayrim ma'lumotlarga ko‘ra, XV asrga qadar Yevropa davlatlarida 60 ga yaqin universitet ochilgan.

XIV asrdan qog‘oz ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaydi. Qog‘oz Xitoydan Sharq davatlari, jumladan, Samarqand orqali Yevropaga kirib keldi. Ispaniyada dastlabki qog‘oz ustaxonalari XII asrdan ishga tushgan. Keyinchalik, XIV asrdan esa bu soha Italiyada ham rivojlangan. Yevropadagi dastlabki ustaxonalarda qog‘oz eski lattalardan tayyorlangan.

*Germaniyada 1445-yilda Iogann Guttenberg tomonidan kitob bosish dastgohining kashf etilishi Yevropa madaniy hayotining yana-da yuksalishiga sabab bo‘ldi. Xudoni kuylash, Injil rivoyatlari, av-liyolar hayoti, ruhiy-axloqiy poklanish, gunohdan forig‘ bo‘lish bilan bog‘liq aqidalar esa, o‘rta asrlar musiqasidagi asosiy mavzular bo‘lganini ham eslash mumkin.*

Shuni ham alohida ta’kidlash joiz-ki, aynan shu davrda Yevropa renessansi ham ro‘y berdi. O‘rta asrlar diniy xurofot davridangina iborat bo‘lib qolmadi. O‘zidan ajoyib adabiy meros va arxitektura yodgorliklarini qoldirdi. Bu davr «buyuk o‘zgarishlar davri», o‘zlarining o‘lmas asarlari bilan kishilik madaniyati rivojiga katta hissa qo‘sghan olim va yozuvchilarning yetishib chiqishiga zamin tayyorlagan davr bo‘lganini ham unutmaslik zarur.

**2. Diniy qarashlarda ma’rifatparvarlik g‘oyalari.** Yuqorida ta’kidlanganidek, fanning diniy va dunyoviy asoslarga ko‘ra turkumlash sekulyarlashuv jarayonining avj olishi, teokratik davlatlarning qulashi, hurfikrlilik, ma’rifatparvarlik g‘oyalaring rivoj-

lanishi natijasida amalga oshdi. Biroq, ba'zi hollarda, dunyoviy ilm egalari umuman dinsiz bo'lishi kerakligi, dindorlar va dunyoviy olimlarning o'zaro ikki qarama-qarshi qutblar ekani haqidagi noto'g'ri qarashlar ham bayon etildi. Shuningdek, ba'zi mintaqalarda, «din – ilm-fan va taraqqiyot, inson hurfikrligi dushmanidir» qabilidagi g'oyalar mafkura darajasiga ko'tarilganini, dinni tanqid qilgan, unga qarshi chiqqan faylasuflar daho darajasiga ko'tarilgani ham ko'pchilikka ma'lum.

*Tarixni o'rganish insonning ilm-fan bilan shug'ullanishi uning diniy e'tiqodi, iymoni esa olim bo'lishiga monelik qilmasligini isbotlaydi. Aksincha, ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni egallash insonni ma'naviy komillik sari yetaklaydi. Zero, Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi».*

Bugungi kunda fan va din munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bir necha asr davom etgan ziddiyatlar barham topib, ushbu ikki insoniyat uchun eng muhim sohalarning o'zaro uyg'un hamkorlik davri boshlandi. Ilm-fan o'z kashfiyotlari orqali muqaddas kitoblardagi ilohiy mo'jizalarini ilmiy izohlash imkoniyatini bermoqda. Bu borada fan tomonidan chuqur izlanishlar va tadqiqotlar natijalari diniy manbalarga mos kelishini alohida qayd etish lozim. Jumladan, insoniyat 1961-yil o'z ko'zi bilan ko'rib guvoh bo'lgan sayyoramizning sharsimonligi haqidagi fikrlar bundan o'n to'rt asr avval Qur'onda bayon qilingan edi: «Shundan keyin Yerni (tuyaqush tuxumi shaklida) yoyib, tekislab qo'ydi» («Nozi'ot», 30).

Bu oyatda tuxum ma'nosini bildirib kelgan so'z arabchada «da-haahaa» bo'lib, bu aslida tuyaqushning tuxumiga nisbatan ishlatalidi. Tuyaqushning tuxumi yerning geosferik shakliga o'xshaydi.

O'rta asrlarda cherkov tomonidan ilgari surilgan Yerning teklisi haqidagi ta'limot ustuvor bo'lgan, keyinchalik uning yu-

maloqligi isbotlanishi natijasida, olimlar inkvizisiya qilingan bo'lsalar, ayni paytda, islam olamida bunday hol kuzatilmaganini qayd etish lozim. Masalan, birinchilardan bo'lib Yer shari modeli – globusni ishlab chiqqan Abu Rayhon Beruniy G'aznaviyolar saroyida eng obro'li maqomda bo'lgan. Hech kim uni kofirlikda ayblamagan. Zotan, Qur'onda ham «Alloh yaratgan narsalar ha-qida tafakkur qilinglar», deb ta'kidlangan.

*Abbosiylar xalifaligi davrida Bag'dodda Ma'mun akademiyasining tuzilishi, u yerda matematika, geometriya, falakiyot (astronomiya), falsafa, tibbiyat sohasidagi eng yirik olimlarning jamlanishi ham islam dinining ilmiga munosabatining yorqin namunasidir.*

Din va fanning sirtdan qaraganda bahsli tuyuladigan nuqtalaridan biri – bu, dunyoning yaralishi bilan bog'liq masaladir. Mazkur yo'nalishda, asosan, «kreatsionizm» va «evolutsionizm» maktablari farqlanadi.

**Kreatsionizm nazariyasi.** Kreatsionizm lotincha «creatio» so'zidan olingan bo'lib, yaratilish degan ma'noni beradi. U butun borliqni, hayotni, Yer sayyorasi va umuman olamni xudo yaratgan deb e'tirof etuvchi teologik va g'oyaviy konsepsiyadir.

Kreatsionizm g'oyasining tarixi din tarixining bir qismini tashkil etadi. Milodning XIX yuz yilligida bu atama, ayniqsa, ommalashdi. XVIII asrda ilm-fan rivojlanib evolutsionizm nazariyasiga qarshi kreatsionizm qarashlari yuzaga keldi. Avvaliga ushbu oqim tarafдорлари asosan anti-evolutsionistlar, deb nomlandi.

1932-yilda Britaniyada evolutsion nazariyaga qarshi harakat yuzaga keldi. Harakatning asosiy maqsadi ilmiy faktlarni tarqatgan holda evolutsion nazariyaning noto'g'ri ekani va diniy mabdalarda keltirilgan xabarlar haqiqatligini isbotlash edi. 1970-yilda uning a'zolari 850 kishi edi. 1972-yilda Buyuk Britaniyada «Nyuton nomidagi ilmiy birlashma» tuzildi.

Hozirda turli davlatlarda kreatsionizm nazariyasi asosida birlashgan ko'plab ilmiy jamiyatlar faoliyat yuritmoqda. Jumladan:

AQSH da 34 ta, Buyuk Britaniyada 4 ta, Avstraliya, Janubiy Koreya, Ukraina va Rossiyada 2 ta, Turkiya, Vengriya va Serbiyada 1 ta.

Ko'pgina ortodoksal xarakterdagи yahudiy guruhlari teistik evolutsiya tarafdori bo'lgan bir paytda, konservativ yahudiylar ilm-fanni yahudiy teologiyasini shakllantirishiga tayanib unga ijobiy munosabat bildiradilar. Islohotchi yahudiylar esa Tavrot-ni haqiqiyligini rad etadilar. Ularning fikricha dunyo so'zining ibroniychasi עולם aslida «berkitilgan» (Neh-Eh-Lahm) degan ma'noni beradi.

Kreatsionizm nazariyasi yahudiylikning muqaddas kitobi Tavrotda muayyan daraja o'z aksini topganini ta'kidlash joiz. Milodiy I asrda yahudiy yozuvchisi Filo Patriarxlarning bu boradagi rivoyatlarini haqiqiy deb e'tirof etgan. U Musoning xudo olamni olti kunda yaratgan degan fikrini keltiradi. Lekin, uning fikricha, xudo bu ishni bir paytda amalga oshirmagan. Berilgan raqam esa tartibni bildiradi. Dunyoning yaratilishi haqiqatan ro'y bergen, lekin xudo buni insonlarga Muso orqali ramziy ravishda tu-shuntirgan.

Ilk davrlarda xristian cherkovi otalari ham Filoning g'oyasi-ga tayangan holda olamning yaratilishi haqiqatda ro'y bergenini e'tirof etdilar. Milodning ikkinchi asrida xristian ortodoksallari olamning yaratilishi ramziy tarzda bo'lgan degan fikrni rad etdilar. XV asrda Avliyo Bazil bu jarayonni juda katta o'lchamda va hech qanday tanaffussiz hamda vaqtsiz yuz bergenini tasvirlab berishga urindi. Avgustin «Olam yaratilishining haqiqiy tasviri»da ibtido moddiy ashyolarning yaralishi ekani va ayni paytda, vaqtning ahamiyati bo'lmagan didaktik sabablarga ko'ra bu jarayon davom etganligini da'vo qildi. Uning fikricha, yorug'lik farishtalar taratgan nuring tasviridir. Shuningdek, xuddi moddiy nur kabi, ilohiy nur ham haqiqatda mavjud. Avgustin ilohiy matnlarning qiyinligiga e'tibor qaratadi va hamma tushunishi uchun ular tahrir qilinishi kerak, deb hisoblaydi. Xristianlar esa, kishilar o'zlarini guvohi bo'lgan hodisalar muqaddas bitiklarga qar-

shi kelsa, uni izohlamaslik kerak deb hisoblaydilar. XIII arda Tomas Akvinta Avgustin singari Muqaddas bitikning aslini saqlab qolish kerakligini tasdiqlab: «Muqaddas bitik haqiqatni tushuntirib bera olar ekan, noto‘g‘riliqi isbotlangan holatdan tashqari hol-larda u hech kimning izohiga muhtoj emas», – deb yozgan edi.

*1571-yilda Martin Lyuter olamning yaratilishi bundan 6000 yil avval olti kun davom etgani haqidagi g‘oyani ilgari surdi. Jon Kelvin olam yaralishi to‘xtovsiz davom etganini rad etadi, shu bilan birga, uning fikricha, osmonlar tepasida suv bor.*

Yangi yerlarning kashf etilishi insonlarni hayotning yangi tur va shakllari bilan tanishtirdi. Yangi nazariya barcha biologik turlarning xudo tarafidan alohida-alohida yaratilganini ilgari surdi. 1605-yilda Frensis Bekon «Xudoning yaratgan ishlari bizga uning Injilidagi so‘zlarni tushunishimizga yordam beradi», degan fikrni bildirdi.

1650-yili arxiepiskop Djems Usher «Usher xronologiyasi»ni chop ettirdi. Unda olamning yaratilishi miloddan avvalgi 4004-yil deb belgilangan edi. Bu sana o‘scha paytda qabul etilgan bo‘lsada, XVIII–XIX asrlarda ancha yuksalgan ilm-fan Yerning tarixi yanada ko‘hna ekanini isbotladi.

XIX asr boshlarida Jon-Baptist Lamarkning turlarning o‘zgarishi to‘g‘risidagi konsepsiysi Parij va Edinburgda, asosan, anatomistlar tomonidan iliq qarshi olindi. Britaniyaning Napoleon urushlari bilan band ekanligi, Fransiyada revolutsiya va Amerika fuqarolar urushining yuz bergenligi jamiyatda shu kabi evolutsion nazariyalarning asosiy o‘rin egallashiga sabab bo‘ldi.

2006-yilda ko‘pgina xristianlar yaratilishning evolutsion nazariyasini tan oldilar. Bugun ko‘pgina xristian cherkovlari, jumladan, anglikan va lyuteran cherkovlari ilohiy yaratilish bilan evolutsion nazariya o‘rtasida ziddiyat yo‘qligini e’tirof etadilar. Mazkur cherkovlarning rahbarlari evolutsion nazariyani yoqlab turli va’z o‘qidilar. O‘z navbatida olimlar, xususan, fizik Jon

Polkingorn evolutsiya xudo yaratgan maxluqlarida kechadigan ja-rayonlardan biri, deya fikr bildirdi.

Kreatsionizm nazariyasiga ishonuvchi xristianlar ikki guruhga bo'linadilar: birinchi guruh kreatsionizmga ishonadi va fanni butunlay rad etadi. Ikkinci guruh esa fan keltirgan faktlarga ham ishonadi.

Shuningdek, kreatsionist qarashlarning quyidagi turlari ham ajratib ko'rsatiladi:

**«Yosh Yer kreatsionizmi»** (ing. «Young Earth creationisms»; rus. «Младоземельный креатционизм»). Bunga ko'ra, xudo – Yerning yaratuvchisi. U Yerni Injilda qanday tasvirlangan bo'lsa, shunday yaratgan. Bu hodisa bundan 6000 (protestantlarga ko'ra) yoki 7500 (pravoslavlarga ko'ra) yil avval ro'y bergan. Aksariyat hollarda Yerning yoshi koinot yoshi bilan deyarli teng, deb hisoblanadi. Ularning fikricha koinotning Yerdan ko'hnaroq ekanini tasdiqlovchi dalillar oz. Bu davrda makroevolutsiya kechmagan. Yer ulkan suv toshqinidan so'ng qayta shakllangan.

**«Ko'hna Yer kreatsionizmi»** (rus. «Метафорический староземельный креационизм»). Bu nazariyaga ko'ra olamni xudo yaratgan, ammo, bu to'g'ridan to'g'ri bo'lмаган. Bu qarash tarafdorlari astronomlar va geologlarning Yerga va koinotga bergen yoshlari bahsli e'tirof etadilar.

**«Kompensatsion kreatsionizm».** Bu nazariya Tavrotning Ibtido kitobida kelgan xabarga tayanadi: avval xudo osmon va Yerni yaratdi (Ibtido 1:1-2). Demak, Yer bir muddat qorong'ilik qa'rida bo'lган, so'ng hayot boshlangan. Orada bo'shliq bo'lган.

**«Kun kreatsionizmi.»** Bunga ko'ra, xudo dunyoni olti kunda yaratgan. Ibtidoda kelgan olti kun bu bizning kunlardek 24 soat emas. Kun so'zi ibroniychada «yom» deyiladi va yosh, davr deb tarjima qilinadi. Bu nazariya tarafdorlarining ba'zilari biz hali ham yettinchi kunda yashayapmiz, deb ishonadilar.

**«Progressiv kreatsionizm»** (rus. «креационизм постепенного творения»). Bu fikrga ishonuvchilar xudo turlarni yaratgach,

ular xudo belgilagan bosqichlar asosida rivojlanib borgani, ya’ni ularda evolutsiya jarayoni yuz bergenini ta’kidlaydilar.

«Teistik evolutsiya» (rus. «Теистический эволюционизм»). Bunga ko‘ra olamni xudo yaratgan. Lekin, bu nazariya evolutsiyanı rad etmaydi. Balki yaratuvchi xudoning yaratishda qo‘llagan vositalaridan biri, deya e’tirof etadi.

Hinduiylik ibrohimiy bo‘lmagan dinlar orasida kreatsionizmga katta e’tibor qaratadi. Hinduiylikning ko‘pgina e’tiqodchilari Vedalarda kelgan evolutsion g‘oyalarga ishonadilar. Vedalarda birinchi (sarga) va ikkinchi (visarga) yaratilishi haqida ta’limot mavjud. Birinchi yaratilishga moddiy olam, ikkinchisiga esa Brahma kiradi. Brahmaning vazifasi moddiy jismalarni yaratish edi. U avvalo, o‘z yordamchilarini yaratadi, ular alohida maqom – «prad-japati»ga ega bo‘ladilar.

*Islom diniga ko‘ra, borliq Alloh tomonidan yaratilgan. Ko‘p musulmonlar Yerning va koinotning fan ta’kidlagan yoshiga ishonadilar. Islomda ham evolutsion nazariyaga ishonuvchilar mavjud. Dunyoning yaratilishi borasida Islomning asosiy manbasida bir qancha oyatlar keltirilgan. Xususan, Qur’onning Anbiyo surasi, 30-oya-tida shunday deyilgan:*

*«Kofir bo‘lganlar osmonlar ham, Yer ham (avvalda) yaxlit bo‘lganini, bas, Biz ularni yorib yuborganimizni va barcha tirik mavjudotni suvdan (paydo) qilganimizni ko‘rmadilarmi?! Endi ham imon keltirmaydilarmi?».*

*«So‘ngra tutun holatda bo‘lgan osmonni (yaratishni) qasd etib, unga va Yerga: «(Farmonimga) ixtiyoriy yoki majburiy holda kelingiz!» – degan edi, ular: «O‘z ixtiyorimiz bilan keldik», – dedilar» (Fussilat, 11)*

*«Osmonni Biz «qo‘llar» bilan barpo etdik. Darhaqiqat, Biz qudratlidirmiz» (Zariyyat, 47).*

Sotsiolog Malik Shebel 2007-yil fevral oyida Le Monde gazetasiga bergen intervyyusida shunday degandi: «Islom hech qachon

ilm-fandan qo‘rqmagan.... Islom darvinizmdan xavfsiramaydi.... Islom evolutsiya va odamning mutatsiyasidan qo‘rqmaydi...».

Birinchi musulmon biologi al-Jahiz IX asrda yashab o‘tgan. U o‘zining «Hayvonlar kitobi» asarida tabiatning hayvonlarga o‘tkazadigan ta’sirini tadqiq qiladi. Uning fikricha, tabiatning ta’sirida hayvonda yashash uchun kurashga intilish tug‘iladi. Al-Jahiz yashash uchun kurashni tabiiy tanlanish deb ataydi.

Zamonaviy musulmon ilohiyotchilari va olimlari olamning yaratilishi borasida bir necha guruhga bo‘linishadi. Birinchi guruh vakillari Alloh barcha jonzotlarni ayni ko‘rinishida yaratdi va ular shu ajdodidan tarqaldi, deb hisoblaydilar. Odamning yaratilishi borasida ular Qur’ondagi oyatlarga tayangan holda Alloh odamni loydan yaratdi, deydilar. Keyin Odamning qovurg‘asidan Havvoni yaratdi va bu ikkisidan butun bani bashar tarqaldi. Bu yo‘nalishning mashhur namoyondalaridan Shihabuddin Nadavi, Vahiduddin Hon va Horun Yahyolardir.

Fransiya musulmonlar jamiyatni Prezidenti Dalil Bubakyor Xorun Yahyoning evolutsiya to‘g‘risida yozgan kitobiga javoban shunday deydi: «U turlar o‘zgarmay qolishini isbotlashga urinmoqda. Dalil sifatida u fotografiyadan foydalanmoqda, ammo bu bilan u ba’zi turlarning yo‘qolishi va boshqalarining paydo bo‘lishini tushuntirib berolmaydi».

Shihabuddin Nadavi «Odamning yaralishi va evolutsiya naziariysi» nomli kitob yozgan. Vahiduddin Hon ham bir qancha kitoblarning muallifi bo‘lib, ayniqsa «Ilm-e-jaded ka challenge» («Zamonaviy fan yutuqlari») asari dunyoning yaratilishi masalasi-ga bag‘ishlanadi.

**Ezoterizm konsepsiysi.** Borliqni anglash borasida yuqorida ko‘rib o‘tilgan «kreatsionistik» va «evolutsionistik» nazariyalardan tashqari «ezoterik» metod ham farqlanadi. Mazkur nazariya olamni, uning yaralishini noan’anaviy, fan tomonidan tasdiqlanmagan usullar orqali anglashga qaratilgandir.

«Ezoterizm» so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, «ichki», «botiniy» ilm, yoxud «ibodatxonaga kirishning xos yo‘li» ma’nolarini

anglatgan. Ilk bora qadimgi yunon faylasufi Pifagor maktabi va killari mazkur soha bilan shug'ullanganlari qayd etiladi.

Ezoterizm borliq qonun-qoidalarini ma'naviy-psixologik bilishdir. Shuningdek, u, dunyo evolyutsiyasining mohiyatini anglashdagi spetsifik qarashlarning majmuyidir. Bunga mistisizm konsepsiyalari, fen shuy, i-szin ta'limoti, shuningdek, inson o'zini anglashining tajriba va yo'llari kiradi.

Mazkur yo'naliш tarafdarlarining fikriga ko'ra, ezoterik dunyo-qarashga hamma ham qodir bo'lavermaydi. Bu darajaga faqatgina ma'lum pog'onaga yetishgan va qobiliyatli (odatda ularni Yetishgan, Master, Ustoz deb atashadi) insonlarga erishishi mumkin.

Qadimgi davr ezoterizmining eng mashhur yo'naliшi bu — germetizm edi. Qadimgi Bobil ezoterizmi tajribalari keyinchalik G'arb astrologiyasi uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Ezoterizmga aksar dinlarda mavjud bo'lgan sirli va qonun-qoidalar orqali ochib berilgan dixotomiya xosdir. Xristian yo'naliшidagi ba'zi kishilar ezoterizm Injil va xristianlikka zid ekanini ta'kidlashadi. Bugungi kunda, mazkur yo'naliш asosan Uzoq Sharq, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo milliy dinlariga xosdir.

**3. Fan va din uyg'unligini ta'minlashning ma'naviy-ma'rifiy jihatlari.** Bugungi kunda fan va din munosabatlari muvozanatini ta'minlash masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, insoniyat diniy xurofotlar ustun bo'lib, ilm-fan tushkunlikka tushgan davrda ham, yoki aksincha, dunyoviylik hukmron bo'lib, din umuman inkor etilgan paytda ham to'liq kamolotga, baxtga erisha olmadi. Faqat diniy va dunyoviy ilmlarni uyg'unlashtirgan holdagini taraqqiyotga erishish mumkinligi tobora teranroq anglab yetilmoqda.

Hozirda dunyoning yetakchi universitetlarida turli dunyoviy fakultetlar qatori ilohiyot bo'limlarining ham mavjudligi, diniy tadqiqot markazlarining tuzilgani, dunyoning barcha davlatlarda fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'i nazar teng huquqli, deb e'lon qilingani diniylik va dunyoviylikning tobora uyg'unlanayotganiga misoldir.

Mavjud dinlarga nazar solar ekanmiz, dunyoviylik va diniylikning sog'lom uyg'unligini ta'minlash muqaddas islom dinimiz ta'limotida ham keng o'rin tutganiga ishonch hosil qilamiz. Zero, dinimiz ilm olishga ko'p targ'ib qiladi. Bunda, ilm deganda nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlar ham nazarda tutilishini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik.

*Ma'lumot uchun shuni aytib o'tish lozimki, islom dinida ilmlar ikki guruhg'a bo'linadi. Birinchisi, hamma uchun teng majburiy (farzi ayn) bo'lgan ilmlar. Bunga, imon va islom, ibodatlar tartiblariga oid ilmlar kiradi. Ikkinchisi esa, muayyan kishilarga majburiy bo'lgan (farzi kifoya) ilmlar kiradi. Matematika, astronomiya, fizika, tibbiyot, muhandislik kabi hayot va taraqqiyot uchun zaruriy bo'lgan ilmlar shu qatorga kiradi. Agar muayyan jamiyat bu ishlarni amalga oshirmasa, uning hamma a'zolari gunohkor bo'ladi.*

### O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:

1. «Fan» va «din» tushunchalarini izohlang.
2. Fan va dinning o'zaro aloqadorligi bo'yicha qanday qarashlar shakllangan?
3. Islomda ilm va aql borasida qanday munosabat bildiriladi?
4. Dunyo dinlarida «kreatsionizm nazariyasi»ga qanday yondashuvlar mavjud?

### Adabiyotlar:

1. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009.
2. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar ja-moasi. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi», 2013.
3. Agzamxodjayev S., Rahimjonov D., Muhamedov N., Najmiddinov J. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011.

4. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Rahimjonov D. va bosh-qalar. Dinshunoslik: darslik / Mas'ul muharrir N.Ibrohimov. – T.: Mehnat, 2004.
5. Valiyev B., Rasulov A. Din psixologiyasini o'qitishning innovatsion metodlari. – T.: «Yangi asr avlodи», 2013.
6. Achildiyev A., Valiyev B., Kushayev U., Karimov J. Din falfasasi (o'quv qo'llanma). – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasи», 2014.

## 12-mavzu. DIN VA AXLOQ

### Reja:


1. Axloq tushunchasi.
2. Dinlardagi mushtarak axloqiy normalar.
3. Din va axloq o'rtasidagi munosabatlar inqirozi oqibatlari.



**Tayanch tushunchalar:** diniy axloq, axloqiy qadriyatlar, diniy e'tiqod, diniy funksiyalar, «ilohiy podshohlik», zohidlik, ibodat va muomalat, axloqiy inqiroz.

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarga «axloq» tushunchasi, dinlardagi mushtarak axloqiy normalar, din va axloq o'rtasidagi munosabatlar inqirozi oqibatlari haqida ma'lumot berish.

**1. Axloq tushunchasi.** Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari va odoblari majmuyi. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi.



Din e'tiqod, tasalli berish, qonunlashtirish funksiyalariidan tashqari, sotsiolog-funktionalistlar dinning boshqaruvchilik funksiyasini alohida ta'kidlaydilar. Bunday nuqtayi nazardan qaraganda din axloqiy qadriyatlar tizimi hamdir.


Dinning boshqaruvchilik funksiyasi diniy dunyoqarash darajasida ko'rildi. Har bir diniy tizim muayyan qadriyatlar sistemasi ni ishlab chiqadi. Ular e'tiqod qiluvchi tomonidan bu dinni qabul qilishda asta-sekinlik bilan o'zlashtirib boriladi. Axloq-odob normalari o'ziga xos faoliyatning dasturi va kishilarning o'zaro

muloqot yo'lidir. Uning turli ko'rinishlari mavjud. U insonning biror-bir obyektga, insonga, hodisaga bo'lgan munosabatining oldindan belgilanishidir. Dinga e'tiqod qiluvchilarining odob-axloq normalari diniy marosimlarda, odamlarning o'zaro muloqot qilishi natijasida o'zlashtiriladi va kelajak avlodga uzatiladi.

Bunday axloq normalarini o'zlashtirish darajasiga qarab inson jamiyatda o'zini qanday tutishi belgilanadi. Insonning axloqi o'zi tushgan turli vaziyatlarda ularning to'g'ri baholashga yordam beradi. Turli vaziyatlardan to'g'ri xulosa chiqarish insonning asosiy maqsadini belgilashda muhim o'rinni egallaydi. Oxirgi natija – eng asosiy maqsad bu insonning g'oyasini belgilaydi.

Har bir din o'zining axloq normalarini e'tiqod xususiyatlaridan kelib chiqib belgilaydi. Bu ishni amalga oshirishda diniy qadriyatlarning o'ziga xos shkalasi vujudga keladi. Masalan, xristianlikda eng asosiy qadriyat sifatida insonning xudo bilan muloqoti olinadi. E'tiqod qiluvchi kishi, odatda, xudoga yaqinlashish, «birinchi gunoh» natijasida xudo bilan inson orasida paydo bo'lgan masofani bartaraf etish imkoniyatiga ega. Buning uchun e'tiqod qiluvchi ibodatlarni amalga oshirish bilan bir qatorda o'z axloqini yaxshilashni ham amalga oshiradi. Xristian kishi bunday axloq jarayonida o'z oldiga muayyan maqsadlarni qo'yadi. Masalan, diniy marosimlarda qatnashish insonga savob ishlarni keltiradi, ular shayton bilan kurashish, xudoga yaqinlashish uchun kuch ato etadi. Uning pirovard maqsadi bunday amallar va axloqlar natijasida o'z urug'ini qutqarish, xudoga qo'shilib ketish va «ilohiy podshohlik»ni qo'lga kiritish nazarda tutiladi. «Ilohiy podshohlik» – bu alohida xristianning va umuman barcha xristianlarning barcha sa'y-harakatlari diniy tashkilotlar orqali amalga oshirish uchun yo'naltirilgan asosiy g'oyadir.

Diniy axloq normalari – ijtimoiy norma turlaridan biridir. Diniy axloqdagi diniy qadriyatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan talab va qoidalar tizimidir. Ijtimoiy axloq normalarida qadriyatlarga nisbatan ko'proq majburiylik aks etadi. Din sotsiologiyasida diniy axloq turlarining har xil sinflari mavjud. Diniy axloq



normalari boshqaruvchilik xarakteriga ko‘ra pozitiv – biron-bir ish harakatini amalga oshirishni majburiy qilish yoki negativ – ma’lum amal, munosabat va boshqalarni taqiqlovchi bo‘lishi mumkin. Diniy axloq normalari o‘z ko‘rinishiga ko‘ra mazkur diniy e’tiqodga ergashuvchi barcha kishilarga yoki muayyan jamoa (ruhoniylar, avliyolar va b.)ga tegishli bo‘lishi mumkin. Masalan, katolitsizmdagi turmush qurmaslik faqatgina ruhoniylarga tegishlidir.

Diniy axloq o‘z xarakteriga ko‘ra toat-ibodatga oid yoki tashkiliy bo‘lishi mumkin. Toat-ibodatga oid axloq normalari diniy amallarni bajarish vaqtini tartibga solishga xizmat qiladi. Tashkiliy axloq normalari diniy jamoa ichidagi, ibodatxona ichidagi va ibodatxonalararo, shuningdek diniy oqimlar orasidagi munosabatlarni belgilaydi. Bu normalar orasiga diniy tashkilotlar (jamoalar, mazhablar, ibodatxonalar), muayyan dinga e’tiqod qiluvchi fuqarolar, diniy birlashmalar, turli pog‘onadagi ruhoniylar, tashkilot va uning har xil bo‘limlarining turli rahbarlari orasidagi munosabatlar kiradi. Bunday normalar diniy tashkilotlar haqidagi turli ustav va nizomlarda belgilanadi. Ular bu tashkilotlarning strukturasini, tashkilot va uning turli bo‘limlariga rahbar saylash tartiblarini hamda rahbarlarning faoliyat muddati, huquq va burchlarini belgilaydi.


Diniy faoliyat va munosabatlarni tartibga soluvchi axloq normalariga bunday umumiy nazar solish, bu normalar insonning ijtimoiy jihatidan juda keng sohasini o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi. Tabiiyki, dinshunoslikda bunday nazariyalarning qaysi biri «sof» diniy va qaysinisi diniy sohaga yuzaki ravishda tegishli, degan savol ixtiloflidir. Bu savolga ikkita turli javob taklif etilgan: birinchisi, har qanday tartibga soluvchi jihatlar, agar ular

diniy tashkilotlar miqyosida amalga oshirilsa «diniy» deb hisoblash. Ikkinchisi, diniy bo'lmanan ijtimoiy faoliyat va munosabatlarning diniy tashkilotlar miqyosida amalga oshirilishi faqatgina diniy tartibga solishga mansub qilish fikridir. Ikkinchisiga misol tariqasida diniy tashkilotlarning missionerlik va xayr-ehson qilish faoliyatini olishimiz mumkin.

Islom dinida axloq dinning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning «Men faqat chiroylar xulqlarni mukammal qilish uchungina yuborildim» degan so'zlarini ana shundan darak beradi. Bu borada Payg'ambarning har qanday vaziyatda ham o'zlarining chiroyli xulqlari bilan ajralib turishlari musulmonlar uchun o'rnak bo'ladi. Islomda axloq normalari ikkiga bo'linadi: inson bilan Alloh o'rtasidagi va inson bilan inson o'rtasidagi munosabatlardagi axloq normalari.

Eng katta axloqsizlik – bu insonning Alloh oldidagi ahdiaga vafo qilmaslik. Islom e'tiqodiga ko'ra, insoniyat Yer yuziga kelmasidan oldin barcha insonlar Alloh huzurida chin musulmon bo'lishga «qasamyod» («al-misoq») qilganlar. Musulmon bo'imaslik – bu eng birinchi va eng katta axloqsizlik, vafosizlik va noshukurlik hisoblanadi.

Inson va Alloh o'rtasidagi muloqotda asosiy joy qalb hisoblanadi. Insonning ma'naviy go'zal bo'lishi Yaratganning oldida axloqli bo'lishini belgilaydi.



Bu xususda Imom al-G'azzoliy (1057–1111) bir misolni keltiradi: inson uyiga mehmon kelishidan oldin hammayoqni tozalaydi, ko‘zga xunuk ko‘rinadigan narsalarni yo‘qotib, iloji boricha chiroyli ko‘rsatishga harakat qiladi. Inson o‘z Rabbisi huzurida turish – ibodat qilishdan oldin ham qalbini shunday toza va chiroyli qilishga intiladimi?

Islomda axloq yaxshi va yomon xulqlarga bo‘linadi. Chiroyli xulqlarning eng birinchisi qilib rostgo‘ylik qaraladi. Payg‘ambarning «musulmonda kamchiliklar bo‘lishi mumkin, ammo unda yolg‘onchilik bo‘lishi mumkin emas», degan so‘zlari bunga dalildir. Yolg‘onchilik Qur’onda ham, hadisda ham eng yomon illat, katta gunoh sifatida qoralanadi.

Islom Arabiston yarim orolidan chiqib boshqa mamlakat va xalqlar orasida tarqalishi bilan axloq normalarining ham o‘ziga yarasha rivojlanish jarayoni yuz berdi. Islomning asosiy axloq normalariga kirmay qolgan jihatlar «mustahab» («ulamolar huzurida yaxshi ko‘rilgan») amallar sifatida «ilova» qilindi.

Turli dinlardagi axloq normalari orasida asosan bir-biriga o‘xhash jihatlar ko‘proq bo‘lsa-da, ular orasida ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Masalan, islomda oila qurmoy «bo‘ydoq, beva» yurish qoralanib, oilasidan biron sababga ko‘ra ajralgan kishi yangi oila qurishga targ‘ib etilsa, xristianlikda ikkinchi oila qurish gunoh hisoblanib, hattoki xiyonat darajasiga ko‘tarilgan.


Nafaqat boshqa-boshqa dinlar orasida, balki bir din ichidagi turli oqim va mazhablardagi axloq normalari orasida har xilik borligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday har xillikka sabab turli xalqlarning biron dinni qabul qilishlarida o‘z milliy urf-odat, qadriyatlar, axloq normalarini diniylashtirishga bo‘lgan intilishlaridir.

**2. Dinlardagi mushtarak axloqiy normalar.** Shubhasiz, qadimdan har qaysi ota-onan uchun o‘z bolasining sog‘lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli, bir so‘z bilan aytganda, hayotda munosib o‘rin egallashiga erishish – eng ulug‘, eng muqaddas orzu bo‘lib kelgan. Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov

«Biz sog‘lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham sog‘lom bolani tasavvur etamiz» deb ta’kidlaganidek, yosh avlodni hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun ham jismoniy, ham intellektual, ham ma’naviy yetuklik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, sog‘lom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat va barkamol bo‘lib o‘sib-ulq‘ayishi ko‘pgina talab, omil va mezon-larga bog‘liq. Ayni mezonlardan biri sanaluvchi ta’lim-tarbiya esa inson ongini shakllantirish, uning dunyoqarashi, e’tiqodi, hayotga bo‘lgan munosabatini tarkib toptirishda birlamchi o‘rin tutadi.

*Tarbiya – inson shaxsini shakllantirish yo‘lida maqsadli ravishda tashkil etilgan pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Tarbiya – har qanday jamiyatning muhim vazifasi, shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko‘rsatish harakatidir.*

O‘z navbatida, tarbiya ham o‘ziga xos komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning orasida diniy-ma’naviy qadriyatlar tizimi yuqori mavqega ega. Agar dunyo dinlariga oid ma’lumotlar bilan tanishib chiqsak, barcha diniy ta’limotlar doirasida farzand tarbiyasi bobি uchrashiga guvoh bo‘lamiz.



Albatta, bu bo'yicha uslub, prinsip va munosabat turlichalbo'lsa-da, pirovardida bir narsa – e'tiqodi mustahkam, sadoqatli va jamiyat hayotiga mas'uliyatl shaxsni tarbiyalash ko'zlanganligini kuzatish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, dunyo dinlari tarkibida vujudga kelishi jihatidan uzoq tarix va murakkab diniytizimga ega – yahudiylilik, xristianlik va islom dinlarida bu masala yuzasidan maxsus tavsiya va ko'rsatmalar mavjud.

Samoviy dinlar orasida tarixiy yuzaga kelish jihatidan birinchisi sanaluvchi yahudiylilik dinida nikoh va oila masalalariga katta e'tibor berilib, u bajarilishi lozim va ilohiy ko'rsatmalar bilan tasdiqlangan diniy normalardan biri hisoblanadi. Yahudiylilik dinining muqaddas manbayi Tavrotda bu masala yuzasidan tushgan bir necha oyatlarni uchratish mumkin. Jumladan, «...Barakali bo'lib, ko'paying-lar...» (Ibtido, 1:28) oyatini yahudiylilik ruhoniyatlari (ravvin) talqin qilişlilaricha, Tavrotning mazkur ko'rsatmasiga binoan oilada eng kamida ikki farzand, xususan, bir o'g'il va qiz dunyoga kelgandagina to'liq amal qilingan sanaladi. Agar er-xotin tibbiy jihatdan farzand ko'rishlikka salohiyatl bo'lmasalar, ular bola saqlab olishga chaqiriladilar. Yahudiylilikka ko'ra, milliy mentalitetni shakllanishi asosida – bola tug'ilganidan boshlab, balog'at yoshiga yetgunga qadar diniy qadriyatlarga nisbatan sadoqat ruhida tarbiyalash yotadi.

*Bu tarzdagi tarbiyaning amaliy ifodasi sifatida chaqaloq tug'ilganining 8-kuni o'tkaziladigan xatna marosimi, bola gapirishni boshlagach, unga Shema – Tavrotdan olingan qisqacha lavhalar o'rgatilishi, besh yoshdan boshlab, sinagogada tashkil qilinadigan diniy sinfga qatnashishi, o'g'il va qiz bolalarni balog'at yoshiga to'lishi munosabati bilan tashkil qilinadigan ma'naviy-axloqiy tadbir-larni keltirish mumkin. Bu tadbirlar maxsus tayyorgarlik va nazorat asosida bo'lib o'tadi hamda ular vositasida xudo yagona ekanligini unutmaslik, Uni chin ko'ngildan, butun vujud va qudrat bilan sevishlik, barcha ne'matlar xudo tomonidan berilishini yodda saqlash o'rgatiladi. Shuningdek, yahudiylarga xos ro'zg'or sirlari haqida bolalarga ta'lim berishlikka alohida e'tibor qaratiladi.*

Xristianlar uchun esa nikoh va oilaviy munosabatlar majoziy ma'noda xudoning tashqi ko'rinishini ifodalovchi marosimlardan biri bo'lishi bilan birlgilikda, Iso Masihga nisbatan muhabbatni qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi sirli (тайнство) hodisa hisoblanadi. Chunki, Injil ko'rsatmalariga ko'ra, «er-xotin Masih tanasining a'zolaridir» (Injil. Efesliklarga maktub, 6:22-30) hamda inson hech qachon o'z tanasini yomon ko'rmaganidek, er-xotin ham bir-biriga muhabbat asosida munosabatda bo'lib, Iso Masihga nisbatan yuksak muhabbat va hurmatini izhor qilishi kerak.

*Xristianlikka binoan, oilalar cherkov xizmatidagi xodimlar deb baholanadi. Shu tufayli oila vakillari xristiancha turmush tarzini targ'ib qilish, unga rioya qilish va undan faxrlanishga chaqiriladi. Qolaversa, xristian oila vakili o'z saxovati va axloqi orqali muqaddas Xushxabarga sadoqat ko'rsatishga mas'uldir. Oilada er-xotinning o'zaro muhabbati hamda farzandlarning odobli bo'lishi Muqaddas Xushxabarning tashviqoti va unga nisbatan iftixor ramzi sanaladi. Shuningdek, ota-onalar farzandlarini xudoni ulug'lashga, hayot musibatlari sababini to'g'ri tushunishga, o'zgalar, ayniqsa, zaif va qariyalarga ehtirom ko'rsatishga o'rgatish orqali xristian turmush tarzini namoyon etgan bo'ladilar.*

Xristian oila a'zosi insonlarga (qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'i nazar) ko'mak va hurmat ko'rsatishni ifodalovchi ijtimoiy tadbirlarda faol bo'lishga buyuriladi. Xususan, oila vakillari jamiyatdagi keksalar, yosh bolalar, jismonan ojiz va moliyaviy nochor kimsalarga ijtimoiy va iqtisodiy madad berishga mas'ul sanaladi. Bu borada, farzandlar yoshligidanoq ijtimoiy faol va jamiyat a'zolariga e'tiborli bo'lishni o'zlashtirishida ota-onaning javobgarligi yuqoridir.

*Xristian ota-onaning bosh vazifasi va majburiyati o'z farzandini e'tiqodli qilib tarbiyalashdir. O'z shaxsiy namunasi hamda muqaddas*

*Xushxabar nasihatlari orqali, ota-onada yoshligidanoq farzandiga ezgu fazilatlar, mas'uliyatlilik haqida ta'lif beradi. Diniy ta'limga ko'ra, ota-onada zimmasiga farzand tarbiyasi bo'yicha uch shartga amal qilish yuklanadi. Birinchi, bolaga ezgu axloqlarni o'rgatish, bu bilan bolada yaxshi va yomon o'rtasini farqlay olish qobiliyatini shakllantirish ko'zda tutiladi. Ikkinci, bolada dindorlik hissini tug'dirish, bu orqali unda shaxsiy va ijtimoiy sifatlar rivojlanishi maqsad qilinadi. Uchinchi, farzandni xudoning bolasi sifatida hurmatlash talab qilinadi, mazkur hurmatni esa farzandining ruhiy va jismoniy ehtiyojlarini qondirishda fidokorlik ko'rsatish bilan ifodalash kerak bo'ladi.*

Islom dinida ham nikoh va oila munosabatlariga alohida e'tibor qaratilib, Qur'oni karim oyatlari va Muhammad payg'ambar (a.s.) hadislari orqali musulmonlar turmush qurishlikka targ'ib qilinadilar. Shu bilan birga, ular qonuniy nikoh vositasida tug'iladigan farzand sababidan inson naslining davomiyligini ta'minlagan, qolaversa, farzandni go'zal axloqli qilib tarbiyalash bilan Yer yuzini obod bo'lishiga hissa qo'shgan hisoblanadilar.

Shu nuqtayi nazardan, o'tmishda o'tgan solih kishilar odobning yuksak ahamiyatini chuqur anglab yetib, farzandlari tarbiyasiga jiddiy e'tibor berishgan.

*Payg'ambar sahabalaridan Abdulloh ibn Umar (r.a.) har bir ota-onaga tarbiyada tenglik va o'zaro hurmat muhim o'rinn tutishini uqtirib, quyidagilarni aytadi: «Farzandingizga ta'lif bering, chunki siz uning ilmli va odobli bo'lishi uchun mas'ulsiz, shundagina siz undan hurmat va itoatni talab qilsangiz bo'ladi».*

Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning ko'plab · hadislari da farzandga shaxsiy, tozalik va ijtimoiy odoblarni o'rgatishlikka qattiq targ'ib qilinadi. Ayniqsa, mazkur mavzuga oid hadislardan birida kishi farzandini go'zal odobga odatlantirishi haqdor kimsani taomlantirishdan ko'ra afzal ekanligi ta'kidlanadi. Bosh-

qa bir hadisda Payg‘ambar (s.a.v.) marhamat qilishicha, kishi o‘z farzandiga chiroyli odobdan ko‘ra afzalroq hadya taqdim qila olmaydi.

*Shu tufayli Ali al-Madaniy aytadi: «Farzandga odobni meros qilib goldirish moddiy buyumni meros goldirishdan afzalroqdir. Chunki odob unga mablag‘, yuqori martaba, insonlarning muhabbatи, dunyo va oxirat yaxshiligidagi erishishi uchun yordam beradi».*

Muhammad Nur Suvayd Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) hadislari va o‘tgan solih insonlar o‘gitlarida qattiq urg‘u berilgan, bolalarga ta’lim berish lozim bo‘lgan fazilatlar, umumlashgan holatda, to‘qqiz turga bo‘linishini ta’kidlaydi: 1. Ota-onaga chiroyli munosabatda bo‘lish. 2. Olimlarga go‘zal muomalada bo‘lish. 3. Katta-kichikka hurmat va ehtirom ko‘rsatish. 4. Musulmon birodariga chiroyli munosabatda bo‘lish. 5. Qo‘sningchilik odobi. 6. Ruxsat so‘rash odobi. 7. Ovqatlanish odobi. 8. Kiynish odobi. 9. Qur‘oni karim va uning tilovatiga hurmat ko‘rsatish.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya o‘zagini tashkil qiluvchi diniy qadriyatlar doirasida vatanparvarlik, mehr-shafqat, mehnat-sevarlik, bag‘rikenglik, oilaparvarlik kabi fazilatlar yuksak qadrlanadi. Xususan, samoviy dirlar ta’limoti bo‘yicha milliy ruhiyatni shakllantirish, jamiyatda umuminsoniy va xalqchil g‘oyalardan iborat mafkurani qaror toptirish hamda urf-odat va an‘analarning barhayotligini ta’minalash uchun yuqoridagi singari fazilatlar muhim o‘rin tutadi.

**3. Din va axloq o‘rtasidagi munosabatlar inqirozi oqibatlari.**  
O‘tgan asrning so‘nggi choragi va XXI. asrning dastlabki yillarda G‘arbdagi yetakchi davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ilmiy texnologik taraqqiyot borasida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, bu natijalarni shubha ostiga olayotgan, hatto g‘arbona tamaddunning madaniy va ma’naviy-axloqiy jihatdan yemirilib borayotganini asoslashga urinayotgan turli konsepsiylar paydo bo‘ldi. Sirasini aytganda, bunday yondashuvning ilk kur-

taklari hayot falsafasi ta'limotining asoschilaridan biri, nemis faylasufi Otto Shpenglerning «Ovruponing so'nishi» (1922), Yerix Frommning «Erkinlikdan qochish» (1941), «Xomxayollar qurshovida» (1962), «Umidlar inqilobi» (1968), Daniel Bellning «Masfuraning yemirilishi» (1960) kabi asarlaridayoq namoyon bo'la boshlagan edi. Shunisi e'tiborliki, rivojlangan G'arb mamlakatlari taraqqiyotning yangi — postindustrial bosqichiga ko'tarilishi bilan bunday intilishlar so'nish o'rniغا yanada avj oldi. Bu davrda taniqli ingliz olimi Arnold Toynbining «Tamaddun — tarix hukmi oldida», Fridrix Xayekning «Qullik sari yo'l» (1989), Frensis Fukuyamaning «Tarix intihosi» (1985), «Tarix intihosi va so'nggi odam» (2004), Jak Barzumning «Yorug'likdan zulmat sari: G'arb madaniy hayotining 500 yillik tarixi» (2000) va boshqa ko'plab asarlar birin-ketin chop etildi. Ular orasida Richard Nikson va Ronald Reyganning sobiq yordamchisi, amerikalik taniqli faylasuf, jurnalist va siyosiy sharhlovchi Patrik Byukenenning «G'arbning halokati» (2002) asari alohida o'rin tutadi. Asarda muallif, statistik va sotsiologik ma'lumotlar hamda ko'plab taniqli olim-mutaxassislarning fikr-mulohazalariiga tayangan holda G'arb tamadduni asoslariga tahdid solayotgan quyidagi xavf-xatarlarga e'tibor qaratadi:

Birinchisi — demografik omil, ya'ni G'arb mamlakatlarida tug'ilish darajasining keskin pasayishi. Bu haqda Byukenen quydagilarni yozadi: «G'arb tom ma'noda «o'imqda»: deyarli barcha G'arb mamlakatlari aholisi aql bovar qilmas darajada kamayib bormoqda. O'n to'rtinchi asrda Yevropa aholisining uchdan bir qismini qirib yuborgan «qora o'lat» epidemiyasidan buyon G'arb sivilizatsiyasi hali bu qadar xatarli tahdidiga duch kelmagan. Bu ofat butun G'arb tamaddunini qirib yuborishi hech gap emas.

*Hozirgi vaqtida Yevropa mamlakatlaridan o'n yettetasida (Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Litva, Portugaliya, Rossiya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya, Estoniya) o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan ko'ra*

*ancha yuqorilab ketgan, ya'ni bu davlatlarda belanchakdan ko'ra tobutga ehtiyoj ko'proq. Ta'bir joiz bo'lsa, katoliklar, protestantlar, pravoslavljar – barcha-barchasi G'arb tamaddunini «ko'mish marosim»ida ishtirok etmoqda».*

Ikkinchı – G‘arbning madaniy yaxlitligiga zarba berayotgan turli irq, e’tiqod va madaniyatga mansub kishilarning ommaviy muhojirligi. Ma’lumotlarga ko’ra, birgina Kaliforniya shtatidagi muhojirlarning soni (8,4 million kishi) butun boshli Janubiy Kaliforniya shtati aholisidan ko’p ekani aniqlangan.

Uchinchi – davlatlarning parchalanishi va hokimiyatning milliy hukumatdan «dunyo hukumati» deb ataladigan jahon miq-yosidagi hukmron kuchga bosqichma-bosqich topshirilishi.

To‘rtinchi – nasroniy din va axloqqa zid bo‘lgan g‘oya va qarashlarning singdirilishi oqibatida azaliy qadriyat, urf-odat va an’analarning yemirilishi.

Ma’lumki, G‘arb mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuksak cho‘qqilariga ko‘tarilishida nasroniy qadriyat, urf-odat va an’analar, diniy axloqning ahamiyati beqiyos bo‘lgan. Aniqroq aytganda, nasroniylik G‘arb tamaddunini vujudga keltirgan, uning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tuzumining g‘oyaviy-maf-kuraviy negizlari, milliy-etnik ongning ma’no-mazmunini belgilab bergen yetakchi omil sifatida xizmat qilib kelgan. Ammo o‘tgan asrning so‘nggi choragi va XXI asrning boshlarida aksariyat rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy, ma’naviy-madaniy hayotida yuz berayotgan salbiy o‘zgarishlar, chunonchi, azaliy nasroniy qadriyat va axloqqa zid qarashlar paydo bo‘layotgani hamda jamiyat hayotiga izchil joriy etilayotgani G‘arbdagi ko‘plab mutaxassislarni tashvishlantirmoqda.

*Jumladan, tarixchi Jon Nelson Blek bunday deb yozadi: «Insoniyat tarixiy taraqqiyotining qaysi davriga nazar tashlamang, diniy e’tiqod har qanday buyuk davlatning poydevori sifatida xizmat qilib kelganiga guvoh bo‘lasiz. Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika yoxud*

*Janubiy va Markaziy Amerika tamaddunlari bo'ladimi – ularning barchasida bir xil jarayonni kuzatish mumkin: tamaddunlar din negizida vujudga kelgan va, aksincha, qandaydir sabablar tufayli an'anaviy e'tiqodning jamiyat hayotiga ta'siri susaygan yoxud undan butunlay voz kechilgan hollarda millatlar, xalqlar va davlatlar tanazzulga yuz tutgan».*

Hozirgi vaqtda nasroniylik, azaliy qadriyat va an'analar ta'lim maskanlaridan quvg'in etilayotganini ta'kidlab, Byukenen madaniy inqilobchilarining 1973-yili nashr qilingan va keng targ'ib etilayotgan g'oyaviy-mafkuraviy manbalaridan biri – «Gumanitar manifest»dan olingen ayrim iqtiboslarni kitobxon e'tiboriga havola etadi. Mana ulardan ayrimlari: «Ibodat qilayotgan odamning Yaratganga e'tiqodi – isbotlab bo'lmaydigan eskilik sarqitidir... An'anaviy axloq bugungi kun talablariga javob bermay qoldi... O'limdan keyin jannatga tushish yoxud jahannam azoblariga duchor bo'lish haqidagi aqida nafaqat mavhum, balki inson ruhiyati uchun o'ta xatarlidir...» va hokazo. Byukenenning fikricha, bunday qarashlarni targ'ib etayotgan, nasroniylikni hatto maktab bo'sag'asiga ham yo'latmayotgan madaniy inqilobchilarining sa'y-harakati bilan yosh avlod qalbi va ongiga g'ayrinasroniy g'oyalar singdirilmoqda. Buning oqibatida G'arb mamlakatlarida «ommaviy madaniyat» tushunchasi yuzaga keldi. «Ommaviy madaniyat» G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Garchi «madaniyat». deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-mohiyatiga, niyat-maqsadiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir.

*«Ommaviy madaniyat» ko'pdan ko'p shakllarda o'zini namoyon etadi. Kitch (zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'limgan narssa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish), komiks (tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa – rasm mahsulotlari), starizm (subyektiv ehtiroslarga berilgan holda estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktordirollarni ilohiylashtirish), xeppining (av-*

*valdan rejalaştirilmagan, nogahonda uyushtiriladigan «keskin» tomoshalar, masalan, royal, pianino yoki avtomobilarni urib abjag‘ini chiqarish yoxud o‘t qo‘yib vahshiyona, ommaviy «ko‘ngil ochish»larni o‘tkazish) «ommaviy madaniyat»ning ayrim ko‘rinishlaridir.*

Amerika madaniy elitasi ajralishlar, abort va nasroniy qadriyatlarning yemirilishini erkinlik sari taraqqiyotning o‘ziga xos muhim bosqichlari sifatida talqin etayotganini ta’kidlab, Byukenen bunday deb yozadi: «Ma’naviyat va axloqning mohiyati xususida yakdillikka erisha olmas ekanmiz, u holda qanday qilib ma’naviyati yuksak jamiyatni barpo etishimiz mumkin? Nahotki yurtimiz taqdiriga befarq bo‘lmagan kishilar madaniy inqilobchilarining butun sa’y-harakati odamlarni iymon-e’tiqodidan qaytarish, Yaratgandan yuz o‘girish va ularning ongiga «turmush tarzining barcha shakllari teng huquqlidir» qabilidagi g‘arazli g‘oya va qarashlarni singdirishga yo‘naltirilganini payqamayotgan bo‘lsa?!»

Beshinchisi – oila instituti inqirozi. O‘tgan asrning 60-yillarida G‘arb mamlakatlarida sodir bo‘lgan madaniy inqilob er, xotin va bolalarni oilaviy vazifalar, burch va mas’uliyatdan ozod etib, oilaga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni yo‘qqa chiqardi. Bu hol oilaning ijtimoiy institut sifatida yemirilishiga sabab bo‘ldi. Byukenenning yozishicha, «hukmronlikni qo‘lga olgan ommaviy madaniyat kecha-yu kunduz azaliy nasroniy qadriyatlarimizni kam-sitib, hatto ayolning eri va bolalari bo‘lishi tabiiy hayotiy ehtiyoj ekani haqidagi tasavvurlar ustidan kulib keldi. Bugungi kunda jamiyatimizda ayolni onalik vazifasidan butkul mahrum etishga intilayotgan kuchlar paydo bo‘ldi... 1950-yili olti yoshli bolasisi bor ayollarning 84 foizi uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullangan va yana homilador bo‘lishga imkon topgan. Bugun esa, aksincha, bunday ayollar ofislarda to‘liq ish kuni tartibida ishlab, farzandli bo‘lishni hatto «xayoliga ham keltirayotgani yo‘q».

Bunday vaziyatning vujudga kelishida o‘tgan asrning boshlarida aksariyat G‘arb mamlakatlarida shakllangan va bugungi kun-

ga kelib g‘oyat kuchli ijtimoiy harakatga aylangan feminismning «xizmati» katta bo‘lgan. Masalan, ashaddiy feminist ayollardan biri Sh.Kronin «Juish Uorld Revyu» jurnalining 2000-yil fevral sonida chop etilgan maqolasida oila-nikoh masalasi haqida to‘xtalib, bunday deb yozadi: «Nikoh bu – qullikning bir shaklidir. Shunday ekan, ayollar harakati ana shu institutga qarshi yo‘naltirilishi zarur. Negaki, nikoh barham topmagan jamiyatda ayollarning ozod etilishiga umid qilish xomxayoldir».

AQSHda qamalganlarning yarmidan ko‘pi buzilgan oilalar farzandlari ekani, ota-onasini ajrashgani tufayli yetkazilgan kuchli ruhiy zarba erkak va ayollarga o‘rtta yosh, hatto keksalik chog‘ida ham salbiy ta’sir o‘tkazib turishi aniqlangan.

Yevropaliklarda «erlar ayollar uchun birinchi bo‘lishni, ayolar esa erkaklar uchun so‘nggisi bo‘lishni orzu qiladilar», degan gap bor. Buning ma’nosи er uylanmoqchi bo‘lgan qizning avval boshqa erkak bilan bo‘Imaganini orzu qiladi. Agar zinoga aralashgan bo‘lsa, farqi yo‘q, bu yog‘iga to‘g‘ri yursa bas. Xotin esa «erim mengacha yurgan bo‘lsa yurgandir, endi yurmasin», deb orzu qilishidir. Bu tushuncha turli madaniyatlarda har xil qabul qilinadi.

Hozirgi kunda G‘arb mamlakatlarida oilaga munosabat yomon tomonga o‘zgarib ketganligini yuqorida ko‘p bor ta’kidlab o‘tdik. Holbuki, avvalgi zamонлarda ularda ham oila muqaddas, deb hisoblanardi. Ammo oilaga «erkinlik» martabasini berilishi jamiyatni ham bora-bora izdan chiqardi. Misol uchun, bugun G‘arbda quyidagicha oila bobidagi buzilishlarni uchratish mumkin:

1. Bir jinsdan iborat «oila» instituti tuzilishiga qonun doirasiда yo‘l ochib qo‘yilganligi.

2. Oila qurmay yolg‘iz yashashga intilish kuchliligi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu borada ham amerikaliklar peshqadam ekanlar.

3. Xotin erni yoqtirmay qolgani uchun uni tashlab ketishi.

Xullas, oila-nikoh munosabatlarining inqirozi g‘arbona tur mush tarzining azaliy nasroniy qadriyatlari sanalgan fidoyilik, mehribonlik, sadoqat, imon-e’tiqod kabi fazilatlarning faqat

shaxs manfaatlarining qondirilishiga qaratilgan individualistik qarashlar tomonidan siqib chiqarilgani bilan izohlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, G‘arbning taqdiri bugun ko‘p jihatdan ayollarga bog‘liq bo‘lib qoldi.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Dunyo dinlaridagi axloqiy qadriyatlar bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni sanab o‘ting.
2. Oila borasida diniy qarashlar mavzusiga to‘xtalib o‘ting.
3. Din va axloq o‘rtasidagi munosabatlar inqirozi oqibatlari-  
ga baho bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2016.
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. – T.: «Hilol» nashriyoti, 2013.


### Reja:

1. Islomdan avvalgi davrdagi mistik oqimlar.
2. Islomning ilk davridagi zohidlik.
3. Tasavvufning kelib chiqishi va taraqqiy etishi.



**Tayanch tushunchalar:** mistitsizm, so‘fiylik, «hikmat», «qalblar va fikrlar ilmi», Hasan Basriy, Raboh ibn Amr, Robia al-Adaviy, ma’naviy ideal, ezoterik, tariqat.

**Mavzu o‘quv maqsadi:** talabalarda islomdan avvalgi davrdagi mistik oqimlar, islomning ilk davridagi zohidlik, tasavvufning kelib chiqishi va taraqqiy etishi haqida tasavvur va tushuncha hosil qilish.



**1. Islomdan avvalgi davrdagi mistik oqimlar.** Mistitsizm, mistika so‘zлari qadimi yunon tilidagi mistikos – yashirin, sirli ma’no-laridagi so‘zдан olingan bo‘lib, ilohiyot bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta’limot. Bu ta’limot insonning xudo bilan aql va hissiyotdan yuqori bo‘lgan sirli aloqasi bo‘lib, uning natijasida insonda xudoni bi-

lish hosil bo‘ladi. Qadimi Sharq va Yunon dinlarida ham insonni g‘ayritabiiy kuchlar bilan bog‘laydigan urf-odatlar (misteriyalar) – mistitsizm unsurlari bor edi. Yakkaxudolik dinlarining barchasida mistitsizm unsurlari mavjud. Hayotning barcha sohalariga diniy e’tiqod tegishli bo‘lgan o‘rta asrlarda uning roli katta bo‘ldi.


Xristianlikda mistitsizmning ikki yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ular ortodoksal cherkov mistitsizmi va yeterik mistitsizm edi. Bi-

rinchisiga ko'ra inson butunlay xudoning hukmiga bo'ysungan bo'lib, uning xohishiga qarab unga yetishishi mumkin hisoblansa, ikkinchisining ta'lomitiga ko'ra inson o'z harakatlari bilan ham xudoga yetishishi mumkin deyilgan.

So'fiylik — islomdagি mistikasketik oqim hisoblangan. So'fiy yoki mutasavvif so'zlarining kelib chiqishi haqida turlichа fikrlar mavjud. So'fiy mualliflari ko'pincha uning kelib chiqishini «sof bo'lmoq» o'zagidan yoki «ahl assuffa»ga tegishli deb ta'kidlaydilar. G'arbiy Yevropa tadqiqotchilari to XX asrga qadar uning kelib chiqishini yunoncha σοφία — «hikmat» so'zidan kelib chiqqan degan fikrga moyil bo'lishgan. Endilikda o'rta asr

musulmon olimlari ta'kidlagan bu so'zning «so'f» (jun) so'zidan kelib chiqqanligi haqidagi fikrlari umum qabul qilingan fikr hisoblanadi. Chunki so'fiylarning asosiy belgilari ularning dag'al jundan kiyim kiyishlari edi. Shimoliy Arabiston va Suriyada xristianlikning turli sektalariga mansub jahongashta monax va anaxoretlarni so'fiy deb atalar edi, degan ma'lumotlar ham bor.

**So'fiylikning paydo bo'lishi va shakllanishi.** Tasavvufga asos bo'lgan tarkidunyochilik kayfiyatları deyarli islom bilan bir davrda yuzaga keldi. So'fiylikning ilk namoyondalari deb Payg'ambar (s.a.v.)ning Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalari hisoblanadi. Ammo islomdagи mistik-asketik oqimning shakllanishi VIII asrning o'rtalari IX asrning boshlariga tegishli. Bu davrda so'fiylar qatoriga muhadislar, qorilar, qussoslar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qat-



So'fiylikning ilk namoyondalari sifatida Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Abu Dardo, Abu Zarr Huzayfa kabi sahobalari hisoblanadi

nashgan jangchilar, kosiblar, tijoratchilar, shu jumladan islomni qabul qilgan xristianlar kirganlar. Bu davrda so‘fiy yoki tasavvuf terminlari hali keng tarqalmagan edi: uning o‘rniga zuhd (tarkidunyochilik) yoki zohid, obid so‘zlari ishlatilar edi. Islomdagi bu mistikasketik oqimning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishiga musulmon jamiyatidagi birinchi ikki asr davomidagi siyosiy ijtimoiy beqarorlik, diniy hayotning murakkabligi, uning natijasida kelib chiqqan ma’naviy g‘oyaviy izlanish va boshqa dinlarning,

xususan xristianlikning ta’sirini ko‘rsatish mumkin.

Ilk davr so‘fiylarining, aniqrog‘i zohid va obidlari ning o‘ziga xos xususiyatlari dan – Qur‘oni Karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qur‘on va Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatlariga qat’iy amal qilish, kechalarini nafl ibodatlar bilan bedor o‘tkazish, kun-

### Zikr majlisidagi sufiy jamoasi

duzlari ro‘za tutish, hayot lazzatlaridan voz kechish, gunohdan saqlanish, hokim va harbiylardan o‘zini uzoq tutish, halol va hamor orasini juda uzoq tutish (vara’), o‘zini Alloh ixtiyoriga topshirish (tavakkul) va hokazolarni ta’kidlash mumkin. Jumladan, faqr, rizo, sabr xususiyatlari ularga xos edi.

So‘fiylik ta’limotlari mo‘taziliylardagi mavhum ilohiyotga oid fikrlar, obro‘li shaxslarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish, muqaddas matnlarga so‘zma-so‘z itoat etishdan farqli o‘laroq, insonga asosiy obyekt sifatida qaraydi: insonning amallarini boshqaradigan ruhoniyatining mayda qirralarini ham chuqur tahlil qilish, shaxsiy kechinmalarga e’tibor bilan qarash va diniy haqiqatlarni chuqur his qilish ularga xos xususiyatlardan edi. Shuning uchun ham ziyrak psixolog, «ilm al-qulub val-xavotir» – «qalblar va fikrlar ilmi»ga asos solgan al-Hasan al-Basriy bekorga so‘fiylikning asoschilaridan hisoblanadi.



Al-Hasan al-Basriyning ashoblari, basralik zohidlar – Raboh ibn Amr, Rabia al-Adaviy, ad-Doroniylarning (VIII–IX asrlar) va’z va ma’ruzalarida Allohga bo’lgan sof muhabbat, unga yaqinlashishga bo’lgan intilish haqidagi fikrlar paydo bo’ldi.

O’sha davrdan boshlab ular so‘fiylikka aniq mistik xarakter bag‘ishlab, so‘fiylik mafkurasining o‘ziga xos xususiyatiga aylandi.


*IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg‘in harakatlar davom etdi. Basra bilan bir qatorda Bag‘dod va Xuroson so‘fiylik maktablari eng nufuzli maktablar sifatida yuzaga keldi. Ularning namoyondalari avvalgidek so‘fiyning ichki dunyosiga asosiy e’tiborni qaratar edilar. Ularning «ahvol», «maqomot»lariga batafsil tavsiflar berdilar. Boshqa mistik ta’limotlar kabi unga so‘fiy bosib o’tganida «dunyo gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishiga sabab bo‘ladigan yo‘l (tariq) sifatida qaradilar. «Niyatlar» haqidagi ta’limot yanada chuqurlashdirildi. Bunda o‘z-o‘zini nazorat (muroqaba, muhosaba) qilishga erishish uchun uning «ixlos» va «sadoqat» bilan bo‘lishiga asosiy urg‘uni berdilar. Bag‘dodlik ilohiyotchi al-Muhosibiy tomonidan shakllantirilgan bunday ta’limotning Xurosonda ko‘plab tarafдорлари topildi va ularni «malomatiylar» deb atadilar.*

Tasavvufda Allohga yetishish faqatgina yuzini ko‘rish bilan emas, unga qo‘silib ketish (fano/baqa) bilan bo‘lishi ham mumkin degan fikr ilgari surildi. Mansur al-Xalloj, ibn ‘Ato, ‘Ayn al-Qudot al-Hamadoniy kabi kishilarning qatl etilishi boshqa so‘fiylarni hushyorlikka chaqirdi.

**2. Mistik qatlama ma’naviy ideal va o‘zlikni bilish muammo-sining yechilishi.** Diniy dunyoqarashning naqliy qatlami mazmuni, yuqorida ko‘rganimizdek, diniy madaniyat uchun poydevoriy ahamiyatga ega bo‘lgan, Najmiddin Kubro «shattorlar» deb atagan kishilarning diniy tajribalarida erishiladigan oliy ruhiy mazmun, ya’ni oliy g‘oyalar va eng sof ezgu tuyg‘ular birligi tashkil etadi. Bu ruhiy mazmunning o‘zagini esa payg‘ambar-

lar eng oliv substansiyadan (xudodan, mutlaqiyatdan, eng oliv ezgulikdan) bevosita yoki bilvosita (farishtalar vositasida) subyektiv ravishda, ya'ni o'z chuqur ichki kechinmalarida («jazba» holatida) qabul qilib oladigan vahiyalar mazmuni tashkil etadi. Bu ruhiy mazmun chuqur ichki («ezo») kechinmalar bilan uzviy ekan-i nazarda tutilib, falsafada ezoterik, ya'ni ichki bilim deyildi. Ushbu mazmunning o'ziga xosligini talqin etish uchun yana intuitsiya, irratsionallik, mistika, mifologiya, mo'jizaviy nurlanish (yorishuv), transsendensiya, vahiy, hol, ekstaz va h.k. tushunchalari ham ishlataladi.

Eng oliv substansiyadan (xudo) qabul qilib olinadigan bunday ruhiy mazmun, ya'ni oliv g'oyalar va tuyg'ular oddiy tafakkur, ayniqsa sezgilar va empirik tajribalar vositasida hosil qiladigan obyektiv bilimga nisbatan behad yuksakligi va sirliligi (mistika, mo'jizaviyligi) va oddiy mantiq tilida ifodalash mumkin emasligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda bu bilim din strukturasing mifologik (naqla yoki simvollarda ifodalanuvchi) mistik mag'zini tashkil etadi.



Ruhiy bilimning «jazba» holati bilan uzviyilagini nazarda tutgan so'fiylar esa «hol ilmi» deydilar. Ushbu bilimning sinkretik tabiatini, ya'ni borliqni ratsional tafakkurdagi kabi analitik emas, balki yaxlit birlikda qabullash bilan bog'liqligini nazarda tutib esa vahdat (birlik) yoki tavhid (birlashuv) ilmi ham deydilar. Bunda bilimning «diniy tajriba» natijasida xudo bilan birlashuv, ya'ni «jazba» («hol») holatida namoyon bo'lishi nazarda tutiladi.

Qodiriy tariqatiga ko'ra murid «Alloh» lafzini qalbiga jo qilishi lozim bo'ladi

Fransuz olimi A.Massening Qur'on suralari va hadislarni o'rganish asosida chiqargan xulosasiga ko'ra dinning

ezoterik qatlami aslida Odam Atodan, islom dinida esa Muham-mad (s.a.v.)dan boshlangandir. Qadimgi manbalardan ma'lum bo'lishicha aslida yagona dastlabki umumjahon Hikmati mavjud-dir va u eng qadimgi muqaddas kitoblar mazmunidan o'rinn olgan. Bular qatoriga Misrning «Germetik kitobi», Hindiston «Purana-lari», Xaldeyning «Sonlar kitobi» va h.k. bor. Aurobindo Gxosh-ning ko'rsatishicha, Vedalarning o'zagini ham yashirin, sirli ru-hiy mazmun tashkil etgan va Vedalarning o'zida bunga ko'plab ishoralar bor.

Bundan tashqari, ko'p ezoterik manbalarda ta'kidlanishicha, ezoterik bilim barcha dinlarning yagona umumiylasini tashkil etadi va payg'ambarlarga va mistiklarga ular qismiy, o'z davri va sharoitiga muvofiq ravishda nuzul etishi haqidagi g'oya oldinga suriladi. Masalan, fransuz ezoterik faylasufi va so'fiysi R.Genon-ning aytishicha, vahdat ilmi juda qadimiy bo'lib, uning g'oyalari asrlar osha avloddan avlodga uzatilib keladi. Shu ma'noda din-larning ichki, ezoterik asosida (siyratida, mohiyatida, ildizida) prinsipial farq yo'q, farq faqat ularning qaysi shariat, qaysi davr uchun nuzul etganida, ayniqsa ularning aqidalarida, dogmalari-da, ifodalanish shakllarida, rasm-rusumlarida, udum va maro-simlarida, ya'ni tashqi ko'rinishlari (suvratlari)da xolos.

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning «Men Ibrohim dinida-man», «Iso bilan men ota bir ona boshqa birodarlarmiz» kabi hadislari ayni shunday g'oyalarni asoslash uchun yetarlidir. Bu hadislар barcha dinlarning ezoterik o'zagi tolerant xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda mazkur hadislар va Qur'oni ka-rim «Moida» surasining «Bugun sizlarning diningizni komil qil-dim, ne'matimni benuqson, to'kis qilib berdim va sizlar uchun Islomni din qilib tanladim» degan 3-oyati esa, o'z navbatida, mazkur tolerantlik, ayniqsa islom diniga ko'proq xosligini va bu din barcha avvalgi dinlardan behad yuksakligini ham ko'rsatadi.

*Payg'ambarlardan keyin va ularidan oldin ezoterik mazmun ay-rim dinlarning mistik aspektlari sifatida ham, dinlardan mustaqil*


*ta'limotlar sifatida ham mayjud bo'lishi kuzatiladi. Birinchi holda u hinduizmدا – yoga, xristianlikda – gnostitsizm (*g'anusiyilik*), yahudiylikda germetizm (*Germes*, ya'ni payg'ambar Idris a.s. asos solgani nazarda tutiladi), islomda so'fizm shakllarida mayjud bo'lgani kuzatiladi. Boshqa manbalardan ma'lum bo'lishicha, Parmenid, Geraklit, Pifagor, Sugrot, Platon, neoplatonchilar ham ayni shu ilm vakillari bo'lganlar. Bu, masalan, Platonning «tug'ma g'oyalalar» haqidagi ta'limotida, neoplatonizmning «ilohiy haqiqat nurining inson qalbiga oqib tushishi» g'oyasida va boshqalarda o'z ifodasini topgan.*

Muayyan din bilan bog'langan ezoterik qatlama odatda payg'ambarlar atrofida ularning ko'rsatma va yo'l-yo'rqliaridan (sunnat) foydalanib o'zlarini komillikka yetkazish, o'zliklarini bilish orqali sirli ichki (ezoterik) «hol» ilmiga yetishadiganlar (shattorlar) mактабини ташкил этган. Masalan, «Qobusnoma»da payg'ambar Muhammad (s.a.v.) tiriklik chog'larida o'n ikki «ahli suffa» bilan zikr tushganlari, ular bilan Alloh haqida uzoq suhbatlar qurganlarining qayd etilgani, shuningdek, chiltonlar (qirq kishi) bilan raqsu samoh qilganlari haqidagi ma'lumotlar borligidan kelib chiqib tasavvur hosil qilish mumkinligini ilgariroq ham qayd etgan edik. Bu maktablar (tariqatlar) faoliyati payg'ambardan keyin ham mustaqil davom etgan. Ularda erishilgan bilimlarni ham payg'ambarlarga kelgan vahiy kabi oliy bilim sifatida dinning birinchi (asosiy) qatlamaiga, ya'ni naqliy qatlamaiga tegishli deb qarash, bizningcha, o'rinnlidir. Iso (a.s.)ning o'n ikki shogirdi haqidada ham shu fikrni aytish mumkin.

Demak, garchi ezoterik qatlarning muayyan din bilan uning muayyan bosqichi va davrida uzviy bog'liqligi bo'lsa hamki u dinning faqat bir shakli bilangina bog'lanib qolmaydi, ya'ni nisbiy mustaqillikka hamda boshqa dirlarning ayni shunday qatlamlari bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu so'fizm misolida ham namoyon bo'ladi. Bunda payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning yuqorida tilga olingan tolerant xarakteridagi g'oyalari ibrat bo'lgan deb qarash joiz. So'fiylikka, masalan, gnostitsizm, neoplatonizm,

monixeychilik, buddaviylik, hinduizm, zardushtiylik va b. diniy va falsafiy ta'limotlarning mistik g'oyalarining ta'siri qayd etilgan. Biz bu o'rinda o'zga xalqlar (dinlar) ma'naviy qadriyatlaridan ham bahramand bo'la oladigan xalqgina ruhan eng kuchli xalqdir, degan fikr ayni so'fiylik misolida yorqin tasdiqlanadi deb o'ylaymiz. Ayni paytda bilim o'zining eng yuksak cho'qqisida umumiyat, birlik kasb etadi va shu ma'noda biz bir ezoterik ta'limot ikkinchisini takrorlaydi yoki uning g'oyalarini o'ziga singdirib yo ko'chirib oladi, degan qarashlar to'g'ri emas deb hisoblaymiz.

Lekin tarixiy davrlarning o'ziga xosligi nuqtayi nazaridan yondashilsa, ko'hna manbalardan birida aytilgan «Hikmat ilmi Misorda shakllangan, falsafasi — Hindistonda, amaliyoti — Markaziy Osiyoda» degan qarashlarda ham asos bor deb hisoblaymiz. Zero agar amaliyot intuitsiyaning, ya'ni g'ayb ilmining mevasi ekani nazarda tutilsa va bu meva butun jahon ma'naviyati bilan oziqlana olishi haqidagi yuqorida xulosamizni ham hisobga olsak, u holda biz o'z Vatanimiz avliyolari bilan nechog'li faxrlanishimiz mumkinligi ko'rindi. Shuningdek, agar bu masalaga hozir eng yangi fan oldinga surayotgan «xalq genetik xotirasi» konsepsiysi nuqtayi nazaridan yondashsak, Vatanimizning kelajagi buyuk bo'lishi uchun katta asos borligi ham ko'rindi.



Tasavvuf ilmi shakllanishida Markaziy osiyolik ulamolar ham katta hissa qo'shgan

*Ezoterik ilm Misr kohinlaridan tortib to so'fizmga qadar iloji boricha sir saqlashga harakat qilib kelingan ilmdir. Shuning uchun u tasavvufda ilmi asror deb ham atalgan. Uning sirli ekani faqat tushunarsizligi tufayli emas, balki ataylab yashirin saqlanishida*

*hamdir. Keyingi hol «Go'shtni katta odamlar yeydi, chaqaloqlar esa sut ichishi kerak» qabilidagi qoidaga ham amal qilingani tufayli ekan-i tushuntiriladi. Ibrohim Haqqul ham shu fikrni yoqlarkan, «Imom G'azzoliy oddiy odamlarning tasavvuf ilmi bilan mashg'ul bo'lishlari zarar keltirishi haqida so'zlaganlar», — deydi.*

Lekin ezoterik ilmni sir saqlanishining uchinchi sababi ham bor. Bu sirni bilganlarni boshqa odamlar tushunmay, kufrda ayblashlari mumkinligidir. Bu esa o'z davrida juda xavfli va fojiaviy hol edi.

Ezoterik ilm sir saqlanganining yana bir to'rtinchi sababi bu uning individual, intim xarakterga ega ekanidadir. Agar bu ilmdan bizga biron qismi bayon etilsa, bilish kerakki, bu o'sha zotning buyuk saxovatidandir. Zero, bu ilm ko'p hollarda ayrim, «tanlangan» shaxsga, uning subyektiv, ichki kechinmasida va faqat unga tegishli tuhfa sifatida berilgan bo'ladi. «Tanlanganlik»ning ma'noasi shundaki, muayyan shaxsga muayyan davrda muayyan xabarni ommaga yetkazish uchun payg'ambarlik taqdir qilingan bo'lsa, boshqa shaxslar bunday bilim va martabaga o'zlarining katta riyozatlari natijasida o'zlikni tanish orqali tuyassar bo'ladilar.

O'zlikni tanishga da'vat esa kamida ikki ming yildan ortiq vaqtidan buyon mavjud. Insonning eng daxlsiz va asosiy huquqi ham, yashashdan maqsadi ham shunda. Hozirgi oqillikning eng katta fojiasi esa aslida shu o'zlikni bilishdan chetlashuvda. Ya'ni butun koinotni bilishga da'vo qilib chiqqan aqlning, o'zligini bilishga yetmayotganidadir. Vaholanki, o'zligini bilgan inson avvalo xudoni, ya'ni butun borliqning mohiyatini biladi. Mohiyatni bilgan inson esa hamma narsani biladi. Chunki, hamma hikmatlarda ko'rsatilishicha, inson butun borliqning modelidir (mikrokosmos). Shuning uchun atrof-olamni emas, o'zlikni o'rGANISHI zarur.

*Ezoterizmda o'zlikni topish yo'li, ilgariroq ham boshqa masalalar munosabati bilan to'xtalib o'tganimizday, ochiq ko'rsatilgan. Unda tushuntirilishicha, insonning tub mohiyati (uning asliy «Men»i) uning*

*olti qavat vujudi ichiga, xuddi yong'oq mag'zini o'rab turgan po'st-lar kabi yoki rus matreshkalari kabi qavat-qavat o'rab olingan (yetti qavat parda ichidagi sir deyish ham mumkin). Demak, shu matreshkalarni (pardalarni) eng tashqi, ustki, moddiy qavatidan boshlab navbat bilan olib tashlab borsak, eng oxirida mag'izni, mohiyatni, ya'ni tashqi ta'sirlardan sof bo'lgan o'zligimizni topamiz. Buni tasavvur etish uchun tasavvufda bu jarayon qanday amalga oshirilishi haqidagi ilgari ham aytganlarimizga tayanish kifoya.*

Birinchi eng qattiq po'st (yoki parda) bu moddiy vujudimiz, uning tashqi dunyo ta'sirlari bilan bog'liq ehtiyojlari. Ochko'zlik, hirs (shahvoniy xohish-istiklar), loqaydlik, dangasalik, jaholat, g'iybat, xusumat, kibr, hasad, xullas vujudimiz uchungina kerak bo'lgan intilishlarimiz (nafsi ammora). O'zlikka yetish uchun avvalo shu qattiq qobiq zindonidan qutulish kerak. Lekin, bunda gap uni jismonan yo'q qilish haqida ketmayapti, balki faqat uning eng zaruriy ehtiyojlarinigina qondirib, undan ortig'ini chegaralab qo'yish haqida ketyapti.

Ikkinchi po'stimiz o'z qiyinchiliklarimiz sababini birovdan ko'rish, murosasizlik, yolg'onchilik, tuhmatchilik, shuhratparastlik, amalparastlik, ta'magirlik, boshqalarga tanbeh nazari bilan qarash kabilardan tashkil topadi. (Bunday nafs tasavvufda yaltiroq nafs, ya'ni «nafsi lavvoma» deb atalgan edi.) Agar kishi shu nafs illatlaridan qutulsa, uning sof mohiyati ikkinchi qobiqdan ham xalos bo'ladi.

*O'zlikni bilishga olib boradigan yo'lning uchinchi bosqichida kishida taqdирга tan berish, sabr qilish, shukur qilish sifatlari («nafsi mutmaina») namoyon bo'ladi. Ya'ni bunda inson o'zining uchinchi, ya'ni taqdirdan qo'rqish, besabrlik, noshukurlik kabilardan tashkil topgan po'stidan ham xalos bo'ladi.*

To'rtinchi bosqichda saxovatpesha, shirinso'z, itoatgo'y, qanoatli, toat-ibodatli, sofdil inson namoyon bo'ladi. (Bu «nafsi

mulhama», ya’ni ilhomlangan nafs bosqichidir). Tasavvuf ta’limotida o‘z ruhiy taraqqiyotida ayni shu bosqichga yetgan inson xudoning sharofatiga sazovor bo‘ladi, deb hisoblanadi.

Shu bosqichga qadar kechgan jarayonni ontologik jihatdan ham tasavvur etish mumkin. Bu masalani to‘laroq va chuqrorroq tushunish imkonini beradi. Buning uchun hind falsafasining gunalar haqidagi g‘oyalarini yana bir bor esga olish kerak. Ilgari ham aytganimizday, ushbu ta’limotga ko‘ra inson tanasi (umuman, materiya) «sattva guna», «rajas guna» va «tamas guna» deb atalgan uch xil substansiya – quvvatdan tashkil topgan. Bulardan birinchisi, ya’ni «sattva guna» insondagi ijobiy, yorug‘ tuyg‘ularning (ko‘ngil xushligi, xotirjamlik, xushchaqchaqlik kabilarning) asosini tashkil etadi. «Rajas guna» inson irodaviy, faol intilish va harakatlar va ular tufayli yuzaga keladigan tuyg‘ular (uqubat, xavf-u xatarlar, ehtiros kabilar) asosida yotadi. «Tamas guna» esa inson vujudidagi nofaol, salbiy asos bo‘lib, u loqaydlik, befarg‘lik, jaholat, turg‘unlik (tepsa-tebranmaslik), noaniqlik (xiralik), qorong‘ilik kabilarni tashkil etadi.

Turli odamlar vujudida bu quvvatlар turli proporsiyada taqsimlangan deb qaraladi. Hozirgi psixologiya bularni temperament tiplari deb ataydi. Lekin psixologiya ularni yuzaki xarakterlash bilan chekланади, kelib chiqish sabablari, mohiyatini chuqur biliшга hozircha erishmagan. Shuning uchun u kishi o‘z temperament tipini o‘zgartirishi mumkinligini inkor etadi. Vaholanki, ezoterik ta’limotlarda insondagi ana shu quvvatlarni transformatsiyalash, ularni ijobiy quvvatlarga aylantirish borasida ko‘p asrlar mobaynida samarali ishlar olib borilgan.

Shu tariqa «nafsi ammora» va «nafsi lavvoma»dan qutulgandan (birinchi va ikkinchi bosqichlaridan o‘tilganidan) keyin, ya’ni kishi rajas va tamas gunalarning ta’siridan xalos bo‘lganidan keyin asosan faqat «sattva guna» qoladi. «Sattva guna» esa keyingi evolutsiya uchun zamin bo‘ladi. Ushbu guna (quvvat) yordamida kishini saxovatpesha, shirinso‘z, itoatgo‘y, qanoatli, toat-ibodatli, sofdil insonga aylantiradi, ya’ni unda sof ijobiy temperament hosil bo‘ladi.

*Shuningdek, ayni shu bosqichda kishida uning tug‘ma moyilli-giga qarab o‘ziga xos ijodiy qobiliyat (rassomlik, bastakorlik, shoirlilik, intellektual intuitiv bilim va h.k.) uyg‘onadi. Vaholanki, keyingi ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, ijodning, ayniqsa, hozirgi davrdagi nafaqat shaxs, balki jamiyat hayotidagi ahamiyati beqiyos. Zero, aynan ijod shaxsda noadaptatsion (turg‘unlashib, to’xtab qolgan sharoitga moslashuvning aksi bo‘lgan) faollikni, o‘zidagi hayotiy quvvatni his etishni, vogelikka estetik (nafosat, go‘zallikni his etgan holda) yondashishni, atrofidagi ko‘pchilik ruhiyatiga ko‘tarinkilik baxsh etuvchi ijobiy mulqotda bo‘lishni, bir so‘z bilan aytganda, eng murakkab hayotiy sharoitlarda ham «yashash jasoratiga» egalikni ta’minlaydi. Shu ma’noda ijodiy qobiliyat kishilari konkret jamiyatning hayotiyligini ta’minlovchi kuchlarini o‘zida gavdalantiradilar. Boshqacha aytganda, o‘z ijodi bilan shaxs jamiyatning hayotbaxsh quvvatiga aylanadi. Aksincha, ijodiy nofaol kishilarda ijtimoiy voqe-likni parchalovchi, vayronkor kuchlar to‘plana boradi.*

Yuqoridagi fikrlar, shuningdek, tariqatlar kishi ijodiy qobiliyatini uyg‘otuvchi eksperimental ta’lim maktablari bo‘lgani haqidagi xulosaga ham olib keladi. Shu ma’noda yuksak ijodiy qobiliyat kishida tug‘ma bo‘ladi, degan fikrlar, bizningcha uncha to‘g‘ri emas. To‘g‘ri, talantning yuzaga chiqishida naslning ham roli bor. Lekin hozirgi tadqiqotlarda katta talant egalarining farzandlarida bu qobiliyat namoyon bo‘lмаган va, aksincha, bunday qobiliyat egalari bo‘lмаган ota-onalardan katta talant egalari yetishgan hollar ko‘p uchrashi aniqlangan. Bu esa ijodkorlik qobiliyati aslida hammada mavjud, lekin bu qobiliyat ko‘p hollarda ochilmasdan qolib ketadi, tasavvuf psixologik texnologiyalari esa talantning ochilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi, degan xulosalarga olib keladi.

Albatta, bu masala yuzaki qaraganda oson ko‘rinadi, aslida uni yechish juda murakkab jarayonlar bilan bog‘liq va katta, keng ko‘lamli bilimlarni taqozo etadi. Lekin hozirgi davr ilmiy bilimlari, shu jumladan, psixologiya, genetika, antropologiya va

b. ilm sohalarida erishilgan yutuqlar hamda ma'naviy taraqqiyotning endigi ehtiyojlari ushbu muammo ustida ham ishlarning tezlashuvini zaruratga olib kelishi muqarrar. Lekin bu o'rinda hozirgi davr fanida, xususan, genetikada amalga oshirilayotgan ba'zi ishlar (masalan, klonlashtirish tajribalari, nanotexnologiyalarning qo'llanilishi, transplantologiya va b. ishlar) ko'ngilsiz, noinson-parvar yo'ldan ketayotganini, ushbu muammoning yechilishida biryoqlamalik, ayniqsa tasavvufda ko'zda tutilgan yuksak axloqiy mezonlar saqlangan holda inson tabiiy taraqqiyoti yo'lidan emas, balki bu yo'ldan mutlaqo teskari tomonga og'ishdan iborat sun'iy transformatsiyalash ishlarining rivojlanishi oqibatlari juda yomon bo'lishini ham ko'rsatmoqda.

Endi inson transformatsiyasining tasavvufdagi beshinchı bosqichi tafsiriga qaytaylik. Bu bosqichda inson o'z diqqatini faqat xudoga (o'z mohiyatida (o'zligida) jo bo'lgan butun borliq mohiyatiga) qaratish imkonini qo'lga kiritadi. Zero, endi uning diqqatini boshqa tashqi intilish va ehtiroslarga tortadigan rajas guna ham, nofaol, intilishsiz, qotib qolishga olib keladigan tamas guna ham bartaraf etilgan bo'ladi. Shuning uchun kishi bu bosqichdagi o'z intilishida xudodan boshqa hamma narsani tark eta ola-di. Bu bosqichda u o'z boshiga tushgan hamma narsadan rozi bo'lish, eng og'ir damlarida ham o'z taqdiridan nolimaslik, xudoga bo'lgan intilishini, mehrini kuchaytirish, xullas o'zining butun borlig'ini, inon-ixtiyorini xudoga topshirib qo'yish (nafsi rizoiya) darajasiga yetadi. Ya'ni bu bosqichga inson qalbi xudoga bo'lgan chin, ya'ni beta'ma muhabbat (ishq) uchun ochila ola-di. Ayni shu bosqichda inson avliyolik martabasiga yetishi ham ta'kidlanadi.


Shuning uchun ham tariqat ishq yo'li deb ham ataladi. Shu bosqichdan boshlab kishini g'ayb olami bilan bog'lovchi ilhom keladi, deb hisoblanadi. Bunda shu vaqtgacha insonda yashirin (uyqu holatida) mavjud bo'lgan buyuk iste'dod eshigi ochiladi. Bu qobiliyat kishida uni bog'lab, o'rab olgan po'stlaridan, pardalaridan xalos bo'lishi natijasida uyg'onadi. Ayni shu bosqichga (ha-

qiqiy ishqqa) yeta olgan inson yagona sirli ezoterik bilim kaliti-ga ham ega bo'ladi. Lekin yuqorida ko'rganimizday, bu darajaga yetib kelish katta riyozatni talab qiladi.

Beshinchi pardadan ham qutulgach, inson butun borliqni, undagi barcha jonzotlar va insonlarni o'zining jondoshlari, bir butunning uzviy bo'laklari ekanini tuyush va bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun u faqat o'zining tubanlikdan xalos bo'lgani bilan qanoatlana olmaydi, balki boshqalarga ham yordamga shoshilish uchun kuchli ehtiyoj sezadi. (Bu tuyg'u tasavvufda «nafsi mardiya», ya'ni mard kishilar ruhiyati ma'nosini anglatadi.)

Bundan ko'rindiki, ushbu bosqichdagi kishining mehru muhabbat (ishqi) faqat namoyon bo'ligan mohiyatga (xudogagini) emas, balki namoyon bo'lgan borliqqa, tashqi olamga ham yo'naladi. Shu ma'noda ushbu bosqichda so'fiy hattoki, boshqa insonni sevganida ham uning husnida xudoning namoyon bo'lishinigina sevadi, deyish unchalik aniq fikr emas. Zero, bunda gap muhabbatning faqat ruhiyligida (vujud bunda ishtirok etmasligida) emas, balki asosan ishqning pokligida, beta'maligidadir.

Beshinchi bosqich kamolot yo'lidagi inson oxirgi qobig'idan, ya'ni dunyoviy o'zligidan ham butkul voz kechishi (fano), ya'ni oltinchi bosqich uchun asos bo'ladi. Shundagina u o'zining ilohiyligini, ya'ni oxirgi, tub «Men»i ilohiy ekanini anglaydi (barkamol nafs bosqichi). Zero uning fano oqibatida yetishgan «Men»i Haqning o'zidir va shu tariqa u o'z qalbi tubida Haq bilan uchrashadi (tutashadi, birlashadi). Zero, hech qanday mubolag'asiz xudo osmonlarda emas, balki o'z qalbimizda, dilimizdadir va, aksincha, bizning qalbimiz, dilimiz xudodadir va xudodandir (dil ba-Yor). «O'zini bilgan xudoni biladi» degan hadis ayni shu ma'noni bildiradi. Qizig'i shundaki, qadimgi yunon tilidagi entuziazm va intuitsiya tushunchalari ham ayni shu ma'noni, «en theos», ya'ni «xudo qalbda», degan ma'noni bildiradi.



Tasavvufda murid haqqa yetish yo'lida bosib o'tishi lozim bo'lgan bosqichlar

Shunday qilib, qalbimizda-  
gi eng musaffo «Men» (xudo)  
bizning abadiy asosimiz, mo-  
hiyatimiz, substansiyamizdir.  
Shunga ko'ra ezoterik ta'limot-  
lar iloh substansiyasini faqat o'zi  
kabi ilohiy substansiya orqaligi-  
na bilish mumkin degan fikr-  
larni hamisha oldinga surgan.  
Ilohiy substansiya esa eng to-  
za, nomoddiy Musaffolik, eng  
oliy bilim — Haq va eng yuk-  
sak Ezgulik tuyg'usi (Muhab-  
bat)dir. Shuning uchun inson

o'zligini, o'z haqiqiy menini bilishni istasa, bu o'zlikni (mohiyat-  
dagi «Men»ni) yashirib tergan moddiy pardalardan qutulishi ke-  
rak. Lekin, kishining o'zini moddiy dunyo bilan bog'lovchi par-  
dalardan qutulishi uning bu dunyodan voz kechishi degani emas.  
So'fizm, umuman, boshqa ezoterik ta'limotlar taraqqiyotining  
avvalgi, quyi bosqichlarida, hatto buddizm dinida ham ayni shu  
kabi g'oya ustuvor bo'lgani kuzatiladi. Lekin, naqshbandiya tari-  
qati misolida biz ezoterik ta'limot evolutsiyasida ham evolutsion  
yuksalish sodir bo'lganini ko'ramiz.

Buni biz aynan bizning madaniyatimizda amalga oshganini  
faxr bilan ayta olamiz. «Butun dunyoga ma'lum va mashhur  
bo'lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxo-  
liq G'ijduvoniylar va Bahouddin Naqshbandning muborak siymo-  
si alohida ajralib turadi, — deydi bu haqida Birinch Prezidentimiz  
ham. — Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga  
chin dildan ixlos qo'yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta'rif-  
lab kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Allohda, qo'ling  
mehnatda bo'lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning oly-  
janob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun ay-  
tilgandek jaranglaydi».

Hozirgi davr falsafasi ana shu teran ma'noni anglab yetishi zarur. Chunki yettinchi bosqichga yetgan inson komillik bosqichi-ga erishar ekan, bu bosqichda u o'zida nafaqat namoyon mohiyatni (Haqni), balki namoyon bo'lgan borliqni ham (panteizm), bu namoyon bo'lgan borliqda o'zining jilovlab olingan vujudiy mayllari va o'z individual menining (birlik, alohidalik, yakka-likning) mag'zi bo'lgan sof «menini» (o'zligini) ham, dunyoviy umumiyatni, vahdatni ham birday gavdalantirish darajasiga yetishi shadi. (U bir vaqtning o'zida ham birlik, ham ko'plikni, ham mohiyatni, ham hodisani birlashtira oladi.) Buni tushunish esa, bizningcha, «dil ba-Yoru, dast ba-kor» hikmatining ma'nosini tushunishga yordam bera oladi.

Yuqorida xulosalarimiz nafaqat islom dinining, balki bar-cha dinlarning ezoterik mazmuni bilan uyg'un. Lekin insoniyat tarixiy evolutsiyasi nuqtayi nazaridan qaralsa, eng oxirgi din islom dini bo'lgani uchun va uning eng mag'zi, tub ildizi islom metafizikasi, ya'ni so'fizm ta'llimoti bo'lgani uchun va aynan unda «dil ba-Yoru, dast ba-kor» g'oyasi va uning amaliyoti yuksak rivojlantirilgani uchun inson va insoniyat madaniyatining keyingi taraqqiyoti aynan shu ta'llimotni onglesh va uning ko'rsatmalariga amal qilish bo'lishi kerak degan xulosa kelib chiqadi. Shu ma'noda, naqshbandiya tariqati misolida eng yuksak insoniy evolutsiya ideali Alisher Navoiyning «Lison uttayr» asari, Forobiyning «Fozillar shahri» asari misolida ayni o'zbek millati madaniyatida shakllantirilgan deb iftixor bilan ayta olamiz.

Ayni paytda shuni ham «aytish lozimki, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar»ning ham ahamiyati katta. Bu qadriyatlarning shakllanishida esa dinning aqidaviy qatlaming ham beqiyos hissasi bor.

## **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. «Mistitsizm» so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
2. So‘fiylik islomdagi qanday oqim hisoblanadi?
3. So‘fiylikning paydo bo‘lishi va shakllanishi qaysi davrni qamrab oladi?
4. Mistik qatlamda ma’naviy ideal va o‘zlikni anglash muammosining yechilishi qanday asosga ega?
5. Tasavvufda murid haqqa yetish yo‘lida bosib o‘tishi lozim bo‘lgan necha bosqich mayjud?

## **Adabiyotlar:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – T.: «Sharq», 2005.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, 1996.
3. Globallashuv sharoitida tariqatlar: ta’limot va uslublar, tahlil va xulosalar / Mas’ul muharrir: I.Usmonov. – T.: Mavarounnahr, 2014.
4. Tasavvuf atamalari izohli lug‘ati / Mas’ul muharrir: I.Usmonov. – T.: Mavarounnahr, 2015.

## 14-mavzu. DIN VA SAN'AT

### Reja:

1. Diniy qadriyatlar va tasviriy san'atning inson ma'naviy hayotida tutgan o'rni.
2. Din va musiqa munosabatlari.
3. Diniy arxitektura san'ati.

**Tayanch tushunchalar:** tasviriy san'at va din, diniy arxitektura, Qadimgi Ahd, Psalm, sinagoga, Aron Kadesh, Ner Tamid, Bima, monastir, altar, prestol, masjid, mehrob, Masjidi Aqso, Masjidi Nabaviy, Masjidi Xarom.




**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarga diniy qadriyatlar va tasviriy san'atning inson ma'naviy hayotida tutgan o'rni, din va musiqa munosabatlari, diniy arxitektura san'ati bo'yicha ma'lumotlar berish.

**1. Diniy qadriyatlar va tasviriy san'atning inson ma'naviy hayotidagi o'rni.** Insonda tabiat, jamiyat va odamlarni qadrash tuyg'usi bor. Qadriyatning mazmuni o'z navbatida kishilarining ehtiyojlari, maqsadlari bilan bog'liq. Inson nimaningdir qadriini baholayotganida o'z ehtiyojlari, maqsadlaridan kelib chiqadi.

Shuningdek, kishilarning qadriyat haqidagi fikri subyektiv va nisbiydir. Chunki jamiyat rivojida tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi pog'onasiiga chiqib oladi.

Din borliqni yaratuvchi, boshqaruvchi, adolatning yusak namunasi sifatida Haqiqat, Ezgulik, Go'zallik, Muqaddas-



Uqba masjidi (Tunis) mehrobi

lik va boshqa tushunchalar orqali tasavvur qilinadigan buyuk ma'naviy-ruhiy qadriyatdir.

Xudoga bo'lgan e'tiqod insonga ilohiy qonunlarni belgilaydiki, natijada inson yuksak diniy e'tiqodi tufayli xudo tomonidan yuborilgan axloqiy qonunlarni muqaddas qadriyat sifatida qabul qiladi.

Zardushtiylik, moniylik, buddaviylik, vedizm, hinduizm, xristianlik hamda islom dinlari qadriyatlarining tasviriy san'at turlari bilan ham integratsiya holatlari mavjuddir. Dinlarda axloqiy-estetik qadriyatlar borki, bu kishilarning ma'naviyatiga kuchli ta'sir etadi. San'at esa diniy, ma'naviy qadriyatlarning aksariyatini o'z uslubiga ko'ra ifodalaydi.



Budda timsoli

Tasviriy san'atning u yoki bu turining takomillashishi taraqqiyoti yoki tanazzuli jamiyat mafkuraviy hayotiga bog'liq. San'at tarixiy bosqichlarda mafkura vositachisi sifatida faoliyat ko'rsatgan. O'z davrida mafkura san'at rivojiga ta'sir qilib, ba'zi davrlarda ijodkor iste'dodiga samarali ta'sir ko'rsatса, ba'zan mustabid ruhdagi qarashlar ijodkor faoliyatini cheklab qo'ygan.

**2. Din va musiqa munosabatlari.**

Ma'lumki, insoniyat hayotida ma'naviy omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orasida din bilan bog'liq masalalar alohida o'rinn egallaydi. Bu borada alohida ta'kidlash joizki, diniy e'tiqodning paydo bo'lishi o'z-o'zidan bashariyat tarixida yangi sahifa ochilishiga turtki bo'ldi. Keyinroq kashf etilgan musiqa esa, insoniyatning ruhiy-ma'naviy ola-mining tadrijiy taraqqiyotidan darak beruvchi yangi sahifadan mustahkam o'rinn olishi ma'lum bo'la boshladi. Manbalarning guvohlik berishicha, har ikkala yangilik azal-azaldan o'zaro bog'liqlik kasb etgan tushunchalar qatoridan o'rinn olib kelgan hamda turli diniy g'oyaclar ta'siri ostida mazkur aloqadorlik ijobiy yoki

salbiy munosabat sifatida baho langan. Ushbu fikrlarni xristianlik ta'limotining mazkur masalaga munosabati yuzasidan qisqacha tahlil orqali kuzatish mumkin.

Musiqani ko'plab dinlar ning ibodat marosimlari bilan uzviylik asosida aks etishini tasodif sifatida baho l ash mumkin emas. Bu haqda XX asrning yetakchi dirijori Leopold Stokovskiy «Musiqa barchamiz uchun» asarida musiqa va musiqachiga quyidagicha ta'rif beradi: «Haqiqiy musiqachi shu qadar qunt bilan musiqani ilg'ashi kerakki, go'yo u bilan qorishib ketmog'i lozim. Shunda uning ongi ostida shunday hodisa yuzaga keladiki, hatto biz uni qanday nomlashni ham bilmaymiz. Shu chog'da musiqa yetaklovchi kuch, ulkan qudrat hamda tabiat in'om etgan favqulodda iste'dod o'laroq namoyon bo'ladi. Musiqachi bu qudratning erkin parvoziga yo'l ochishi, unga o'zini topshirishi va bo'ysunishi lozim. Shundagina ijrochi sozanda va tinglovchini yaxlit bir jo'shqinlik o'ziga qamrab oлади. Qarshimizda go'yo samovot darvozalari ochilib, ilohiy ovoz chaqirig'ini tinglaganday bo'lamiz».

«Bibliya» tarkibidagi Psalm kitobida shunday deyiladi: «Osmonlar tangrining hamdu sanosini yoyadi va u zotning qudrat qo'lidagi ish mustahkam asosga ishora qiladi». Mazkur bitiklar «Религия в истории и культуре» nomli darslikda muallif tomonidan quyidagicha sharhlanadi: «O'zgacha bir ohanglar uyg'unligi butun olam qahriga singib ketgan. Nafaqt insoniyat va qushlar, balki jonsiz daraxt va toshlardan tortib eng kichik zarraga qadar kuylaydi. Yaqinda astrofiziklar Quyoshni past pardalarda o'z kuyini ijro qilayotganini kashf etib, yozib olishgan edi. Barcha ko'rinishdagi ohanglar uyg'unligi olam tuzilishiga mutanosib aloqada ekani ma'lum bo'ldi. Bu uyg'unlikni ilg'agan e'tiqodli shaxs



Cherkovda xor ijrosi

uni ilohiy ovoz chaqirig‘i hamda olamni yaratgan zotning oqilona ishlaridan biri sifatida qabul qiladi».

*Tangrining nidosi meni chorladi,  
Turgil, ey Payg‘ambar, nazar sol, angla,  
Mening amrimni sen bajo ayla.*

A.S.Pushkin

«Bibliya»da ham xuddi shunday yorqin musiqaviy iste’dod egasi bo‘lish bilan bir qatorda diniy intuitsiyasi bilan mashhur bo‘lgan payg‘ambar va shoh Dovud hikoyasi ham keltirilib o‘tiladi. Psaltil deb nomlangan mazkur bob Bibliya kitoblaridan biri sanalib, uning muallifi sifatida shoh Dovud e’tirof etiladi. Mazkur kitob musiqa va she’riyatga daxldor bo‘lishi bilan bir qatorda muhim ahamiyatli diniy manba vazifasini ham bajaradi. Psalom qadimda odatga ko‘ra keng imkoniyatga ega bo‘lgan zarbli, torli va puflab chalinadigan cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etilgan. Bibliya bizga musiqa va musiqiy cholg‘ular ixtirochilarining nomlarini yetkazib berdi. Jumladan, Borliq kitobini to‘rtinchibobida shunday deyiladi: «Uning birodarining nomi Iuval bo‘lib, u barcha chertib chalinadigan gusla va sibizg‘alarni mohir ustasi edi».

*Qadimgi Ahdda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra musiqa o’sha davr kishilarining kundalik hayotida, aniqrog‘i shodlik va qayg‘uli kunlarida hamda diniy marosimlarda keng ijro qilib kelingan. Da-lil sifatida saksoninchisalomni keltirish mumkin. Unda jumladan shunday deyiladi: «Psalomni olinglar, timpan (nog‘ora)ni, totli to-vushli guslani psalom jo‘rligida beringlar; yangi oyning belgilangan bayram kuni shoh burg‘uni chalinglar, negaki bu Isroil uchun qonun bo‘lib, Yoqub tangrisining ilohiy hukmidir».*

Bibliyaning axloqiy ideallari, sujet va qahramonlari qadimgi va hozirgi zamon musiqachilarining ilhom manbayi bo‘lib kelmoqda. U ilhom bergen shoh asarlarni sanab sanog‘iga yetish mush-

kul. Zotan, Bibliyada musiqa va ibodat masalalari uzviylik kasb qilgan holda keng joriy qilingan.

Musiqa tarixiga murojaat qilar ekanmiz, uni doimo dunyo xalqlarining ibodat amaliyotlari bilan bog'liq ekanini kuzatish mumkin. Bu kuzatuvarlar musiqani borliq va diniy-mistik tajriba bilan alohida yaqin aloqada ekanidan darak beradi.

*Cherkov ruhoniylari xususan, aleksandriyalik Kliment, ulug' Vasiliy, Grigoriy Niskiy hamda Avgustinlar bir necha bor o'z asarlarida musiqa masalalariga e'tibor qaratadilar. Jumladan, milodiy 354–430-yillarda yashab ijod qilgan, hozirga qadar katolik va pravoslav yo'nalishlari tomonidan yirik ilohiyotshunos sifatida qadrlanadigan Avreliy Avgustin mazkur yo'nalishda uzoq vaqt ish olib borib, «Musiqa borasida olti kitob» asarini yozib qoldirdi.*

Avgustinning qarashlariga ko'ra musiqa vaqt ramzi bo'lib, vaqt esa o'z navbatida hayot ramzi sifatida baho beradi. Bundan tashqari, Avgustin butun dunyo musiqasini haqiqat, go'zallik va donishmandlik bilan aloqadorligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, uning fikriga ko'ra musiqa so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan xristianlarning yangi hayoti asosi zamirida namoyon bo'ladi. Bu yangi hayotda barcha o'zining asl qo'shiq va musiqasiga aylanmog'i kerakligini alohida ta'kidlaydi.

Shu o'rinda savol tug'iladi, cherkov va dunyoviy musiqa o'rtasida qanday farq mavjud? Birinchidan, cherkov musiqasi ibodat marosimlarining bir qismi hisoblanadi hamda muayyan diniy rasm-rusumlar o'tkaziladigan vaqtarda ijro etiladi. Ikkinchidan, unda qat'iy muqaddas matnlar ijro etiladi. Uchinchidan, uning ijrosida diniy aqidalarning mohiyati yoritiladi va hech qanday sof musiqaviy masala ilgari surilmaydi. Pravoslav yo'nalishiga xos musiqa doimo jamoaviy xor va hech qanday cholg'ularsiz ijro etiladi. Bu turdag'i musiqa alohida yaxlit bir ichki tartibi va tizimli ekani bilan xarakterlanadi. Shuningdek, cherkov musiqasi ortiqcha emotsiya va hissiyotlar qorishuviga yo'l qo'ymaydi. Ilk xris-

tian musiqaviy janri hisoblangan psalmodiya (kuy yoki qo'shiq), gimn (tantana qo'shig'i) keyingi davrlarga taalluqli sanalgan xoral (birgalikda kuylash), motet (ilk va o'rta asrlar G'arbiy Yevropa-da keng tarqalgan ko'p ovozli polifonik vokal janri hisoblanadi) va messa (vazifa va noma ma'nolarini anglatadi, liturgiya marosimida ijro etiladigan qo'shiq) nafaqat cherkov musiqasi doirasida, balki dunyoviy xarakterda o'ziga xos tarzda qayta talqin etildi. Ta'kidlash joizki, amaliy jihatdan yuqorida tilga olingan janrlar doirasida ko'plab asrlar mobaynida musiqa san'atining ulug'vor asarlari yaratildi. Jumladan I.Bax, I.Gaydn va L.Betxovenlarning messa janridagi asarlarini, V.Motsart, F.Shubert, F.Mendelson, R.Shuman va F.Listlar rekviem (motam kuy) janrdagi asarlarni yaratishdi.

*Bugunga kelib ko'plab musiqa durdonalari diniy mazmundan yiroqlashganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Biroq mazkur dunyoviy musiqalar diniy manbalardan ozuqa olganini ilg'ash mushkul ish emas. Ahamiyatli tomoni shundaki, so'nggi o'n yil davomida mashhur bastakorlar tomonidan diniy mavzudagi asarlarni yaratishga bo'lgan intilish keskin ortib bormoqda. Ming yillar mobaynida din va musiqa avloddan-avlodga o'tib, inson qalbining eng sirli nuqtalariga yetib borish, unga tasalli hamda taskin, yangidan yangi g'oyalilar berish, go'zallik va borliqning o'ziga xos uyg'unligini anglashga ko'mak bermoqda.*

**3. Diniy arxitektura san'ati.** Ma'lumki, dunyoning dinlari ta'limotida muqaddas ziyyoratgohlar va diniy ibodatxonalariga madaniy-ma'naviy meros sifatida alohida e'tibor beriladi.

«Ibodatxona» deganda diniy ibodat o'tkaziladigan binolarning umumiyligi nomi tushuniladi. Har bir dinda bu tushuncha turli nomlar bilan ataladi: xristianlikda — sobor, cherkov, kostel, kirxa; islomda — masjid, yahudiylilikda — sinagoga. Shuningdek, buddaviylikka e'tiqod qiladigan mamlakatlarda ibodatxona yana turlicha ataladi: Yaponiyada --- tera, Shri-Lankada — vixara,

Mo'g'ulistonda — xure, Buryatiyada — datsan. Turli nomlar bilan atalsa-da, bu tushuncha har qaysi dinda qavmlarning xudo bilan muloqot qiladigan joyi sifatida ma'no-mazmun kasb etadi. Masalan, xristianlikda va buddaviylikda ibodatxona — dunyo tomonlarini aks ettiruvchi koinotning modelini eslatadi. Undagi me'morchilik, naqsh va tasviriy bezaklar muayyan dinning qonun-qoidalariga qat'iy bo'ysundiriladi. O'z navbatida, ibodatxona har qanday mamlakatning me'morchiligidagi an'anaviy qoidalariga qaramay, o'z milliy qiyofasiga ega va arxitektura durdonalari sifatida jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan hissa hamdir.

I) *Sinogoga — yahudiylig ibodatxonasi*. Sinagoga (yunoncha «sinagogue» — «yig'ilish», ibronyicha «beyt kneset» — yig'ilish uyi) — yahudiy xalqining ibodat qiladigan, turli an'ana va marosimlarni birgalikda bajaradigan hamda bir-birlari bilan suhbatlashish uchun yig'iladigan joydir. Yahudiylidka sinagoganing tarkibiy tuzilishi diniy me'yorlar asosida tartibga solingan. Chunki dinning muqaddas manbayi Tavrotda ibodatxona binolari, ibodat anjomlari, ularning joylashishi kabi masalalar bat afsil yoritilgan.

Shu sababli yahudiy olimlarning ta'kidlashicha, sinagoga qayerda qurilishidan qat'i nazar quyidagi talablarga rioxha etilishi lozim:

— sinagoga qurilishida Quddusdagি Markaziy ibodatxonaga yo'naltirilmoqlik;

— shahar binolariga nisbatan teparoq joyda joylashishi. Bi-roq, ushbu qoidaga yahudiy xalqi nasroniylik va islom dinlari taraf-dorlari ko'p bo'lган mamlakatlar hududida amal qila olmaganlar. Shuning uchun ular o'z ibodatxonalari ustiga uzun xoda o'rnatganlar;

— ibodatxonada erkaklar va ayollar ibodat qilishlari uchun alohida joy qilinishi.



Aron Kodesh — Tavrot sahifalari saqlanadigan sinagogadagi maxsus joy

Bundan tashqari, sinagogalar iqlim, mintaqa yoki muayyan madaniyat ta'sirida turli me'moriy uslublarda qurilishi mumkin. Biroq, barcha sinagogalar, hattoki oddiyalarida ham quyidagi to'rt unsur bo'lishi shart hisoblanadi. Bular:

1. Aron Kadesh — Quddusga yo'nalgan muqaddas sandiq (shkaf) bo'lib, uning ichida Tavrot tumorlari saqlanadigan maxsus joy mavjud. U masjiddagi mehrobga o'xshash vazifani bajara-di va kirish eshigining ro'parasida joylashadi.

2. Ner Tamid — (ibroniycha «abadiy shamchiroq») sinagogada «Tavrot» solingan sandiq ro'parasida joylashgan bo'lib, doimo yonib turuvchi shamchiroqdir. Sinagogada Ner Tamid minorani eslatib turuvchi ramz sifatida qo'yiladi.

3. Bima (yoki teva, almemar) — sinagogani markazida joylashgan, Tavrot o'qiladigan minbardir.

4. Erkaklar va ayollar uchun alohida ibodat joylarining bo'lishi (odatda ayollar ikkinchi qavatda ibodat qilishadi).

Ilk sinagogalarning buniyod etilishi vaqtি haqida yakdil fikr bo'lmasa-da, tarixiy manbalarda xabar berilishicha, dastlabki sinagoga Quddus shahrida barpo etilgan. Qolaversa, mazkur ibodatxona tarixda ikki marotaba qaytadan qurilgan. Quddusdagi ibodatxona birinchi marotaba miloddan avvalgi 586-yilda bobilliklar, ikkinchi marotaba rimliklar tomonidan eramizning 70-yillarda vayron qilingan. Hozirgi kunda ushbu ibodatxonadan «Yig'i devori»<sup>1</sup> va g'arbiy devor saqlanib qolgan. Yahudiylilik ta'lli-

<sup>1</sup> Sulaymon davrida Buyuk Ibodatxona qurilgan, u ikki marta Bobil (mil. avv. 586-y.) va Rim (mil. 70-y.) hukmronligi davrida vayron qilingan. Yahudiylar uni xotirlab, ikkinchi ibodatxona davridagi qal'aning «Yig'i devori» deb atalgan devor parchalariga sig'inganlar. «Yig'i devori»ga yahudiylar kelib ibodat qilishadi. Xudoga nola, tavba, duolar qilishadi va ularni qog'oz parchalariga yozib devor orasiga tiqib chiqishadi. Bundan ko'zlangan maqsad ularning iltijolari xudoga tezroq yetib borishi va amalga oshishini tezlatish hisoblanadi. «Yig'i devori» bunda vositachilik rolini o'ynaydi. Hozirgi kunda xatlarni elektron tarzda yuborish yo'lgan qo'yilgan. Xatlар u yerga elektron shaklda yuboriladi va xodimlar tomonidan xatlар olinib, qog'ozga chiqartirilib, devor orasiga tiqib chiqiladi. Xatlarni yilda ikki marotaba toqqa olib borib maxsus belgilangan joyga ko'miladi.

motiga ko'ra, Quddusdagi ibodatxona «Messiya» (Xaloskor)ni keliishi bilan yana qayta barpo bo'ladi.

Yahudiylik dini an'anasi bo'yicha sinagoga nafaqat ibodatxona, balki diniy ta'lim maskani hamdir. Unda bolalarga umumta'lim fanlari bilan bir qatorda, diniy ta'lim ham beriladi. Talmudda aytishicha, Quddusda 480 ta sinagoga bo'lgan. Har bir sinagogada ikkitadan maktab; boshlang'ich va o'rta ta'lim maktablari bo'lgan. Odatda, sinagoga maktablarni kerakli adabiyotlar bilan ta'minlagan. Har bir mакtabda «Пятикнижье» («Musoning besh kitobi»), ularning sharhi, Talmud, Mishna va boshqa minglab kitoblar bo'lishi shart hisoblangan. Shuningdek, o'tmishda bo'lgani singari bugungi kunda ham o'quv jarayonidan tashqari sinagogada diniy bayramlarni nishonlashga alohida e'tibor qaratiladi. Qiziqarlıshi shundaki, bunday bayramlar qatoriga nafaqat butun jamoa bo'lib, ommaviy tarzda o'tkaziladigan bayramlar, balki tug'ilgan kun, balog'atga yetish, to'ng'ich o'g'ilni sotib olish (выкуп первенца) kabi bir qator dindorlar birgalikda nishonlaydigan bayramlar kiritiladi.

## 2) Cherkov – xristianlik ibodatxonasi.

*Cherkov (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilida «Художества таалуқли» ма'носини bildiradi) – Iso Masih haqidagi umumxristian aqidalarini birlashtirgan xristian diniy uyushmasidir. Xristian ilohiyotida «cherkov» tushunchasiga nisbatan «Masihning sirli tanasini tashkil qilgan qadimgi va hozirdagi xristian birlashmasi» sifatiда baho beriladi. Dinshunoslikda esa «cherkov – yakka yoki umumiy holatda xristianlikning barcha ta'limotlarini namoyon qiluvchi jamiyat» deb qaraladi.*

Xristianlik tarafdarlari ibodatlarni o'tkazadigan «cherkov» mazmun-mohiyati haqida so'z yuritilganda, ba'zida «cherkov arxitekturasi» atamasi ham qo'llaniladi. «Cherkov arxitekturasi» tushunchasi xristianlik cherkovi binolarining me'moriy tuzilishi ni nazarda tutadi.

Xristianlik dini vujudga kelgan ikki ming yildan ortiq vaqt davomida cherkovlar ba'zida zamon ruhiga, ba'zida dinning o'zgaruvchan e'tiqodi, amaliyoti va mahalliy urf-odatlariga moslashish natijasida o'z shakl-u shamoyilini o'zgartirib «yashab kelmoqda». Vizantiya buyuk cherkovlari, Rim monastirlari, gotika (uchli ko'rinishdagi ark va ravoqlarni namoyon etuvchi) arxitektura uslubidagi soborlar va Uyg'onish davri bazilikalari (qadim va o'rta asrlar arxitekturasida ichki qismi qator ustunlar bilan bir necha qismga bo'lingan bino) zamon va makon talabida uyg'unlashtirilib bunyod etilgan cherkov arxitekturasi namunalari hisoblanadi. Bunday katta va zeb-ziynatga burkatilgan binolar, qaysi shahar va qishloqda bo'lmasin, me'moriy nufuzga egaligi ularning yetakchi xususiyatlaridan biriga aylandi. Qolaversa, bu kabi inshootlar dunyo bo'ylab tarqalib ketgan nasroniy qavmlari orasida sadoqat markazi sifatida shakllandi. Dastlab diniy ibodatlarni bajarish maqsadida tashkil qilingan va faqat dindor kishi e'tibor markazida bo'lgan binolar – arxitektura sohasi yuqori pog'onalarga ko'tarilishi, bunda binosozlik taraqqiyoti cherkov misolida diniy me'moriy yuksaklikni namoyon etishi bilan dunyoviy kishilar e'tiborini ham torta boshladi. XX asrdan binosozlik sohasida po'lat va beton kabi yangi qurilish materiallaridan foydalanishning boshlanishi cherkovlar tashqi ko'rinishida ham aks etdi. Shu nuqtayi nazardan, cherkov me'morchiligi tarixi nasroniy dini vakillarining mamlakati, mintaqasi va etnik mansubligidan kelib chiqib turli davrlarga bo'linadi. Bunda nasroniy jamoalarini boshqa-boshqa hududlarda istiqomat qilishlari, har bir jamoa o'z mintaqasi xususiyatlaridan kelib chiqib, cherkov binolarini qurishga e'tibor qaratgani diniy ibodatlarni (liturgiya) bajarishda o'zgarishlar yasaganini alohida ta'kidlash lozim.

Aslida, xristianlik dini tarixini ilk bosqichlarida cherkov binosi oddiy ko'rinishga ega bo'lib, mahalliy sodda qurilish materialari va tajriba asosida qurilgan. Xristianlik tarixini ilk uch asri davomida, ya'ni nasroniylik amaliyoti noqonuniy deb topilib,

uning tarafдорлари hukmron tabaqa tomonidan quvg‘inga uchragan davrda «barmoq bilan sanagulik» cherkovlar mavjud bo‘lgan. Boshida mazkur din vakillari sinagogalarda va xususiy uylarda yahudiylar bilan birga yashirincha ibodatlarni olib borganlar. Keyinchalik yahudiy va nasroniylar orasi ajralgach, nasroniylar «xonodon cherkovlar» nomi bilan tanilgan muayyan insonlar, ko‘p hollarda boy dindorlarning uylarida ibodatlarni davom etirganlar. Bu haqida Bibliyaning qismlaridan biri sanalgan «Avliyo Pavelning korinfliklarga maktubi» bobida (16:19) quyidagi cha ma’lumot beriladi: «Osiyo viloyatidagi nasroniy jamoatlari sizlarga salom yo’llayaptilar. Akil bilan Priskilla va ularning uyiда yig‘iladigan jamoat sizlarga Rabbimizdan ko‘p salomatlik tilaydilar».

Milodiy IV asrda xristianlik dini davlat tarafidan e’tirof etilishi xususiy uylarda ibodat o’tkazayotgan nasroniy jamoalari uchun ko‘plab dindoshlari yondirilgan va qatl etilgan joylarda ularni hurmatlash maqsadida cherkovlar qurishga imkon tug‘dirdi. Shu tarzda, O‘rta Yer dengizi atrofida tarqalgan e’tiqod binolarda o‘z aksini ko‘rsata boshladi. O‘z navbatida, xristian cherkovi arxitekturasi fuqarolik va imperial shakllar bilan uyg‘unlashib, bazilika, katta to‘rtburchakli uchrashuv zali, dahliz, mehrob, xor jamoasi burchagidan iborat murakkab inshootga aylandi.

*Nasroniylik dinini Sharqiy va G‘arbiy tarmoqqa ajralishi cherkov binolari ko‘rinishida ham namoyon bo‘ldi. Bazilika g‘arbda keng tarqalgan cherkov shakli bo‘lsa, yanada ixcham holatdagi ustunlardan foydalanish Sharqda urf bo‘ldi. Shu bilan birga, Sharqiy va G‘arbiy xristian cherkovi o‘rtasidagi farq ibodatxonaning tashqi va ichki ko‘rinishidagi bir necha jabhalarda ko‘zga tashlanadi.*

Xususan, pravoslav cherkov binolari muayyan ramziy ma’noni ifodalovchi quyidagi asosiy shakllardan iborat:

- avvalo, cherkov binosi uzunasiga to‘rtburchak shaklida cho‘zilib yumaloq holatda tugashi najot vositasi sifatida kema-ning ramzi (Nuh kemasi) hisoblanadi;
  - cherkov binosi shifti tekis holatda bo‘lishi o‘rniga doirasi-mon gumbaz shaklida qurilishi osmon ramzi deya baholanadi;
  - pravoslav cherkov binolarining gumbazi piyoz shaklidaligi hamda unga ko‘pincha xoch o‘rnatilganligi «kema ahlini quruq-likka tushishi, najotga erishishi uchun tushirilgan» langardek umid ramzi sifatida tavsiflanadi;
  - qo‘ng‘iroqxona — cherkov qo‘ng‘iroqlari osib qo‘yiladigan minorasimon inshoot. Cherkovdan alohida, uning yaqiniga yoki ibodatxonaning bir qismi sifatida quriladi. Xristian cherkovidagi dastlabki qo‘nqiroq minorasi Qadimgi Rimda avliyo Ioann Late-ran va avliyo Pyotr bazilikalarida o‘rnatilgan. Yevropada XI asrdan boshlab hamma yerda qurila boshlagan. Rusda XIV asrda paydo bo‘lgan. Cherkovning sharqiy qismida qurbongoh (altar), g‘arbiy qismida esa to‘g‘risida yoki yonma-yon holatda qo‘ng‘iroq minoralari joylashadi;
  - Yer yuzining boshqa chekkalaridagi xristianlik cherkovlari-dan farqli o‘laroq, an‘anaviy pravoslav cherkovlarining o‘ziga xos jihatni ibodat vaqtida foydalanish uchun o‘rindiqning yo‘qligi hisoblanadi. Pravoslavlik axloqiy me’yorlariga binoan ibodat va va’z davomida o‘tirishlik hurmatsizlik sanaladi. Biroq G‘arb davlat-lari, ayniqsa, AQSHdagi cherkovlarda boshqa xristian mazhablari ta’sirida o‘rindiqlar qo‘yishlik joriy etildi.
- Bundan tashqari, cherkov binosining ichki qismi quyi-dagilardan iborat:
- vestyubl (narteks) — cherkovning ichki tarkibini tashkil etishda ma’naviy ahamiyat kasb etib, u xristian kishisini cherkov va tashqi dunyo bilan bog‘lovchi yo‘lak vazifasini o‘taydi;
  - altar (lot. baland) — qadimgi xalqlarda «muqaddas joy-lar»da o‘choq shaklida qurilgan qurbanlik qilinadigan joy. Ilk xristianlarda esa stol, unda «причаопение» marosimi uchun non va vino tayyorlangan va taqsimlangan. Xristian cherkovida —

ibodatxonaning bir qismi (mehrob), bu yerda ruhoniylar ibodat qiladi va «престол» (minbar) bor. Pravoslav altari sharqqa qaratib qurilgan va ibodatxonaning boshqa qismidan «иконопостас» (ikonalar bilan bezatilgan devor) bilan ajratilgan;

— prestol — xristian ibodatxonasidagi asosiy jihoz, diniy sig‘inish predmeti, ko‘pincha naqshli o‘ymakor uslubda ishlangan, mehrob o‘rtasiga qo‘yiladigan to‘rtburchak stol, uning ustiga antimins (zig‘ir tolasidan yoki ipakdan to‘qilgan ro‘mol), xoch va Injil qo‘yiladi. Prestol yonida non va vino totish marosimi bajariladi, ibodat qilinadi;

— amvon (yun. tog‘ chekkasi) — xristian ibodatxonasi o‘rtasida yarim doira shaklidagi baland joy. Dyakon shu joyda turib Injil o‘qiydi, pop va’zxonlik qiladi.

— ikona (yun. tasvir, obraz) — xudolar, avliyo va g‘ayritabiyy mavjudotlarning rasmlari, relyefli tasvirlari, ular diniy sig‘inish predmetlari hisoblanib, cherkovda ikonaga sig‘inish ommaga ideologik ta’sir ko‘rsatishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

### 3) *Masjid – musulmonlar ibodatxonasi.*

*Masjid arab tilidan olingan bo‘lib, «sajda qilinadigan joy» degan ma’noni anglatadi. Masjid musulmonlar jamoa bo‘lib namoz o‘qiydigan joy, ibodatxona hisoblanadi. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namozni, juma, hayit va janaza namozlarini ado etish, ramazon oyida xatmona va iftorliklar o‘tkazish, nikoh o‘qish kabi diniy ibodat va marosimlar bajariladigan maskandir. Islom tarixida gi ilk masjid Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan 622-yili Madina shahrida barpo etilgan. Bu masjidga «Masjid al-Qubo» nomi berilgan.*

Dastlab masjidlar shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan. Masjid bir necha xonaqoh, imom-xatib xonalar, e’tiqod qiluvchilarning ibodatdan oldin poklanish joyi — tahoratxona hamda ayrim masjidlar hovlisida hovuz va ayvon (Markaziy Osiyo masjidlari), bir yoki bir necha minoradan tash-

kil topgan bo'ladi. Xonaqoh tomiga gumbazli yoki to'sinli bo'lib, ba'zi masjidlar xonaqohi bir, ikki, uch, hattoki yetti gumbazlidir. Uning kattaligi masjid xonaqohi va ayvonining hajmiga binoan belgilanadi. Masjid ayvonining kattaligi esa, to'sinlar soni va qatorini bilan belgilangan.

Masjid xonaqohining to'rida, Makka shahriga qaragan (qibla) tomonida mehrob joylashgan. «Mehrob» so'zi arab tilidan olingan bo'lib, «sajdagoh» degan ma'noni anglatadi. Mehrob masjidning Ka'ba (Makka shahri) tomonidagi devori ichiga taxmon shaklida qurilgan joydir. Mehrob islom dinining dastlabki davrlaridan har bir masjidda mavjud bo'lib, u namoz yuzlanib o'qiladigan tomon (qibla)ni belgilash uchun xizmat qiladi. Hozirgi kunda masjidlarning mehrobi Qur'oni karim oyatlari, har xil rangdagi shishalardan foydalanib duradgor ustalar tomonidan ishlov berilgan naqshlar bilan bezatilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mazkur bezaklardan musulmonlar nafaqat mehrobni, balki, minbarni bezashda ham foydalanadilar.

Minbar masjid xonaqohining mehrob devori joylashgan qismining o'ng tomonida yoki mehrobning o'ng tarafidagi burchakda joylashgan bo'ladi. Minbar – masjidda imom va'z aytadigan baland joy, keng zinapoyali supa bo'lib, birinchi minbar baland o'rindiqli bo'lgan. Unga Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) 628–629-yillarda ikki zina orqali chiqib, va'z o'qiganlari va unda o'tirganlari ma'lum. Shu yagona minbardan birinchi uch xalifa foydalangan, faqat Ali davriga kelib Kufada ikkinchi minbar paydo bo'lgan.

Masjid xonaqohining shifti Qur'on oyatlari, Allohning ismsifatlari hamda iymon kalimasi tushirilgan naqshinkor tasvirlar bilan bezatilgan. Odatda masjidlar qurilgan hudud (shahar, qishloq va mahalla) aholisining soniga qarab jome' va mahalliy masjidlarga ajratilgan. Jome' masjid deganda, musulmon mamlakatlarda shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi asosiy va eng katta bosh masjid tushuniladi. Shu bilan birga, musul-

mon jamoasi uchun zarur turli xabarlar e'lon qilinadigan, haftalik juma, hayit namozlari o'qiladigan maxsus bino hisoblanadi. Jome' masjidi tuzilishi guzar (mahalla) masjidlariga nisbatan salobatli bo'lib, O'rta Osiyoda uni bir (old yoki yon) tomoni, ikki (janubiy va sharqiy yoki shimoliy va sharqiy) yoki uch tomoni ayvon bilan o'ralgan holatda qurish urf bo'lgan. Buxoroda birinchi jome' masjidi 713-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan ta'sis etilgan. Jome' masjidi uchun mahalliy majusiylar ibodatxonasini moslashtirilgan.

Musulmon tomonidan masjidlar «ma'naviyat o'chog'i» sifatida ardoqlanadi. Ayniqsa, islom madaniyati shakllanishida quyidagi masjidlarni o'rni katta hisoblandi:

— **Masjidi harom** (arab. «Muqaddas masjid») — Makkadagi Ka'ba ibodatxonasi va u bilan bog'liq bo'lgan majmua. Qur'on-da shu nom bilan tilga olingan. Bu majmua qadimdan mavjud bo'lgan, arablarda islomgacha ham sig'iniladigan muqaddas joylardan biri hisoblangan. Yunon tarixchisi Ptolemey asarlarida II asrda Makka va undagi ibodatxonaning mavjudliga qayd qilin-gan. 630-yil musulmonlar Makkani fath qilishgach Masjidi harom islom dinining markazi, eng muqaddas ibodatxona deb tanil-gan. Masjidi harom majmuasining markazida Ka'ba va hovlisida Zamzam bulog'i, ikki tepalik (Safo va Marva) bor. Tepaliklar tim (usti yopiq yolak) bilan tutashtirilgan. Masjid 1570-yilda majmua bo'lib shakllangan. Masjidi harom musulmonlar haj qiladi-gan muqaddas joy hisoblanadi.

— **Masjidi nabaviy** (arab. «Payg'ambar masjidi») 622-yil Madinada qurilgan. Bu masjid qurilishiga Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) yer sotib olib, qurilish ishlariga boshchilik qil-gan. Dastlab masjidda minbar yo'q edi. Keyinchalik xalq ko'pay-ganligi sababli uch zinali minbar o'rnatildi. Choryorlar davrida mehrob bo'limgan. Umar ibn Abdulaziz ummaviylar xalifa-si Valid ibn Abdulmalik tarafidan Madinaga voliy bo'lib kel-di. Mana shundan masjidlarga mehrob qilish odati shakllan-di. Masjid dastlab odamlar yig'iladigan, ilm tarqatiladigan, turli

masalalarni hal etadigan, davlatni boshqarishdagi joy vazifasini o'tagan.

— **Masjidi aqso** (arab. «Uzoqdagi masjid») — Quddus (Ierusalim) shahridagi yahudiylik an'anasida muqaddas hisoblangan qadimgi ibodatxona (Sulaymon ibodatxonasi). Qur'onda shu nom bilan tilga olingan. Islomdan ilgari arablar, undan keyin musulmonlar jamoasining a'zolari Aqso masjidi tomonga qarab ibodat qilganlar. 624-yilda Makkadagi Ka'ba ilohiy bildirish orqali qibla deb e'lon qilingandan keyin Makkadagi Asqo tomonga qarab ibodat qilish to'xtatilgan. Keyinchalik VII asr oxiri — VI-II asr boshida xalifa Abdumalik tomonidan bu yer «al-Haram ash-Sharif» deb atalgan va islom ibodatxonalar majmuyi barpo etilgan. Hadislarda keltirilishicha, Aqso masjidi islomdagi uchta muqaddas masjid (Makka va Madinadaga masjidlar qatorida) dan biri.

Xulosa qilib aytganda, masjidlar islom dinida katta ahamiyatga ega tushuncha bo'lib, ibodat maqsadida qurilgan inshootdir. Tarixdan ma'lum bo'ldiki, masjidlar insonlarni birlashtirish, diniy ta'lim olish, taskin va ruhiy madad olish maskanidir.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Musiqa xristianlik marosimlarida qanday o'ringa ega?
2. Dunyo dinlari ibodatxonalar qanday tushunchalar bilan ataladi?
3. Yahudiylik ibodatxonasi nima asosda tartibga solinadi?
4. Yahudiylik ibodatxonasida bo'lishi lozim unsurlarni sanab o'ting.
5. Xristian ibodatxonasiga xos «altar» tushunchasi qanday mazmunga ega?
6. Musulmon dunyosidagi mashhur masjidlarni sanab o'ting.

### **Adabiyotlar:**

1. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas'udiy // Tanlangan asarlар. V tom. Birinchi kitob. — T.: 1973.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. I том. – Т.: 1968.
3. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Rahimjonov D., Komichev M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. // Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – Т.: Mehnat, 2004.
4. Кон-Щербок Д., Кон-Щербок Л. Иудаизм и христианство. Словарь. – М., 1995.
5. Мюллер М., Вундт В. От слова к вере. Миф и религия (История религии). – М.: Изд-во Эксмо; Санкт-Петербург: Терра Фантастиса, 2002
6. Пилкингтон С. Иудаизм / Пер. с англ. Е.Г.Богдановой. – М.: Фаир-Пресс, 2000.
7. Религиоведение. Хрестоматия / Пер. с англ., нем., фр. Сост. и общ. ред. А.Н.Красникова. – М.: Книжный дом «Университет», 2000.
8. Религиоведение: хрестоматия / сост. В.Б.Рожковский, Д.Л.Устименко. – Ростов на Дону: Феникс, 2009.
9. Тора (Пятикнижие Моисеево). / Под. общ. ред. проф. Г.Брановера. – Иерусалим, Москва: Шамир, 1993.
10. Василгоев А. История религий Востока. – М., 1997.
11. Кривелев И. История религий. – М., 1989.
12. Кулаков А. Религии мира. – М., 1996.
13. Менго А. История религии. – М., 1994.

## 15-mavzu. MUQADDAS MANBALAR

### Reja:

- 
1. «Muqaddas manba» tushunchasi va unga dinlardagi munosabatlar.
  2. Dirlarning muqaddas manbalariga umumiy tavsif.
  3. Muqaddas manbalarga oid tushunchalar.


**Tayanch tushunchalar:** manbalar, muqaddas yozuv, muqaddas kitob, Qadimgi Misr piramidalari, Ahiram sarkofagi, «Xudoning kalomi», vahiy, farishta, TaNaX, Bibliya, Qur'on, tafsir va tahvil.

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda «muqaddas manba» tushunchasi va unga dinlardagi munosabatlar, dirlarning muqaddas manbalariga umumiy tavsif, muqaddas manbalarga oid tushunchalar haqida bilim va tasavvurni shakllantirish.

**1. «Muqaddas manba» tushunchasi va unga dinlardagi munosabatlar.** Diniy matnlar (manbalar, muqaddas yozuv, muqaddas kitob) – bu, turli dinlarda muqaddas sifatida qaraluvchi va ularning diniy an'analarida markaziy o'rinnegi egallovchi matnlardir. Ko'plab din, diniy-falsafiy ta'limot va harakatlar o'z muqaddas manbalari vahiy asosida nozil bo'lgan ilohiy kitob ekanligiga e'tiqod qiladilar. Diniy matnlarni tafsiflashda faqat yozma matnlar, og'zaki an'analar nazarida tutilmaydi. Odatda diniy matnlar g'ayritabiyy voqe-a-hodisa va xabarlarni o'zida namoyon qiladi. Diniy matnlarda diniy bilimlarni avloddan-avlodga o'tishida izchillik bo'lishi juda muhimdir.

**Xususiyat.** Tarixiy, mifologik yoki boshqa bir ko'rinishdagi diniy matn bo'ladimi, albatta, u dunyoning yaratilishi, uning diniy tuzilishi, ilk insonning yaratilishi va o'tmish ajdodlar hayoti haqida hikoya qiladi. Diniy matnlarda muqaddas diniy urf-odat va marosimlar, xulq-atvor normalari va ijtimoiy munosabatlarini tartibga solib turuvchi qoidalar bayoni katta o'rinnegi egallaydi. Ba'zi

diniy matnlar barchaga tushunarli, ba'zilari esa faqat muayyan dinning bilimdoni vositasida tushunib yetish mumkin. Ko'pchilik dirlar o'zlarining diniy matnlarni o'rganish va ularga turli o'zgarishlar kirishini cheklash maqsadida maxsus qonun-qoidalar tizimini ishlab chiqqan.



*Diniy matnlar tarixi.* Qadimgi Misr piramidalari dagi bitiklar miloddan avvalgi 3-ming yillikka (mil.av. 2400–2300) oidligiga ko'ra ko'hna diniy matnlardan biri sanaladi. Finikiya alifbosining dastlabki ko'rinishi miloddan avvalgi birinchi ming yillikka tegishli Qadimgi Bobil hukmdori Ahiram sarkofagi (qadimgi tosh tobut)dagi bitik hisoblanadi. Shuningdek, qadimgi Shumer madaniyatiga doir Gilgamesh dostoni (vujudga kelish tarixi miloddan avvalgi 2-ming yillik boshlariga to'g'ri keladi) turli mifologik obrazlarni qamrab olgani jihatidan ilk adabiy asarlardan biridir. Bundan tashqari, hinduiylikning asosiy manbasi vedalarning tarkibiy qismlaridan biri Rigveda miloddan avvalgi 1700–1100 yillar oralig'ida yaratilgan, qolaversa, hanuz muomala da bo'lgan ko'hna diniy manba sifatida baholanadi. Shu bilan birga, Avesto gatlарining yaratilishi borasida ilmiy jamoatchilik orasida turli qarama-qarshi fikrlar (taxminan mil.av. 1-ming yillikning birinchi yarmi) mayjud bo'lsa-da, mutaxassislar Avestoning eng qadimgi qismlari yozma shaklga keltirilmasdan ilgari og'zaki holatda yanada qadimiyoq tarixga ega ekanligiga ishonch bildiradilar. Shuningdek, aksariyat olimlar Tavrotning

yozma holatda shakllanishi ham bir necha asrlarni qamrab olganligini ta'kidlaydilar. XIX asr oxirlarida «Musoning besh kito-bi» to'rt asl mustaqil manbalarni jamlash orqali miloddan avvalgi 450-yilda yaratilgan, degan fikrni ilgari suruvchi isbot-dalilga ega gipotezalar negizida umumiy qarash mavjud edi (Yahve – mil.av. 900-y.; Elohim – mil.av. 800-y.; Ikkinch qonun yozuvchilari – mil.av. 600-y.; Ruhoniylargaga (priestly) oid manbalar – mil.av. 500-y.).

*Qarashlar.* Muqaddas matnlarga munosabat turlichadir. Ba'zi dinlar muqaddas matnlarni keng va erkin ravishda oshkor qiladilar. Ba'zilari muqaddas sirlar ishonchli va ta'sirli tarzda saqlanib qolishi uchun ularni ommadan yashirishga urinadi. Ko'p dinlar muqaddas matnlar miqdorini aniqlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kabi holatlarni oldini olishga asosiy e'tibor qaratadi. Ba'zi dinlar esa o'z muqaddas matnlariga nisbatan «Xudoning kalomi» sifatida yondashsalar-da, ammo ular xudo tomonidan vahiy qilinganligi sababli o'zgartirib bo'lmas jihatiga egaligi to'g'risida qarama-qarshi fikrlar bildiriladi. Matnlarni tarjima qilishga rasmiy ijozat olinadi, ammo asl muqaddas tilning qat'iy o'zgarmas ekanligiga e'tibor qaratiladi. Ba'zi dinlarda muqaddas matnlardan nusxa ko'chirish tekin va imtiyozli shaklda amalga oshiriladi, ba'zilarida esa bu borada to'lov va mualliflik huquqiga qat'iy rioya qilish talab qilinadi. Muqaddas matnlarga qo'yilgan turli belgilarni ham ularning orasidagi muayyan farqlarni ko'rsatuvchi jihat sanaladi. Masalan, ba'zi muqaddas matnlarda ma'lumotlarni bir-biridan ajratuvchi sahifalarning raqami bo'lsa (sikxizm), ba'zilarida esa berilgan ma'lumotlarni ma'lum nom va raqamlar (Ibrohimiy dinlar – sura, oyat) namoyon bo'ladij<sup>1</sup>.


## 2. Dirlarning muqaddas manbalariga umumiy taysif.

*Yahudiylik va xristianlik.* Yahudiylik diniy manbalarining asosiy qismi TaNaX tarkibiga kiradi. TaNaX yahudiylik muqaddas yozuv-

<sup>1</sup> Hillary Rodrigues, John S. Harding . Introduction to the study of religion. – USA. Routledge, 2009. – P. 101.

larini ibroniycha (qadimiy yahudiy tili) nomlanishi sifatida qabul qilingan. Bu xristianlik muqaddas manbalari tarkibiga kirgan Qadimiy ahd» qismiga to'g'ri keladi. TaNaX so'zi yahudiylik muqaddas yozuvlarining uch asosiy qismi — Tavrot (Musoning besh kitobi), Neviim (payg'ambarlar) va

Ketuvium (yozuvlar) so'zlarining bosh harflaridan kelib chiqqan. «TaNaX» atamasi dastlab yahudiylik ilohiyotining o'rta asarlarga oid asarlarida qo'llanilgan. TaNaX olam va odamning yaratilishi, ilohiy ahd va amrlar hamda yahudiy xalqi vujudga kelishidan Ikkinchı ibodatxona davri boshigacha bo'lган tarixni tasvirlaydi. Yahudiylikka ko'ra, yahudiy xalqi insonlarning sarasi bo'lganlari sababidan bu kitoblar muqaddas hisoblanadi hamda TaNaX yahudiylik dini mohiyatini yoritishi bilan bir qatorda xristianlik va islom dinining shakllanishida asos bo'lib xizmat qilgan. TaNaX 24 kitobni o'z ichiga oladi. Kitoblar tarkibi «Qadimgi Ahd»ning protestantlik oqimiga oid variantiga mos kelib, faqat kitoblarning joylashuvida farq kuzatildi. Lekin u boshqalardan ko'ra yaxshiroq tartibda ekanligini Bobil Talmudiga kelgan ma'lumotlar tasdiqlaydi. «Qadimgi Ahd»ning katolik va pravoslaviya oqimlariga oid variantida esa Septuaginta<sup>1</sup> kitobini ham qo'shimcha ravishda TaNaX tarkibiga kirganini ko'rish mumkin.



Tavrot

<sup>1</sup> Septuaginta — «Qadimgi Ahd»ning tarkibiga kirgan kitoblardan biri. Bu kitob eramizning boshida yahudiylik diniga e'tiqod qiluvchi Aleksandr tomonidan kiritilgan bo'lib, shu sababli ham ba'zi manbalarda Septuaginta Aleksandr kanoni (qonuni)ni nomi bilan ataladi. Septuaginta matnlarning joylashuvi va bo'limlarning tarkibiga ko'ra TaNaX dan yetarlicha farq qiladi. Bu farqni TaNaXdan farqli ravishda Septuagintada birinchi Ketuvim, so'ngra Neviim (payg'ambarlar kitobi) kelishida ko'rish mumkin. Shunga o'xshash bir necha o'zgarishlar sababidan bugungi kunda bu kitob yahudiylar tomonidan qabul qilinmaydi, faqatgina xristianlikka oid solnoma asarlarda uning nomi saqlanib qolgan.

*TaNaX tarkibiy qismi. Yahudiylik muqaddas manbalari yozilish janri va vaqtiga qarab uch qismga bo'linadi:*

*1. Tavrot yoki Qonun (Musoning besh kitobi).*

*2. Neviim (payg'ambarlar). U o'z ichiga payg'ambarlar hayotidan tashqari bugungi kunda tarixiy solnoma deb yuritiladigan bir necha kitoblarni qamrab oladi. O'z navbatida «Neviim» kitobi ham ikki qismga ajraladi.*

*Avvalgi payg'ambarlar kitoblari: Iisus Navin, «Hukmlar», Samuilning ikki kitobi va ikkita «Podshohlik» kitobi;*

*Keyingi payg'ambarlar kitoblari: ular uchta katta payg'ambar – Isaiya, Ieramiya, Iezekiil va 12 ta kichik payg'ambarlar kitoblari dan iborat.*

*3. «Ketuvim» qismi «Zabur», «Qissalar», Iov kitobi, Solomonning «Qo'shiqlar qo'shiqlari», Ruf kitobi, «Ieramiya yig'isi» va solnomalar kitobini o'z ichiga oladi.*

*Talmud.* Yahudiylik diniy manbalaridan yana biri Talmuddir. Talmud (qad.yahud. «lameyd» – «o'rganish») – o'z tarkibida Mishna va Gemara (ya'ni, Galaxa – yahudiy dini qonunlari) ni jamlagan, yahudiylik diniy-axloqiy me'yorlari va qonunlaridan iborat ko'p jildlik to'plamdir. Ortodoksal yahudiylikning markaziy nuqtasida Muso payg'ambar Tur tog'ida bo'lgan paytda Tavrotning qabul qilib olganligiga ishonish yotadi. Yozma TaNaXdan farqli o'laroq, yuqoridagi vaziyatning tafsiloti avloddan avlodga og'zaki ravishda o'tib kelishi natijasida Talmud shakllandi.

«Galaxa» deb nomlangan diniy qonunlarga oid matnlarni hisobga olmaganda, Talmud ko'p sonli mifologik va ertakona sujetlar, xalq afsonalari, tarixiy, tibbiy hamda sehrgarlik matnlarini qamrab olgan. Bularning barchasi «Agada» deb yuritiladi. Talmud tarkibiga kirgan asarlarning asosida TaNaXga, ayniqsa, uning birinchi qismi hisoblanmish Tavrotga yozilgan sharhlar yotadi.

Talmud tarkibiy tuzilishi to'g'risida gapirganda, undagi matnlar turli tillarda ekanligi e'tiborni tortadi. Talmudning aksariyat qismi oromiy tilining turli shevalarida yozilgan bo'lib, ular

qadimgi yahudiy so'zları, iboralar va tushunchalar hamda Tavrotda uchraydigan lavhalardan olingen iqtiboslardan iborat. Shuningdek. Talmudda taxminan 2.500 ta qadimgi yunon va yaqin sharq tillari, ba'zida esa fors va lotin tillariga oid shevalardagi so'zlar uchraydi.

Qadimdan Talmud mantlari sintantik elementlar bilan belgilanmagan bo'lib, abzatslarni bir-biridan ajratilmaganligi o'qishda murakkablik tug'dirgan, bu esa bir munozarani boshlanishi hamda tugash nuqtalarini aniqlashda qiyinchiliklarga olib kelgan.

Talmud matnlarining mazmun-mohiyati haqida gapiradigan bo'lsak, unda yahudiylarning esxatologik (oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo to'g'risidagi) tasavvurlari o'z aksini topgan. Talmudda yahudiylilikning marosimlari, urf-odatlari aniq bayon etilgan bo'lib, ular 248 ta buyruq va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yahudiylar orasida din, firqa, guruhlar (saduqiylar, farziylar, yesseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar yahudiy dinining asosini tashkil etadi.

Xristian Bibliyasi Eski va Yangi Ahddan tashkil topgan. Eski Ahd tom ma'noda yahudiylilik tarixiga oid ma'lumotlarni qamrab olgan bo'lishiga qaramay, Bibliya tarkibiga kiritilishi uni Iso Masih kelishi to'g'risida xabar beruvchi manba deb hisoblanishi bilan bog'liq. Ammo Eski Ahd tarkibidagi kitoblarni joylashuvi bo'yicha xristianlik yo'nalishlari o'rtaida muayyan farqlar kuza tiladi. Masalan, katolik va pravoslav yo'nalishda Eski Ahdning aksariyat ilova kitoblari (deutero-canonical books) Bibliya tarkibiga kiritilgan. Sulaymon donishmandligi, Tovit va Djudit qissasi,



1407-yilda ko'chirilgan  
Xristian Bibliyasi

Makkebian tarixi kabi kitoblar shular jumlasidan. Bu kitoblar xristianlik dini vujudga kelishidan oldingi ikki asr mobaynida yahudiy aholi orasida iste'molda bo'lган hamda diniy kitoblarning (scriptures) yunoncha tarjimasi — Septuaginta tarkibiga kiritilgan. Yangi Ahd ham ilk bor yunon tilida yozilgan, dastlabki xristian

jamoalarining ko'pchiligini yunon tilida gaplashuvchilar tashkil qilgan, shu bois, ular Eski Ahd sifatida Septuagintadan foydalananishgan. Biroq, milodiy I asrda (90-y.) yahudiy ruhoniylari tomonidan mazkur kitoblar ibroniy diniy manbalar (The canon of Hebrew scriptures) sirasiga kirmasligi belgilab qo'yildi. Shuning uchun protestantlik yo'nalishi ilk namoyondalari Bibliya tarkibini belgilashda ibroniy ravvinik matnlar standartini asos qilib olib, Bibliyaning mahalliy tillarga tarjimasi (Lyuter tarjimasi yoki inglizcha qিrol Iakov Bibliyasi)da yuqoridagi kitoblarni kirimadilar. Protestantlik Bibliyasiga kirmagan ushbu qism Apokryfa (The Apocrypha) deb nomlandi. Keyinchalik Rim katolik cherkovi tomonidan Trent sobor<sup>1</sup>ida mazkur kitoblarni muqaddas diniy manba sifatidagi maqomi qayta tiklandi. Shuningdek, ular pravoslavlik yo'nalishi muqaddas kitoblari qatorida saqlanib qoldi. Qolaversa, hozirda bu kitoblar Bibliyaning zamonaviy tarjimalari ichiga kiritilgan.

*Yangi Ahd to'rtta xushxabar (The Gospel)ni o'z ichiga oladi:  
Matto, Mark, Luka va Yuhanno.*

<sup>1</sup> Rim katolik cherkovi tomonidan 1545—1563-yillar orasida Italiyaning Trento shahrida protestantlik harakatini qoralashga bag'ishlanib o'tkazilgan sobor bo'lib, unda an'anaviy katolik e'tiqodlari qayta belgilangan hamda «aksil-islohotchilik kompaniyasi» maqsad-vazifalari ishlab chiqilgan.

Yangi Ahd to'rtta xushxabar (The Gospel)ni o'z ichiga oladi: Matto, Mark, Luka va Yuhanno. Bulardan dastlabki uchtasida Iso Masih hayoti va faoliyati, o'lumi va vafotining uchinchi kuni qayta tirlishi haqidagi o'xshash xabarlar jamlanganligi uchun «sinoptik xushxabar» (bir tekis yig'ma, to'plangan) deb ataladi. Yuhanno Injilida esa asosiy nuqta payg'ambarning xaloskor sifatida namoyon bo'lishi hisoblanib, ruhni bu dunyo iztiroblaridan xalos qilishni «aql bovar qilmas namunasi» Iso Masih hayoti misolida tasvirlanadi. Shu bilan birga, Yangi Ahd havoriylar (masalan, Pavel (Paul), Peter (Peter), Iakov (James), Yuhanno (John) va b.) maktublaridan iborat bo'lib, ularda milodiy I asrda ilk cherkov faoliyatini tashkil qilish uchun zarur hisoblangan ilohiyot, ta'limot, e'tiqod va axloqqa oid masalalar muhokama qilinadi. Xavoriylar maktublari orasida – rimliklar, korinfliklarga birinchi va ikkinchi, galatiyalik, filippinliklar, salonikaliklar va Filimonga jo'natilgan nomalar Pavelga tegishli ekanligida shubha bildirilmaydi. Qolganlari esa mazmunan Pavel maktublariga o'xshashligi yuzasidan ular ham Pavelga ta'miniy nisbat beriladi. Umuman olganda, Yangi Ahd tarkibiy qismini tashkil qilgan «Havoriylar faoliyati» kitobi birinchi Troitsa bayrami<sup>1</sup>dan apostol Peter va Pavelning xristianlik dinini yoyishga bag'ishlangan safari (Evangelical tour) amalga oshgunga qadar bo'lgan davr haqida hikoya qiladi. Yangi Ahdning yana bir qismi sanaluvchi «Vahiy» kitobi dunyoning oxiri va Yer yuziga Iso Masihning ikkinchi tushishi xususida xabar beradi. Yangi Ahdni tashkil etgan barcha kitoblar Iso Masih vafotidan keyingi dastlabki yuz yillik ichida yozilgan bo'lib, ulardan qaysi biri Yangi Ahd tarkibiga kirishi yoki olib tashlanishi to'g'risidagi yakuniy qarorga milodiy IV asrdagina keltingan.

*Islom.* Islom dinining muqaddas manbayi Qur'on – bosqichma-bosqich Jabroil farishta vositasida o'qish va yozish-

<sup>1</sup> Troitsa kuni (bayrami) – pasxa bayramidan keyingi yettinchi yakshanba kuni o'tkazilib, unda Iso Masih osmonga ko'tarilgach, uning shogirdi qiyofasida Muqaddas Ruhning tushishi hodisasi nishonlanadi.

ni o'rganmagan Muhammad (s.a.v.)ga nozil bo'lgan, farishta Qur'on oyatlarini Payg'ambarga tilovat qilib turgan, o'z navbatida, Payg'ambar ularni o'z ummatiga o'rgatgan, ular esa oyatlarni yodlab, barg va qog'oz parchalariga yozib qo'yganlar. Qur'on oyatlari to'liq kitob holatida zamon talabidan kelib chiqib, muayyan shartlar asosida payg'ambar vafotidan so'ng jamlangan. Natijada, Qur'on oyatlarining hajmi katta-kichikligiga qarab hamda hayotlik chog'ida Payg'ambar (s.a.v.) bergan ko'rsatmasiga monand ravishda tartiblangan 114 suradan iborat mus'haf ko'rinishiga keltirildi. Bugungi kunga qadar Qur'on dunyoning turli tillariga tarjima qilindi, ammo, musulmon ulamolar tomonidan qilingan bu tarjimalar arab tilidagi Qur'on kabi «ilohiy xabar beruvchi» sifatini tom ma'noda ochib bermaydi, deb ishoniladi. Buning sabablari bilan quyidagi mulo-haza orqali tanishish mumkin.

*Islom manbalari deganda, avvalambor, Qur'oni karim va hadisi sharif tushuniladi. Ushbu manbalarni o'qish, tushunish va talqin etishning o'ziga xos shartlari mavjud. Zero, muqaddas manbalarni shunchaki talqin etish ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar orasida ixtilofli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.*

Ilk islom tarixida paydo bo'lgan turli firqa va oqimlar Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan keyin Qur'oni karim oyatlarini o'z manfaatlariiga mos tarzda talqin eta boshladilar. Bunda ko'pincha e'tiqod, ibodat, hokimiyat masalasidagi oyatlarga urg'u berar edilar. Xususan, imon masalasida ilk islom tarixida shakllangan xorijiyalar, mo'taziliylar, shuningdek, shialikda yuzaga kelgan firqalar orasida ixtilofli tortishuvlar yuzaga keldi. Ushbu masalaning naqadar muhim ekani shunda ham ko'rindiki, mazkur oqimlar kimni imonli, ya'ni mo'min deb hisoblash mumkin va kim imonsiz yoki kofir deb hisoblanadi, degan masalada bahsga kirishdilar. Natijada o'zları «kofir» yoki «fosiq» deb hisoblagan kishilarga qarshi urush e'lon qilish, go'yoki «jihad»ni amalga oshirishni da'vo

qilib chiqa boshladilar. Islomning asl tinchlik mohiyatini buzishga ko'plab urinishlar bo'lди.

Mazkur harakatlar mohiyatini chuqur o'rgangan islom ulamolari diniy manbalarni talqin etish bo'yicha qat'iy shartlar va mezonlarni ishlab chiqdilar. Xususan, Qur'oni karim oyatlari ma'nosini tushunishda vosita bo'lib xizmat qilgan «tafsir», «tahvil», «tarjima» tushunchalari yuzaga keldi.

*Qur'oni karim oyatlarini tafsir qilishda ikki yo'l mayjud bo'lib, bular – «at-tafsir bil-ma'sur» (Qur'on, Sunnat yoki sahoba va to-biinlardan asar bo'lib kelgan naqllar asosida tafsir qilish) hamda «at-tafsir bir-ra'y» (muayyan shart va chegaralar asosida oyatlarni aql-u tafakkur yordamida tafsir qilish) hisoblanadi. Imom Moturidiy keltirishicha, o'z navbatida, bu borada naql va aql hukmlarini mukammal bilish talab qilinib, bunda naql hukmlari – Qur'oni karim, sunnati nabaviy, muhkam va mutashobih, nosix va mansux, xabar, uning shartlari, aql, nazar, ta'vil, ijтиhad, dalil va hujjatlarni keltirish hukmlarini ham bilish kerak.*

*Ta'vil – bir lafzda ehtimoli bor bo'lgan ikki ma'noning bittasining tanlanishi va uning quvvatlanishini bildiradi. Qur'oni karimda «ta'vil» so'zi bir necha (tafsir va ta'yin, ofiyat va oqibat, bashorating amalga oshishi, tushning ma'nosи, amalga oshirilgan ishning sababi) ma'nolarda keladi. Islom olimlari nazdida ta'vil qiluvchidan ikki narsa talab qilinadi: 1) ta'vil qilinayotgan lafzning asl ma'nosidan tashqari ikkinchi uzoqroq ma'nosи ham bor ekanligini, bu yerda shu uzoqroq ma'nosи murod ekanligini isbotlash; 2) lafzning asl ma'nosini emas, uzoqroq ma'nosini tanlashga nima majbur etganligini isbotlovchi dalil keltirish kerak bo'ladi.*

Qur'oni karimni so'zma-so'z tarjima qilish, deganda esa oyatlarni bir tildan ikkinchi tilga, nazm va tartibini, asl ma'nuning saqlanishini rioya qilgan holda o'girish tushuniladi. Mutaxassislar nazdida Qur'oni karim oyatlari tarjimasi ikki xil bo'ladi: 1) asli-

ga o‘xshagan tarjima. Bunda oyatlarning har bir so‘zi barobari-  
ga boshqa lug‘at so‘zlari qo‘yiladi, oyatlarning va undagi so‘zlar-  
ning nazm va tartibi o‘zgarmaydi. Hattoki asl matndan bilinib  
turgan balog‘at va fasohat ham o‘zgarmagandek tuyuladi; 2) asli-  
ga o‘xshamagan tarjima. Bunda tarjimon Qur‘on nazmiga e’tibor  
qilmagan holda, toqati yetgancha oyatlar mazmunini boshqa til-  
ga o‘girib beradi.

*Islom dinida musulmon-  
larning turmush tarzini tash-  
kil qilish uchun Qur‘oni  
karim oyatlaridan keyin ik-  
kinchi asos Payg‘ambar  
hadislari hisoblanadi. Hadis  
(arab. «xabar», «yangilik»)  
— Muhammad (s.a.v.)ning  
aytgan so‘zlari, qilgan ish-  
lari, ko‘rsatmalari to‘g‘risi-  
dagi rivoyatlar.*

Manbalarda qayd etilishicha,  
Qur‘oni karimni boshqa tillar-  
ga tarjima qilish harakati ancha  
qadimdan boshlangan. Ayniqsa,  
arab bo‘lмаган xalqlarning islam  
dinini qabul qilishlari bu harakat-  
ga asosiy sabab bo‘lgan. Garchi, is-  
lam olimlari oyatlarni har qanday  
tilda sharhlab, tafsir qilishga rux-  
sat bersalar-da, biroq so‘zma-so‘z  
tarjima qilib yozishga mutlaqo izn  
bermaganlar, zero tarjimani yozib  
qo‘yishlik bilan Qur‘on mazmuni

shundangina iborat degan idda bo‘ladi, deb uning mas’uliya-  
tidan qo‘rqanlar.

Hadis ikki qismdan iborat bo‘ladi: matn va isnod. Hadis ik-  
ki turga bo‘linadi: 1. Hadisi qudsiy. 2. Hadisi nabaviy. Hadislar  
e’tiborga olinishi jihatidan yana uch qismga bo‘linadi: 1. Sahih.  
2. Hasan. 3. Zaif. Qur‘oni karimda barcha huquqiy va axloqiy  
masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish  
va izohlab uqtirish uchun Muhammad (s.a.v.) o‘z hadislarini ay-  
tardi. Hadislarini payg‘ambarning safdoshlari yodda saqlashga ha-  
rakat qilardi. Rasululloh (s.a.v.) hayotlik chog‘ida sahobalarning  
Qur‘oni karimga hadislarini aralashtirib yuborishlaridan qo‘rqib,  
hadislarini yozishdan qaytarar edi. Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan  
so‘ng hadislarini naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bi-  
lan bir guruh musulmonlar Payg‘ambar (s.a.v.) hadislariga begona

so'z aralashib qolishidan va hadis naql qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan hadis zoye bo'lishidan qo'rqiб, uni yozma shaklda to'play boshladilar. Bu odamlar turli yurtlarga tarqalib ketganlar. VII asr o'rtalaridan boshlab ularni topib, hadislarni og'izlaridan yozib olishga harakat qilingan. Bunda turkistonlik muhaddislar katta xizmat qilishgan.

*Islom olamida eng obro'li hisoblangan hadis to'plamlari qu-yidagilar hisoblanadi: 1) «al-Jomi' as-sahih» yoki qisqacha, «Sahihi Buxoriy»; 2) «Sahihi Muslim», 3) «Sunani Termiziy»; 4) «Sunani Abu Dovud»; 5) «Sunani Nasoiy»; 6) «Sunani Ibn Moja». Shuningdek, Ibn Hanbal musnadi ham katta shuhrat qozongan.*

**Zardushtiylik.** Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi II—I ming yilliklarda vujudga kelgan. U dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri hisoblanib, unga mil.av. XII—VI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari e'tiqod qilganlar.

*Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan monoteistik ta'limot hisoblanadi. Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilishi, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ilik, hayot va o'lim o'rtasidagi abadiy kurashi haqidagi g'oyalari yotadi. Barcha yaxshiliklarni Ahura Mazda va barcha yomonliklarni Ahramanyu (yoki Ahriman) ifodalaydi.*

Zardushtiylik boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir, deyish mumkin. Zardushtiylikda har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tananing qayta tirlishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqidagi ta'limotlar mavjud. Zardushtiylik dini Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa, mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish «Avesto»da u «Mazdayasna» dini

deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi ma'nolarda talqin etiladi. Zardushtiylik shuningdek, «Be'din», ya'ni «Eng yaxshi din» degan nom bilan ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Ahura» qo'shilib, zardushtiylikning ilohiyoti – Ahura Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir.

Zardushtiylikda imon fikrlar sofligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligiga asoslanadi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, Quyoshga qarab, uni olqishlab sig'inishi shart hisoblangan. Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, yer va havo ulug'lanadi.

VIII asrda Markaziy Osiyoga islom dini kirib kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan. Tarixiy sharoitlar ta'sirida zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi jamoalar soni qisqarib, bugungi kunda taxminan 100 ming nafarni, ularning aksariyatini esa Hindistonning Bombey shtatiga taalluqli rayonlardan birida yashovchi parslar<sup>1</sup> tashkil qiladi.



Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblanadi. U «Apastak», «Ovisto», «Ovusto», «Abisto», «Avasto» kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. Avesto Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining

<sup>1</sup> Pars – VIII asrda Fors ko'rfazi musulmonlar tarafidan egallanishi natijasida Hindiston va Pokistonga qarab yo'nalgan zardushtiylik tarafdorlari nomi.

islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, olam to'g'risida-  
gi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatini o'rganishda  
muhim manba sanaladi.

U bizgacha to'liq holda yetib kelmagan. Bizgacha yetib kel-  
gan Avesto, Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi  
xolos. U: «Avesto 30 nask (bo'lim) edi, majusiylar (zardushtiylar)  
qo'lida 12 nask chamasi qoldi», — deb yozgan.

Avesto qismlar, ya'ni kitoblardan iborat bo'lib, ularning orasi-  
da asosiy liturgik (ommaviy ravishda bajariladigan ibodatlarga  
xos) matn sifatida Yasna qaraladi. Yasna asosini gatlar tashkil  
qilib, u Zardusht va uning bevosita izdoshlari tomonidan bayon  
qilingan madhlarni qamrab oladi. Shuningdek, gatlar zardush-  
tiylikka oid ibodatlarning bajarilishida birlamchi o'rinn tutadi.  
Avestoning boshqa bir kitobi Vidavdod bo'lib, u gunohlardan  
poklanishga tegishli qoidalar majmuasidir. Visparad esa «kichik  
xudolar» (spiritual lords)ga atalgan lita-  
nik (xudoga murojaat paytida yig'lamsi-  
rab aytildigan yoki o'qiladigan ibodatga  
oid) rituallar to'plamidir. Avestoning ya-  
na bir Yasht kitobi Zardusht qahramon-  
liklarini badiiy tarzda ifodalovchi hiko-  
yalarni o'z ichiga oladi.

*Hinduiylik.* Hind diniy an'anasi dunyo-  
dagi boshqa diniy ta'llimot va amaliyot-  
lardan o'zida turfa xillikni kasb etganli-  
gi jihatidan tubdan farq qiladi. ularning  
ba'zilari monistik (dunyoning negizi bit-  
ta deb bilish) xarakterga ega, boshqasi ha-  
qiqat ilohiy Ruh (purusha) hamda dast-  
labki moddiy tabiat (prakriti)ning o'zaro  
bog'liqligida deb faraz qilishi, yana bi-  
ri nomsiz va shaklsiz xudoga turli nom  
va shakllarni nisbat berib, yagona xudoga  
e'tiqod qilayotganini da'vo etishi yuqori-



dagi fikr tasdig'idir. Hinduparast Krishna, Shiva yoki ham odam, ham xudo qiyofasidagi yaxlitlik tarzida tasavvur qilinuvchi Brahma timsolida Tangriga ibodat qilishi mumkin, bunda, u yagona Mutlaq Haqiqat ramzi sifatida ular (uch xudo)ning barchasiga hurmat bajo keltirgan hisoblanadi. Hinduparast mazkur uchlikka e'tiqod qilsin yoxud Ma'buda Durga<sup>1</sup>ga topinsin, bu holat mahalliy ta'llimotga binoan, muqaddas diniy manbalardagi ko'rsatmalarga zid xatti-harakat deb baholanmaydi. Bu tog'risida Rigvedada quyidagicha ma'lumot keladi: «Haqiqat bitta, ammo izlovlchi uni turli nomlar bilan ataydi».



<sup>1</sup> Durga — buqa qiyofasidagi iblisga qarshi yo'lbars yoki sherga minib olgan holda kurashayotgan sakkiz yoki o'n qo'lli ko'rinishda tasvirlanadigan ma'buda.

Umuman olganda, hinduiylik e'tiqodiy qarashlari va amaliyatini quyidagi tartibda ko'rsatish mumkin: 1) Brahma yoki Mutlaq Haqiqat (Ultimate Reality – hinduiylikda xudo haqidagi ta'lilot) turli qiyofada namoyon bo'ladi; 2) bu haqiqatni tana a'zolari (margas) orqali anglab yetish; bilim (jnana yoga), ibodat (bhakti yoga) va amal (karma yoga); 3) haqiqatga qovushib ketishga erishish; 4) dunyo hayoti vaqtinchalik va Haqiqatga yetishdan uzoqlashtiruvchi ekanligini tushunish; 5) inson o'ylayotgan har bir fikri, aytayotgan so'zi va bajarayotgan xatti-harakatiga mos ravishda jazo yoki mukofot olishi haqidagi g'oyani ifodalovchi «karma» ta'lilotiga qat'iy amal qilish; 6) «qayta tug'ilish» (reincarnation) ta'liloti – kimgadir ahvol o'nglanish uchun imkoniyat, kimgadir uzlusiz iztiroblar domiga tushish manbayi ekanligini tushunish yoxud insonlarining taqdiri va ijtimoiy sharoiti o'rtasida mavjud notenglik xudo tomonidan birini e'zozlash, boshqasini tahqirlash natijasi emas, balki karmaga mos xatti-harakat qilmaslik mas'ulligini bilish; 7) Vedalarni ulug'lash; 8) oilaviy va ijtimoiy hayat an'analariga hurmat ko'rsatish; 9) hayatning to'rt maqsadini – halollik (dharma), boylik (artha), nafs (kama), axloqiy yetuklik (moksha/nirvana) – to'g'ri tushunish; 10) ijtimoiy tabaqalar (kasta tizimi) va ular-

*Brahmin*  
priests

*Kshatriya*  
warriors, kings

*Vaishya*  
merchants, landowners

*Sudra*  
commoners, peasants, servants

**Untouchable, outcaste, out of caste**



ning har biriga muvofiq belgilangan vazifalar hayotiy voqelikka asoslanganligini idrok qilish.

Ayrim istisnoli holatlarni inobatga olmaganda, mazkur e'tiqodiy qarashlar hinduiylikning barcha sektalariga taalluqli qoidalar sifatida qabul qilingan. Qolaversa, ayrimlari jaynizm, sikxizm va buddizm kabi dinlar tomonidan inkor qilingan bu diniy e'tiqodlar hinduiylik jamoasini boshqalardan ajratib turuvechi xususiyati bo'lib qoldi.

Hinduiylik an'anasi shakllanishi iildizlari bir necha manbaga borib taqaladi. Bulardan eng qadimiy va nufuzlisi vedalar bo'lib, u Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda kabi qismlardan iborat. Keyinchalik dindorlarga vedalar mazmunini tushuntirish uchun yozilgan samxita, brahma, aranyaka va upanishadlar singari shar'iy asarlar ham vedalar tarkibiga qo'shildi.

Vedalar uch ming yildan ortiqroq davr mobaynida avlod-dan-avlodga og'zaki ravishda o'tib keldi. Vaqt o'tgach, bosqich-ma-bosqich yozila boshlandi, shu tarzda, vedalarga xos madhiyalar, rituallar o'tkazish tartibi, kuylar va duolar yozuvga qayd qilindi. An'anaviy veda kuylarining qat'iy uslubi mavjudligi ularni turli o'zgarishlarga uehrashidan saqlab qoldi. Veda madhiyalaring aksariyati asosan borliq haqiqatining jonli timsoli sifatida e'tirof etiluvechi tabiat kuchlarini ulug'lashga bag'ishlangan. Qayd etib o'tmoq lozimki, vedalarda kelgan rituallarning barchasi zamonaviy hunduparast tomonidan bajarilmasa-da, umuman, ular qadimgi hind kishisining dunyoqarashi va tafakkur tarzi haqidagi tasavvur hosil qilishga yordam beradi.


Qolaversa, hinduiylik tarafдорларининг hayot shaklini tashkil etishda vedalarga yozilgan izohiy asarlar alohida o'rin tutadi. Ulardan biri Brahma vedalarning nasriy ifodasi bo'lib, u sathapata va tandyamahaga bo'linadi. Upanishadlar 108 tani tashkil qilib, ular turli vaqtlar oralig'ida (mil.av. 900-y. mil.av. 200-y.) yozilgan hamda vedalarning muayyan saralangan qismiga tegishlidir. Etimologik nuqtayi nazardan «upanishad» so'zi «yaqin o'tirish» ma'nosini bildirib, bunday nomlanishining sababi upa-

nishadlar qadimgi hakimlar tomonidan halqasimon shaklda o'tirgan o'z o'quvchilariga aytilgan falsafiy va axloqiy ta'lilmotlarni qamrab olgani bilan bog'liq.

*Sikxizm.* Bu din xudo ni ulug'lash va ezgu hayotning asosi sifatida xudbinlikdan chetlashishni targ'ib qilishi orqali yakkaxudolik unsurlarini o'zida namoyon etadi. Sikxizmga milodiy XV asrda Panjobda Guru Nanak tomonidan asos solingan bo'lib, bugungi kunda bu din taxminan 20 mln. nafar tarafidorga ega. O'z davrida, Nanak va uning to'rt shogirdi insonlarning martabasi din yoki ijtimoiy tabaqaga ko'ra farqlanishini qoralab, biror e'tiqod yoxud kasta qatlami emas, balki qalb musaffoligi hamda ibodat sokinligiga erishishgina xudo huzurida banda mavqeyini ko'rsatuvchi omil ekanligini targ'ib qilganlar.

Boshqa dinlar kabi sikxizm ham o'zining muqaddas kitobiga ega. Uning muqaddas kitobi – «Adigrantx» («Boshlang'ich kitob») bo'lib, beshinchi guru Arjun (1581–1606) tomonidan tuzilgan. U shuningdek, «Gururantx» («Guru kitobi») yoki «Grantxsahib» («Sohibning kitobi») nomlari bilan ham ataladi. Unga avval dastlabki besh guruning, keyinchalik esa boshqa gurularning madhiyalari kirgan. Jumladan, Kabirning, Namdevning, Farididdin Ganjishakarning (XV asr) madhiyalari bilan bir qatorda bir necha Bhakti va so'fiylik harakati namoyondalarining ham madhiyalari kirgan. U panjob tili da yozilgan bo'lib, hozirgi kunda Amritsardagi sikxlarning bosh ibodatxonasi hisoblanmish «Oltin Haram»da saqlanadi.





*Jaynizm.* Hindistondagi o'ziga xos diniy manbalar, tarix, chuqur falsafiy an'ana hamda taxminan 10 mln. nafar tarafidorga ega diniy-falsafiy ta'limotlardan biri. Navqiron Hind madaniyatining bir qismi hisoblanishiga qaramay, jaynizm ta'limotida veda dini an'analar, ularga oid shar'iy kitoblar (Upnishadlar) va ularda uchraydigan turli ma'budlar nufuzi inkor qilinadi. Aksincha, jaynizm barcha tirik jonzotlarga ozor yetkazmaslik to'g'risidagi (ahimsa) e'tiqodi bilan buyuk hind sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatganligi e'tirof etiladi. Jaynizmda inson qayta tug'ilish silsilasidan ozod bo'lishi uchun karma ta'limotiga qat'iy rioya etishi talab qilinadi. Kiishi karma iskanjasidan nafsi xalos etish maqsadida tarkidunyochilik yo'lini tutishi va kelajakda, amal, so'z, fikr borasida haddan oshishlikka yo'l qo'ymasligi kerak bo'ladi. Jayniylik e'tiqodiga binoan, inson tarafidan sodir etiladigan gunohlar havoyi nafsga erk berish natijasidir. Shundan kelib chiqib, jaynizmda «xudo» yoki «yari-modam xudo» tushunchasi mavjud bo'lmay, balki har bir shaxs o'z nafsi karma asirligidan xalos qilish orqali oliylik, mukammallik martabasiga erishishi mumkin, deb ishoniladi.

Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu ta'limotga 24 tirtxakar (payg'ambar yoki avliyo) asos solgan. Ularning bar-chasi Kshatriylar xonadonidan bo'lgan. Ushbu tirtxakarlarning 22 tasi haqida ma'lumot deyarli yo'q, 23-si — Vardxamana Maxavira (mil.av. 599—527)dan 250-yil avval yashagan Parshvanadxa — Banoras podshohi Ashvasanning o'g'li bo'lgan. Biroq rohiblik yo'lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etgan. U o'zidan keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko'rsatmalar qoldir-

Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu ta'limotga 24 tirtxakar (payg'ambar yoki avliyo) asos solgan. Ularning bar-chasi Kshatriylar xonadonidan bo'lgan. Ushbu tirtxakarlarning 22 tasi haqida ma'lumot deyarli yo'q, 23-si — Vardxamana Maxavira (mil.av. 599—527)dan 250-yil avval yashagan Parshvanadxa — Banoras podshohi Ashvasanning o'g'li bo'lgan. Biroq rohiblik yo'lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etgan. U o'zidan keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko'rsatmalar qoldir-

gan. Vardxamananing ota-onasi, oila a'zolari Parshvanadxanining dinida bo'lganlar. Vardxamanada yoshligidan jaynizm ta'lomitiga kuchli qiziqish paydo bo'lgan. Shunday qilib, Vardxamana ning o'zi jaynizmning navbatdagi va so'nggi tirtxakari bo'lib yetishgan.

Jaynizmning asosiy qoida-tamoyillarini o'z ichiga olgan 45 ta asar mavjud bo'lib, ular Maxavira tomonidan bitilgan. Biroq, mil. av. III asr atrofida og'zaki matnlarni kitob holatiga keltirish maqsadida qilingan harakatlar oqibatida jaynizm ikki oqim – shvetambarlar yoki svetambarlar («oq kiyim kiyganlar») va digambarlar («moviy kiyim kiyganlar»)ga bo'linib ketgan. Digambarlar jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko'proq ahamiyat ber ganlar. Ular Rishabxanining qadimiy qonunini yo'qolgan deb hisoblab, shvetambarlardagi matnlarni haqiqiy emas, deb e'lon qildilar. Jaynizmning ikki oqimiga bo'linishi har ikki oqimning o'ziga xos urf-odatlari, kiyinishi va boshqa hayotiy qirralarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, ular asosiy diniy qoidalar da o'zaro farqlanmaydilar.

Jayn muqaddas diniy matnlari Maxavira va'zлari bilan bosh lanib, ular Maxaviraning shogirdlari tarafidan qadimgi prakrit tilida yozib olingan. Keyinchalik uning asl nusxasi yo'qolib, muqaddas matnlarni saqlanib qolgan qismlaridan foydalaniib, asosiy diniy manbani prakrit va sanskrit tillarida qayta tiklashga majbur bo'lingan.

Shvetambar jaynistlari qo'lidagi diniy manba 12 ta asosiy bo'lim (anga) va 34 ta qo'shimcha matnlar (angabahya)dan iborat. Birinchi bo'lim Asarangasutra bo'lib, u ruhoniyl erkak va ayol uchun belgilangan qoidalar hamda Maxavira hayot yo'lini ifodalovchi biografiyani qamrab oladi. Ikkinci bo'lim Sutrakritangada esa jaynizm e'tiqodi hinduiylik va buddaviylik ta'lomit lari bilan solishtirilib tushuntirib berilgan. Yuqorida zikr qilin gan 34 ta qo'shimcha matnlar orasida eng mashhuri sanalgan Uttaradhyana Sutradagi esa Maxaviraning eng so'nggi va'zi deb ishoniluvchi e'tiqodlar va dialoglar bayon qilinadi.


*Buddizm.* Buddizm qadimiy hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, o'ziga xos nazariyot va amaliyotdan iborat bo'lgan diniy tizimdir. Buddha yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan, balki har bir inson tug'ilish va o'llim mashaqqatlaridan qutulishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan bir necha ko'rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta'limoti insonning xayolida, ishlari da va o'zini tutishida samimiy oljanoblik g'oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta'limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurbon qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniy-

larning boshqalardan ustunligini inkor qildi.


Budda «Yaratuvchi oliy kuch»ning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir.

Budda ta'limotining asosida «Hayot – bu azob. uqubat» va «Najot yo'li mavjud» degan g'oyalar yotadi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar Buddaning ilk da'vatida ta'birlangan to'rt haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ullardan eng asosiyi Tripitaka (yoki Tipitaka – «uch savat» ma'nosini anglatadi). U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular – Buddha turg'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari – Sutra pitaka, rohib-



lik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari – Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammo-larini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat.



像教行子孔師先



*Konfutsiylik.* Konfutsiylikning ilk vujudga kelgan davridan boshlab axloq masalasi birinchi o'ringa qo'yilib, diniy e'tiqod ikkinchi darajali sanalgan. Diniy masalalar, ya'ni aqidalarga konfutsiylik ancha sovuqqon munosabatda bo'lib, ba'zi o'rinnarda ularni inkor ham qiladi. Konfutsiy o'z vaqtida Qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ruhlarga e'tiqod qilish masalasiga shubha bildirib, g'ayritabiyy narsalar va ruhlar to'g'risida gapiushni yoqtirmagan. Undan Daosist ibodati, sehru joduni amal-

ga oshirish talab qilinganida: «Mening hayotim, ibodatimdir», deya javob bergen.

Bu din vakillari jannat, do'zax, qayta tirilish kabi g'aybiy narsalarga ishonmaydilar. Ularning bor e'tiborlari dunyo hayotini isloq qilishga qaratilgan. Ruhlarning jasaddan chiqqanidan keyin qayerga borishiga qiziqib ham ko'rmaydilar. Hatto shogirdlari dan biri Konfutsiyidan: «O'lim nima?» – deb so'riganida, u: «Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o'lim nima ekanligini qayerdan ham bilar edik», deb javob bergen.

Lekin ular qazo va qadarga ishonadilar, agar gunoh va qabih ishlar ko'payib ketsa, Osmoning bunga nisbatan jazosi zilzila va vulqon kabi shakllarda bo'lishiga e'tiqod qiladilar. Shuningdek, ularning e'tiqodida jazo va mukofot, shu dunyoning o'zidayoq bo'ladi. Bundan tashqari, mazkur din ta'limotlaridan biri davlat rahbarlari Omon o'g'llari bo'lib, ular adolatdan uzoqlashib zulmga yo'l qo'ysalar, Omon ularni bu ishdan chetlatadigan va boshqaruvni qo'lga oladigan odil kimsalarni boshliq qilib qo'yadi.

Bu dinding muqaddas matnlarini tashkil qiluvchi ikki diniy-adabiy kolleksiya (majmua) mavjud. Bular «Besh Klassika» (Wou King) va «To'rt Kitob» (Se Chou) deb nomlanuvchi kitoblardir. Biroq, bu kitoblarning barchasi diniy bo'lmay, ularning ichida dinga aloqasi bo'lмаган kitoblar ham uchraydi. Besh kitob (Wou King) quyidagi kitoblardan iborat:

1. «I-Szin» (Yi King – o'zgarishlar kitobi, sehrgarlik va duolar majmuasi);
2. «Shu-Szin» (Shu King – qadimgi tarix, afsonaviy imperatorlar tarixi, tarixiy ma'lumotlar, vasiqalar).
3. «Shi-Szin» (Shi King – qo'shiq (she'r) aytish kitobi, qadimgi poeziya to'plami, 305 ta turli qo'shiqlar).
4. «Li-Szin» (Li King – marosimlar va urs-odatlar bilan bog'liq xotiralar (odob-axloq) kitobi).
5. «Chun-Syu» (Kun Kiyu – bahor va kuz bilan aloqali kumma-kun yozilgan, mil. av. 722-481-yillar orasidagi tarixiy voqeа-hodisalarни o'z ichiga oluvchi kitob).

To'rt kitob (Se Chou) – XI asrda Sung (Sung) sulolesi davrida bir joyga jamlangan. Bu majmua, boshqaruvchi hukmron tabaqaning yetishtirilishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Boshqaruvchilar, ishga olinishlaridan oldin mazkur kitoblardan imtihon topshirishlari shart qilingan. Ular quyidagilardir:

1. «Lun-yuy» (Lun Yu) – Konfutsiyning ma'ruzalari.
2. «Men-szi» (Mong-se) – Konfutsiyning eng qadimgi shogirdalaridan biri Men-Szining so'zlari.
3. «Chjun-yun» (Tchong Yong) – O'rta yo'l ta'limoti kitobi.
4. «Da-Syue» (Ta-Hio) – Buyuk ta'limot, insonning o'zi-o'zini takomillashtirishi kitobi.

*Daotsizm*. Daotsizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri bu dao va u bilan aloqador tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinci asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o'limning nisbiyligi va shunga bog'liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir.

Daotsizm ta'limotining asosiy manbayi «Daodetszin» risolasi bo'lib, u Konfutsiydan biroz ilgariroq yashagan Lao-Sziga nisbat beriladi. Mazkur risola kriptik (harflar bir-biriga yopishib, o'qishga murakkablik tug'diradigan) uslubda yozilgan. Daotsizmning ikkinchi manbayi «Chuang-dzu» (Chuang-tzu)da esa miloddan avvalgi IV asrga taalluqli hodisalarining falsafiy mushohadasi o'rin olib, bunda ilk daolik qarashlari mazmuni turli masal va majoziy hikoyalar orqali bayon qilingan. Shuningdek, daotsizmda ko'plab mistik rivoyat va rituallar ifodalangan yirik diniy matnlar to'plami mavjud bo'lib, unda dindorlar tomonidan gunohlardan forig' bo'lish uchun vositachi yoki yordamchi sisatida ko'rildigani ma'budlar panteoniaga alohida urg'u berilgan.

*Sintoizm*. Yapon xalqiga xos diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, VI–VII asrlarda shakllangan. «Sinto» so'zi o'zbek tilida «xudo yo'li» ma'nosini bildirib, bu din ta'limoti asosini imperator hokimiyating ilohiyligi to'g'risidagi aqida tashkil etadi.

Sintoiylikda ham konfutsiylikda bo'lgani singari ajdodlarning oila-urug'iga ehtirom ko'rsatish katta rol o'yinaydi. Dinyi ta'llimotga ko'ra, vafot etgan har bir odam kami (barcha ruh va xudolarning umumiy nomi)ga aylanadi. Har bir yapon kishisining uyida oilaviy mehrob bo'lib, undagi kichkina shkafchaga vafot etgan oila a'zolarining nomlari yozilgan taxtacha qo'yib boriladi.

Sintoiylikda maxsus muqaddas kitob mavjud bo'lmasa-da, ammo Yaponiya davlati asoschisi deb qaraluvchi «kami» hamda imperatorlar sulolasi haqida hikoya qiluvchi turli afsona va rivoyatlarni o'z ichiga olgan mifologik solnomalar – «Kodziki» va «Nihon shoki» dindorlar orasida yuksak hurmatga ega. Shuningdek, gunohlardan poklanish va ibodat raqslarini bajarish tartiblariga bag'ishlangan «Engishiki» va «Kagura-uta», didaktik mazmundagi «Olam haqidagi yuz doston» hamda farzandni axloqiy tarbiyalash bo'yicha foydalilanligan «Ise toshbitiklari» sintoiylikning muqaddas diniy matnlari to'plamini tashkil qiladi.

**3. Muqaddas manbalarga oid tushunchalar.** Vahiy – diniy e'tiqodga ko'ra, Alloh taoloning o'z payg'ambarlariga farishtalar orqali yuborgan buyruq yoki ko'rsatmalari. Vahiy aniq va ravshan qilib aytilgan. Lekin ba'zi vahiylar tushda ko'rilgan ishorat shaklida ham bo'lgan. Masalan, hazrat Ibrohim (a.s.) ning tushida «O'g'ling Ismoil (a.s.)ni qurbanlik qil» deb buyurilgani ham vahiy deb hisoblanadi. Vahiy Muhammad (s.a.v.) ga farishta hazrat Jabroil orqali nozil bo'lgani Qur'oni karimda keltirilgan (53:5-10). Vahiy farishtalar orqali yoki bevosita Alloh taolo bilan roz aytish (gaplashish) orqali ham kelishi mumkin. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga esa, vahiy quyidagicha hollarda tushgan: Oisha (r.a.) aytadilarki: 1. «Payg'ambar (s.a.v.) vahiyning birinchi kelishi o'ngidan kelgan tush bo'lgan. Ko'rgan har bir tushlari uyg'oqlik vaqtlarida ham xuddi tong yorug'idek keilar edi. 2. Farishta o'zi ko'rinxmay turib. Payg'ambar (s.a.v.) qalblariga kerakli xabarni yetkazar edi. 3. Qo'ng'iroq chalimgandek ovoz chiqarib keilar edi. 4. Jabroil farishta Payg'ambar-ga odam shaklida bo'lib ko'rinar edilar». Shu to'g'risida «Sahihi

Buxoriy» kitobida quyidagi hadisi sharif keltirilgan: «Horis ibn Hishom Payg'ambardan: «Yo Rasululloh, sizga vahiy qanday keladi?», deb so'rabdi. Shunda ul janob quyidagi javobni beribdilar: «Ahyonda xuddi qo'ng'iroqdek jaranglab keladi, shunisi menga qiyin. U ketgandan keyin hamma narsani men o'zimda singdirib olgan bo'laman. Gohida, esa farishta menga odam shaklida kelib so'zlab ketadi va uning aytganlarini anglab olaman». 5. Farishta o'zining asl shaklida ko'rindi va vahiyini yetkazadi. 6. Allah taolo Payg'ambar (s.a.v.)ga me'roj kechasida namozni farz qilish va shunga o'xhash ba'zi narsalarni bevosita vahiy qilgan. Vahiy faqat payg'ambarlargagina nozil bo'lgan. Jabroil farishta payg'ambarlarga vahiy keltirishga mas'ul bo'lgan. Vahiy tushgan paytda, agar kunlar sovuq bo'lsa ham Payg'ambar (s.a.v.) terlab ketardilar, nafas olishlari tezlashardi. Sahobalardan Zayd ibn Sobit shunday hikoya qiladi: «Mening sonim Rasululloh (s.a.v.) ning sonlariga tegib turgan paytda vahiy tushib qoldi, uning shiddatidan sonim yorilib ketay dedi». Agar Payg'ambar (s.a.v.) tuyada ketayotganlarida vahiy tushib qolsa, og'irlikdan tuya ham yura olmay qolar ekan. Johiliyat davrida (islomdan avval) butparast arablar Ka'ba ichiga Hubal nomli butni o'rnatib, undan vahiy (ko'rsatma) olganliklarini da'vo qilib kelgan va shu tariqa go'yo o'zlarining kundalik muammolarini hal qilgan. Islam davrida Hubal sindirib tashlandi. Vahiyning faqat payg'ambarlarga nozil bo'lishi musulmonlik e'tiqodini mustahkamladi. Bu borada har xil bid'at va xurofotlarni keltirib chiqarish va dinga zararli bo'lgan turli qo'shimchalarni kiritish man qilindi. Diniy tushuncha bo'yicha vahiy ilohiy bir kuch sifatida insonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Ilhom – ko'ngilga solish; tasavvufda solik qalbida Allah tomonidan paydo etilgan fikr. Shariaat ulamolari fikricha, ilhom qat'iy ma'lumot manbayi bo'la olmaydi. Tasavvuf ahdi, aksincha, ilhomni ilohiy fayz deb qabul qilib hamda unga asoslanib, so'z va ish yuritadi. Ilhom o'z mohiyatiga binoan «aqliy ilm»dan ham farqlanadi, chunki ilhom fikr-mulohaza yuritish va xulo-

sa chiqarish yo'li bilan vujudga kelmaydi. Tasavvufga ko'ra, ilhom mo'min dilini yorituvchi ilohiy nundir, Qur'onning botiniy ma'nosini ham ilhom orqali anglab yetish mumkin.

Isro va Me'roj – islom tarixida Muhammad (s.a.v.)ning Makka-dan Quddusga qilgan tungi sayrlari (isro) hamda Quddusdagi Aq-so masjididan osmonga ko'tarilishlari (me'roj). Bu haqda Qur'on oyatlari va hadisi shariflarda keng ma'lumotlar berilgan. Bu hodisa ilohiy mo'jizalar turiga kirgani uchun moddiylik va aqliy dalillar bilan chegaralanuvchi kishilar uni inkor etadi. Hadis va rivoyatlar-da aytlishicha, Muhammad (s.a.v.) farishta Jabroil boshchiligidida tunda ko'p yillik masofani bosib o'tib, bu samoviy sayohatlaridan boy xotiralar bilan qaytishgan. Jumladan, yetti qavat osmon ora-liqlarida o'zlaridan oldinga o'tgan yirik payg'ambarlar bilan mulo-qotda bo'lishgan. Jannat va do'zax Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ga ko'rsatilgan. Besh vaqt namoz ham shu kechada farz qilingan. Bu hodisa tasvirlab yozilgan ko'pgina asarlar mavjud. «Isro va Me'roj kechasi» islom olamida diniy bayram sifatida har yili hijriy rajab oyining 27-kechasida nishonlanadi.

Farishta (fors., arab. malak – maloika) – islom e'tiqodiga ko'ra, xudoning amrini bajaruvchi mavjudotlar. Farishtalar son-sanoqsiz bo'lib, har biri ma'lum vazifani bajaradi. Masalan, islomda har bir odamning savob va gunoh ishlarini hisobga olib yuruvchi farishtalar, jannat va do'zaxda darvozabonlik qiluvchi, odamlarni qabrda so'roq qiluvchi (Munkar va Nakir), Alloh tax-tini osmonda ko'tarib turuvchi va boshqa xizmatlarni bajaruvchi farishtalar mavjud deb qaraladi. Bu farishtalardan to'rttasi: Az-roil, Jabroil, Mikoil, Isrofil bosh farishta hisoblanadi. Farishta-larga iymon keltirish sunniylik aqidalaridan biridir.

Sahobalar (yoxud as-sahoba, sohib – «tarafdar»ning ko'pligi – ashob) – Muhammad (s.a.v.)ning safdoshlari, u zot bilan muloqotda bo'lgan yoxud g'azotlarida qatnashgan kishilar; keyinchalik Muhammad (s.a.v.)ni loaqlal bir marotaba, garchi go'daklik chog'ida bo'lsa ham ko'rgan barcha kishilar saho-balar deb atala boshlagan. Sahobalar Arabistondan tashqarida-

gi o'lkalarni fath etishga kirishgan ilk musulmon qo'shinining o'zagini va eng sobit qadam, qat'iyatli qismini tashkil etgan. Sahobalarning oliy qatlamini muhojirlar va ansorlar tashkil qilgan; ular dastlabki xalifalarni saylashga ta'sir ko'rsatganlar, ularni noiblik va oliy darajadagi lashkarboshilik mansablariga tayinlashgan. Sahoba erkaklarning umumiy miqdori Umar davrida 10 ming kishini tashkil etgan. Sahobalarning islam tarixidagi alohida ahamiyati shundaki, Muhammad (s.a.v.) vafot etganlaridan so'ng, ular Payg'ambar ta'limotlarini hammalari bir bo'lib saqladilar, ularning Payg'ambar so'zlari va ishlari haqidagi hikoyalari (hadislar), shuningdek, shaxsiy o'rnaklari va fikrlari islam axloqiy ta'limoti – sunnaning eng muhim tarkibiy qismini tashkil etdi. Sahobalarga bo'lgan hurmat, ehtirom keyinchalik va ularning fazilatlari haqida asarlar paydo bo'lishiga olib keldi. Hadislarni to'plash va isnodlarni tanqidiy tarzda taxdil etish zaruriyati IX asrda hadis roviylarining tarjimayi hollariga oid lug'atlarni yaratilishiga sabab bo'ldi, bu lug'atlarda eng faxrli o'rinni sahobalar egalladilar. Bunday lug'atlar ichida eng yirigi Ibn Hajar al-Asqaloniy (XV asr)ning «al-Isoba fi tamyiz as-sahoba» lug'ati Muhammad (s.a.v.) bilan aloqador bo'lganligi qayd etilgan 12 mingdan ziyod shaxs ismlarini qamrab olgan.

Sura (arab. – tizma, qator, qo'rg'on, manzil va sharaf ma'nosida) – faqat Qur'onga xos tushuncha, uning bo'limlari sura deyiladi, uni shartli ravishda bob bilan taqqoslash mumkin. Uلامolar istilohida esa, sura – Qur'on oyatlarining boshlanish va tugashi belgilangan mustaqil toifasidir. Boshqacha qilib aytganda, Qur'on oyatlarining qo'rg'on ila o'ralgandek bir toifasiga sura deyiladi. Qur'on suralardan iboratdir, sura Qur'onning bir bo'la ga bo'lib, uch yoki undan ko'p oyatni o'z ichiga oladi.

Qur'onda 114 ta sura bo'lib, ulardan har birining o'z nomi bor Ba'zi suralarning ismi uning avvalidagi so'zdan olingan. Ba'zilari-niki esa, o'sha surada zikri ko'proq kelgan narsalarning nomiga qo'yilgan. Qur'oni karimdag'i eng qisqa sura «Kavsar» bo'lib, uch oyatdan, eng uzun sura «Baqara» bo'lib, 286 oyatdan ibo-

ratdir. Qur'on suralari ikki qismga bo'linadi: 1. Hijratdan oldin tushgan suralar – «Makka suralari» (Makkada tushgan) deyiladi. 2. Hijratdan keyin tushgan suralar – «Madina suralari» (Madinada tushgan) deyiladi.

Rasul (arab. elchi) – islom an'anasida Alloh tomonidan tanlab olinib, vakil qilingan va targ'ibot yuritish, da'vat qilish vazifasi topshirilgan, ilohiy kitob nozil qilingan payg'ambar. Muhammad (s.a.v.)ga nisbatan doimo «rasul» nomi qo'llanib kelinadi, bu hatto tashahhud (kalimayi shahodat)da ham ifodalangan. Nabiy – kitob nozil qilinmagan payg'ambar. Shu boisdan ham har bir rasulni nabiy deb atash mumkinligi, ammo nabiylarni «rasul» deb bo'lmasligi qayd qilingan.

Nabiy (arab. ko'pligi anbiyo, ilohiy xabar keltiruvchi) – payg'ambar, Allohnинг farmoyishini insonlarga yetkazib beruvchi vositachi shaxs. Nabiylarga ishonish islom dini aqidalaridan biri hisoblanadi. O'zlariga maxsus kitob va shariat berilmay, bir rasulga (ya'ni Alloh elehisiga) ato etilgan kitob va shariatga amal qilmoqqa buyurilgan payg'ambarlar nabiylar deyiladi. Nabiylarning hech biri rasul bo'la olmaydi, ammo rasullarning har biri nabiy nomi bilan ham ataladi. Allohdan vahiy olib turuvchi shaxs Qur'onda Muhammad (s.a.v.)ning rasul (elchi) degan ismi bilan bir qatorda eng asosiy sifatlaridan (nomlanishlaridan) biri. Qur'onda, shuningdek, undan avval o'tgan avvalgi payg'ambarlar, jumladan, birinchi payg'ambar Odam Ato haqida ko'p zikr qilingan. Muhammad (s.a.v.) esa, eng oxirgisi bo'lib, «hotam an-nabiyyin» – «payg'ambarlar muhri» deb ataladilar.

Dastlabki payg'ambarlar Allohgaga imon keltirishga chaqirganlar hamda Muhammad (s.a.v.)ning dunyoga kelishlarini bashorat qilganlar. Rivoyatlarga ko'ra, ularning soni 124 ming. Biroq, Qur'onda 25 tasining nomi zikr qilingan. Ulardan ko'pining qo'shimcha nisbalari bor. Masalan, Ibrohim (a.s.) Xalilulloh (Allohnинг do'sti), Iso Ruhulloh (Allohnинг ruhi), Muhammad (s.a.v.) Rasululloh va h.k. To'qqizta payg'ambar alohida ajratib ko'rsatiladi. Ular Nuh, Ibrohim, Dovud, Yaqub, Yusuf, Ayyub, Muso, Iso,


Muhammad. Ulardan bir nechasiga muqaddas kitoblar: Musoga Tavrot, Dovudga Zabur, Isoga Injil, Muhammad (s.a.v.)ga Qur'on nozil qilingan.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. «Muqaddas kitob», «diniy manba», «muqaddas yozuv» tushunchalarini izohlang.
2. Muqaddas manbalar qanday xususiyatlarga ega?
3. «TaNaX» nima degan ma'noni bildiradi?
4. Konfutsiylik diniy manbalari to'plami necha qismdan iborat?
5. Diniy manbalarga oid qanday tushunchalarni bilasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mashudiy // Tanlangan asarlar. V tom. Birinchi kitob. – T., 1973.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968.
3. Mo'minov A., Yo'doshxo'jayev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004.
4. Мюллер М., Вундт В. От слова к вере. Миф и религия (История религии). – М.: Изд-во Эксмо; Санкт-Петербург: Терра Фантастика, 2002.
5. Пилкингтон С. Иудаизм / Пер. с англ. Е.Г.Богдановой. – М.: Фаир-Пресс, 2000.
6. Религиоведение. Хрестоматия / Пер. с англ., нем., фр. Сост. и общ. ред. А.Н.Красникова. – М.: Книжный дом «Университет», 2000.
7. Религиоведение: хрестоматия / сост. В.Б.Рожковский, Д.Л.Устименко. – Ростов на Дону: Феникс, 2009.
8. Тора (Пятикнижие Моисеево). / Под. общ. ред. проф. Г.Брановера. – Иерусалим, Москва: Шамир, 1993.



### Reja:

1. Sekulyarizatsiya jarayoni: ta'rif va mohiyat.
2. Sekulyarizatsiya jarayoniga dunyo dinlarining munosabati.
3. Islom dinida diniy va dunyoviylik masalalari.

**Tayanch tushunchalar:** sekulyarizm, globallashuv, «dunyoviylashuv», Vestfal sulhi, Malcolm Hamilton, «insonni ilohiylashtirish».

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarga modernizm ko'rinishlari, sekulyarizatsiya jarayoni ta'rifi va mohiyati, sekulyarizatsiya jarayoniga dunyo dinlarining munosabati, islom dinida diniy va dunyoviylik masalalari haqida ma'lumot berish.

**1. Sekulyarizatsiya jarayoni: ta'rif va mohiyat.** Bugungi kunda dunyo dinlari, xususan, samoviy dinlar — yahudiylik, xristianlik, islom diniga ergashuvchilar o'ziga xos o'zgarish hamda globallashuv sharoitiga moslashish davrini boshdan kechirmoqdalar. Buning natijasida, mazkur uch denga e'tiqod qiluvchilar orasida dinlarini yangi shart-sharoitlar bilan uyg'unlashtirish, uning dastlabki paydo bo'lgan muddatdagi holatini saqlab qolish tarafдорлари hamda o'zларини ushbu dinlardan biriga mansub, deb hisoblash bilan birga dunyoviy tamoyillar asosida hayot kechirishni ustun ko'ruchilar toifasi shakllandi.

«Sekulyarizatsiya» atamasining muomalaga kirishi tarixi bir necha asr avvalgi davr bilan bog'liq bo'lsa-da, hanuz uning mazmuni, mohiyati, ko'lami, samarasi va oqibatlari kabi masalalar siyosiy va diniy ilmlar doirasida muhokama qilinadigan yuqori qiziqish ostidagi mavzular bo'lib qolmoqda.

*XXI asrga kelib dunyo aholisining 2/3 (3,8 mlrd. kishi) qismi e'tiqod qilayotgan samoviy dinlar tarafдорларининг diniy dunyoqara-*

*shiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatayotgan hodisalardan biri «sekulyarizatsiya jarayoni»dir.*

«Sekulyarizatsiya» mavzusi bo'yicha bahs olib borgan tad-qiqotchilar xulosasiga ko'ra, mazkur atama Yevropa til oilalari-ga mansub xalqlar tilida 1648-yili imzolangan «Vestfaliya sulhi»<sup>1</sup> natijasida iste'molda bo'lib kelmoqda. O'sha davrda «bu atama monastir mulklerini musodara qilish hisobiga g'oliblar-ning manfaatlarini qondirish imkoniyatini bildirgan».

---

<sup>1</sup> Vestfal sulhi – Osnabryuk (protestanlik davlat dini sanalgan Shvetsiya hududi) va Myunster (katolik oqimi rasmiy davlat dini hisoblangan Fransiya hududi)da 1648-yil 15-may hamda 24-oktyabr kunlari Ispaniya, Fransiya, Shvetsiya, Nederlandiya va ularning ittifoqchilari (xristianlik dinining katolik va protestanlik oqimiga mansub aholi istiqomat qiluvchi knyazlik) o'ttasida imzolangan ikki tinchlik kelishuvidir. Bu kelishuv natijasida, G'arbiy Yevropada kechgan «o'ttiz yillik urush» barham topdi. Ayrim hollarda, «Vestfal sulhi» doirasiga 1648-yili 30-yanvarda Ispaniya va Nederlandiya o'ttasida imzolangan va «sakson yillik» urushga chek qo'ygan tinchlik kelishuvi ham kiritiladi. Vestfal sulhi zamonaviy Yevropa diplomatiyasining ilk ko'rinishi bo'lib, buning samarası o'laroq, «davlat suvereniteti» konsepsiyasiga asoslangan yangicha siyosiy tartib qaror topdi. 1806-yilgacha Osnabryuk va Myunsterdag'i kelishuv bandlari G'arbiy Yevropa davlatlaridagi konstitutsion qoidalarning bir qismi sifatida amalda bo'lib keldi. Vestfal sulhi imzolanishi bilan yakunlangan mazkur tinchlik kelishuvidan maqsad G'arbiy Yevropa davlatlari o'ttasida xalqaro va konfessional aloqalarni yo'nga qo'yish orqali tinchlikka erishish edi. Shu bilan birga, ushbu kelishuvda ishtirok etgan har bir davlat o'z maqsadini ro'yobga chiqarish umidida edi, ya'ni, Fransiya – ispan va avstriyalik hukmdorlar ta'sir doirasidan qutulishni; Shvetsiya – Boltiqbo'yи mamlakatlarida o'zining gegemonligiga erishishni; Ispaniya hududini yanada kengaytirishni ko'zlayotgandi.

Vestfal sulhi yakunlariga ko'ra esa Shvetsiya Boltiqbo'yи mintaqasining g'arbiy qismiga egalik qildi. Fransiya Elzasini o'z hududiga qo'shib oldi. Nederlandiya esa mustaqil davlat sifatida e'tirof etildi.

Shunday qilib, Vestfal sulhi Yevropaning ijtimoiy-siyosiy jabhadagi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdiki, uning natijasida, birinchi navbatda, Yevropa xalqlarining boshiga kulfat keltirgan «o'ttiz yillik» urush barham topdi. Bundan tashqari, mazkur kelishuvning samarası o'laroq, katolik va protestanlik oqimi tarafдорлари huquqlarida tenglikka erishildi hamda undagi bandlar bir necha asr davomida G'arbiy Yevropa davlatlari o'ttasidagi o'zaro aloqalarni olib borishda xalqaro norma bo'lib xizmat qildi.

Lug'aviy «yosh», «davr» ma'nosini anglatuvchi lotincha so'z «saeculim»dan olingen sekulyarizatsiya atamasi istilohiy jihatdan eng qisqa, biroq, aniq shaklda «dindorlikning aksi» ma'nosini ifodalaydi<sup>1</sup>. «Sekulyarizatsiya» atamasi odatda, ma'lum bir mamlakat hukumati hamda undagi diniy institutlar o'rtaсидаги munosabatni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ba'zi sotsiologlar nazdida esa «sekulyarizatsiya» deganda, ijtimoiy hayot bilan bog'liq turli jarayonlarda din ta'sirining yo'qolishi hamda oxiratga qaratilgan yoki hayot kechirishning diniy faoliyat shakli ornini moddiy maqsad va niyatlarni amalga oshirish birlamchi o'rinn tutuvchi turmush tarzining egallashi tushuniladi<sup>2</sup>.

*«Sekulyarizatsiya» atamasi odatda, ma'lum bir mamlakat hukumatni hamda undagi diniy institutlar o'rtaсидаги munosabatni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ba'zi sotsiologlar nazdida esa «sekulyarizatsiya» deganda, ijtimoiy hayot bilan bog'liq turli jarayonlarda din ta'sirining yo'qolishi hamda oxiratga qaratilgan yoki hayot kechirishning diniy faoliyat shakli ornini moddiy maqsad va niyatlarni amalga oshirish birlamchi o'rinn tutuvchi turmush tarzining egallanishi tushuniladi.*

Zamonamizning mashhur sotsiologlaridan biri Malcolm Hamilton (Malcolm Hamilton) o'zining «Din sotsiologiyasi» («The sociology of religion») nomli asarida «sekulyarizatsiya tushunchasi» bu mavzu bo'yicha ilmiy ish olib borgan tadqiqotchilar tomonidan, asosan, quyidagi olti ma'noda qo'llanilganini ta'kidlaydi: «Birinchidan, sekulyarizatsiya ijtimoiy hayotda dinning va u bilan bog'liq tushunchalar, ta'limotlar, qadriyatlar, ramzlar va tashkilotlarning ahamiyati hamda nufuzi susayishini bildiradi. Ikkinchidan, u diniy va dunyoviy masalalar o'rtaсини muvofiqlashtirishga bo'lgan harakatdir. Uchinchi-

<sup>1</sup> Gabriele Marranci, Bryan S. Turner, Muslim Societies and the Challenge of Secularization: An Interdisciplinary Approach. —N.Y., 2010. —P. 48.

<sup>2</sup> O'sha asar. —P. 48.

dan, u din insonning o'z shaxsiy ishi ekanligini hamda diniy e'tiqod va his-tuyg'ular bilan boshqalarga ta'sir ko'rsatishga urinish kishilarning vijdon erkinligiga xilofligini ifodalaydi. To'rtinchidan, bu tushuncha avvallari mutaassib dindorlar tomonidan «ular haqida savol berish shakkoklik», deb baholangan borliq, olam, Yer shari va inson yaralishi bo'yicha ilmiy yangiliklarning kashf etilishini anglatadi. Beshinchidan, u dunyoning desakralizatsiyalash, ya'ni ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy-siyosiy munosabatlarga ularni diniy ahamiyat kasb etishi nuqtayi nazardan emas, balki dunyoviy tutgan o'rni jihatdan yondashishdir. Masalan, nikoh Yer yuzidagi barcha dinlarda muqaddas maqomga ega sanaladi, lekin dunyoviy jihatdan esa u ikki tomonning roziligi bilan tuzilgan shartnoma asosida erkak va ayolni o'zaro birga yashashlarini ta'minlovchi qonunchilik tizimidir. Oltinchidan, sekulyarizatsiya an'anaviy qadriyatlarga nisbatan e'tiqoddan uzoqlashish shaklida diniy tartibdagi hayotdan dunyoviy turmush tarziga o'tishning namoyon bo'lisdirdir<sup>1</sup>.

Shuningdek, mutaxassislarning fikriga binoan, «sekulyarizatsiya» so'zi lug'aviy jihatdan «dunyoviylashuv», «cherkov ta'siridan xalos bo'lish» ma'nolarini bildiradi. Atamashunoslik nuqtayi nazaridan esa «sekulyarizatsiya» atamasi «cherkov va monastirlar qaramog'idagi yer, mol-mulk doirasidan chiqish»ni anglatadi<sup>2</sup>.

*Yu.A.Kimelevanining «Философия религии» nomli ishidagi ushu ijtimoiy-madaniy hodisaning mohiyati quyidagicha yoritilganligini uchratish mumkin: «Sekulyarizatsiyaning nazorati diniy hamda nodiniy ijtimoiy qatlamlar o'rtaida tafovutning yuzaga kelishi*

<sup>1</sup> Hamilton M. The Sociology of Religion. — N.Y.:Routledge, 1997. — P. 10.  
<sup>2</sup> Боранова О.А. Протес сектуаризацийи в кризисе цивилизации: социология культуры XX века: Монография/ Рост. гос. экон. унив. — Ростов-на-Дону, 2001. — С.10.

*kundalik hayotdagi dinning hal qiluvchi roli yangicha madaniy normalar bilan almashtganida namoyon bo'ladi. Birinchi jihatga ko'ra, sekulyarizatsiya turli ijtimoiy institutlar o'z faoliyatlarini diniy tashkilot (ya'ni, diniy normalar)dan mustaqil ravishda olib borishlarini anglatса, ikkinchi jihatga binoan, insonning shaxsiy hayotida dinning ahamiyati yo'qolishini bildiradi».*

Yuqorida aytib o'tilganidek, bugungi kunda bir necha mutaxassislar tomonidan sekulyarizatsiyaning yuzaga kelishi omillari ko'proq G'arb madaniyati bilan bog'lanib, an'anaviy xristianlik diniga darz ketishi sifatida baholanmoqda. Sekulyarizatsiyaning mohiyatini yoritishga qaratilgan bunday yondashuvlar «Postsovetskiy hududidagi noan'anaviy dinlar» mavzusi doirasida o'tkazilgan «Stol atrofida» («Круглого стола») nomli anjuman materiallarida ham o'z ifodasini topdi: «Yevropada xristianlik dini an'analari ta'sirining zaiflashishi, odatda, sekulyarizatsiya jarayoni bilan bog'lanmoqda. Ammo, shu o'rinda savol tug'iladiki, mazkur jarayonning yangi noan'anaviy diniy harakatlarning tarqalishi ga qanday aloqasi bor? Chunki, ba'zi tadqiqotchilar sekulyarizatsiyani «insonni ilohiylashtirish», deb atamoqdalar. Bundan ko'rindik, sekulyarizatsiya inson hayotida diniy qadriyatlar ahamiyati yo'qolishiga sabab bo'lishi bilan birga, yangi diniy harakatlarning tarqalishi omil bo'lmoqda. Misol uchun, sinkretizm – bir tomonidan, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarning birlashishi, ikkinchi tomonidan, chegaralangan insoniy ta-fakkur shakliga nisbatan diniy nizomni ustun sanaguvchi ilohiy maqomga qaratilgan shikoyat sifatida vujudga kelgan – falsafiy ta'limoti yuqoridagi fikr tasdig'idir»<sup>1</sup>. Biroq, yuqoridagi jum'lalarda zamonaliv G'arb jamiyati rivojlanishi bilan xristianlik dini ta'siri kamaya boshlagani va bu ko'pchilik kuzatuvchilar tomonidan uning inqirozi sifatida baholangani qayd etilgani-

<sup>1</sup> Нетрадиционные религии в посткоммунистической России. Материалы «Круглого стола» // Вопросы философии. № 12, 1996.

ga qaramay, yangi o'tkazilgan tadqiqotlar britaniyaliklarning 80 foizdan ortig'i qandaydir oliy ilohiy kuch mavjudligiga ishonishi ni ko'rsatdi<sup>1</sup>.

**2. Sekulyarizatsiya jarayoniga dunyo dinlarining munosabati.** Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, sekulyarizatsiya jarayonining kelib chiqish sabablari va jamiyat hayotiga ko'rsatgan o'ziga xos ta'siri ha-qida so'z ketganda, avvalo, xristianlik dini asosida shakllangan G'arb madaniyati esga olinsa-da, aslida, bu ijtimoiy-madaniy hodisa dunyodagi barcha jamiyatlar, jumladan, xristianlar bilan bir qatorda samoviy dinlar vakillari si-fatida e'tirof etiladigan yahudiy va musulmon jamiyatini ham chetlab o'tmadi.

*Sekulyarizatsiya jarayoni bilan bog'liq holatni, o'z navbatida, yahudiylik jamiyatni ham boshdan kechirmoqda. Albatta, bugungi kunda insoniyat yuzlashayotgan bunday ijtimoiy-madaniy sharoit globalizatsiya hamda integratsiya tamoyillari faqat iqtisodiy-siyosiy sohani emas, balki, diniy-ma'naviy jabhalarni ham qamrab olganligi bilan bog'liq. Shu sababli uzoq asrlik tarixi mobaynida ma'lum shakldagi «reforma» larga guvoh bo'lgan yahudiylik dini bizning davrimizda yirik miqyosda o'zgarib bormoqda.*

Sekulyarizatsiya jarayonining yahudiy jamiyatidagi aksini mazkur denga e'tiqod qiluvchilar yahudiylik diniga oid ta'limot

<sup>1</sup> Giddens Entoni. Sotsiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Tarj. N.Mamatov va J.Begmatov. – T.: Sharq, 2002. – B. 531



G'arbiy Yevropa davlatlarida sekulyarizm, davlat va din o'rtaida amalga oshirilayotgan ishlar ustidan jamoatchilik nazorati turli tashkilotlar vositasida olib boriladi

va marosimlarni zamon ruhiga moslashtirishga harakat qilayotganlarida ko'rish mumkin. Bu borada, hozirgi davrda o'z dirlarining qadimiyligi an'analariga ergashishni istayotgan yahudiylar yangi shart-sharoitlar bilan yahidiylik diniy normalari o'rtasini uyg'unlashtirishga urinayotganlari fikrimiz tasdig'idir. Shu bilan birga, aksincha, ko'plab zamonaviy yahudiylar an'anaviy diniy tartib-qoidalalar tizimi tarkibidagi ba'zi normalar (masalan, qadimiyligi ovqatlanish tartib-qoidalari (kosher) bugungi kunga kelib o'z ahamiyatini yo'qotgan, deb hisoblaganlari sababli ularga amal qilishda o'tmish ajoddlari singari e'tibor qaratib o'tirmayaptilar<sup>1</sup>.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, hozirda zamonaviy yahudiylar jamiyatida diniy tushunchalarga nisbatan ortodoksal, an'anaviy va yangicha (sekulyar) qarashdagi aholi qatlami shakllanmoqda. Shuning uchun ushbu uch toifaning yahidiylik dini ta'lomi, marosimchiligi va qadriyatlariga bo'lgan munosabatida ham muayyan farqlarni uchratish mumkin. Misol uchun, ortodoksal yahudiylar «yahidiylik – faqat yahidiy onadan tug'ilib, ko'paygan millat dinidir», degan o'z dirlarining an'anaviy ta'rifini qo'llab-quvvatlab, bugungi kunda ba'zi yahudiylar boshqa din vakillari bilan turmush qurayotganlarini tanqid qiladilar. Shuningdek, ular Isroil davlatining vujudga kelishiga salbiy munosabat bildirib, «Isroil davlatini barpo etish faqat xudoning qo'lida-dir», deb e'tiqod qiladilar. Isroil davlatiga esa insonlar tomonidan asos solingani bois uning faoliyati qonuniy (diniy) emas, deb hisoblaydilar.

Bugungi kunda diniy hayot shaklidan ko'ra dunyoviy turmush tarzi tamoyillari asosida yashashni ustun ko'ruchchi yahudiylar ning o'z dirlarining ta'lomoti hamda tushunchalariga nisbatan qarashlarida ham o'ziga xos jihatlarni kuzatish mumkin.

*Ko'plab sekulyar (liberal) yahudiylar «o'lindan so'ng itoatsiz insonlarni ilohiy jazoga tortilishi» haqidagi ta'lomitni inkor etadilar. Bundan*

<sup>1</sup> Kenneth Atkinson. Judaism. USA., 2004. – P. 49.

*tashqari, ular «yahudiylik – Yer yuzidagi vaziyatni isloh qilish maqsadida nozil bo'lgan din», deb ishonsalar-da, «xudo insonning hayoti davomida to'qnash keladigan muammolarni hal etishi uchun ta'sir ko'rsatishi» to'g'risidagi yahudiylik dini aqidasini rad qiladilar.*

Diniy tushunchalarga nisbatan o'ziga xos qarashga ega uchinchi toifa esa bu borada yuqoridagi ikki guruhning tutgan uslublari dan ko'ra o'z yondashuvlarini afzal va mo'tadil, deb qaraydilar. Shu boisdan ham yahudiy jamiyatini o'r ganayotgan mualliflar asarlarda ular «o'rta yo'l tarafдорлари» yoki «traditsionistlar» kabi nomlar bilan atalmoqdalar. Mazkur qarashdagi yahudiylarning asosiy xususiyati diniy marosimlar (ayniqsa, dam olish kuni va ovqatlanish tartibi)ga katta e'tibor qaratishlari hamda ortodoksal yahudiylar singari e'tiqodiy masalalarga keskin munosabat bildirmasliklarida namoyon bo'ladi. Ularning fikriga ko'ra, xudo insonlardan muayyan belgilangan taqiq-buyruqlarga (613 buyruq) rioya etishnigina emas, balki, o'zaro ezgulik asosida hamkorlik qilishlarini kutadi<sup>1</sup>.

Demak, globallashuv sharoitida sekulyarizatsiya jarayoni yahudiylik dini tarafдорлари turmush tarzi va dunyoqarashi da ma'lum o'zgarishlar yasadi. Bu holat yahudiylar tomonidan diniy e'tiqod va tushunchalarga nisbatan turli xil munosabat bildirilishida ko'zga tashlanmoqda. Bunday vaziyat salbiy oqi-



Globallashuv jarayoni yahudiylik dini tarafдорлари turmush tarzi va dunyoqarashi da ma'lum o'zgarishlar yasadi

<sup>1</sup> Qarang: Yaacob Yadgar. Secularism and Religion in Jewish-Israeli Politics: Traditionists and Modernity. –N.Y., 2011. –P. 61.

batlarga, ya'ni, diniy tushunchalarni talqin etishdagи (ortodoksal va sekulyar) qarama-qarshiliklar yahudiy jamiyatida muhim o'rin tutuvchi dinning roli pasayib ketishiga olib bormasligi uchun yahudiylikning «mo'tadil yo'li» jamiyat hayotida targ'ib qilinmoqda.

### 3. Islom dinida diniylik va dunyoviylik masalalari.

*Uning ijobjiy tomoni shunda ediki, sekulyarizatsiya jarayoni natijasida musulmonlar diniy mutaassiblik, savodsizlik hamda diniy ko'rsatmalar ning har zamon va makonga muvofiq keluvchi xususiyatini tatbiq etishdagи sustkashlik vaziyatidan ilmiy-madaniy jahhadagi taraqqiyotga yuz tutdilar.*

Musulmon jamiyatni misolida «sekulyarizatsiya jarayoni» mavzusiga to'xtalib o'tilganda, uning musulmon dunyosiga ijobjiy va salbiy ta'sir ko'rsatgаниga guvoh bo'lish mumkin.

Uning salbiy tomoni esa bu jarayon oqibatida musulmonlar turli qiyinchiliklar bilan to'qnash keldilar. Musulmon dunyosidagi mazkur o'zgarishlar borasida tadqiqot olib borgan G'arb sharqshunoslarining fikriga ko'ra,

«G'arbiy Yevropa jamiyatida uch yuz yil davomida asta-sekin, bosqichma-bosqich rivojlanib, so'ngra, jamiyatning barcha qatlamlari ichiga yetib borgan dunyoviy, demokratik institutlar kabi ijtimoiy strukturaning musulmon jamiyatiga kirib kelishi ba'zi rahbarlar tomonidan tezlashtirilib yuborilishi sababli yaqindagina mustamlakachilik mashaqqatlaridan xalos bo'lgan musulmonlarni yangi dunyo shart-sharoitlariga moslashishlari og'ir kechdi. Masalan, Turkiyaning birinchi prezidenti Mustafo Kamol Ataturk o'z mamlakatini dunyoviy davlat, deb e'lon qilgach, turk jamiyatini ham shunday shaklga olib kelishning yagona yo'li sifatida barcha madrasalarni berkitish, axloqiy me'yorlar birlamchi o'rinn tutuvchi tasavvuf maktablarini «yer ostiga ko'mish» hamda barcha erkak va ayollarning g'arbona liboslar kiyib yurishga majbur qilish, deb hisobladi.

Bunday holatni 1935-yil Eronda yuz bergan qonli voqealar misolida ham ko'rish mumkin. O'shanda Eron hukmdori Shoh Rizo Pahlaviy o'z harbiy qo'shinini mamlakat ko'chalari bo'ylab

saf torttirib, ayollarning ustlaridagi ro'mollarini yechtirishga buyruq bergen edi. Bundan tashqari, o'sha yili Erondag'i muqaddas ziyyaratgohlardan biriga yig'ilgan namoyishchilarni hukumat askarlari tomonidan o'qqa tutilishi ko'plab insonlarning o'limiga olib keldi. Aslida esa ular g'arbona kiyinish tarziga majburiy o'tkazishga qarshi tinch namoyishga chiqqandilar.

Darhaqiqat, yuqoridagi aholisining aksariyatini islam dinya e'tiqod qiluvchilar tashkil qilgan mamlakatlarda yuz berenga o'xshash holat, aslida, keyinchalik, butun musulmon olamini qamrab oldi. Buning natijasida, diniy ko'rsatmalarga muvofiq yashashni mutaassibona yoqlaydigan hamda hayot tarzini dunyoviy tamoyillar asosida tashkil qilgan musulmonlar bir-birlarini «islom dini doirasidan chiqqanlik» masalasi bo'yicha ayblashlari ortidan ko'ngilsiz vaziyatlarni birin-ke-tin sodir bo'lishi musulmon olimlarining ham e'tiboridan chetda qolmadi. Bu borada musulmon ulamolar oldidagi bosh vazifa «sekulyarizatsiya» tushunchasining islom dunyosida yuksak mavqega ega arab tilidagi ma'nosini ifodalovchi so'zni aniqlash bo'ldi. Ko'plab ulamolar «sekulyarizatsiya ja-

*Ba'zi musulmon jamiyatlarida sekulyarizatsiya jarayonini jadallashtirib yuborilishi aholiga bu hodisaning «mag'zini chaqish» imkonini bermadi, aksincha, ularning qarshisiiga «Sekulyarizatsiya – diniy erkinlikmi yoki diniy e'tiqodga nisbatan qaratilgan tajovuzmi?» degan savolni ko'ndalang qo'ydi.*



Indonesia Religions Map



rayoni» din va davlat o'rtasining ajratilishi, deb hisoblangani uchun uning arab tilidagi ekvivalenti sifatida, nisbiy ravishda, «materialist», «ateist» ma'nosini bildiruvchi «dahriyya» va «dunyoviylikka xos» degan ma'noni anglatuvchi «almaniyya» so'zlari ishlatila boshlandi<sup>1</sup>.

O'z navbatida, aksariyat musulmon ulamolar tomonidan umumiyl shaklda, sekulyarizatsiya jarayoniga nisbatan salbiy munosabat bildirilgan bo'lishiga qaramay, uning mohiyatini yoritishda mazkur hodisaning ijobiliy jihatlari ham mavjudligini e'tirof etgan holda, xolis yondashilganiga guvoh bo'lish mumkin.




Musulmon davlatlarining denga rasmiy munosabatlarini ifodalovchi xarita

Birinchi jihat (sekulyarizatsiyaning zararli ta'siri) bo'yicha o'ziga xos tadqiqot olib borgan musulmon ulamolardan biri Yusuf Qarazoviydir. Bu haqda, u o'zining «Ummatga yetayotgan zararli tashqi ta'sirlarning yechimi» («Al-hulul al-mustavrada va kayfa janat alaa Ummatina») nomli asarida quydagichcha fikr bildiradi: «Sekulyarizm xristian jamiyatida xayrixohlik bilan qa-

<sup>1</sup> Qarang: Gabriele Marranci, Bryan S. Turner. Muslim Societies and the Challenge of Secularization: An Interdisciplinary Approach. — N.Y., 2010. — P. 49.

bul qilingan bo'lishi mumkin. Lekin, u hech qachon musulmon jamiyatida ommaviy ravishda yaxshi qarshi olinmadi. Bu xristianlik dini islom dinidagi kabi inson hayotining barcha jahalariga tegishli muammolarga yechim topib beradigan tartiblangan diniy qoidalar tizimi – shariatga ega emasligi bilan bog'liq».


Biz o'rganayotgan mavzu – sekulyarizatsiya jarayoniga nisbatan o'ziga xos munosabat bildirgan musulmon olimlardan yana biri Toriq Ramazon hisoblanadi. Toriq Ramazon mazkur masalaning mohiyati (islom diniga zid tushuncha ekanligi) borasida Yusuf Qarazoviy bilan hamfikr bo'lsa-da, biroq, muammoning yechimini topishda uning boshqa jihatlariga ham e'tibor qaratgani bilan Yusuf Qarazoviydan farq qiladi. Ushbu ikki musulmon olimining sekulyarizatsiya jarayoniga nisbatan bildirgan munosabatlarini o'rgangan sharqshunos Gabriel Marransi fikriga ko'ra, bu borada ikki olim o'rtaсидаги juz'iy farq, birinchidan, Toriq Ramazon Yusuf Qarazoviya qaraganda Yevropa jamiyatida ko'proq hayot kechirgani va u yerda musulmonlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan muammolardan shunga mos ravishda xabar-dor hamda tajribaga ega ekanligi, ikkinchidan, u Yevropa mamlakatlariда «dinni davlatdan ajralganligi» tamoyiliga amal qilinishi ko'p bor takrorlansa-da, lekin Yevropa siyosatida «dinning jamiyatdagi vazifasi» mavzusi eng qizg'in muhokama ostidagi masala bo'lib turganiga asosiy e'tiborni qaratganligi bilan bog'liq<sup>1</sup>.



Musulmon olimlar fikricha, zamон билан hamnafaslik islom dini mohiyatiga mos keladi

<sup>1</sup> Gabriele Marranci. Bryan S. Turner. Muslim Societies and the Challenge of Secularization: An Interdisciplinary Approach. – N.Y., 2010. – P. 54.

Toriq Ramazon «sekulyarizatsiya jarayoni» islom diniga mutlaqo zid tushuncha emasligini ta'kidlab, quyidagilarni aytadi: «Sekulyarizatsiya – diniy erkinlik tamoyilini qo'llab-quvvatlovchi Yevropa jamiyatining asosiy xususiyatidir. Musulmonlar esa diniy ko'rsatmalarni bajarishda haddan oshishdan va sustkashlik qilishdan qaytarilib, balki, bu borada mo'tadil yo'lida yurishlikka buyuriladilar. Yevropa qonunlari musulmonlarni o'z dinlariga e'tiqod qilish va uning ko'rsatmalarini ado etishlaridan qaytarmaydi, aksincha, ular (qonunlar) insonlarning



xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki qilmashlik huquqiga ega ekanliklarini kafolatlab, uning amalga oshishini ta'minlaydi. O'z navbatida, erkinlik islom diniga ham xos birlamchi prinsipdir. Bu fikr tasdig'ini islom tarixida cherkov kabi mutlaq hokimiyat asosida faoliyat olib borgan biror-bir siyosiy institut bo'limganligida ko'rish mumkin. Bu jihatdan (erkinlik masalasida) sekulyar hamda islomiy qonun-qoidalar o'rtasida sezilarli farqni uchratish mushkul. Shu bilan birga, yuqoridaagi mulohazani sekulyarizatsiyaga nisbatan xayrixohlik yoki dinni kamsitish, deb emas, balki, insoniyatga qarata «dinga majbur qilish yo'q, zotan, haq botildan ajradi...» (2:256), deya xitob qilgan islom dinining mohiyatini to'g'ri tushuncha va talqin asosida o'rganishlikka targ'ib sifatida tushunish lozim».

Demak, Yusuf Qarazoviy va Toriq Ramazonning musulmonlik pozitsiyasidan turib sekulyarizatsiya jarayoniga nisbatan bildirgan munosabatlardan shunday xulosa qilish mumkinki, bu borada ularning o'rtasida sezilarli farq ko'zga tashlanmaydi.

Ikki musulmon olimi ham islam dini inson turmushining barcha jabhalarini qamrab olganligiga tamoman ishonadilar hamda hayotni dunyoviy va diniy sohaga ajratishni noto'g'ri, deb hisoblaydilar. Shuningdek, ularning ikkisi ham zamonaviy dunyoda musulmonlar o'z e'tiqodlariga muvofiq hayot kechirishlari uchun o'rta yo'lni belgilab olishlari zarurligiga alohida urg'u beradilar. Chunki, ularning fikriga ko'ra, musulmonlar o'zlarini uchun mazkur mo'tadil yo'lni belgilab olishlari insoniyatni dunyodan ajralib qolish (mutaassiblik)dan hamda bir-birlariga zulm qilish (ekstremizm)dan qaytaradigan, shu bilan birga, moddiy ne'matlardan foydalanib, tananing huzur topishini ta'minlash tiriklikdan ko'zlangan asosiy maqsad, deb e'tiqod qiladigan toifalar (ateizm)ning da'vosini rad etadigan islam dinining mohiyatini to'g'ri tushunish yo'lida muhim ahamiyatga egadir<sup>1</sup>.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. Modernizmning qanday shakllari mavjud?
2. «Sekulyarizm» atamasi qachon muomalaga kiritilgan?
3. «Sekulyarizatsiya» atamasining qanday ma'nolarini bilsiz?
4. «Sekulyarizatsiya jarayoni»ga dunyo dinlarida qanday munosabat bildirilgan?
5. Islam va musulmonlarning «diniylik va dunyoviylik» masalasi bo'yicha munosabatini yoritib bering.

### **Adabiyotlar:**

- I. Gabriele Marranci. Bryan S. Turner. Muslim Societies and the Challenge of Secularization: An Interdisciplinary Approach. –N.Y., 2010.

<sup>1</sup> Gabriele Marranci. Bryan S. Turner. Muslim Societies and the Challenge of Secularization: An Interdisciplinary Approach. –N.Y., 2010. –P. 56.

2. Hamilton M. The Sociology of Religion. –N. Y. Routledge, 1995.
3. Kenneth Atkinson. Judaism. – USA, 2004.
4. Yaacob Yadgar. Secularism and Religion in Jewish-Israeli Politics: Traditionists and Modernity. – N.Y., 2011.
5. Богданова О.А. Процесс секуляризации и кризис личности в западной культуре XX века: Монография / Рост. гос. экон. унив. – Ростов-н/Д., 2001.
6. Giddens Entoni. Sotsiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Tarj. N.Mamatov va J.Begmatov. – T.: Sharq, 2002.
7. Injil. Matto. 22:21. – Turkiya muqaddas kitob jamiyat, 1996.
8. Meliqo'ziyev J. Sekulyarizatsiya: nazariyalar va konsepsiylar // Toshkent islom universiteti ilmiy-tahliliy axboroti, 2012. 3-son.
9. Нетрадиционные религии в посткоммунистической России. – Материалы «Круглого стола» // Вопросы философии. № 12, 1996.

## 17-mavzu. DINIY MUTAASSIBLIKNING NAMOYON BO'LISHI VA UNING OLDINI OLISH YO'LLARI

### Reja:

1. «Mutaassiblik», «ekstremizm» va «terrorizm» tushunchalarining mazmun-mohiyati.
2. Mutaassiblikning islom dini va jamiyatga yetkazgan zararlari, islom dinida uning qoralanishi.
3. Globallashuv sharoitida mafkuraviy xurujlarning oldini olish yo'llari.



**Tayanch tushunchalar:** «mutaassiblik», «ekstremizm», «terrorizm», jihod, hijrat, takfir, shahidlik, xalifalik, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi» Qonun, ma'rifiy islom.

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda «mutaassiblik», «ekstremizm» va «terrorizm» tushunchalarining mazmun-mohiyati, mutaassiblikning islom dini va jamiyatga yetkazgan zararlari, islom dinida uning qoralanishi, globallashuv sharoitida mafkuraviy xurujlarning oldini olish yo'llari haqida bilim va tasavvurni hosil qilish.

**1. «Mutaassiblik», «ekstremizm» va «terrorizm» tushunchalarining mazmun-mohiyati.** Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq, tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi. Ushbu vazifalarga to'xtalib, Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov: «Birinchi galda, terrorchilarni tayyorlaydigan zaminga, g'oyaga, mafkuraga e'tibor berish, shularga qarshi kurashish kerak. Bolalarimizning ongini va hayotini buzadigan, ertangi kuniga mutlaqo ishchonchini yo'qotadigan mana shunday



Bu kabi manzaralar terrorchilik avjolgan hududlarda odatiy ko'rinishiga aylangan

g'oyalarga qarshi biz qurol bilan emas, g'oya bilan kurashishimiz zarur», deb ta'kidlaydilar.

Zero, ilmiy istilohda qo'llanayotgan «mutaassiblik», «fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm», «fanatizm» kabi atamalar deyarli barchaga tushunarli bo'lsa-da, har kishi ularni o'zicha talqin etishi mumkin. Keng ma'noda bu atamalar qonuniy hokimiyatga qarshi kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir. Ammo muayyan mintaqasi yoki din bilan bog'liq bo'lgan taddiqotlarda yuqoridagi atamalarning hammasi ham doimo qo'l kelavermaydi. Masalan, «fundamentalizm» atamasi aslida asrimiz boshida AQSH protestantlari orasida quyidagi besh aqida: Isoning bokira ayoldan dunyoga kelgani, uning insoniyat gunohlarini oqlash uchun qurban bo'lgani, jisman qayta tirlishi, yer yuziga jismonan ikkinchi marta kelishi, nihoyat, Kitobning muqaddasligini o'z ichiga olgan ta'limotga berilgan nom sifatida paydo bo'lgan.



Odamlarning uy joyi, maktab va masjidlar jangarilar tomonidan vayron qilinmoqda

Bu atama islom diniga nisbatan olinganida faqat bir aqida — Isoning bokira ayoldan tug'ilganida o'xshashlik bor, xolos. Oxirgi paytlarda matbuotda o'zini musulmon hisoblovchi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash odat tusiga kirib qoldi. Ko'rinish turibdiki, bu fundamentalizmning ilk ma'nosiga muvofiq kelmaydi. Agar o'z e'tiqodlarini faol

targ‘ib qilayotgan injilchi-xristian fundamentalistlarining ko‘plab jamoalari jahon bo‘ylab hozir ham mavjudligini hisobga olsak, Misr, Jazoir va boshqa davlatlardagi mutaassib musulmon guruhlariga nisbatan «fundamentalizm» emas, balki «islom niqobi ostidagi ekstremizm» iborasini ishlatish ma’qulroq ko‘rinadi.

*«Ekstremizm» (lotin. «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarash va harakatlarni anglatadi. Bunday harakatlarga diniy tus berish diniy ekstremizmga olib keladi.*

*«Diniy ekstremizm» — jamiyat uchun an'anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarini rad etish, ularga zid g‘oyalarni aldov va zo‘rlik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyoni anglatadi.*

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddizm, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mu-taxassislар katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar papa hokimiyyati dushmanlarini ta’qib qilishga uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a’zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. «Fundamentalizm» (lotin. «asos») tushunchasining ma’nosи muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko‘rinishini anglatadi.

«Fundamentalizm» atamasi yuqorida qayd etilganidek, aslida xristian dini bilan bog‘liqdir. «Fundamentalizm» iborasi ilk bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910-yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaqo

mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so‘zma-so‘z sharhlashga qat’iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyincha-lik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919-yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.



Ekstremizm yoki fundamentalizmning muayyan din bilan bog’lash mutlaqo asossizdir

«Diniy fundamentalizm» — «ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo’l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta’limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o’zgarmasligini himoya qiladigan, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so‘zma-so‘z talqinga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo’yadigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang’ich davrida belgilangan barcha yo’l-yo’riqlarni qat’iy va og’ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo’llaniladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so‘z islomga nisbatan qo’llanila boshladи. Bunda «fundamentalizm» atamasi — Qur'on va hadislarni so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo’nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarini «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi. Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog’lash mutlaqo asossizdir. Xususan, islom dini, u bilan bog’liq turmush tarzi va qadriyatlar majmuyi hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go’yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo’lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbayi sifatida odamlar ongu shuurini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi. O'zlarini «islomiy» deb e'tirof etadigan bunday toifalar siyosiy jabhada inqilobiy va qo'poruvchilik usullari bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurashda o'zlarini namoyon qilsa, boshqalari targ'ibot-tashviqot ishlari, diniy ta'llim, turli jamoat tashkilotlari, maktab, universitet va ommaviy axborot vositalariga kirib borish, ayniqsa, foydalanish oson hamda qulay bo'lgan audio va video mahsulotlarini tarqatish bilan ko'proq shug'ullanadilar.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va mutaassiblar turli dirlar, shu jumladan, xristianlik, islam, yahudiylik dirlari ta'llimotidan foydalanmoqdalar. Shu bilan birga, diniy ritorika ularga ko'zda tutilayotgan jamiyatning aniq shaklu shamoyilini taqdim etmagan holda (bu ular uchun xuddi anarxistlar kabi unchalik ahamiyatga ega emas) xayoliy jamiyat haqidagi tasavvurlardan foydalanish imkonini beradi. Bunda eng muhimmi tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishdir. Unga erishish esa, o'ziga xos umumiy maqsadni tashkil etadi, deyish mumkin.

«*Aqidaparastlik*» (arab. «aqida» — «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog'lash») muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi.

«*Mutaassiblik*» (arab. «g'uluv ketish», «chuqur ketish») muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, «o'zgalar» va «o'zgacha» qarash hamda g'oyalarga murosa-

*si munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etish, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi*

«Terror» (*lotincha* — «*qo'rqtish*», «*vahimaga solish*») — aholining keng qatlamlarida dahshat va *qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir*. Terror — ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan hamda zo'ravonlik qilish bilan tahdid solishdan mutazam foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo'ravonlik yo'li bilan *qo'rqtish, hatto uni jismonan yo'q qilishni anglatadi*. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir

lashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dinni noto'g'ri talqin qilish bilan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlari ni amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o'rinda qayd etish joizki, ko'p manbalarda ishlatalig'an «aqidaparastlik» so'zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so'zi bilan almashtirilgan holda iste'foda etilmoqda.

Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o'zlarini qilayotgan ishlarni to'g'ri deb hisoblab, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan «rahnamolar»ning asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Mutaassiblikning jirkanch basharasi dunyoning turli nuqtalarida sodir etilayotgan qo'poruvchilik va xunrezlik voqealarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmuni bilmaslik ham mutaassiblik g'oyalaring tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihatni dinni siyosiy-

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta'rif berilgan: «Terrorizm — xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqtish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxslarning biron-bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatalish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlari ga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat».



*«Terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlariga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikast-lantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy va yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur etishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqtishga, ijtimoiy siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratil-*

*gan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtish yoki boshqa jinoiy qilmishlar; terrorchi — terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs, terrorchilik guruhi — oldindan til birik-tirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko'rgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruhi; terrorchilik tashkiloti — ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi».*

*O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda qabul qilin-gan «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuni.*

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati — uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo'nalishi turlicha bo'lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko'rsatgan joy-larga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko'lamigina emas, balki metodlari ham o'zgardi. Uning eng dahshatli ko'rinishlaridan biri — o'zini avvaldan o'limga tayyolagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, terrorizm tushunchasini quyidagicha tahlil qilish mumkin. Terrorizm — siyosiy maqsadda amalga oshirilayotgan terrorning nazariyasi va amaliyoti bo'lib, u ikki qismdan iborat:

Birinchisi, terrorning ma'naviy-mafkuraviy jihat. U terrorchilarning his-tuyg'uga asoslangan g'oyalari, mavhum tushunchalar («dinning sofligi», «xalq baxti», «xalq manfaati»)ga tayanadi. Ular real voqelikdan emas, o'z shaxsiy tasavvurlari dunyosidan kelib chiqib harakat qiladilar.

Ikkinchisi, terrorning amaliy tomoni bo'lib, u terrorchilar, terrorchi guruhlar va tashkilotlar tomonidan yuqoridagi talablarni bajarish (terrorchilik aktlariga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish) natijasida o'z maqsadlariga erishishdan iborat.

Musulmon mamlakatlarda terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagani uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934-yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror-bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937-yilda 20 dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbogga qarshi uyuşhtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurban bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoida. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan.

## Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- xalqaro huquq himoyasidagi obyekt yoki subyektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik yo'riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rishi;
- tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalaniishi.

Hozirda diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun xalqlar o'rtasida birinchi navbatda millatchilik va diniy ayirmachilikni keltirib chiqarish va shu yo'l bilan bir davlatda yashayotgan turli millat vakillari o'rtasida milliy, diniy ixtilof va nizolarni vujudga keltirishga urinmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov yer yuzida sodir bo'layotgan bunday ofatlarning qanday kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida shunday deydi: «Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lda foydalamanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur».

**2. Mutaassiblikning islom dini va jamiyatga yetkazgan zararlari, islom dinida uning qoralanishi.** Islom dini tarixiga nazar tashlasak aynan mutaassiblik va aqidaparastlik kabi illatlar oqibatida ko‘plab xunrezlik va notinchliklar kelib chiqqanining guvohi bo‘lamiz. Islom olamida tarixda va hozirda diniy mutaassiblik, dinda g‘ulu (chuqur) ketish oqibatida hatto mo‘min-musulmon kishini kofir (imonsiz), murtad (dindan qaytgan) deb atalish hol-lari ham uchraydi.

Bunga misol qilib al-Harruriya firqasini keltirish mumkin, ularning asl da‘vosi, Ali ibn Abu Tolibga kufr bilan guvohlik beradilar. Undan voz kechib insonlarni ham undan voz kechishga hamda Ali ibn Abu Tolibni kofirga chiqarishga da‘vat qiladilar. Dinda chuqur ketib, haddidan oshish natijasida musulmonlar ichida ko‘plab adashgan firqalar vujudga kelgan, bunga misol qilib rofiziylar firqasini keltirish mumkin, chunki ular Ali ibn Abu Tolibni sevishda haddan oshdilar, hatto uni Payg‘ambar (s.a.v.), muhojir va ansoriylardan ham ustun qo‘ydilar. Rofiziylar aynan mana shu e’tiqod, ya’ni dinda chuqur ketish sababli to‘g‘ri yo‘ldan adashdilar.

Bu ikki bid‘at amal sababli islom tarixi o‘tmishida sodir bo‘lgan bu fojialar hozir ham davom etmoqda. O‘tmishda xorijiylar, mu’taziliylar, marisiylar, rofiziylar, qadariylar, jahmiylar din dushmanlari islomga yetkazolmagan zararni keltirishgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida «Al-qoida», «Xamas», «Musulmon birodarlar», «Hizbu-t-tahrir», «Hizbulloh», «Adolat», «Vahhobiylar», «Tablig‘chilar», «Akromiylar», «Nurchilar» va yana dinni targ‘ib

*O‘tmishda xorijiylar, mu’taziliylar, marisiylar, rofiziylar, qadariylar, jahmiylar din dushmanlari islomga yetkazolmagan zararni keltirishgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida «Al-qoida», «Musulmon birodarlar», «Hizbu-t-tahrir», «Akromiylar», «Nurchilar» va yana dinni targ‘ib qilish niqobi ostidagi bir qancha firqalar mavjudki, ularning paydo bo‘lishining bosh omili diniy mutaassiblik va g‘uludir.*

qilish niqobi ostidagi bir qancha firqalar mavjudki, ularning paydo bo'lishining bosh omili diniy mutaassiblik va g'uludir. Ularning asl maqsadlari qonuniy hukumatni ag'darib, o'rniiga totalitar tuzumni vujudga keltirish, terroristik amaliyotlar orqali odamlarni dahshat va qo'rquvda ushlab turish ekanligi hozirgi zamon ziylisi uchun sir emas.

Bu oqimlar o'z maqsadlarini amalgalashdagi uslublaridan biri terror harakatidir. Terror – zo'ravonlikka olib boruvchi yo'l bo'lib, o'tgan asr boshlarida turli ekstremistik kayfiyatdagi oqimlarga xoslangan iboradir. Bu so'z o'tgan asr oxirlaridan boshlab din niqobi ostida faoliyat yuritayotgan noislomiy siyosiy oqimlarga ham qo'llanila boshladi. Natijada, biz yashayotgan asrimizga kelib «g'arb islomshunos olimlari» tomonidan «islom terrori», «islom fundamentalizmi», «islom ekstremizmi» kabi atamalar paydo bo'ldi. Albatta, bularning har biri mutaassiblik, aqidaparastlik va dindagi g'uluning yoqimsiz va zaharli mevasidir.

Aslida Qur'oni karim va Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislari da aqidaparast mutaassiblar qattiq qoralangan bo'lib, unday kishilarni «xavorij», ya'ni isyonkorlar, dindan kamon o'qi kamondan otilgani kabi juda tez otilib chiqadigan kishilar, deb sifatlangan. Rasululloh (s.a.v.) bunday illatdan musulmon ummatini o'z vaqtida ogoh etganlar.

Abu Hurayra (r.a.) Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan rivoyat qiladi: Payg'ambar (s.a.v.) aytdilar: «Qiyomat kuni olti toifa kishi olti narsa bilan hisob qilinmasdan oldin do'zaxga kiradi». So'rashi: «Yo Rasululloh, ular kimlardir?» Aytdilar: «Mendan keyingi amirlar jabr-zulm tufayli; a'robiylar mutaassiblik tufayli; boshliqlar kibr-havo tufayli; savdogarlar xiyonat tufayli; boylar johillik tufayli; ahli ilmlar esa hasad tufayli do'zaxga kiradilar».

Islom ulamolari mazkur hadisdagagi «a'robiylar» iborasini shariat ilmidan bexabar, savodsiz kishilar deb tafsir qilganlar. Demak, Payg'ambarimiz (s.a.v.) bashorat bergenlaridek, shariat ilmidan bexabar kishilarning din nomidan ish yuritishi inson va jamiyat uchun ko'plab ko'ngilsizliklarni, fitnalarni keltirib chiq-

radi. Alloh taolo fitna haqida o‘zining kalomi sharifida «(Odamlarni) aldab, fitnaga solish o‘ldirishdan (ham) yomonroqdir», — deb o‘z bandalarini fitnadan ehtiyot bo‘lishga buyuradilar.

«Xavorij — Xorijiyalar» bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shuningdek dinni qattiq ushslash, o‘tmish sahabalar va salaf peshvolardan faqat bittasiga haddan ziyod muhabbat bog‘lab, qolganlarini inkor qilish oqibatida ham musulmonlar orasida turli nizolar kelib chiqishiga hamda har xil aqidaviy, siyosiy firqalarning paydo bo‘lishiga omil yaratdi. Bunga o‘tmishdagi shia oqimidagi «Alaviylar» firqasini misol qilib keltirish mumkin. Ular o‘zlarini Ali (r.a.)ning izdoshlari deb atab, unga bo‘lgan muhabbatlari ning kuchliligidan, hatto islam shariatiga va aqidasiga zid bo‘lganda’volarni ko‘tarib chiqdilar va musulmonlar o‘rtasida aqidaviy ixtiqlaflarni yuzaga keltirdilar.

Alloh taolo «Niso» surasining 59-oyatida qat’iy qilib: «Ey mo‘minlar, Allohga itoat qilingiz va payg‘ambarga hamda o‘zlar ringizdan bo‘lgan (ya’ni musulmon) hokimlarga bo‘yinsuningiz! Bordiyu biron narsa haqida talashib qolsangiz — agar haqiqatan Allohga va oxirat kuniga ishonsangiz — u narsani Allohga va payg‘ambariga qaytaringiz! Mana shu yaxshiroq va chiroqliroq yechimdir».

«Niso» surasining mazkur oyatida Alloh taolo bandalarini O‘ziga va Rasuliga hamda o‘z oralaridan chiqqan musulmon boshliqlarga itoat etishni buyurib, biror muammoli masalaga duch kelinganda uning yechimini «Alloh va payg‘ambariga» havola etishni, ya’ni bunday holda Qur’on va hadisga murojaat qilishni buyurmoqda. Darhaqiqat, ixtilof vaqtidagi masalaning eng to‘g‘ri yechimi, qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham firqalarga ajralishning oldini olishdir. Buning uchun esa musulmon kishi Qur’oni karimda buyurilganidek, Alloh taoloning kitobi va Rasulining sunnatiqa so‘zsiz ergashib, Alloh va Rasuliga hamda o‘zlaridan bo‘lgan rahbarlarga itoat etishi shart. Musulmon kishi ko‘r-ko‘rona taqlid qilmasdan, balki Alloh taoloning kalomi va Payg‘ambarining hadislariga ergashmog‘i, agar o‘ziga lozim bo‘lgan aqidaviy va shar‘iy

masalalarni bilishga o‘zining ilmi yetarli bo‘lmasa, unda o‘zining shar’iy va aqidaviy masalalarini ishonchli, taqvodor, olim kishilardan so‘rab bilmog‘i hamda uni amalga tatbiq etishda fitna keltirib chiqarishdan ehtiyyot bo‘lmog‘i kerak.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) dinda qanday yo‘l tutish lozimligi ha-

«*Din yengildir, hech kim uni qiyinlashtirib yubormasin, mabodo qiyinlashtirib yuborsa, din uni yengib qo‘yadi...*»

*Hadis*

qida shunday ko‘rsatma beradilar: «Din yengildir, hech kim uni qiyinlashtirib yubormasin, mabodo qiyinlashtirib yuborsa, din uni yengib qo‘yadi...», ya’ni farz qilingan ibodatlardan tashqari ibodatlarni va solih amallarni haddan ziyod o‘z zim-

masiga yuklab olishi natijasida ularni bajara olmay hammasini tark etishga sabab bo‘ladi.

Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan quyidagi hadisda Rasululloh (s.a.v.) ibodatlarni bajarishda Alloh taoloning fazlidan umid qilgan holda mo‘tadil bo‘lishni buyuradilar: «Toat-ibodatlarin-gizni to‘g‘ri, mo‘tadil ado etinglar, bilinglarki, birortangizni qilgan toat-ibodatingiz jannatga kiritmaydi. Alloh taolo xushlaydigan toat-ibodat, qisqa bo‘lsa-da, uzlusiz ado etiladigan ibodatdir!»

Ibn Abbos (r.a.) va Oisha (r.a.)dan rivoyat qilinadi: Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.): «Albatta, islom kuchga to‘lib, kengayib boraveradi, so‘ng bir muddat bo‘shashib kuchsizlanadi. Kimga dindagi mana shu bo‘shashishlik dinda chuqur ketish va bid‘at tomonga (burilishga sabab) bo‘lsa, ular do‘zax ahlidan hisoblaniadi», – dedilar.

Hozirgi tezkor axborot asrida bu illatlarning ba’zi bir manfaatdor doiralar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, o‘z manfaatlari uchun dindan ustomonlik bilan foydalanishga urinishlari tashvishlanarli holdir. Xalqimizning tinchligiga rahna solib, musaf fo osmonimizni notinch qilishga yoki yoshlarimiz ongiga din va madaniyat niqobi ostida bizga yot bo‘lgan turli g‘oyalarni tiqishtirishga urinayotganlar ham oz emas. Bunday holga beparvo, be-

farq qarab turish gunohi azimdir. Shubhasiz bu biz fuqarolardan doimiy sergaklik, hushyorlikni talab qiladi. Hurmatli Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: «Xushyorlik, ogoh bo'lib yashash – bir kunlik yoki bir oylik mavsumiy masala emas, balki kundalik ish, kundalik amaliy harakat bo'lishi lozim».

### **3. Globallashuv sharoitida mafkuraviy xurujlarning oldini olish yo'llari.** Yuqoridagilarni inobatga olib, kishilar, ayniqsa, yoshlar quyidagilarga alohida e'tibor qaratishlari zarur:

– har bir ishda aql yuritishlari, bilmagan masalalarida ahli ilmdan so'rashlari, shuningdek, ekstremistik guruhlarning orasida birorta ham olim kishi yo'qligini yaxshi bilish kerak. Bu borada Ibn Abbas (r.a.)ning xavorijlarning johilliklarini ko'rsatish uchun aytgan so'zlarini keltirish o'rinni: «Sizlarning oldingizga Rasululloh (s.a.v.)ning sahabalarining oldidan ularning aytgan so'zlarini yetkazish, xabarini berish uchun keldim. Ularga Qur'on nozil bo'lgan, ular sizlardan ko'ra, vahiyini biluvchiroqdirlar. Sizlarning orangizda ulardan biror kishi ham yo'q»;

– boshqa din vakillariga mehr-shafqatli, bag'rikeng munosabatda bo'lish, axborot xurujlari asiriga aylanmaslik hamda ekstremistik guruhlar tomonidan e'tirof etilayotgan g'oyalar yolg'on va soxtalikka xizmat qilishini ta'kidlash lozim;

– ekstremistik guruhlar tomonidan e'lon qilingan xalifaliking botil ekaniga aniq ishonish lozim. Chunki u Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning tutgan yo'llariga ham ma'nani, ham shaklan ziddir. Ekstremistik guruhlarning harakatlari zulm, istibdodga asoslangan ekanini anglash kerak;

– ahli ilmlarni ulug'lash, ularning qarashlarini himoya qilish, ularga turli xil bo'htonlarni otmaslik lozim;

– ekstremistik guruhlarning asl maqsadini ochib berish, uning xatarli oqibatlari haqida barchani ogohlantirish har bir kishining burchidir.

Demak, Yaratganning eng buyuk ne'mati, biz yashab turgan olamning eng ajoyib mo'jizasi bo'lmish inson hayotiga tajovuz qilishga qaratilgan har qanday ko'rinishdagi tahdidlar katta

gunoh ekan, har bir kishi bu ne'matni asrab-avaylashi, unga xiyonat qilmasligi lozim bo'ladi.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. «Mutassiblik», «ekstremizm», «aqidaparastlik», «terrorizm» tushunchalarini izohlang.
2. «Fundamentalizm» tushunchasining yuzaga kelishi qaysi din vakillari bilan bog'liq?
3. Xalqaro terrorizm belgilarini sanab o'ting.
4. «Ma'rifiy islom» deganda nimani tushunasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Vasatiya – hayot yo'li. – T.: Sharq, 2016.
2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
3. Hasanov A., Yusupov O., G'ofurov U., Shermuhamedov K., Karimov J. Diniy mutassiblik: mohiyat, maqsad va oldini olish yo'llari. – T.: Movarounnahr, 2013.
4. Shermuhamedov K., Karimov J. Islom niqobidagi ekstremistik tashkilotlar. – T.: Movarounnahr, 2015.
5. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. – T.: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2014.

## 18-mavzu. MUSTAQILLIK VA DIN


### Reja:

1. «E'tiqod» tushunchasi. Din e'tiqodining o'ziga xos ko'rinishi sifatida.

2. Hozirgi davrda davlat va din munosabatlari.

3. O'zbekistonda «Vijdon erkinligi»ning Konstitutsion asoslari.

4. Diniy qadriyatlar tiklanishi ning jamiyat ma'naviy hayoti rivojidagi o'rni va ahamiyati.



**Tayanch tushunchalar:** e'tiqod, din va davlat munosabatlari, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun, diniy qadriyatlar.

**Mavzu o'quv maqsadi:** talabalarda hozirgi davrda davlat va din munosabatlari, O'zbekistonda «vijdon erkinligi»ning konstitutsion asoslari, diniy qadriyatlar tiklanishining jamiyat ma'naviy hayoti rivojidagi o'rni va ahamiyati haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.

**1. «E'tiqod» tushunchasi. Din e'tiqodning bir ko'rinishi sifatida.** E'tiqod (arab. «i'taqada» fe'lidan) ishonch, imon ma'nolarini anglatadi. Keng ma'noda e'tiqod inson faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aqli his va iroda vositasida anglangan bilim, g'oya hamda shu asosda shakllanadigan maqsadlar majmuyini, shuningdek, ularning to'g'riligiga ishonch bilan bog'liq bo'lgan psixologik holatni ifodalaydi. Bilim va g'oyalar insonning ham aqli, ham qalbi bilan o'zlashtirilib olingandagina e'tiqodga aylanadi. Umuman olganda, e'tiqod shaxs, guruh va ommani jipslashtiruvchi, odamlarni ijtimoiy hayotning faol a'zosiga aylantiruvchi kuch hisoblanadi. E'tiqod insonning faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu boisdan e'tiqodli inson faqat amaliy faoliyat jarayonida o'zligini namoyon qiladi.

*Bilim va g'oyalilar in-  
sonning ham aqli, ham  
qalbi bilan o'zlashtirilib  
olingandagina e'tiqodga  
aylanadi.*

Dunyoda kuchli e'tiqodga ega bo'lgan kishilar bilan bir qatorda e'tiqodi zaif kishilar ham uchraydi. Qat'iyatsizlik, jur'atsizlik va befarqlik e'tiqod sizlikning asosiy belgilari hisoblanadi. Bunday kishilar ko'pincha boshqalariga ergashib yoki taqlid qilib yashaydilar. Sharoitga qarab goh u, goh bu tomonga og'ib ketadilar. Bunday e'tiqodiy zaiflik, bo'shliq shaxs kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar e'tiqod mutaassib, irqiy, millatchilik, tor siyosiy va iqtisodiy manfaatlar bilan cheklangan bo'lsa, bunday holda u buzg'unchilik, beqarorlikka xizmat qiladi, rivojlanishga to'sqinlik qiladi. Hozirgi davrda har bir kishining, ayniqsa, yoshlarning taraqqiyot va hurfikrlilikka yetaklovchi ishonch va e'tiqod bilan buzg'unchi, aldamchi, adashtiruvchi va yolg'on «e'tiqod»ni farqlashi o'ta muhimdir.

*Hozirgi davrda har  
bir kishining, ayniqsa,  
yoshlarning taraqqiyot  
va hurfikrlilikka yetak-  
lovchi ishonch va e'tiqod  
bilan buzg'unchi, al-  
damchi, adashtiruvchi  
va yolg'on «e'tiqod»ni  
farqlashi o'ta muhimdir.*

E'tiqodning mazmunini ilm tashkil qiladi. Chunki kishi nimaga e'tiqod qilayotganligini, ya'ni nimaga ishona-yotganligini, nimaga intilayotganligini, nimaga o'z xulq-atvori va ijodini mos-lashtirayotganligini bilishi lozim. Bu ilm diniy yoki dunyoviy yoxud ularning qorishuvi bo'ladimi, undan qat'i nazar, e'tiqodning keng ma'nodagi hayotiy mazmunini tashkil etadi. Ilmsiz e'tiqod yo'q, bo'lishi mumkin ham emas.

E'tiqodning ilg'orligi yoki qoloqligi, insonparvarligi yoki xudbinligi va boshqa ko'plab xususiyatlari uning mazmunini tashkil etuvchi ilmga bog'liq. Ammo har qanday ilm, ayniqsa, kundalik bilimlar e'tiqod bo'la olmaydi.

Shuningdek, amaliyotda tasdig'ini topmagan, faraz sifatida olg'a surilgan ilmiy tushuncha va nazariyalar ham e'tiqodga aylana olmaydi. Ikkilanish va shubha bilan qaralgan ilm e'tiqod

emas. Ilgari inson qattiq ishongan tushunchalar, g'oyalarga nisbatan jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti natijasida shubha tug'ilsa, ular e'tiqod maqomini yo'qotadi.


E'tiqodda ishonch katta rol o'ynaydi. Ishonch-e'tiqod mazmunini tashkil etuvchi tu-shunchalar, me'yorlar, g'oyalar ta'llimotga – ilm (bilim)ga nisbatan kuchli emotsiional (hissiy) ijobjiy munosabatdir. Ishonch oilaning tarbiyasi va amaliyoti natijasida, davlatning ta'llim muassasalari, tashviqot va axborot vositalari orqali kishi ongiga ta'sir etish oqibatida vujudga keladi.

Har qanday e'tiqod diniy bo'lavermaydi albatta. Ammo din ham e'tiqodning o'ziga xos ko'rinishi sifatida jipslashtiruvchi xususiyatga ega. Diniy e'tiqod bu – inson irodasidan yuqori turgan zotga imon keltirish, undan madad olish, asotiriyl voqeahodisalarning takror sodir bo'lishi va unga dahldorlik hamda muayyan tasavvur, aqida, muqaddas kitob, payg'ambar, avliyo va hokazolarga ishonch demakdir.

Diniy e'tiqodda muayyan timsollar (buyum, harakat, so'z, matnlar) diniy ma'no va mazmun kasb etadi. Har bir din yoki diniy konfessiya (yo'nalish)larning o'z sobit e'tiqodlari mavjud.



Diniy e'tiqodda muayyan timsollar (buyum, harakat, so'z, matnlar) diniy ma'no va mazmun kasb etadi



*Diniy e'tiqodda muayyan timsollar (bunya, harakat, so'z, matnlar) diniy ma'no va mazmun kasb etadi. Har bir din yoki diniy konfessiya (yo'nalish) larning o'z sobit e'tiqoldari mavjud.*

Imon faqatgina diniy tushuncha bo'lmay, balki dunyoviy va hayotdagi amaliy tushuncha hamdir. Imonli kishi tushunchasining hayotiy, amaliy va dunyoviy mazmunida ilm-ma'rifat egasi bo'lish, o'zaro yordam, saxiy bo'lish, to'g'rilik, halollik, yaxshilik qilish, ezgulikni ulug'lash, ahsga vafo, Vatanni sevish kabi yuksak ma'naviy fazilatlar egasi to'g'risidagi tasavvurlar yotadi.

Boshqacha qilib aytganda imon ma'lum dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsning ichki, ruhiy olamini anglatadi. Imonli odam boshqalarning diliga ozor bermaydi, balki odamlarga ziyo va nur ularшиб, yaxshi va czgu amallarga o'rgatib, yaratuvchilik va taraqqiyotga undaydi.

**2. Hozirgi davrda davlat va din munosabatlari.** Din qadimiy va murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat ma'naviy hayotining ajralmas tarkibiy qismidir. Shu sababli har qanday davlatdan dinga nisbatan aniq bir munosabat bildirish talab qilinadi. Demak, dunyoviy davlat o'z siyosatini dinga munosabatini aniqlash orqali ham namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, dunyoviy davlat bilan dinlar o'rtasidagi munosabat mazkur davlat tizimi mafkurasining ma'lum darajasidagi mohiyatini ham belgilaydi. Agarda dunyoviy davlatda diniy e'tiqod, marosim va an'analarga sharoit yaratilsa, shu mammalatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aks holda sho'rolar davrida bo'lganidek, din va davlat o'rtasida ziddiyat vujudga kelib, ular bir-birining rivojiga to'sqinlik qildi. Masalan, o'sha davrda dinsizlik targ'ib qilinib, Qur'oni karim, Hadisi shariflar singari islomning muqaddas kitoblari ta'qib ostiga olinib, madrasa, masjidlar yo'q qilindi. 1911-yilda Toshkentning o'zida 349 masjid va 26 madrasa mavjud bo'lsa, 1990-yilga kelib 10 masjid qolgan edi xolos. Respublika bo'yicha jami 80 ta masjid nomigagina ro'yxatda turar, ularning ham to'liq ishlashlariga imkon berilmas edi. Qashqadaryo viloyatida 2 tagina mas-

jidga ruxsat berilgan, Buxoro Mir Arab madrasasida sanoqli tabalalar o'qitilardi.



Dunyoviy davlat bilan dinlar o'rtaсидаги муносабат н азкур давлат тизими мафкурасининг ма'lум даражасидаги мөһиятини ham belgilaydi


O'sha davrda diniy bayram (hayit)lar taqiqlangandan milliy ma'naviyat va madaniyatimiz zarar ko'rdi, turli noroziliklarga olib keldi. Bunday diniy e'tiqodlarning cheklanishi asta-sekin boshqa ijtimoiy illatlar bilan qo'shib, o'sha jamiyatning yemirilishiga ham sabab bo'ldi.

Din va dunyoviy davlat munosabatlari to'g'risida fikr yuritilganda dunyoda 3 xil davlat turi borligini ko'rshimiz mumkin:

1. Din asosiy g'oya va mafkura deb e'tirof etiladigan davlatlar (Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoniga kabilar).

2. Ayrim dinlarga ustuvor mavqe beradigan davlatlar, masalan, islam dinini ustuvor deb biluvchi arab yoki musulmon davlatlari: Misr, Indoneziya va boshqalar yoki Germaniyada ham xristian dinining protestantizm yo'nalishi ustuvor deb hisoblanadi.

3. Davlat tizimi sekulyaristik (dunyoviylik ustun bo'lgan dav-



Har qanday davlatdan denga nisbatan aniq bir munosabat bildirish talab qilinadi

lat) bo'lib, unga biron-bir dinka ustuvorlik huquqi berilmaydigan davlatlar kirdi. Masalan: AQSH, Fransiya, O'zbekiston.

*O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dunyoviy davlat sifatida, din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, lekin dindor jamiyatdan ajratilmaganligi bois barcha dinlar, shu jumladan, islam diniga bo'lgan munosabat tubdan o'zgaradi. Davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabat to'g'ri yo'lga qo'yildi, ya'ni vijdon erkinligiga e'tibor qaratildi. Dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar o'rtasidagi munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yildi. Bu BMT ustavi hamda 1948-yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiyligi deklaratsiyasiga mos tushadi. Qisqasi, din dunyoviy davlat tizimi bilan nafaqat murosa qilish, balki umum-milliy taraqqiyot yo'lida, u bilan samarali hamkor bo'lishi mumkin.*

O'zbekiston davlati dunyoviylik asosida shakllangan va barcha dinlar teng hisoblanib, diniy bag'rikenglik rivojlangan. Hamma dinlarga hurmat bilan qaraladi. Shunga qaramasdan, aholisining 94% dan ortig'i musulmonligi sababli islam diniga alohida e'tibor beriladi.

Din va jamiyat hayotidagi dialektik aloqadorlikdan din va dunyoviy davlat munosabatini belgilab beruvchi boshqa bir tamoyil – din sohasida kechayotgan o'zgarishlarni xolis va ilmiy

*Dunyoviy davlatning dinka bo'lgan munosabatida dindorlarning huquqiy maqomi va davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etilishidek ikki muhim jihat ham bor.*

Davlatning dinka munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'nnaviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlisning


o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida bu tamoyil o'zining yorqin ifodasini topgan: «Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz».

Konstitutsiyamizda bu masalalar o'z yechimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me'yoriy tabablarga to'la javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishini ta'minlovchi Konstitutsiyamizning 31-moddasida, jumladan shunday deyiladi:

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalari ning xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umum-insoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan soydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib



Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinning siyosatga aralshmasligidir

bo'Imasligini e'tirof etish (Qarang: I.A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997-yil 43–44-betlar).

Davlatning dinka munosabatidagi asosiy xususiyati – bu dinding siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-axloqiy jihatni o'z ichiga oladi.

### **3. O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitutsiyon asoslari.**

**«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri.** Hech qaysi din o'zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining barchasini qamrab olishga da'vo-garlik qilmaydi. Aks holda u din bo'lmay qoladi. Xuddi shu asosda Respublikamiz Konstitutsiyasining 57-moddasida diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan.



O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat bo'lish siyosati «vijdon erkinligi» tamoyiliga asoslanadi

O'zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag'rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki konstitutsiyaviy dunyoviy-ma'riifiy davlatda vijdon erkinligi qonuni diniy e'tiqod va dunyoqarashidan qat'i nazar o'z siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyillariga rioya qiladi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun 1991-yilda qabul qilingan bo'lib, 1993-yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgarishlar bilan 1998-yilga qadar amal qilib keldi.

1990-yillarning boshlarida hukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiiste'mol qilinishi, masjidlar qurishning kompaniyaga aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5000 tagacha yetdi. Aksariyat masjidlar hujjatlari to'liq rasmiy-

lashtirilmagan, malakali imomlar bilan ta'minlanmagan (95,8 foizi diniy ma'lumotsiz) va zarur sharoitlar bo'lmagan holda faoliyat yurgizib, turli «peshvo»lar masjidlarni o'z uyalariga aylantirishga harakat qildilar.

Ba'zi diniy tashkilotlarning rahbarlari xorijiy fuqarolar bo'lib, aslida hech qanday diniy ma'lumotga ega bo'lmay, moliyaviy yordam ko'rsatish hisobiga respublika hududidagi diniy tashkilotlarga rahbarlik qilib olib, buzg'unchilik, missionerlik faoliyati bilan shug'ullanar edilar. Ularning asosiy maqsadlari turli yo'llar va usullar bilan saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat edi.

Davr talablari asosida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunini tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi va 1998-yil 1-may kuni yangi tahrirda qonun qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi qonun oldingisidan nima bilan farq qiladi va qanday o'zgarishlar kiritilgan edi?

Ushbu qonunga kiritilgan o'zgarishlardan biri qonunning 8-moddasida diniy tashkilotning ochilishi uchun oldingisida 10 nafar dindorning imzosi talab qilingan bo'lsa, yangi qonunda diniy tashkilotning ochilishi uchun 100 nafar dindorlar imzosi, kerakligi qayd etiladi. Bunday o'zgartirish kiritilishiga sabab oz sonli dindorlar ham masjid va cherkovlar oolib, kishilarni dinga e'tiqodga chaqirish emas, balki o'zlarining asl maqsadi – buzgunchi g'oyalarni olib kirish bilan shug'illanishlar edi.

Yangi tahrirdagi qonundagi ikkinchi tamoyil diniy tashkilotlarning rahbarlari diniy ma'lumotga ega bo'lishi shart deb ko'rsatilgan edi. Diniy ma'lumotga ega bo'lgan kishilar bo'lmanagan taqdirda davlatning diniy qo'mitasi ruxsati bilan tayinlanishi shart deb ta'kidlanadi. Qonunning 9-moddasida markazlashtirilgan holatda diniy ta'lim berilishi va faqat litsenziyasi bo'lgan va adliya vazirligi ro'yxatidan o'tgan diniy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatishi belgilab qo'yildi.

Yangi qonunning 14-moddasida jamoat tashkilotlarida diniy ibodat kiyimida (hijob) yurish taqiqlanishi qayd etilgan. Bunga

ayrim erkaklarning ayol kiyimi (hijob)ni kiyib, jinoyat ko'chasiga kirishlari sabab bo'ldi.

Qonunning 5-moddasidagi yana bir muhim tamoyillardan biri, bir dindan boshqa dinga o'tishga targ'ib qiluvchi xatti-harakat bo'lgan missionerlik (prozelitizm) faoliyati taqiqlanadi. Bunga sabab, har xil dinga da'vat etuvchilarining ko'payib ketishi, dinlararo nizolar kelib chiqishining oldini olish edi.

Shuningdek, Qonunning 5-moddasida yana ta'kidlanadiki, «O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi... diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtaida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi», deb qat'iy belgilab qo'yildi.

*Respublikamiz Konstitutsiyasi va tegishli qonunlarida hamda diniy ishlar qo'mitasi faoliyatida din va diniy e'tiqodga berilgan huquq va erkinliklar qurilayotgan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida vijdon erkinligi, din va diniy tashkilotlarning o'rni, funksiyalariga konstitutsion maqom va huquqlarning to'liq berilganligi ifodalananadi.*

#### **4. Diniy qadriyatlar tiklanishining jamiyat ma'naviy hayoti rivojidagi o'rni va ahamiyati.**

Uzoq davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay. O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan tarixiy qadriyatlar va o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvofiq bo'ldi. Buyuk istiqlol esa ularning har tomonlama rivoji uchun imkoniyatlar ochib berdi.

*Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy tashkilotlarning soni o'sdi. 1990-yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot, 2 ta diniy o'quv yurti mayjud bo'lgan bo'lsa, 2018-yilning 1-avgust holatiga*

*ko'ra, respublikada 16 ta konfessiyaga mansub 2242 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston musulmonlar qoziyoti, O'zbekiston musulmonlari idorasi ning viloyatlar va Toshkent shahridagi vakilliklari, 3 ta oliy diniy ta'lif muassasasi – Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi; 9 ta madrasa, 2056 ta masjid, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi, Pravoslav seminariyasi, Rim-katolik markazi, Arman apostollik cherkovi, Nemis yevangel-lyuteranlar cherkovi, Yevangel xristian-baptistlar cherkovlari uyushmasi, Yettinchi kun xristian adventistlari cherkovi, Koreys protestant cherkovi, To'liq Injil xristianlar cherkovlari markazi (pyatidesyatniklar), Novoapostol cherkovi, "Iyegova shohidlari" tashkiloti, "Golos bojiy" cherkovi, bahoiylik, buddaviylik, krishnaviylik, yahudiylik, protestant seminariyasi, Bibliya jamiyati, 151 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy, 6 ta bahoiy jamoasi, 1 ta krishna jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi faoliyat yuritmoqda. 130 dan ziyod millatga mansub aholining 94% dan ortig'i islom, 3.5% ga yaqini pravoslav diniga mansub, qolganlarini boshqa konfessiya vazirlari tashkil etadi.*

Eng avvalo, asrlar davomida umummilliy qadriyat darajasiiga ko'tarilgan diniy bayramlar – Ramazon va Qurbon hayitlari ning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari (1991-yil 11-apreldagi 193-sonli; 1991-yil 20-iyundagi 221-sonli) bilan dam olish kuni deb e'lon qilingani va ular ommaviy ravishda, emin-erkin nishonlana boshlanganini ta'kidlash zarur.

Din sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan ulamolarning merosini o'rganish, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebafo ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim ijtimoiy hodisa bo'lib qoldi.

Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Najmuddin Kubro, Imom Termizi, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Abduholiq G'ijduvoniy, Xoja Ahror Valiy kabi mutafakkirlari-

mizning yubileyлari o'tkazildi. Ulkan va boy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lmish islam madaniyati va axloq-i masalalarini chuqur o'rganish ilmiy tadqiqotlarda markaziy o'rinni egalladi.

Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri, Imom Buxoriyning hadislar to'plami, Burhoniddin Marg'inoniyning «al-Hidoya», Imom Termiziyning «Sunan at-Termiziy», Abu Lays Samarqandiyning «Tanbehul-g'ofilin» asarlari, Bibliya (Yangi Ahd), shuningdek, Qadimiy Ahdning ba'zi qismlari (Sulaymon hikmatlari, Rut, Ester va Yunus payg'ambarlar tarixi) ilk marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilganligini ham ana shunday ijobiy natijalar sirasiga qo'shish mumkin.

Eski masjid, maqbara va ziyoratgohlar ta'mirlanib, yangilari bunyod etildi, diniy bilim yurtlari tarmog'i kengaytirilib, sifat va saviyasi takomillashtirildi.

### **O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:**

1. «E'tiqod» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Chor Rossiyasi, Sobiq Ittifoq va mustaqil O'zbekiston Respublikasidagi davlat va din munosabatlariga oid voqeliklarni qiyoslang.
3. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun haqida so'zlab bering.
4. Mustaqillik yillarda Respublikamizda diniy qadriyatlarining tiklanishi nimalarda aks etadi?

### **Adabiyotlar:**

1. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. — T.: «Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2013.
2. Najmiddinov J. Missionerlik: kecha va bugun. — Toshkent: «Toshkent islam universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2008.

3. Ochildiyev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2009.
4. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili / Mas'ul muharrir A.Achildiyev. – T., 2007.
5. Yovqochev Sh. Islom va siyosat. – T., 2011.
6. Sirojiddinov Sh. Bag'rikenglik – dinlarning ma'rifiy asosi. – T., 2010.
7. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, maskuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari / Mas'ul muharrirlar K.Komilov, A.Mansurov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2014.

## GLOSSARY

**Abbat** (abbot, Abb., abbas) 1) V–VI asrlardan – benediktianlik, keyinchalik esa, bir qancha boshqa katolik cherkov rahbarlarining unvoni; 2) hozirgi kunda Frantsiya va Italiyada doimiy cherkov mansabi yoki hali ma’naviy rutba olmagan yosh ruhoniy. Katolik cherkovi abbatlik boshlig'i; katolik ruhoniysi faxriy unvoni.

**Abib** (Abib) yahudiy taqvimining birinchi oyi, mart-aprel, bo-shoqlar oyi. Bobil qamalidan so'ng nisan deb atala boshlagan.

**Ablegat** (ablegate) Rim Papasining elchisi. Hozir Rim Papasi-ning xorijdagi diplomatik vakili nuntsiy deb yuritiladi.

**Baptistlar** (the Baptists) – (yunon. «suvga cho'ktirish»). XVII asrda Angliyada puritanizm rivojlanishi jarayonida paydo bo'lgan protestantlik yo'nalishi tarafдорлари. «Kishi dinni ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur» degan qoidasiga binoan baptistlar faqat voyaga yetganlarnigina cho'qintirishga olib boradilar.

**Bahoizm** (the Bahais(ts) – Eronda shakillangan bahoiylik ta'limoti. Xudo va barcha dinlarning birligini ta'kidlaydi. Bahoizm asoschisi Mirzo Husayn Ali (Mirza Husayn Ali, Bahoulloh) 1863 yilda o'z vazifasini e'lon qilgan. Bahoulloh o'zini xudodan vahiy olgan Mahdiy deb ko'rgan. Bahoiylar uni Krishna, Buddha, Muso va h.k. payg'ambarlarning davomchisi hisoblaydilar.

**Vaal** (Baal) – Finikiya, Falastin va Suriyadagi hosildorlik va urush xudolari. Ularga xizmat qilish qurbanlik qilish bilan bog'liq, shu jumladan insonlar bilan ham. Kohinlar Vaalning e'tiborini tortish uchun o'zlariga nayza yoki xanjarlar sanchish-gan, qichqiriq bilan uni chaqirishgan.

**Vadjra** (vajra) – 1) Veda va hinduizm mifologiyasida tishli gar-dish, xudo Indraning momaqaldiroqli gurzisi (Indra's thunder-bolt); buddizm mifologiyasida esa, mustahkamlik va chidamlilik ramzi, ko'pgina budda va bodxisatvalar tasvirlari atributi (alomati); xuddi chaqmoq chaqishi kabi bir zumlik ramzi.

**Galaxa** (halacha, halakah) – Toraning har bir alohida qonuni, shuningdek, yahudiy jamiyatining hayotini tartibga soluvchi Talmuddagi qonunlar majmui.

**Ganesha** (Ganes(h)a) – hinduizmدا donishmandlikning va mulohazakorlikning fil boshli xudosi.

**Geenna** (Gehenna) – Quddus yaqinidagi Yennom vodiysi (the Valley of Hinnom) nomi bo'lib, qadimgi yahudiylar u yerda mafusiy xudo Moloxga o'zlarining farzandlarini qurban qilganlar. Keyinchalik bu vodiya jinoyatchilarining murdalarini, o'limtiklarni, chiqindilarni olib borganlar va bularning hammasini yozib yuborganlar. Olovli Geena do'zaxning nomlaridan biri.

«**Iblis advokat**» (devil's advocate; advocatus diaboli; the promoter of the faith, promoter fidei) – Kardinal komissiyasi a'zolari dan biri (the Congregation of Rites) bo'lib, uning vazifalariga nomzodlarning avliyolikka taqdim etilgan attestatsiyasidagi kamchiliklarni aniqlash kiradi.

**Deizm** (deism) – falsafiy-diniy ta'lilot bo'lib, unda xudo dunyo yaralishining dastlabki sababi sifatidagina tan oladi; deizmga muvofiq xudo Koinotni yaratdi, biroq unda sodir bo'luchchi ishlarga aralashmaydi

**Dekan** (dean) – katoliklarda va anglikanlarda – kafedral soborning yoki kapitulyar cherkovning katta ruhoniysi; monaxlikning dastlabki vaqtlarida u o'nlikka bo'lingan va 10 monaxning rahbari dekan, deb nomlangan

**Demonologiya** (demonology) – ko'pgina antik diniy-falsafiy tizimlarning tashkiliy qismi, okkult-sehrgarlik amaliyotining nazariy asosi, ilohiyot sohasi, uning predmeti bo'lib, iblislar, ruhlар, qisman yovuz ruhlar hisoblanadi.

**Eparxiya** (eparchy, diocese, see, bishopric, episcopate) – cherkov ma'muriy okrugi, yepiskop tomonidan boshqariladi va kichik xristian jamoalar (pinox)dan tashkil topadi.

**Yettinchi kun adventistlari** (the Seventh(-)Day Adventists, S.D.A., the Church of God, the Sabbatarians) – qiyomat, Isowing ikkinchi voqe' bo'lishi, «Ming yillik hukmronligi» haqida ta'lim beruvchi konfessiya.

**Johiliya** (al-Jahiliyyah, jahiliyah, jahilliyyah) – islomgacha bo'lgan davrga ishora; Muhammad (s.a.v.)ning payg'ambarligi

boshlangunga qadar, Arabiston aholisining diniy holatini ifodaydi.

**Zardusht** (Zarathustra, Zoroaster) – zardushtiylik asoschisi.

**Ibrohim** (arab. Ibrahim) – Qur’onda va musulmon rivoyatlari-da payg’ambar, yakkaxudolikning birinchi da’vatchisi, «Allohnning do’sti» (the «friend of God»), arablar va yahudiylarning umumiy ajdodi, Muhammadning va musulmonlarning ma’naviy ajdodi.

**Ibrohim vasiyati** (The Testament of Abraham) – II asrga xos apokrifik asar (cherkov tan olmaydigan).

**Iezuitlar** (the Jesuits) – lat. *societas Jesu Iso jamiyati*. 1537 yilda ta’sis etilgan katolik monax ordeni.

**Yom-kipur, Yom-kippur** («Gunohni yuvish kuni», Qiyomat kuni; (the Day of Atonement, Yom Kippur) – yahudiylilikda bir kunlik poklanish va tavba-tazarruni ifodalovchi bayram.

**Kardinal** (cardinal, Card) – katolik cherkovida Rim Papasidan keyingi oliy martaba.

**Karma** (karma) – brahmanlikda, hinduizm va buddizmda 1) mavjudotni qayta dunyoga kelishiga (reinkarnatsiya) hal etuvchi ta’sir ko’rsatadigan amallar to’plami; vujud o’tgan mavjudligining majmui bo’lib, uning hozirgi va keyingi taqdiriga ta’siri; 2) odatiy ma’noda – taqdir.

**Lamaizm** (Lamaism, Tibetan Buddhism) – buddizmning asosiy yo’nalishlaridan biri.

**Liturgiya** (the Liturgy) – 1) xristianlikda eng asosiy ibodat 2) G’arbiy xristianlikda – har qanday ilohiy ibodat (liturgy, Mass).

**Majuj** (Magog) – yahudiylilik, xristianlik va islom ta’limotida vahshiy xalq bo’lib, uning yajuj xalqi bilan bosqini Qiyomat kuanidan avval bo’ladi.

**Majusiylik** (heathenism, paganism, heathendom, paynim, heathenry) – yakkaxudolik dini atamasi, politeistik dinlarni ifodalash uchun ishlataladi, ya’ni bir emas, bir necha xudoga yoki alohida maxluqlar, ofatlar, tabiiy hodisalar homysi bo’lmish sirli kuchlarga e’tiqod qilish dini.

**Obdast** (abdest) – musulmonlarda qo’lni yuvish (poklash).

**Okkultizm** (occultism) – 1) tabiatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'limgan kuchlar haqida mistik ta'llimot bo'lib, sehr va mafrosimlar orqali gavdalantiriladi va insonga bo'ysundirilishi mumkin; qullik bilan chalkashtirmslik kerak 2) narigi dunyo bilan muloqot qilish imkoniyati haqidagi tasavvurlar (psychomancy).

**Paleografiya** (paleography) – yozuv rivojlanishini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan: yozuv belgilarining grafik shaklini, qisqartish tizimi va sirli xat, qo'lyozmalar va kitoblarni bezash va hujjatlashtirish; mualliflik, yodgorlikning yaratilgan vaqtini va joyini aniqlashtirish imkonni beradi.

**Psalom** (psalm) – diniy qasida. «Sulaymon Qasidalari (Psalmlari)» (The Psalms of Solomon) mil.avv. 70–40-yillarda yozilgan apograf, Qadimgi Ahdga oid to'plam).

**Ravvin** (rabbi(n)) – yahudiylikda ibodat xizmatchisi, yahudiy jamoasining diniy va oilaviy hayot masalalar bo'yicha sudyasi.

**Rajab** (Rajab) – musulmon hijriy-qamariy taqvimining 7-oyi.

**Sadxu** (sadhu) – hinduizmda zohid yoki avliyo, shuningdek, ba'zan bajonudil e'tiqodli dunyoviy kishi.

**Samadxi** (samadhi) – 1. Psixik e'tiborni to'plash, istalgan yoga yo'naliшining asosiy atamasi; 2. Buddizmda meditatsiya, «to'yin-ganlik», «to'planish», «ma'naviy fan»; nirvanaga olib boruvchi eng oliy nurlanish holati.

**Tabu** (tabu, taboo) – qandaydir narsa, predmet, harakat, so'z va b.ga diniy ta'qiq bo'lib, uni buzish oliy kuchlar tomonidan ja-zolanadi. Masalan, totem hayvonning go'shtini yeyish.

**Tantra** (Tantra) – 1) Buddizmdagi muqaddas kitobning nomi; 2) Buddaviylik amaliyoti shakli.

**Unitariya** (Unitarianism) – Ota – xudo shaklidagi xudoning yakkaligi printsipi; shu prinsipdan kelib chiquvchi ta'llimot, harakat.

**Xalqaro Krishnani Anglash jamiyat** (the International Society for Krishna Consciousness, ISKCON. Norasmiy tarqalgan nomi – the Hare Krishna) – 1966-yilda AQShda asos solingen eng faol va barqaror neohinduizm harakatlaridan biri.

**Xatna** (circumcision; the foreskin) — musulmonlarda (sunnat), yahudiyalarda (brit-mila), Avstraliya aborigenlari va Yangi Gvineyadagi ba'zi Papua orollarida qo'llaniladi.

**Xudo — So'z** (the Logos, God the Son, the Second Person of the Trinity) — Xristianlikdagi Uch yuzli xudoning (Trinity) ikkinchi «Yuzi»— Xudo—O'g'il ma'nosini anglatadi.

**Shabat** (Sabbath (day), Shabbath, S, Sab) — yahudiylik dindida buyurilgan haftalik shanba kuni bo'lib, u kunda ishlash ta'qiqlanadi, qalb haqida g'amxo'rlik qilish uchun taqvodorlik kuni o'tkaziladi.

**Shahvat** (immorality, lechery; whoredom, fornication; lust) — xristianlikda yetti kechirilmas gunohlardan biri, zino, axloqsizlik; nikohsiz ikki kishining o'zaro jinsiy aloqasi

**Ekstaz, diniy jazava** (religious possession, religious rapture, religious mania, religious ecstasy; furor(e), religious frenzy) — shaklning oliy darajasi, zavq-shavq, ba'zan o'zini yo'qotish chegarasidagi ilhom, jazava.

**Elflar** ((nem., birlikda Elf, Elfe, dr.-isl. alfr)) — nemis xalq rivoyatlarida tabiat ruhlari, havoda, yerda, tog'da, o'rmonda, insonlar turar joylarida yashaydilar va odatda insonlarga mehribondirlar.

**Yajuj** (Gog) — yahudiylik, xristianlik va islom ta'llimotida vahshiy xalq bo'lib, uning majuj xalqi bilan bosqini Qiyomat kunidan avval bo'ladi.

**O'n ikki havoriyalar** (the Twelve) — Yangi Ahdda Isoning eng yaqin o'n ikki o'quvchisi, izdoshi.

**Qohin** (priest of heathen cult, sacrificer, sacrificing [pagan] priest) — ba'zi davlatlarda ibodat xodimlarining nomi.

**Qutqaruv Armiyası** (Salvation Army) — Yevangeliya nasihatlari va amaliy xizmatni o'z faoliyatida uyg'unlashtiruvchi xalqaro diniy-filantropik (xayriya) tashkilot.

**Hobil** (Abel) — Odam va Havvoning ikkinchi o'g'li bo'lib, aksasi Qobil tomonidan o'ldirilgan. Iso va havoriy Pavel uni taqvodor, xristian ilohiyotchilari esa, haqiqat yo'lida qon to'kkan birinchi jafokash, deb biladilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009.
3. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekistonning yangi qonunlari, № 19. – T.: Adolat, 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488-b.
6. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ni ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 32-b.
7. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 32 b.
8. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Xalq so'zi, 8-fevral 2017-yil.
9. Agzamxodjayev S.S., Raximjonov D.O., Muhamedov N.A., Najmiddinov J.X. Dunyo dinlari tarixi (o'quv qo'llanma). – Toshkent: «Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi», 2011. – 280-b.

10. Mo'minov A., Yo'ldoshxo'jayev H., Raximjonov D. va boshqalar. Dinshunoslik: darslik / mas'ul muharrir N.Ibrohimov. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 294 b.
11. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas'ul muharrir: s.f.n., dots. Sh.A.Yovqochev. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. – 207-b.
12. Hillary Rodrigues, John S. Harding . Introduction to the study of religion. – USA, Routledge, 2009. – 182 p.
13. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi: mutaxassislik fannidan o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: TIU nashr., 2007. – 48-b.
14. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar, I tom. – 1968.
15. Ислам: Энциклопедический словарь. – М., 1991, сс. 141–144, 262–263.
16. Isoqjonov R. Islom falsafasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012.
17. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'nnaviy-ma'rifiy asoslari (o'quv qo'llanma) / Mas'ul muharrir A.Ochilidiyev. – T.: Toshkent islom universiteti, 2013.
18. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzARB yo'nalishlari / Mas'ul muharrirlar K.Komilov, A.Mansurov. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2014. – 552 b.
19. Nizomiddinov N. Qadimgi Xitoy tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014. – 385-b.

# MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
1-mavzu. DINSHUNOSLIK – DINNI O'RGANUVCHI KOMPLEKS FAN .....	7
2-mavzu. «DIN» TUSHUNCHASI VA UNGA BERILGAN TA'RIFLAR .....	29
3-mavzu. DINLARNI TASNIFFLASHDAGI YONDASHUVLAR .....	54
4-mavzu. DIN IJTIMOIY HODISA SIFATIDA .....	76
5-mavzu. DIN PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA .....	86
6-mavzu. DIN ANTROPOLOGIYASI .....	97
7-mavzu. DIN FENOMENOLOGIYASI .....	114
8-mavzu. DINSHUNOSLIK TADQIQOT USULLARI .....	128
9-mavzu. DIN VA HURFIKLILIK .....	132
10-mavzu. DIN FALSAFASI .....	141
11-mavzu. FAN VA DIN .....	158
12-mavzu. DIN VA AXLOQ .....	173
13-mavzu. DINIY MISTIKA .....	189
14-mavzu. DIN VA SAN'AT .....	206
15-mavzu. MUQADDAS MANBALAR .....	224
16-mavzu. DIN VA MODERNIZM .....	255
17-mavzu. DINIY MUTAASSIBLIKNING NAMOYON BO'LISHI VA UNING OLDINI OLISH YO'LLARI .....	271
18-mavzu. MUSTAQILLIK VA DIN .....	287
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>296</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>301</b>

Raximdjanov Durbek Abidjanovich  
Ernazarov Odiljon Kamilevich

# DINSHUNOSLIKKA KIRISH

*o'quv qo'llanma*

Muharrir M. Tursunova  
Musahhih M. Turdiyeva  
Dizayner A. Aubakirov

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti,  
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 08.10.2018. «Uz-Times» garniturasi. Offset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Shartli bosma tabog'i 18,5. Nashriyot bosma tabog'i 19,0. Adadi 200 nusxa.  
Buyurtma № 35

«AVTO-NASHR» XK bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

ISBN 978-9943-5489-5-4

9 789943 548954

«O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI»  
NASHRIYOTI